

SHAVKAT HASANOV

# HOZIRGI O'ZBEK DOSTONI POETIKASI



ISBN 978-9910-786-07-5



9 789910 786075

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI

SHAVKAT HASANOV

# HOZIRGI O'ZBEK DOSTONI POETIKASI

MONOGRAFIYA

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti  
Samarqand – 2024

UO‘K: 455.233.025

Shavkat Hasanov. Hozirgi o‘zbek dostoni poetikasi. Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 202 bet.

*Monografiyada zamonaviy doston poetikasi – janr tipologiyasidagi rang-barangliklar, tasvir turlari, sujet va kompozitsiya hamda xalq og‘zaki ijodi va mumtoz yozma dostonchilik ohanglarining bugungi doston tabiatiga chuqur singib borayotganligi, Sharq va G‘arb she’riyati ilg‘or an’analarining omuxtalashib ketayotganligi, tasavvufiy qarashlar va komillik konsepsiyasining kun tartibiga qo‘yilayotganligi, shaxs va borliq, tarix va davr kabi masalalarning yangidan yangi talqinlarga tortilayotganligi aks etgan.*

*Tadqiqot filolog mutaxassislarga, shu yo‘nalishda tahsil olayotgan bakalavr va magistrslarga mo‘ljallangan.*

Mas’ul muharrir:

Mahfuza Davronova – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Usmon Qobilov – filologiya fanlari doktori, professor

Guzal Umurova – filologiya fanlari doktori, professor

Monografiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2023-yil 30-oktabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-786-07-5

© “Samarqand davlat chet tillari instituti” nashriyoti, 2024

# MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	4
<b>I BOB. DOSTONLARDA TASVIR TURLARI</b>	
1.1. Lirik kechinma tasviri .....	9
1.2. Liro-epik tasvir .....	19
1.3. Liro-dramatik tasvir .....	31
1.4. Aralash tasvir .....	42
<b>II BOB. SHOIR SHAXSI VA QAHRAMON OBRAZI</b>	
2.1. Mazmunni ifoda etish tarzi va muallif hikoyasi .....	49
2.2. Doston markazida shoir shaxsiyati .....	57
2.3. Obyektivlashtirilgan xarakter va lirik xarakter .....	65
<b>III BOB. SUJET VA KOMPOZITSIYA</b>	
3.1. Fabula konsepsiysi. ....	84
3.2. Sujet modellari .....	94
3.3. Kompozitsiya poetikasi.....	107
<b>IV BOB. G‘OYA VA OBRAZ</b>	
4.1. Barkamol inson obrazi .....	130
4.2. Xalq obrazi .....	136
4.3. Vatan obrazi .....	144
<b>V BOB. JANR TIPOLOGIYASI VA RANG-BARANGLIGI</b>	
5.1. Liro-epik va lirik dostonlar. Ularning janriy xususiyatlari.....	151
5.2. Dramatik dostonlarning nazariy asoslari .....	170
<b>XULOSA .....</b>	191
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	196

## KIRISH

Ming yillar davomida Sharq adabiyoti an'analarini ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan qator yangilanishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirish bilan birga jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar. Istiqlol arafasi va undan keyingi davr adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini doston janri namunalari misolida ham ko'rish mumkin.

Doston deyilganda, eng avvalo, bizning ko'z o'ngimizda "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" singari xalqimizning betakror san'at durdonalari gavdalananadi. Biroq bugungi doston o'ziga xos xususiyatlari bilan xalq eposlari sanalgan "Alpomish", "Go'ro'g'li"lardan farqlanganidek, o'zining yaqin o'tmishdagi namunalaridan ham ajralib turadi. Har bir tarixiy davr, muayyan ijtimoiy voqelik doston tabiatida o'z izini qoldirib kelmoqda.

XX asrning 20-50-yillaridagi doston namunalari markazida muayyan qahramon hayotining xarakterli bir davri turardi. (G.G'ulomning "Ko'kan", H.Olimjonning "Zaynab va Omon", Uyg'unning "Jontemir", A. Muxtorning "Po'lat quyuvchi" asarlari kabi). 60-70-yillarga kelib esa dostonlarga bir konkret voqe, real bir hayotiy hodisa asos qilib olinadigan bo'ldi va lirik qahramon o'sha voqe-hodisadan mutaassirlanish natijasida ko'nglida tug'ilgan ehtiroslari, his-hayajonlari, xitoblari bilan doston sujetini harakatga keltiradigan bo'ldi (Mirtemirning "Surat", S.Zunnunovning "Ruh bilan suhbat", E.Vohidovning "Nido" va boshqa dostonlar). O'tgan asrning 80, ayniqsa, 90 yillarida yaratilgan dostonlarda esa muayyan bir qahramonning hayot tarixi yoki muayyan bir voqe-hodisani asos qilib olish unchalik ham muhim bo'lmay qoldi (Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", A.Mahkamning "Ishq", "Tavajjuh", I.Otamurodning "Istarim", "Sen", Faxriyorning "Ayolg'u", "Muchal yoshi", S.Ashurning "Tunchiroq" singari dostonlari). Asar markazida muayyan voqealar tizimi yoki ma'lum bir voqe turmaganligi bois bugungi dostonlar lirikaga yanada yaqinlashdi, o'zining dostoniy ko'lamdorligini saqlash ehtiyoji esa mushohadakorlikning tasavvufiy-falsafiy, modernistik ohanglarini talab eta boshladi, hatto, xalq, Vatan kabi epik muhtashamlikni taqozo etadigan yirik mavzular talqini ham subyektiv tarzda hal etiladigan bo'ldi. Tafakkur va ong osti qatlamlariga chuqurroq kirish natijasida doston qahramoni o'zlikni taftish qilishga qaytdi, o'zlikni barkamol etish tadorigini ko'ra

boshladi. Zamonaviy shakl mumtoz mohiyatni shu tariqa qabul qila boshladi.

Qadim tarixga ega o‘zbek dostoni bugun ham o‘zining ana shu an’analarini davom ettirmoqda. Shu bois o‘zbek dostonchiligining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, janrning rivojlanish tarixiga nazar solish, uning bugungi holatini tadqiq etish zaruriyati adabiyotshunoslikning kun tartibida turibdi. Mavzuning o‘rganilishi adabiy turlar va janrlar, badiiy asar poetikasi masalalariga aniqliklar kiritishda, shuningdek, janrning tarixi va nazariyasi yaratilishida muayyan xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligining XX asrning 60-yillaridan bugungi kunlargaCHA bo‘lgan faoliyati yangi yo‘nalishdagi doston masalalarini poetika ilmining nazariy asoslari, spetsifik qonuniyatlar nuqtayi nazaridan ilmiy o‘rganishning yangi bosqichga qadam qo‘yanligidan guvohlik beradi.

Adabiyotshunosligimizda mumtoz va yangi davr o‘zbek dostonchiligining ilmiy-nazariy masalalariga bag‘ishlangan qator dissertatsiyalar himoya qilindi [Qarang: Sharafutdinov O. “Uzbekskaya sovetskaya poema” (1946-1953 g.) AKD. M., 1955; Turabekova S.“Yazo‘k i stil poem G.Gulyama” AKD. T., 1962; Muhiddinov U. Problema konflikta i xaraktera v sovremennoy uzbekskoy poeme (1956-1967), AKD. T., 1970; Mamurov M. “Traditsii folklora v uzbekskoy sovetskoy poezii 30-x godov (v aspekte poem)” AKD. Samarqand, 1973; Raximjanov N. “Liricheskaya poema” (na osnove materialov uzbekskoy poezii 1961-1973 g.) AKD. T., 1975;; Abdikulov T. “Uzbekskaya sovetskaya detskaya poema 30-x godov i folklor”, AKD. 1978; To‘lakov I. “Poeticheskie traditsii i xarakter geroya v uzbekskoy sovetskoy poeme (60-70-e godo‘) AKD. T., 1981;; Mustaev K. “Poetika tsveta i chislovo‘x znakov-simvolov v uzbekskom i frantsuzskom geroicheskem eposax”. AKD. Samarkand, 1994; Hasanov Sh. “O‘zbek dramatik dostoni” (janr manbalari va uning tarkib topishi). NDA, Samarqand, 1995; Tangirev A. Hozirgi zamon dostonchiligida tarixiy voqelik va shaxs talqini. NDA. – Toshkent, 1995 va boshqalar].

To‘rt tomlik “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi”; uch jildlik “Adabiy turlar va janrlar”ning I jildi, “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” kabi yirik tadqiqotlarda, N.Karimovning “Urushdan keyingi davr o‘zbek sovet adabiyoti”, N.Rahimjonovning “O‘zbek sovet poemasi”, M.Ibrohimovning “O‘zbek sovet poeziyasи janlarining tarkib topishi” singari monografiyalarida, B.Sarimsoqovning “Epik janrlar diffuziyasi” nomli tadqiqotida, H.Yoqubov, N.Shukurov, S.Mamajonov, O.Sharafutdinov,

N.Karimov, U.Normatov, I. G‘afurov, N.Rahimjonov, N.Xudoyberganov, I.To‘lakov, S.Meli kabi adabiyotshunoslarning ilmiy maqolalarida, muayyan ijodkor faoliyatiga bag‘ishlangan adabiy portretlarida XX asr o‘zbek dostonchiligining ilmiy-nazariy, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarga oid jiddiy tadqiqotlari mavjud.

“Adabiy turlar va janrlar”ning birinchi jildidan o‘rin olgan N.Rahimjonovning “O‘zbek sovet poemasining taraqqiyot jarayoni” deb nomlangan muhim tadqiqoti yangi davr dostonchiligi borasida bildirilgan mulohazalar, qarashlarni umumlashtiruvchi xarakterga ega. Adabiyotshunos yangi tipdagi doston spetsifikasining ilmiy-nazariy xususiyatlarini monografik asosda o‘rganadi, liro-epik poemaning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlaridagi yetakchi omillarni ochib berishga erishadi.

Istiqlol arafasi va undan keyingi ijtimoiy voqeligimiz doston tabiatiga qator yangi xususiyatlar olib kirdi. Va tabiiyki, bularni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish janr poetikasining yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

Tabiiyki, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda shakl va mazmun, sujet va kompozitsiya, xarakter va konflikt kabi qator nazariy masalalar turlicha talqin qilingan. Ayni holat zamonaviy o‘zbek dostoni poetikasini tadqiq etishni taqozo etadi.

XX asrning II yarmida qardosh xalqlar adabiyotshunoslari tomonidan muayyan xalq dostonchiligining ilmiy nazariy xususiyatlarga, evolyutsion taraqqiyotiga bag‘ishlangan bir qator doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografik tadqiqotlar yuzaga keldi. Xususan, I.Neupokoevaning qator ishlari, jumladan, “Revolyutsionno-romanticheskaya poema pervoy polovino‘ XIX veka” tadqiqoti yangi davr dostonchiligining muhim ilmiy nazariy asoslarini ochib bergenligi bilan qimmatlidir. Tadqiqotda XIX asrning birinchi yarmi revolyutsion romantiklar san’atining muhim muammolari o‘rganiladi. Yevropa badiiy madaniyatining eng ilg‘or yo‘nalishini tashkil etgan bu davr poemachiligi umumyevropa kontekstida kuzatiladi. Tadqiqotda o‘z davri mafkurasining ta’sirini sezish mumkin. Jumladan, adabiyotshunosning simfonik kuylardan ham inqilobiy ohanglarni, “xalqning qahru g‘azabi sadolari”ni tinglashi ilmiy mulohazalardan ko‘ra badiiy mushohadaga mosroq keladi.

M.A.Lazarukning “Belorusskaya poema v XIX i nachalo XX veka” (stonovlenie janra) mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida belorus poemachiligining shakllanish jarayonlari, avom ommanning jaydari

qo'shiqchiligidan milliy dostonchilik maqomiga yetganligi ilmiy asosini topadi.

A.A.Kaspruk XIX asr oxiri XX asr boshlari ukrain poemachiligini tadqiq etar ekan (57), I. Franko, L. Ukrainska, P.Grabovskiy va boshqa ijodkorlar poemalarining g'oyaviy-tematik, badiiy-stilistik o'ziga xosliklariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Adabiyotshunos X.Otaxonovaning "Tahavvuli janri doston dar nazmi muosiri tochik" mavzusidagi tadqiqotida XX asr 50-70 yillari tojik dostonchiligining taraqqiyot tendensiyalari o'rganiladi. X.Otaxonova zamonaviy tojik dostonchiligi tadrijini mumtoz dostonchilikning badiiy-estetik tajribalari bilan qiyoslab tadqiq etadi.

Dostonchilik borasida qardosh xalqlar adabiyotshunoslida yuzaga kelgan e'tiborli ishlar sifatida A.Karpovning "Russkaya sovetskaya poema"(67), S.Kovalenkoning "Xudojestvenno'y mir sovremennoy poemo""(64), V.Kikansning "Sovremennaya sovetskaya poema"(68) asarlarini alohida qayd etib o'tish lozim.

O'tgan asrning 80-yillariga qadar yozilgan mazkur tadqiqotlar dostonshunoslikning jiddiy yutug'idir. O'tgan davr mobaynida ijtimoiy hayotda kechgan o'zgarishlar, davrning tezkor sur'ati bugungi doston tabiatiga ham o'z izlarini qoldirmoqdaki, bu kelgusida yangidan-yangi tadqiqotlar yuzaga kelishini anglatadi.

Janrlar rang-barangligi, ulardagi mushtarak va farqli holatlar, shakl-u shamoyilidagi o'zgarishlar, lirik "men" va obyektiv olam munosabatlari, kompozitsiya va sujet qurilishi, janrning tub mohiyatini tashkil etuvchi xalq va Vatan obrazlari, liro-epik tasvir uyg'unligi va lirik qurilish ustivorligi kabi qator ilmiy-nazariy masalalarning o'rganilishi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Adabiy turlar va janrlar masalasini adabiyotshunoslik fani qonuniyatları nuqtayı nazaridan tadqiq etish keng ko'lamda davom etmoqda.

Jumladan, Adelina Adalis dramatizmni, Ilya Selvinskiy xarakterni, Vladimir Tsiban muhitni, Yakov Belinskiy kompozitsion qurilishni dostonning asosiy xususiyatlarini ro'yobga chiqaradigan unsurlar sifatida e'tirof etadilar (29, 10-18). Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar esa mazkur belgilarning barchasini o'zaro aloqadorlikda o'rganish kutilgan natijalarini berishi mumkinligini isbotladi.

Dostonlardagi sujet va kompozitsiya, xarakter va konflikt, dramatizm va lirizmning o'zaro bog'liqligi, lirik qahramon masalasi, muhit tasviri singari muammolar bo'yicha alohida-alohida tadqiqotlar amalga oshirilgan

bo‘lsa-da, biroq doston poetikasi mukammal o‘rganildi, deyish mushkul. Yuqorida qayd etilgan masalalar mushtarak holda muayyan davr dostonchiligini tadqiq etishga yo‘naltirilmagan.

Qolaversa, bugungi kunda o‘zbek dostonchiligi istiqlol sharofati tufayli yangi davrni boshdan kechirmoqda. Xalq og‘zaki ijodi va mumtoz yozma dostonchilik ohanglarining zamonaviy dostonlar tabiatiga chuqr singib borayotganligi, Sharq va G‘arb she’riyati ilg‘or an'analarining omuxtalashib ketayotganligi, tasavvufiy qarashlar va komillik konsepsiyasining kun tartibiga qo‘yilayotganligi, shaxs va borliq, tarix va davr, vaqt va makon masalalarining yangidan yangi talqinlarga tortilayotganligi hamda shafqatsiz realizmning qaror topib borayotganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

Yarim asr janr tarixi uchun katta davr emas. Lekin ayni shu yillarda janr spetsifikasida qator o‘zgarishlar yuzaga keldi, hayotni bir tomonlama tasvirlash printsiplaridan voz kechila boshlandi hamda inson ruhining erkin harakat-holatiga va uning turfa xil tasviriga e’tibor kuchaydi. Ijtimoiy hayotdagi o‘sish-o‘zgarishlar janr tarixi va taraqqiyotida ham o‘z izini qoldirishi shubhasiz. Zamonaviy o‘zbek dostoni bizning ko‘z o‘ngimizda yangilanib bormoqda, yangi-yangi poetik qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda va tabiiyki, o‘zining mumtoz qadriyatlariga tayanib, jahon she’riyatining tarkibiy bir qismiga aylanmoqda.

## I BOB. DOSTONLARDA TASVIR TURLARI

### 1.1. Lirik kechinma tasviri

Muallif shaxsiyatining doston markazida mustahkam o‘rnashishi janrning barcha tizimlarini, jumladan, uning qurilish xarakterini ham belgilaydi. Muallif shaxsiyatining asar markazini tashkil etishi esa lirikaning asosiy belgisi ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Lirika unsurlari, epik parchalar va dialog ko‘rinishidagi dramatik manzaralar bilan yaxlit bir butunlikda zamonaviy dostonlarning murakkab qiyofasini gavdalantirmoqda. Obyektiv olamni tasvirlashda lirikaning katta imkoniyatlarga egaligini Gegel bir necha bor uqtirib o‘tadi. “Garchi lirik she’riyat ba’zi hollarda lirik subyekt harakat qilishi lozim bo‘lgan doiralardan chiqib, o‘zining tuyg‘u va o‘ylarini rang-barang obrazlar vositasida muhtasham mazmunga joylasa-da, u biribir o‘zining ichki olami bilan lirikaning xususiyatlariga sodiq qoladi” (38, 460).

Jamiyat va shaxs ichki dunyosidagi ziddiyatlar, manzaralar, umuman davrning eng muhim masalalari epik lirika, ya’ni dostoniy lirkada individual dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs nuqtayi nazaridan yoritiladi. Hamda bu xususiyat zamonaviy dostonlarda lirik tur belgilarining ustivor o‘ringa ko‘tarilganligini ko‘rsatib turibdi. G‘arbiy Yevropa poemachiligidagi lirik tur xususiyatlarining ustivorligi XIX asrning birinchi yarmidan boshlab kuzatiladi (101, 7-51). O‘zbek dostonchiligidagi lirika xususiyatlarining ustivorligi XX asrning 20-30 yillar orasidagi namunalarida boshlangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish 60-yillarga kelib o‘zining kamolot bosqichlariga ko‘tarildi. Mirtemirning “Surat”, M.Shayxzodaning “Toshkentnoma”, S.Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” kabi asarlarida lirik tur xususiyatlarining yetakchi maqomga ko‘tarilganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

XX asrning 60-70 yillarida dostonchilik borasidagi bahs-munozaralar keng tus oldi. “Literaturnaya gazeta” [Adelina Adalis. Chto est poema? – Literaturnaya gazeta, 1965, 15 iyulya; Viktor Bokov. Jarkiy janr. - Literaturnaya gazeta, 1965, 14 iyulya; Ilya Selvinskiy. Vozrojdenie poemo’. - Literaturnaya gazeta, 1965, 22 iyulya; Gafar Mirzoev. Ne kanono’, a kro‘lya. - Literaturnaya gazeta, 1965, 27 iyulya; Nikolay Damdinov. Janr ne vinovat. - Literaturnaya gazeta, 1965, 29 iyulya; Sergey Smirnov. Dlya sovremennika. - Literaturnaya gazeta, 1965 12 avgust; Lev Ozerov. Vpered k “Mednomu vsadniku”- Literaturnaya gazeta, 1965, 12 avg.; Nikolay Dorizo. Termino’ i jizn. - Literaturnaya

gazeta, 1969, 12 avg.; Vladimir Gusev. Forma i sut. - Literaturnaya gazeta, 1965, 19 avg.; Runin B. "Zakono" i "kriziso" janra. - Literaturnaya gazeta, 1965, 26 avg.; Alim Keshokov. Iz veka v vek. - Literaturnaya gazeta, 1965, 4 sent.; Yakov Belinskiy. Kartina mira i dialog s vremenem. - Literaturnaya gazeta, 1965, 9 sent.]da boshlangan bahs keyinchalik "Literaturnoe obozrenie" [Mikola Arochko. Poema-krizis ili vozrojdenie. - Literaturnaya obozrenie, 1973, № 5, s.61-62; Kalmanovskiy E. Estestvennost poemo'. - Literaturnaya obozrenie, 1973, № 9, s.46-50; Lure A. Bolshoy stil poemo'. - Literaturnaya obozrenie. 1973, №11, s.62-64; Umanskaya E. Zachem poema? - Literaturnaya obozrenie, 1974, №2, s.46-52; Shvetsova L.I. Lirika i epos...- Literaturnaya obozrenie, 1974, №4, s.48-51.] va boshqa qator respublika jurnallarida davom etdi. (Mazkur yillar o'zbek adabiyotshunosligida dostondan ko'ra lirika haqida ko'proq ilmiy-nazariy munozaralar bo'lib o'tdi.) Bu chiqishlarda turli-tuman mulohazalar bildirildi, doston kelajagiga ishonchsizlik bilan qarash hollari ham bo'ldi, ammo uning sintetik tabiatidagi u yoki bu jihat turli tarixiy davrlarda muayyan darajada yetakchilik qilishi mumkinligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etildi.

Zamonaviy dostonlarda har uchala tur xususiyatlarining chatishib borayotganligini bugun ham ilg'ash qiyin emas. Ularda lirik, epik va dramatik tasvir usullari tobora faollashib bormoqdaki, muayyan asarni ma'lum bir tur va janrga mansubligini aniqlash murakkablashmoqda. Shuning uchun dostonlarni tahlil etishda u yoki bu tur qurilishiga xos belgilardan qaysi birining ustivorligiga e'tibor qaratmoq lozim ko'rindi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashganda XX asrning 60-yillaridan keyingi o'zbek dostonchiligidagi lirika qurilishiga xos xususiyatlar yetakchilik qilib kelayotganligini kuzatish mumkin.

"60-yillarda yaratilgan monolog tipidagi poemalarda hayot jarayonlari lirik "men"ning vogelikdan orttirgan taxayyullari orqali ayonlashar edi" (7, 194). Monolog - lirik tur qurilishini o'zida aks ettiruvchi muhim ko'rinishlardan biri. Muallif o'ylari, xayollari xarakterlarni shakllantirib, sujetni harakatga keltiruvchi kuch bo'lib maydonga chiqar ekan, bu uning qurilishini anglatadi: muallif o'ylarining assotsiativ bog'lanishi lirik qurilish demakdir.

Voqealar tizimini hikoya qilishga asoslangan epik qurilishdagi dostonlar bugungi kunda ham yaratilmoqda. Ammo so'nggi yillarda epik qurilishga asoslangan bunday dostonlarning yaxshi namunalari yaratilyapti, deb aytish mushkul. Davrning qon tomirlarida kechayotgan botiniy jarayonlar, zamondoshlar ruhiyatidagi murakkab o'zgarishlar

dostonnavislardan teran psixologik tahlillarni, qalbning sir-sinoatga to‘la jumboqlariga javob izlashni talab etmoqdaki, bu talab lirik qurilish andozalariga mos shakllarda ro‘yobga chiqadi.

Saida Zunnunovaning 1963-66 yillarda yaratilgan “Ruh bilan suhbat” dostonini ko‘zdan kechirsak, janr rivojidagi muhim bir qonuniyat ko‘zga tashlanadi. Mirtemirning “Surat”, E.Vohidovning “Nido” dostonlariga mazmunan yaqin turuvchi bu asarda lirik jins qurilishiga xos ifoda tarzi yetakchilik qiladi. Shoira asarda urushning musibatlari qaddini bukolmagan ayolning boy ruhiy olamini, ajoyib insoniy fazilatlarini ko‘rsatgan. Doston ota mehridan benasib o‘tgan o‘g‘ilning nikoh kechasidagi onaning iztirobli o‘ylari-xotiralari tasviridan boshlangan. Ona qalbida ikki qarama-qarshi kechinma- farzandning baxt to‘yini ko‘rganidan shukronalik, shu kunlarga yetolmaganlar haqidagi g‘am-anduhli xotiralar kurashadi. Doston yaratishdagi bunday lirik qurilish shakli bugungi dostonlarning aksariyati uchun xos bo‘lib, lirik qahramon shaxsiyati asarning arxitektonik markazini tashkil etadi. Ona farzand kamolotini o‘ylar ekan, beixtiyor suratga murojaat qiladi.

Bir nafas qo‘ymadim men seni yolg‘iz,  
Bir dam tanholikka tashlaganim yo‘q.  
Sensiz yig‘lamadim, kulmadim sensiz,  
Sensiz ko‘nglimni ham xushlaganim yo‘q.  
Seni yiqtigan o‘q mening tanamda  
Butun jarohati bilan turibdi shundoq.  
Joningga jonimni ulab ming o‘ldim,  
Azizim, oqargan sochlarimga boq (130,173).

Onaning munojoti suratga jon bag‘ishlaydi. Go‘yoki surat ona nidosidan larzaga kelib, tilga kiradi. Shu suhbat asosida doston sujeti harakatga kelib, davrning eng dolzarb muammolarini qamrab oladi. Muloqot natijasida ona ko‘z o‘ngida yoshligidan boshlab bugunigacha bo‘lgan hayot sahifalari gavdalanadi. Ixchamgina ekspozitsiya qismidan so‘ng muallif nutqi ona nutqi bilan qo‘silib ketadi. Muallif nutqining bunday polifonik xarakter kasb etishi dostoniy tafakkur tizimiga xos bo‘lib, lirik she’riyatda kamdan kam uchraydi.

Dostonning har bir yetuk namunasi o‘z davrining, o‘z zamondoshlarining ma’naviy-psixologik olamidan darak beradi. Mabodo “Ruh bilan suhbat” dostoni bugun yozilganida, kitobxonda o‘z vaqtidagidek katta qiziqish uyg‘ota olarmidi?! Menimcha, yo‘q. Chunki unda XX asrning 50-60 yillari uchun muhim sanalgan masalalar, muammolar, tarix elab ulgurmagan voqelikning harakat-holati aks etgan.

Xuddi shuning kabi Zulfiya “Xotiram siniqlari”ni yigirma yil, o‘ttiz yil ilgari yozishi mumkinmidi?! Bunga ham yo‘q deb javob beramiz. Chunki “Xotiram siniqlari” aynan Istiqlol davrining mahsuli. Zotan, endigi qahramon o‘n besh yil, yigirma yil oldingi qahramon emas.

Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,  
Taqdir peshonaga yoziq, deyishdi.  
Yoziqni devorga urdim-u biroq,  
Men sindim, qonimdan g‘ishtlari pishdi (209,14).

Inson umri davomida ishonib, e’tiqod qilgan g‘oyasidan, yupanchidan judo bo‘lsa, qanday ahvolga tushadi? Uning psixologiyasida kechgan zilzilalar silsilasini chamalab bo‘larmikan?! Bu satrlar Istiqlol arafasidagi zamondoshimizning qalb nidolari, dil tug‘yonlari emasmi? Ha, shunday. Chindan ham “Xotiram siniqlari”da XX asrning 80-yillari oxiri, 90-yillari boshida kechgan davr nafasi, xalq ruhiyati o‘z ifodasini topgan. “Kecha mag‘zi butun bo‘lgan aqida “bugun o‘lib ketgan toshbaqaning” kosasiday bo‘m-bo‘sh” (239, 209) bo‘lib yotganligi shoiradan xotira siniqlari xususida so‘zlashni talab qilgan. Lirk qahramon nutqi umumxalq hayotining kolliziyalarini, shaxsning teran ruhiy olamini, jamiyat hayotining turfa jabhalaridagi muhim masalalarni o‘zida ifoda etadi. Shoira lirika qurilishiga xos tarzda hayot manzaralarini assotsiativ uzviylikda ko‘rsatadi. Bu esa shoiraga voqeaband sujetsiz ham hayotning muhtasham manzarasini aks ettirish imkonini bergen.

Mazkur xususiyat zamonaviy dostonlar poetikasida tobora qonuniylashib bormoqda. E.Vohidov, J.Kamol, S.Akbariy, O.Matjon, T.Nizom, T.Ahmadlarning dostonlari ana shunday xarakterga egadir. Bu sanab o‘tilgan ijodkorlarning dostonlarida epik voqeа-hodisalar mustaqil holda manzara yaratmaydi, balki shoir o‘y-xayollari orqali bir-biriga bog‘lanadi. Zamonaviy dostonlardagi epik bo‘laklar, parchalar muallif ichki dunyosini ochishga yo‘naltirilgan vositalardir. Epik tuzilishga xos voqeа-hodisalar manzarasi ixcham shakllarga kirib lirk tur hujayralarini bir-biriga bog‘lashga, lirika “istehkomlari”ni mustahkamlashga yo‘naltiriladi.

Omon Matjonning “Nega men?” dostoni 1987 yilda, sobiq markaz tarafidan uyushtirilgan “O‘zbeklar ishi”ning shov-shuvi davom etayotgan paytlarda yozilgan. Asarning “Bolalarga bir nima bering” bobida shunday bir voqeа tafsiloti aks etgan. O.Matjon O‘zbekistonga mehmon bo‘lib kelgan rusning yetuk shoiri Yevgeniy Yevtushenkonи Buxoroga kuzatib borar ekan, yo‘lda foje bir manzaraga duch kelishadi.

“Mana bu -paxtazor! Kelinglar, ko‘ring!  
 Ehtiyyot! Yaqinda dori sepilgan!..”  
 Salkam odam bo‘yi g‘o‘zalar aro  
 Bolalar g‘imirlab yurar edilar...  
 “Zahar?! Unda nega bolalar kirgan?  
 Bolalar?!”  
 Shoirim junbushga keldi.  
 Uch-to‘rtta jujuqni yoniga to‘plab,  
 Bir nelar so‘radi, bir nelar dedi (215, 358)

Mazkur misralarda dramatik ohangdagi epik manzara lirik ifodaga tortilgan. Ta’kid (so‘roq va undovlar vositasida), serqatlamlilik (uch nuqtalar vositasida), g‘oyaviy mazmun talabiga ko‘ra so‘zga ijtimoiy salmoq yuklash (“Ehtiyyot!”, “Zahar?!”，“Bolalar?!” kabi), poetik sintaksisni yuzaga chiqaruvchi siqiqlik, ritm (bo‘g‘inlar miqdorining muayyan tartibda takrorlanishi), qofiyalanish tartibining bиргина fe'l turkumiga oid so‘zlardan tarkib topishi (“sepilgan”-“kirgan”, “keldi” ”dedi”), antiteza (dori sepilgan paxtazorda bolalarning g‘imirlab yurishi) singari qator belgililar dramatik xarakterdagi epik lavhaning lirik qurilishidan darak beradi.

O.Matjonning “Erkin havolarda” to‘plamiga yozgan so‘ngso‘zida adabiyotshunos S.Meli ham shoir she’riyatining ana shu jihatlariga alohida e’tibor qaratadi. “Epiklik Omon Matjon ijodining yetakchi xususiyati bo‘lib, hatto uning sof lirik she’rlarida ham bu xususiyat bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Shoир asarlarining gap qurilishi- poetik-sintaksisi ham o‘ziga xos va bu ijodkor badiiy tafakkuridagi voqeabandlik, epiklikdan tug‘ilgan ezgu hosila deyish mumkin” (216,346).

Ijodi istiqlol arafasida shakllanib, kamolga yetgan ijodkorlar dostonlarida esa lirika qurilishiga xos belgilarning ustivorligi aniq ko‘rinadi. A.Mahkam, I.Otamurod, Faxriyor, S.Ashur, E.Shukur va ular tengi ijodkorlarning dostonlarida voqeabandlikka asoslangan epik manzaralar kamdan kam uchraydi.

Masalan, Faxriyorning “Muchal yoshi” dostoni boshdan oxir lirik tafakkur mezonlariga bo‘ysunadi.

Tepangda uvillar qismat bo‘roni  
 Tegrangda aylanar noma’lumliklar.  
 Na istak ayondir, na maqsad ayon  
 Na kimni izlaganining  
 va yana izlamaganing.  
 Aro yo‘l.

Bu yo‘lning adashishlari  
va o‘zing ko‘rmagan, bilmagan  
narsalar haqida o‘ylash azobi,  
shuningdek, ular haqda bilmaganlaring  
va bilganlaring  
tasavvur g‘alviriga  
solib elamoq,  
qolganlarin esa  
yurak qoning bilan yuvmoq  
mashaqqatin yengib yashamoq  
mushkulligi qiynar seni aniqsizlikday (239, 207).

Albatta, ushbu she’riy parcha an’anaviy sharq lirikasiga xos qator fazilatlardan mahrum. Biroq, undagi o‘ylar zanjirining bir-biriga bog‘lanishi lirik tafakkur qonuniyatlari mantig‘iga mos keladi.

1999-yilda yozilgan bu dostonda ko‘ngil savdolari falsafiy tadqiq etiladi. Asarda kechinmalarning e’tirofi emas, holati, harakati, kelib chiqishi, yo‘nalishi qadam-baqadam tahlil etiladi. Tuyg‘ular izhor etilmaydi, o‘rganiladi. Vaqtning shafqatsizligidan larzaga kelgan qalbning ingroqlari dunyo va o‘zlik haqida, umr va mohiyat haqida, borliq va yo‘qlik xususida va yana juda ko‘p masalalar to‘g‘risida falsafiy mushohadalar yuritishga yo‘l ochgan. Voqelik qarshisida toliqkan ruh o‘zini ifoda etish uchun shakl izlaydi. Ammo, mavjud shakllar bu tolg‘in, ezgin ruhga libos bo‘lish uchun “yupunlik” qiladi.

Vaqt qaytarib bermas qarzini,  
Dostonlarni so‘rding bermadi.  
Kimlarga aytarsan arzingni  
Birovlar g‘amimni yermidi?


Yitib ketdi vaqt dashtlarida  
Sen istagan quralay ohang  
Sen istagan navolar barin  
Zamon chaynab tashlamish, attang! (239, 218).

Vaqt ta’sirida zamon fe’li (xarakteri)ning turlanish va tuslanishlari lirik qahramon qalbida og‘riqlar uyg‘otadi. Shoir bugungi dostonlarning o‘zgarib borayotganligiga ham nozik ishora qilib o‘tadi. Ruh qachonlardir tuygani – Sobir baxshi dostonlaridan tug‘ilgan hayratlar dunyosiga, bolalikning beg‘ubor osmonlariga talpinadi. Biroq shafqatsiz vaqt bu hayratlarni yemirib tashlagan, beg‘ubor osmonlarni qora bulutlarga to‘ldirgan.

Dostonda esda qoladigan aniq bir epik manzara uchramaydi. Obyektiv olam ko‘rinmaydi, lekin his qilinadi, tuyg‘u-sezimlarning falsafiy talqinidan sezilib turadi. Kechinmalarning tabiiy harakatidan epiklik anglanadi, tushuniladi, idrok etiladi. Shoir xayollaridagi olam manzaralari lirika qonuniyatiga xos: bir-birini inkor va e’tirof etish usulida bog‘lanadi, tasavvur kengliklarida birlashadi. Shu bilan birga muayyan bir obrazning, deylik, vaqt obrazining rang-barang qirralarini asta-sekinlik bilan ochish va uning mukammal timsolini yaratish “Muchal yoshi” dostonining muhim belgilaridan biridirki, bu ham uning lirik tabiatidan ogoh etib turibdi. Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Yoziq” dostonlarida ham lirik she’riyat qurilishi talablariga amal qilinadi.

Adabiyotshunoslikka oid manbalarda lirikaning tasviriy san’at, musiqa san’ati bilan yaqinligi ko‘p bor ta’kidlangan. Lirika san’atning boshqa turlari bilan aloqador ekanligini bugungi doston misolida ham ko‘rish mumkin. Chunonchi, Faxriyor “Ayolg‘u” dostonida so‘z yordamida turli xil shakllarni chizishga intiladi.

Dostonning o‘qilishi shart bo‘lmagan ilovalar qismida shunday tasvirlar chiziladi.



(239, 164).



(239, 166)

Mashhur rassom Salvador Dali bir asarida inson portretini chizar ekan, uning yuz qismida ko‘zini tasvirlamaydi. Qosh, burun, quloq bor, faqat ko‘z yo‘q. Ko‘z uning qornida joylashtiriladi. Insonga va dunyoga o‘ziga xos qarash, ularning tub mohiyatini yangicha ko‘rish ehtiyoji ana shunday g‘alati san’at asarini yuzaga keltiradi. Dostondan olingan yuqoridagi shakl ham S. Dali suratida bo‘lgani kabi chuqur falsafiy mazmunga yo‘g‘rilgan. Oy va bo‘ri turli davrlarda turkiylarning ramzi sanalgan. Nun harfi arab alifbosidagi shakliga ko‘ra √ oy va uning dog‘ini eslatadi. Ayni shakl beshikdagi bolaga, qayiqdagi odamga ham o‘xshab ketadi. Shoir shu tarzda turli xil predmet va tushunchalarning ichki aloqadorligini, mohiyatini ko‘rishga intiladi. Tasviriy san’at bilan qo‘shilib ketgan ana

shunday lirik holatlar muhtasham epik mazmunga ega. Hozirgi doston poetikasida ko‘rinayotgan yangiliklardan biri ham shunda.

Professorlar U.Normatov va B. Sarimsoqovlarning modern adabiyot to‘g‘risida boshlab bergen bahslari shu xildagi asarlarni o‘qib o‘rganishga turki bergenligi bilan ahmiyatlidir.

Biroq ijod jarayoni hamisha ham silliq va muvaffaqiyatli kechavermaydi. Izlanishlarda kamchilik-nuqsonlarning bo‘lib turishi tabiiy. Chunonchi, Faxriyorning “Yoziq” dostonida oddiy bir fikrning, gapning bayonini ataylab murakkablashtirish, o‘ta “modernizatsiyalash” hollari ko‘zga tashlanadi.

Hotamni sinagani  
Arjuna  
shahid bo‘lgan Sinadan  
quruq qaytar o‘tinchi chol  
bol-  
tasi xurjunida (239, 46).

Mazkur misralar badiiylikdan ko‘ra informatsion xarakterga ega bo‘lishi bilan birga unda shoirning san’atkorligi emas, bilimdonligi namoyon bo‘lgan. Shu dostondagi “Dedal uchib boradi”. Dedaluslar termular. “Ikar uchib boradi”, “Ikarus”lar o‘rmalar” (239, 44) kabi satrlarda ham tanlab olingan voqelik yuzaki, jo‘n talqin etilganligi sezilib turadi. Faxriyorning muayyan so‘zlarga, iboralarga salmoq yuklashida, metoforik fikrlash tarzida, so‘z o‘yinlariga alohida e’tibor qaratishida A. Voznesenskiyning ijodiy ta’sirini sezish qiyin emas. Ijodiy o‘rganish yaxshi, biroq yuqoridaq satrlarda ko‘rilganidek fikrni juda chalkashtirib yoki juda yuzaki izhor etmagandagina yaxshi.

Badiiy tasvir vositalari asar tilining shirali, bo‘yoqdor, rang-barang bo‘lishiga yordam beruvchi omillardandir. Bu xususiyat she’riyatda yaqqol seziladi. Chunki lirika tabiatidagi ixchamlik, siqiqlik ko‘chma ma’no tashuvchi badiiy tasvir vositalariga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Zamonaviy dostonlarimiz tabiatida ham bu xususiyat kuchaymoqda. Dostonning lirik, liro-epik, dramatik ko‘rinishlarida badiiy tasvir vositalarining maqomi har qachongidan kuchaygan. Tasvir vositalarining quyuq qo‘llanishi murakkab kechinmalar tasvirini chizishda, rangin ruhiy holatlarni siqiq va aniq ifoda etishda qo‘l kelyapti. Doston tilidagi lakonik xususiyat bo‘rtib ko‘rimoqdaki, bu ham lirik qurilish alomatidir. Lirikaga xos takrorlar, qaytariqlar, ta’kidlar, intonatsiyalar, ritorik so‘roq va murojaatlar ham lirik “men”ning dostoniy qiyofasini yaratishda muhim rol o‘ynamoqda.

“Har qanday dramada komediya yoki tragediyaning ma’lum bir xususiyatlarini uchratish mumkin. Biroq ular xarakterlar rivojida, sujet qurilishida shunday bir o‘rinni ishg‘ol qilishadiki, bu bilan janr shakllanmaydi. Rang-baranglik, ohangdorlik bag‘ishlaydi, harakatni komik epizodlar yo tragik holatlar bilan boyitadi, lekin bari-bir biz mazkur asarni komediya yo tragediya deb hisoblamaymiz” (159. 336). Zamonaviy dostonlar tabiatida ham shunday bir holga duch kelamizki, bunda lirik asosning ustunligi yaqqol sezilib turadi.

Zamonaviy dostonlarning muhim xususiyatlari aks etgan asarlar sifatida Karim Bahriyevning “Tilovat” (1999), Ikrom Otamurodning “Yovondagi yolg‘iz daraxt”(2001) dostonlarini alohida qayd etib o‘tish joiz. Har ikkala doston ham yaxlit bir she’rdek o‘qiladi. Biroq she’rdan farqli o‘laroq, bu asarlarda tuyg‘ular olamiga, kechinmalar dunyosiga kengroq sayohat qilinadi va serqamrov mushohada yuritishga intilish yaqqol seziladi.

Dostonni turli lirik janrlar (g‘azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard, qasida va hokazo) bilan ziynatlash, bir mavzu doirasidan har xil lirik lavhalar yaratish an'analarining kuchayib borayotganligi zamonaviy dostonlarda lirik qurilishning mavqeini oshirmoqda. Masalan, T.Nizomning “Giry” dostoni buning yorqin misolidir. “Giry” bir hayot hodisasidan qattiq mutaassirlanish natijasida yuzaga keladi. Doston tarkibidagi har xil lirik janrlarda akslantirilgan kayfiyatlar o‘sha ta’sirlanishning turli-tuman ko‘rinishlari, rang-barang qirralari, bir ruhiy holatning qirq kun davomida kuzatilgan o‘zgaruvchan shakllaridir. Ruhiy holatning har bir yangi manzarasi tasvirida yurak urishi goh pasayib, goh kuchayganidek ritm o‘zgarib turadi.

Ma’lumki, barmoqda ham, aruzda ham ritm muayyan takrorga, izchillikka tayanadi. Bugungi dostonda ritmning tez-tez o‘zgaruvchanligi, garchi u barmoqda yozilgan bo‘lishiga qaramay, sarbast ohanglarini yodga soladi. Bu endi vazn ma’nosini bildiradigan sarbast emas, balki kechinma-tuyg‘ulardagi sarbastdir, bog‘liqlikdir.

Zamonaviy dostonlarda tuyg‘ular tizimining muayyan voqealar yo dramatik dialoglar bilan o‘rin almashtirishi-bu undagi lirik qurilish ustivorligini inkor etmaydi,balki lirik ko‘lamdorlikni kengaytiradi. Ijtimoiy ong vositasida ijtimoiy borliqni kuzatish dostonlarda sinkretizmni kuchaytiradi, biroq uning lirik qurilishiga zarar etkazmaydi.

Salim Ashurning 2000-yilda nashr etilgan “Oq qoya”, “Tunchiroq” dostonlarida ham lirika qurilishiga xos belgilar ustivorligi ravshan ko‘rinib turadi. Bu asarlarning kompozitsion tuzilishini lirik “men”ning nutqi tayin

etgan. Ko‘ngil izhorlari va qalb e’tiroflari har ikkala asar xarakterini lirika qonuniyatlariga muvofiqlashtirib turadi.

Lirikaning bosh asosi fikr va hissiyot omuxtaligida namoyon bo‘ladi. Ular bir-biriga shu qadar singib ketadiki, ajratib ko‘rsatishning iloji bo‘lmay qoladi. Chunki “hissiyot fikrdan ajralib yashay olmaydi” (60, 12). Bu qarashlarni lirika qonuniyatları asosida yaratilgan dostonlarga ham tadbiq etish mumkin. Faxriyor dostonlarida hissiyot fikrga ergashsa, Salim Ashur dostonlarida hissiyot fikrni ergashtiradi.

“Tunchiroq” dostoni lirik shaxsning intim kechinmalaridan tarkib topadi. Bu intim kechinmalar dialektik birlik kasb etib rivojlanib borar ekan, xayol va tasavvurning turli xil lavhalarini ta’sir doirasiga ola boshlaydi.

Semurg‘ tomog‘idan ichdim tomchi suv,  
Qoshlarimni sudrab ketdi samandar.  
Ko‘zcosamda sochin yuvdi oysuluv,  
Bir qo‘lida sanjoq, birida sog‘ar  
Qalandar qodirning qalamravida,  
Belbog‘ida yarim gavharshabchiroq.  
Azozil falakda hilol ovida,  
G‘aybda azroil jonimga odoq (197, 141).

Mazkur satrlarni kechinmalarning tasavvurdagi suratlari deyish mumkin. Lirk “men” bizni kechinmalar parvoz etayotgan xayolot olamiga etaklaydi. Tashqi olam, Belinskiy ta’biri bilan aytganda, subyektivizm saltanatiga kirib yashirinadi. Biz hamma narsani faqat va faqat lirk “men” kechinmalari orqali ko‘ramiz, his qilamiz, sezamiz.

Bir qarashda bu tasvir S.Ashurning odatiy she’rlarini yodga soladi. Lekin bu she’r emas. Chunki poetik fikr endigina bo‘y ko‘rsata boshlagan, biroq hali nihoyasiga yetmagan, u o‘zini ifoda etish uchun maydon hozirlayapti, hali tugallangan manzara ko‘rinmaydi, ruhiy holat tasviri davom etishi kutilmoqda. Hozircha ichki portretning xomaki chizgilari mavjud, u hali aniq tiniq bir surat ko‘rinishini olganicha yo‘q. She’rda band doirasida yakunlanadigan muayyan bir poetik fikr dostonda kengroq maydonni talab qiladi. Chunonchi, yuqoridagi satrlarda ko‘rina boshlagan “nimadir” to‘liq mazmunga ega bo‘lishi uchun sakkiz band talab qilgan. Sakkizinchı band “Xayr, ey otamning uyi – qabriston” deb tugallanadi. Biz ana shu so‘nggi satrlardangina shoirning ruhiy holatini tushuna boshlaymiz, biroq hali tasvir tamoman ravshanlashgan emas. Lirk qahramonning ruhiy kechinmalari mohiyatini yanada tiniqlashtiradigan nedir kutiladi. Lirk qahramon qabriston bilan xayrlasharkan, bu uning

o'sha ruhiy holat bilan ham xayrlashgani. Endi o'zga bir kayfiyat tasviri boshlanadi. Ammo bu kayfiyat manzarasi ham yuqoridagi ruhiy holatga yaqin, shunga esh, uning qay bir jihatlarini to'ldiradi. Ko'rinib turibdiki, dostonda she'rdagidek bir kayfiyat, bir ruhiy holat tasviri bilan cheklanilmaydi. Balki kayfiyatdagi o'zgaruvchanlik, ruhiy kechinmalar tabiatidagi rang-baranglik muayyan silsilani vujudga keltiradi va natijada bu tasvir she'rdagidan ko'ra kengroq ko'lam kasb etadi.

Taniqli shoир va adabiyotshunos Jamol Kamol "Lirik she'riyat" nomli monografiyasida lirikaning bugungi davr qiyofasini qorishiq, universal, sintetik she'riy shakl belgilashini ta'kidlab, uning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

"a) lirik ifodaning erkin parvozi; b) kechinmalar dialektikasining yaratilishi; v) mushohada doirasiga tushgan eng uvoq mayda-chuydalarning ham shu ondayoq qayd etilishi; g) bevosita nutq monolog bilan uchqur suvrat-tasvirlarning almashinib turishi; d) vazn va turoqning erkin qo'llanishi"(60, 57).

Lirikaning shaklu shamoyilini belgilaydigan bu xususiyatlar zamonaviy dostonlarda tobora tomir otib boryapti.

Doston janrining turli ko'rinishlarida lirik ustivorlik har xil tarzda namoyon bo'ladi. Ba'zi dostonlarda lirika alomatlari epik qurilish belgilari bilan qorishib ketsa, boshqalarida dramatik tur unsurlari bilan birlashib ketadi va zamonaviy dostonlarning aksariyat namunalari shundan darak bermoqda.

## 1.2. Liro-epik tasvir

Ma'lumki, lirik shaxsning ko'ngil kechinmalari, munojoti va murojaati, e'tirofi, qalb manzaralari tasviri lirik she'rning o'zagini tashkil etadi. Biz voqeaband she'rlarda ana shu qalb kechinmalarining epik olam manzaralari bilan omuxtalashib ketganligini ko'ramiz. Voqeaband she'rlar shu sifatlari bilan zamonaviy dostonlarga yaqinlashadi. I.Selvinskiy "lirik doston birinchi shaxs nomidan bayon etiladigan uzun she'rdir" (135, 6), - deb bejiz aytmagan edi.

Adabiyotshunos N.Rahimjonovning fikricha, o'zbek mumtoz adabiyotidagi muxammas, musaddas va musammanlar lirik dostonlarning sarchashmasidir (123, 7). Adabiyotshunos X.Otaxonova fors-tojik lirik dostonlarining kelib chiqishini soqiynoma janriga bog'laydi (108, 84). Adabiyotshunos M.Ibrohimov esa dostonlar rivojida balladalar muhim o'rin tutishini e'tirof etadi (53, 78).

Yuqoridagi fikrlarni rad etmagan holda yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan o'zbek dostonlari rivojida voqeaband she'rlarning ta'siri sezilarlidir. Chunki biz tadqiqot obyektiga asos qilib olgan aksariyat dostonlarning mualliflari "yirik hajmli she'riy asarlar" yaratgunga qadar talaygina voqeaband she'rlar ijod etishgan edi. E.Vohidovning "Oqsoqol", "Bizlar ishlayapmiz", "Arslon o'rgatuvchiga", A.Oripovning "Hangoma", "Qasam dara", "Temir odam", "Uchinchi odam", "Sharq falsafasi", A.Mahkamning "Batlon chizig'i", "Hisor begining so'nggi tuni", "Abadiyat sahrosi", U.Azimning "Podshoh g'azablandi", "Armon haqida ballada", "Umid haqida ballada", "Sirk. Ilon o'ynatuvchi ayol" kabi voqeaband she'rlari shular jumlasidan.

"Xo'sh, lirikaning epiklashuvi deganda nimalarni tushunish mumkin? Bu xususiyat faqat o'zbek lirikasining so'nggi yillar taraqqiyoti uchungina xosmi? Shunday bo'lsa, uning ushbu davr uchun xarakterli bo'lgan belgilari nimalarda ko'rindi? Lirikaning epik xarakteri -bu moddiy borliq, dunyo va voqelik assotsiyalarining lirik "men" orqali ulkan ko'lam kasb etgan holdagi masshtabi, tajassumi, degan so'zdir. Epiklikning o'ziga xosligi ana shunday lirik "men"da ifodalangan estetik umumlashmalarning umuminsoniy mohiyati va xarakteri bilan izohlanadi" (125, 14).

Garchi ushbu ta'rif ixcham hajmli she'riy asarlar to'g'risida bo'lsa hamki, zamonaviy dostonlarning xarakterli belgilarini oydinlashtirishda ham qo'l keladi.

Zamonaviy dostonlarga yaqin turadigan janrlardan biri voqeaband she'r hisoblanadi. Lirik ifoda usulining epik va dramatik tasvir tarzi bilan uyg'unlik kasb etishini voqeaband she'rlar misolida ham kuzatish mumkin. Aytish joizki, zamonaviy dostonlarning bugungidek ko'rinishga erishishida mumtoz dostonlar bilan bir qatorda voqeaband she'rlar ham muhim o'rin tutadi.

XX asrda yaratilgan voqeaband she'rlar o'zining "o'tmishdoshi" bo'lgan rivoyat, hikoyatlardan quyidagi jihat bilan farqlanadi: voqeahodisalar hikoya qilinmaydi, balki lirik qahramon shaxsiyatining aralashuvi orqali gavdalanadi. Natijada voqeaband she'rda lirika qurilishiga xos xususiyat kuchayadi.

Mumtoz dostonlar bag'ridagi rivoyat, hikoyatlarni she'riy yo'l bilan yozilganidan qat'i nazar epik hikoyalari, deb hisoblash mumkin. XX asrning 20, ayniqsa, 30-yillarida yaratilgan voqeaband she'rlar markazida shoir shaxsiyati turadiki, bular lirik hikoyalardir. Chunki bu asarlardagi voqeahodisalarning ro'yobga chiqishida lirik qahramon kechinmalari

asosiy mavqe egallaydi. Turli yillarda yozilgan Cho‘lponning “Buzilgan o‘lkaga”, H.Olimjonning “Nima bizga Amerika?”, “Baxtlar vodiysi”, G‘.G‘ulomning “Turksib yo‘llari”, “Men yahudiyman”, “Yalovbardorlikka”, “Sen etim emassan” singari publitsistik she’rlari zamonaviy dostonchilik qurilmasiga katta ta’sir o‘tkazdi. Garchi yuqorida qayd etilgan she’rlar bugungi adabiy qarashlarda turlicha baholansa-da, biroq yangi davr dostonchiligining yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ayni she’rlarda “men”ning “biz” nomidan gapirishi udumga kira boshladi va she’riyatda ijtimoiy fikrlash tarzi yetakchilik darajasiga ko‘tarildi.

Ayrim voqeaband she’rlar tahlilidan so‘ng ularning zamonaviy dostonlar bilan yaqinligi yanada konkretlashadi. G‘.G‘ulomning “Men yahudiyman” she’ri urush davrida yozilgan. Gitler Germaniyasining yahudiylarga qarshi yo‘naltirilgan siyosati va mafkurasi she’rning yozilishi uchun asosiy turtki bo‘lgan.

Qayerda,  
qaydadir  
Ayting, fir’avnlar,  
Shu tuproq zaminda  
Mening Vatanim?  
Yoinki,  
kamolot-tuhmat bo‘larak  
Ko‘milsinmi muallaq  
osmonda tanim?-  
-Jim!  
Fir’avn jim,  
xoqon jim,  
Payg‘ambarlar,  
Sulaymonlar jim!-  
Bir xabar keltirmas  
umid hudhud-i-  
Men yahudiyman... (246, 22).

Tarixiylik va falsafiylik G‘.G‘ulom poetik uslubini belgilovchi bosh xususiyatlar. Shoир qaysi mavzuda she’r yozmasin- tarixdan, albatta, misol keltiradi va unga falsafiy munosabatda bo‘ladi. Ushbu she’rda ham shoир shu uslubiga sodiq qolib, yahudiy xalqi tarixiga nazar soladi, millat taqdirining burilish nuqtalariga, hal qiluvchi jarayonlariga e’tibor qaratadi. Lirk qahramonning kechinmalari harakatda, o‘sishda, o‘zgarish jarayonida aks etadi. Lirk xitoblar va so‘roqlar bu jarayonga kuchli emotzionallik bag‘ishlaydi. “Men yahudiyman” she’ri voqelikni haqqoniy,

tarixan aniq lavhalarda ko'rsatadi hamda obyektiv olamni lirik yo'sinda qamrashi, ijtimoiy masalalar, hodisotlar mohiyatini chuqur ochishi, voqelikni har uchala zamon fe'li nuqtayi nazaridan gavdalantirishi bilan ajralib turadiki, bu sifatlar zamonaviy doston poetikasida tobora aniqroq namoyon bo'lib bormoqda.

"Sulton Akbariy 1954-yilda "Ijodkorlar" nomli she'rlar to'plamini nashr ettirdi. Bu to'plamdag'i ko'pgina she'rlar Sulton Akbariyda voqeaband, sujetli she'rlar yozishga moyillik kuchli ekanidan dalolat berardi... Liro-epik tasvirga moyillik Sulton Akbariyning tez orada poema janrida kuch sinashga o'tajagini ko'rsatadi" (173, 153). Professor N.Shukurovning ushbu mulohazalari ham XX asr o'zbek dostonchiligi rivojida voqeaband she'rlarning ta'siri katta bo'lganligini anglatib turibdi. 60-yillarda o'zbek she'riyatining yosh vakillari bo'lgan E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, M.Ali ijodida sujetli, voqeaband she'rlar ko'plab uchraydi. Ularning bu borada to'plagan tajribalari doston janrida ijod qilishlari uchun juda qo'l keldi.

Voqeaband she'rda ham, dostonda ham epik manzara lirika vositasida namoyon bo'ladi. Faqat voqeaband she'r dostoniga nisbatan ixchamroq hayot lavhasini qamrab oladi. Xarakterli birgina hodisa tasviri voqeaband she'r yaratish uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, E.Vohidovning "Oqsoqol" she'rida oqsoqolning nonga navbatga turganlarni tartibga solishi voqeasi eslanadi. Shu birgina voqea shoir uchun davr manzarasini chizishga kifoya qiladi. Endi bu she'rning doston darajasiga ko'tarilishi uchun shu bir voqea kamlik qiladi. "Oqsoqol" voqeasiga mazkur mavzuni kengroq ochishga xizmat qiladigan qator masalalar, qator voqea-hodisalar tizmasi ulanishi kerak. Va bularning bari oxir-oqibatda davrning muhtasham epik qiyofasini his ettira oladigan quvvatga ega bo'lmosg'i lozim.

Adabiyotshunos S.A.Kovalenko sujetli she'rlar bilan poema o'rtasida ichki yaqinlik borligini qayd qilib o'tadi (64, 86). X. Otaxonovaning fikricha, 50-60-yillar tojik dostonchiligi rivojida turkum she'rlarning ta'siri sezilarli bo'ldi (108, 121).

60-70-yillar dostonchiligining taraqqiyoti bevosita publisistik-falsafiy she'riyat bilan bog'liq bo'lsa, 80-90-yillar dostonchiligi lirik she'riyat tomon yuzlandi. Bu lirik she'rlarda ham falsafiy ohang ustuvorligi seziladi. Shu sabab 60-70-yillar dostonchiligidagi liro-epik yo'naliш yetakchilik qilsa, istiqlol arafasi va undan keyingi davr dostonlarida lirik yo'naliш kuchaydi. Qolaversa, 80-yillar oxiri 90-yillar boshida ilk dostonlarini e'lon qilgan I.Otamurod, A.Mahkam, Faxriyor,

A.Qutbiddin, S.Ashur va boshqalar lirik she'rlar ijodkorlari sifatida tanilgan edilarki, ularning bu boradagi izlanishlari dostonlariga ham ta'sir etmay qolmasdi.

Oy suzib chiqadi osmonga, go‘yo  
Mening hayotimga kirganday bir qiz.  
Zim-ziyoda qilcha yog‘du tutiyo,  
Gunohim tilimga sanchadi bigiz.  
Ikkita tizzamni tuproqqa qoqdim,  
Dilimni sug‘urdim tishlarim bilan.  
Ko‘nglim yarasini ezib tirnoqda,  
Ko‘zimni nigohing ila tilaman (197, 137).

Ushbu satrlar S.Ashurning “Tunchiroq” dostonidan. Mazkur misralar shoirning har galgi she’rlaridan unchalik farq qilmaydi. Biroq dostonda she’rdagidek bir kayfiyat, bir holat tasviri bilan cheklanmaydi, balki kayfiyatlar, holatlar silsilasi yaratiladi. Va shu kayfiyatlar, holatlar uzbekligi, davomiyligi vositasida epik dunyo manzaralari his etiladi.

So‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida lirik qurilishning ta’siri ortganligini nasriy asarlar misolida ham ko‘rish mumkin. O‘ylari, xayollari bilan yolg‘iz qolib, obyektiv olam sadolarini qalban tinglayotgan, ruhiy kechinmalari orqali anglashga intilayotgan shaxs qiyofasi hikoya, qissa, roman singari epik tur janrlarida ham ko‘plab yaratilmoqda. Bu qahramonlarda lirikada bo‘lgani kabi ichki faollik kuchli.

T.Murodning “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar” qissalari, “Otamdan qolgan dalalar” romani, O.Muxturning “Ko‘zgudagi odam”, “Ffu”, “Ayollar mamlakati va sultanati” romanlari, Nazar Eshonqul hikoyalari ana shunday xususiyatlar kasb etib bormoqda. Epik tur asarlarida ham voqelikning ichki olam manzaralari vositasida ro‘yobga chiqayotganligi ularda lirik tur belgilarining kuchayayotganligini isbotlaydi. T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi quyidagi parchaga diqqat qaratsak, bu xususiyat aniq ko‘zga tashlanadi.

Havo mo‘tadil-mo‘tadil keldi.

Dalalarim beti tarang-tarang bo‘ldi.

Dalalarim osti bilinar-bilinmas g‘imir-g‘imir etdi.

Dalalarim ostida ko‘r sichqon qimirlamishday bo‘ldi. Dalalarim ostida chuvalchang o‘rmalamishday bo‘ldi.

Dalalarim beti sochday-sochday yorildi.

Dalalarim...bolaladi! To‘qqiz kun-u, to‘qqiz soatda bolaladi.

Pushtalarda tup-tup maysalar nish berdi. Pushtalarda ko‘m-ko‘k maysalar nish berdi.

Dalalarim bag‘ri to‘ldi. Dalalarim bag‘ri butun bo‘ldi.  
Mening bag‘rim dalalarimdan-da butun bo‘ldi (223, 99).

Demak, lirik qurilishga xos belgilar nafaqat dostonlarda, epik tur janrlarida ham sezilarli tus olayotgan ekan, bu -davr va zamondoshlar qiyofasini to‘laroq, yorqinroq gavdalantirish yo‘lidagi izlanishlarning samarasidir.

Asqad Muxtor XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos iz qoldirgan yetuk so‘z san’atkorlaridan biri. Uning ijodida dostonlar alohida o‘rin egallaydi. A.Muxtor dostonlaridagi liro-epik tasvirga moyillik uning ham yozuvchi, ham shoir sifatidagi iqtidoridan tug‘ilgan tabiiy hodisa. Bu ajoyib hodisa uning 1990 yilda chop etilgan “Dol qoya” dostoni uchun ham xos. “Dol qoya”da qadim Sharq afsonalaridan biri hikoya qilinadi. Shoir hikoyani tugundan boshlaydi, tugun ma’lum yakunga etmay, voqeа rivoji kuzatilmay, lirik chekinishga o‘tadi. “ – Yana o‘tmish? – deydi g‘ashlanib “Shu kun tashvishi-la yashovchi o‘rtoq” (222, 160). Shoir o‘n misradan iborat chekinishda kitobxonga murojaat qilib, toqatli bo‘lishni so‘raydi va yana asosiy voqeа bayoniga o‘tadi. Muallif voqeani rivojlantirib, ma’lum nuqtaga yetgach, yana kitobxon bilan muloqotga kirishadi.

- Afsonami, yana afsona? –
- Deydi ishchan omilkor do‘stim.
- Ha-da. Afsonaning mag‘zi durdona.

Archib ko‘ring tumanli po‘stin (222, 162).

Afsonada hikoya qilinishicha, chag‘al urug‘ida keksarib qolgan otababolarni dol qoyaga qoldirib kelish odati bo‘lgan. Shoir bu afsonani bekorga eslamaydi. Sobiq tuzumning so‘nggi yillarida amalga oshirilgan “oshkoralik” jarayoni natijasida “oq” “qora” bilan “ijobiy” ”salbiy” bilan o‘rin almashdi. Bu jarayon aslida mavjud davlatchilikni saqlab qolishga qaratilgan tadbir edi. “Oshkoralik” avlodlararo uzviylikka ham raxna sola boshladi, jamiyatning umumiyligi kayfiyatiga ham salbiy ta’sir o‘tkaza boshladi. A. Muxtor ana shu voqelik ta’sirida afsonaga murojaat qiladi. Shoirning lirik kechinmalari afsona jo‘rligida zamondoshlari psixologiyasini ochishga qaratiladi, natijada afsonaning ichki mohiyatidan teran, salmoqdor poetik mazmun chiqariladi. E.Vohidov ijodida alohida o‘rin egallagan dostonlar liro-epik xarakteri bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Xususan, “Ruhlar isyonи” asarida bu sifat alohida ajralib turadi. Shoirning lirik xitoblari, e’tiroflari, davr, inson, jamiyat, voqelik xususidagi falsafiy qarashlarining lirik talqini epik olam manzaralari bilan tez-tez o‘rin almashtirib turadi. Shoirning lirik tafakkuri, andishalari, monologlari epik

tasvir vobastaligida ko‘lamdorlik kasb etadi. Bu doston hatto o‘zining maxsus epik qahramoniga ega. Bu qahramon Nazrul Islomdir, uning mashaqqatli hayot yo‘lidir. Muallif o‘zining insoniy hayajonlarini, ehtiroslari jo‘shqinligini o‘sha qahramon tasviriga singdirib yuboradi. Har bir satr, har bir band ana shu epik qahramonning lirik qiyofasini gavdalantirishga yo‘naltiriladi, uning shoir va farzand sifatidagi Vatan, millat oldidagi xizmathalarini ochishga qaratiladi.

E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”da hayot voqeа-hodisalari lirik “men”ning faol ishtirokida o‘z in’ikosini topadi. Shu tariqa liro-epik tasvir omuxtaligi vujudga kelib, o‘zga bir tasvir xususiyatlari, ya’ni dramatik jins alomatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Muallif Nazrul Islom hayotiga oid eng qaltis, eng ziddiyatli vaziyatlarni hamda shu vaziyatlarga hamohang eng dramatik, tragik rivoyatlarni tanlab olganligi bois dramatik tur asoslari yorqinroq ochiladi, shoirning g‘oyaviy badiiy niyatini yoritishda munosib xizmat qiladi.

“Ruhlar isyoni”da epik tasvir bilan lirik ifoda tez-tez o‘rin almashtirib turadi, bir-birini to‘ldiradi, boyitadi. Shu tariqa “hayotning eng oliy holatlari”ni qamrab olishga erishiladi. Asardagi fasllar, rivoyatlar asosida voqelik “men”ning qalb tug‘yonlari orqali shaklga kiradi, mohiyat kasb etadi. Dostondagi epiklik tuyg‘ularga to‘yingan, kechinmalardan oziqlangan, liro-dramatizmga yo‘g‘rilgan epiklikdir.

...Ulg‘aydi u,  
O‘smir bo‘ldi,  
Yetdi yigit yoshiga.  
Ishq otli qush  
kelib qo‘ndi  
Nazrulning ham boshiga.  
U ham yondi bag‘ri kabob,  
Ham ochildi  
chun bahor.  
Hijron berdi  
totli azob,  
Visol etdi  
baxtiyor...(202, 376).

“Ruhlar isyoni”da lirik va epik tasvir bir-biriga shu darajada payvand bo‘lib ketadiki, ular orasidagi tub farqlar barham topgandek tuyuladi. Natijada liro-epik bir butunlik, yagonalik yuzaga keladi.

Omon Matjon dostonlarida lirizm va epizm mutanosibligi E.Vohidov dostonlaridan ancha farq qiladi. Bu farq epik hodisalarga lirik nazar bilan

qarashda namoyon bo‘ladi. Uning “Gaplashadigan vaqtlar”, “Cho‘ldagilar”, “Nega men?” dostonlarida shu holatni kuzatish mumkin. Bu, albatta, shoirning individual uslubidan, shaxsiyatidan, olamni idrok etish tarzidan kelib chiquvchi qonuniy poetik hodisadir. O.Matjonning aksariyat she’rlarida ham shu poetik uslubni ilg‘ash qiyin emas. Epik voqealarga lirik nigoh bilan qarash muallif nutqini jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtiradi. Omon Matjonning “Nega men?” dostoni shu jihatdan xarakterlidir.

...Bosh imom alhol bir kalom aytmayoq  
Qolganlar qo‘l tiklab, takrorlab yakdil,  
Chapak chalardilar, “xo‘p-xo‘p” derdilar,  
Chehra ham, yuz-ko‘z ham, tillar ham bir xil...

“Ha-ha!” muridlari, “xo‘p-xo‘p!” nullari  
Samolyotga chiqib hammadan burun,  
Yetib kelasolib poytaxtlariga  
Majlis boshlardilar shu kun kechqurun (215, 352).

Dostonning ayrim o‘rinlarida epik tasvirning maqomi oshgandek taassurot qoldiradi, biroq shoirning ana shu epik lavhalarga bo‘lgan emotsiyal munosabati liro-epik eshlikni vujudga keltiradi. Asar boblari hayotning alohida-alohida manzaralar tasviridan tarkib topgan. Lirik “men”ning voqelikka faol aralashuvi alohida-alohida lavhalarga yaxlitlik bag‘ishlaydi.

Doston hayotning xilma-xil muammolari, uzoq va yaqin kechmishning achchiq saboqlari, inson tabiatining tushunish va tushuntirish qiyin bo‘lgan sir-u asrорlari, shaxsning Vatan va millat oldidagi ma’suliyati, burchi kabi masalalarda bahs yuritadi, hayotga, xalq taqdiriga ochiq ko‘z bilan qarashga undaydi, mudroq tuyg‘ularni bedorlikka chorlaydi.

Omon Matjon dostonlaridagi epik tasvir lirik tuyg‘ular va kechinmalar ko‘lamdorligini tayin etsa, lirik ifoda epik xarakterdagi lavhalar teranligini asoslab keladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, dostonlardagi epik unsurlar bilan nasriy asarlardagi epiklik aynan bir narsa emas. “Poemadagi epik tasvirni povest yoki hikoyadagi epik tasvir bilan tenglashtirish poemani barbod etish demakdir,- deb yozadi U.Normatov. – ... Poemadagi epik tasvir kam deganda ikki holda, birinchidan, u chinakam qo‘shiqqa aylanib ketsa, chuqur lirizm bilan yo‘g‘rilgan, prozaizmdan tamoman xoli bo‘lsa, ikkinchidan, qahramon xarakterining muhim tomonlarini, yangi qirralarini ochishga yordam bersa, qahramon hayoti va faoliyatidagi oliy momentlar

tahlilidan iborat bo‘lsa, qahramon psixologizm, qalb dramasi bilan uzviy bog‘lansa- faqat shundagina o‘zini oqlay oladi” (98, 13).

Yetmish to‘qqizinchi yil.

Buxoro yo‘li.

Gazeta varaqlab bo‘lib nogahon

Yevtushenko boqdi haydovchiga..”Ayt,  
“Kichik er”, “Tiklanish”, hokazo ayron,

Bo‘tqa bitiklarni o‘n yildan keyin

Biron odam olib ko‘radimi? Yo‘q!”

Shofyor yelka qisdi. U “Inturistdan”.

Shoирга indamay boqdi ko‘zi lo‘q (215, 358).

Lirik asarlardagi bandlarda muayyan bir fikr ifoda etilib, unga nuqta qo‘yiladi. Fikr band doirasida nihoyasiga yetadi. Biroq “Nega men?” dostonidan keltirilgan she’riy parchada esa unday emas. Chunki unda epik tasvir usuli lirik ifodadan ustunlik qilmoqda.

O.Matjon dostonlari, xususan, “Nega men?” asari uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, unda lirik ifoda epik tasvir bag‘ridan o‘sib chiqadi. Epik lavhalar, epik manzaralar lirik ifodaning parvozi uchun zamin hozirlaydi. Muayyan turga mansub asarda o‘zga tur xususiyatlarini uchrashi tabiiy hol. Zero, hech bir tur xususiyati sof holda uchramaydi. Ammo biror bir janrda sintezlashuv hodisasi dostonlardagichalik mustahkam va barqaror asosga ega emas. Shu bois ayrim adabiyotshunoslar dostonni yangi bir turning, ya’ni liro-epik turning janri deb atashni taklif qilishgan (174; 22; 28 ). Doston lirik, liro-epik, dramatik bo‘lishi mumkin, ammo bu ko‘rinishlarning barchasi zamirida epiklik mavjud. Lirik doston, to‘g‘ri ma’noda tushuniladigan bo‘lsa, hech qachon lirik doston bo‘lolmaydi. Faqatgina lirik kechinmalar bilan doston yaratilmaydi. Chunki birgina lirik kechinma tabiatini dostoniy ko‘lamdorlikni aks ettirishga qodir emas. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, lirik dostonda lirik tur xususiyatlari yetakchilik qiladi, bu -lirik dostonda epik va dramatik tur xususiyati bo‘lmaydi degani emas, albatta. Dostonning mazkur ko‘rinishida epik va dramatik xususiyatlar lirik tasvirga ergashadi. Bu xuddi gapning bosh bo‘laklari ikkinchi darajali bo‘laklarni o‘ziga tobe qilganidek, ergashtirganidek bir gap. Demak, dostonning muayyan bir ko‘rinishga egaligi asarning ustivor xususiyatlariga qarab belgilanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ma’lum dostondagи liro-epiklikning mustahkamligi unda dramatik belgilarning yo‘qligini anglatmaydi.

Asqar Mahkam dostonlarida liro-epik uyg‘unlikning o‘ziga xos tarzi namoyon bo‘ladi. Agar O.Matjon dostonlarida epik tasvir lirik ifoda uchun zamin hozirlasa, A.Mahkam dostonlarida epik ifoda lirik tasvirga ergashadi. Shoirning “Ishq”, “Tavajjuh”, “To‘rt darvish” dostonlarida lirik ifoda epik tasvirlar vobastaligida o‘zi uchun keng maydon hosil qiladi.

Qalb kechinmalari va tug‘yonlari janr talablariga muvofiqlashish uchun epik unsurlarni talab qiladi. A.Mahkam dostonlarida lirik ifoda tadrijiy rivojlanish jarayonida eng xarakterli, eng zarur epik chizgilarni qamrab ola boshlaydi. Muayyan so‘zlarning, misralarning qayta-qayta takrorlanishi natijasida hosil bo‘ladigan musiqiylik tufayli lirik asos kuchayadi va shu asnoda epik tasvirni ham lirklashtiradi.

“Ishq” dostonidan keltirilgan quyidagi she’riy parchaga diqqat qilsak, liro-epik uyg‘unlikning A.Mahkam dostonlariga xos ko‘rinishi bir qadar ayonlashadi.

Osmon- yerga yog‘ayotgan moviy yomg‘ir  
Bu yomg‘irning zarralari nur nurlari  
Bu yomg‘irning tomchilari yosh yoshlari  
Osmon yog‘gan sahrolarda yobonlarda  
Karvon ro‘zgor to‘zonini yutib ko‘char  
Karvon ro‘zgor tupugini yutib ko‘char  
Osmon yog‘gan dalalarda o‘ngirlarda  
Karvon borar, o‘z go‘shtini kavshab borar  
Karvon borar, o‘z qonini ichib borar  
Karvon borar, o‘z tanasin quchib borar  
Karvon borar  
Karvon borar  
Karvon borar...( 219, 319-320 ).

Shoir epik tasvirga lirik salmoq yuklab, ulardan qaytariqlarda, takrorlarda ham foydalanaveradi. Oqibatda epik bo‘laklar ham musiqiylik va ohangdorlik kasb etib lirklasshadi.

Bugungi davr voqealari mohiyatiga tasavvuf nigohi bilan qarash shoir uchun ifoda tarzining yangi imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

An’anaviy janrning yangicha ko‘rinishlari vositasida ma’naviy masalalarining talqin etilishi, ruhiy bedorlikka da’vat ohangining ustivorligi, shular asosida umuminsoniy miqyoslarda mushohada yuritish tamoyillarining o‘ziga xoslik kasb etishi Asqar Mahkam dostonlarining mundarijasini belgilaydi.

“Hujjat epiklikni kuchaytirish vositasi hisoblanadi” (119, 124). Bugungi dostonlarda lirizm ustunligi yaqqol sezilsa-da, lekin bu lirizm

epiklikka to‘yingan, epizm bilan omuxtalashgan lirizmdir. Shu ma’noda dostonlarda hujjatlilik ham muhim rol o‘ynamoqda. Gazeta xabarlar, kitoblardan ko‘chirma keltirish, tarixiy faktlar, xat, kundalikdagi qaydlar, statistik ma’lumotlar dostonlar qurilishiga singib borayotgan ana shunday hujjatlilikni tashkil etadi. O.Matjon “Ming bir yog‘du” dostonida Navoiy asarlaridan, “Cho‘ldagilar” asarida ensiklopedik ma’lumotlar va gazeta xabarlaridan, T.Ahmad “Moziy sabog‘i” asarida arxiv ma’lumotlaridan, Q.Rahimboeva “Qishning oxirlari” asarida, I.Otamurod “Sen” asarida xat janridan, Faxriyor “Ayolg‘u” dostonida tarixiy faktlardan, T.Nizom “Giry” dostonida mumtoz shoirlar g‘azallaridan samarali foydalanganliklari hujjatlilikning bugungi dostondagi o‘rnini ko‘rsatib turibdi. Dostonlarimizda hujjatlilikning qaror topib borayotganligini ikki omil bilan izohlash joiz. Dostonnavislarimiz, birinchidan, zamonaviy proza yutuqlaridan foydalanayotgan bo‘lsalar, ikkinchidan, A.Voznesenskiy, Ye.Yevtushenko, M.Martsinkyavichyus, R.Hamzatov kabi iste’dod egalarining tajribalaridan bahramand bo‘lmoqdalar.

Zamonaviy o‘zbek dostonchiligining qator namunalarida, jumladan, E.Shukurning “Ibtido xatosi”, I.Otamurodning “Sen”, A.Mahkamning “To‘rt darvish”, “Fotiha” asarlarida xalq dostonlari uslubini eslatuvchi nasriy parchalar alohida o‘rin egallaydi. Folklor dostonlaridan farqli ravishda zamonaviy dostonlardagi nasriy bo‘laklar nazmga yo‘g‘rilgan. Bu asarlardagi nasriy parchalar ifoda tarzi bilan nasrdagi nazmlarni yodga soladi. “To‘rt darvish” dostoni muqaddimasidan olingan quyidagi parcha, uning isbotidir:

“Darvishlar...samun ko‘zları chokini qavib, garmsellər xoki tanını qum to‘fonlariga ko‘mgan sahrolarda ularning hasratli zikrları girdubod qa‘riga singdi. Fotihlar qonli jom sipqorganda murda xalqlar va buzg‘un mazgil-maoqlar ustida tantana qilganda, singan qilichlar damidan odamzod qoni qumursqlalar tili bilan artilganda; yovqur ayg‘irlarning yorib tashlangan sag‘rilari karkas va o‘laksaxo‘rlarga yem bo‘lganida; charxi dun va ahli bashar zulm-u sitez ichinda bo‘g‘ilganicha yer tirnab, yohu chekib, faryod solib zikr tushgan darvishlar edi...” (219, 301).

Ko‘rinib turibdiki, dostonlarning nafaqat she’riy yo‘l bilan, balki nasriy yo‘lda bitilgan o‘rinlarida ham liro-epik uyg‘unlik o‘zligidan darak bermoqda. Liro-epik, dramatik, lirik dostonlarda ham bu uyg‘unlik lirik asosni mustahkamlashga, uning qamrov doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Biz monografiyaning kompozitsiya qismida zamonaviy dostonlardagi nasriy parchalarga kengroq to‘xtalganligimiz bois, bu o‘rinda shu mulohazalar bilan cheklanamiz.

To‘lan Nizom dostonchilik borasida katta tajribaga ega. Uning “Cho‘lpon”, “Giry” asarlari istiqlol davri o‘zbek dostonchiligidagi o‘ziga xos mavqega ega. Zamonaviy dostonchilikning muhim fazilatlaridan biri - ularda epiklik unsurlariga kechinmalar eshligining jo‘r etilayotganligidir. To‘lan Nizomning “Uch so‘z” dostoni 1995-yilda yozilgan bo‘lib, Zahiriddin Boburning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. “Uch so‘z”ning kompozitsion qurilishi ancha murakkab. Unda dramatik dostonlarga xos dialogni ham, lirik dostonlarga xos kechinmalar ifodasini ham, epik dostonlarga xos voqeabandlikni ham uchratish mumkin. Lekin dialoglarda dramatik dostonlarga xos keskinlik va taranglik yetishmaydi, muallif o‘zining shoirlik iqtidorini harchand ishga solmasin, lirik manzaralarda tabiiylik va jo‘shqinlik sezilmaydi, asarning umummatniga singib ketmaydi. Bularning bari liro-epik tasvir o‘rnini voqenavislik, tarixnavislik egallaganligi uchun yuzaga keladi. Dostonning jiddiy kamchiligi shundaki, unda epik asarlarga xos bo‘lgan prozaizm o‘zga tasvir usullarini bosib tushadi. Asar uchun tanlab olingan voqelik qahramonlar xatti-harakati orqali emas, muallif nutqi orqali reallashadi. Asosiy voqealarning aksariyat qismi muallif nutqi va uchinchi shaxslar tilidan hikoya qilib berilishi natijasida II-shaxs, ya’ni Mirzo Boburning ruhiyat manzaralari, undagi qarama-qarshiliklar, dunyoqarashida yuzaga kelgan o‘zgarishlar silsilasi tasviriga ehtiyoj sezilmaydi. Shu bois “hayot prozasi” asar ruhiga o‘z hukmini o‘tkazadi. Bobur nutqiga o‘rin ajratilgan she’riy parchalarda ham epik turga xos batafsillik, voqeabandlik davom etadi.

Qancha bog‘ yaratdim, Hind avlodи deb,  
Xil-xil mevalari Anjonda ham yo‘q.  
Lek qovun, uzumni keling unda yeb,  
Qilgan bu ishimdan ko‘ngil to‘la, to‘q.

Ariqlar chiqardim, qurdim yo‘llarni,  
O‘jar daryolarga ko‘priklar soldim.  
Ko‘p obod ayladim qaqroq cho‘llarni,  
Va lekin oxiri mung‘ayib qoldim... (227, 239).

Bu misollarning bari liro-epik tasvir butunligiga erishishda, lirik qahramon qiyofasini gavdalantirishda, davr ruhini chizishda, voqeaning

dramatik shiddatini aks ettirishda teran izlanishlar va tadqiqotlar pallasi kechayotganligidan darak beradi.

### 1.3. Liro-dramatik tasvir

Lirizm va dramatizm mutanosibligi zamonaviy dostonlar tabiatida chuqur ildiz otib borayotgan tasvir usullaridan biridir. Dostonlarning barcha ko‘rinishlarida bu usuldan mahorat bilan foydalanilayotganligining guvohi bo‘lish mumkin. Albatta, bugungi doston ichki ko‘rinishlarining asosiy sifat va fazilatlari mumtoz dostonlar bag‘rida mavjud edi. Davrning, muhitning epik manzaralarini umumlashtirishda liro-epik va liro-dramatik tasvirlar uyg‘unligidan foydalanish, qahramon hayotining eng avj, dramatik holatlarini tasvirlash, yakka shaxs va xalq intilishlariga falsafiy nigoh bilan qarash hamda talqin etish mumtoz yozma va og‘zaki dostonlarda maromiga yetkazib ishlangan xususiyatlardir. Lirizm va dramatizm yaxlitligiga misol tariqasida “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod bilan Xisrav dialogini eslab o‘tish kifoya.

Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumrah?  
Dedi: majnun vatandin qayda ogah.  
Dedi: nedur senga olamda pesha?  
Dedi: ishq ichra majnunliq hamisha.  
Dedi: bu ishdin o‘lmas kasb ro‘zi,  
Dedi: kasb o‘lsa basdur ishq so‘zi.  
Dedikim: ishq o‘tidin de fasona!  
Dedi: kuymay kishi topmas nishona... (225, 323).

Farhod va Xisrav dialogi shunchaki oddiy aytishuv yo savol-javob emas. Yigirma besh baytdan iborat ixcham bu dialog zamirida qancha g‘oyalar va maslaklar qarama-qarshiligi, takallufsizlik va andisha jangi, g‘aflat va ruhiy uyg‘oqlik kurashi, ilohiy ishq va bedardlik ziddiyati mujassam. Dialog shakli dramatik holatni yanada chuqurlashtiradi. Ushbu sahna lirizm va dramatizm uyg‘unligining, shubhasiz, mumtoz namunasidir. Dostonlar sujetining kulminatsion nuqtalarida lirizm va dramatizm omuxtaligi yanada shiddatli tus oladi.

Yoxud xalq kitoblari turkumidagi “Ibrohim Adham qissasi”ni olib qaraylik. Undagi epik tasvirlarda ham, she’riy parchalarda ham, dramatik usuldagи dialoglarda ham liro-dramatik tasvirning qudratli kuchga aylanib, badiiyat unsurlarining barchasini o‘z atrofiga jiqlashtirganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Mana Adhamning Malikayi Xo‘bon bilan qabr boshidagi uchrashuvi. Adham Malikani go‘rdan tortib, chiqargach, “Andin so‘ng

Malikai Xo‘bon Adhamga qarab aytdi: “Ip bilan igna olib kelg‘il, toki kafanlarimni tikib, egnimga libos qilib kiyayin,” -deb bu g‘azalni o‘qidi:

Senga maning bir so‘zim bor, xotirim qilma parishon,  
Qiyomat kun bo‘lsa oshkor, qahrini solmasun Rahmon.  
...Munda keldim pinhon bo‘lib, diydalarim giryon bo‘lib,  
Go‘rdin chiqdim uryon bo‘lib, keltir so‘zan birla rismon”

(210, 23).

Ajdodlarimiz pok orzu-xayollari o‘laroq tillardan tillarga ko‘chib kelgan islomiy va insoniy g‘oyalalar ruhi bilan sug‘orilgan mazkur asar xususida adabiyotshunos B.Sarimsoqov shunday deb yozadi: “Insoniyat o‘z tarixiga qay darajada chuqur kirib borsa, u o‘zining juda ko‘p jihatlaridagi mushtarakligi bilan hozir bizning fikr-u xayolimizni band etgan millat, el, elat, xalq kabi tushunchalar doirasiga sig‘may qolishini ilg‘ash mumkin” (210, 3-4). Bugungi o‘zbek dostoni ham umumbashariy g‘oyalarga tayanayotgan ekan, mazkur xususiyat o‘z mohiyati bilan lirodramatik hamohanglikni taqozo etadi.

Yana “Ruhlar isyoni”ga murojaat qilamiz. El baxt saodati yo‘lida umrini tikkan, otashin satrlari bilan ingliz bosqinchilarining asl qiyofasini ochgan, johil olomonning g‘aflat bosgan qalb ko‘zini ochishga intilgan Nazrul Islomning o‘z vatandoshlari tahqirlab hibsga oladilar. Chindan ham dramatik holat. Muallif alohida shaxs hayotidagi ana shu dramatik voqeaga ijtimoiy salmoq yuklaydi. Nazrul Islom fojeasi orqali millat fojiasini umumlashtirib ko‘rsatadi. Voqea zamiridagi dramatizm tag‘inda keskin tus oladi.

Hukm o‘qildi:

Bosh egib u  
Asta borar hibs tomon.  
Ajab!  
Soqchi-  
bir yon hindu,  
Bir yon esa musulmon.  
Uni turtar  
musulmon ham,  
Siltaydi hind havoldor.  
-Qirpichoqda  
o‘ldi akam,  
Senda ekan ayb,  
murdor!  
-Ko‘p azoblar chekdi hindu,

Ko‘p qon to‘kdi  
 musulmon.  
 Sen kabilar yo‘qolsa-ku,  
 Yashar edik  
 Tinch, omon... (202, 396).

Tabiatan dramatik xarakterga ega bo‘lgan voqeа liro-epizm jo‘rligida keskin shiddat bilan rivojlana boshlaydi. Tog‘ bag‘rida o‘z holicha jildirab oqayotgan irmoqlar ma’lum joyga etganda birlashib, qudratli oqimni yuzaga keltirganidek, uchala tur xususiyatlari qo‘silib yagona o‘zanga quyila boshlaydi. Asar sujeti liro-dramatik oqim shiddati ta’sirida hazin va mungli sadolar taratib, o‘zining fojeiy yakuni sari yo‘l oladi.

Asqar Mahkam dostonlarida liro-dramatizm yetakchi tasvir usuli hisoblanadi. U “hayot prozasi”ga yo‘l qo‘ymagani holda, voqelikning dramatik nuqtalariga lirik harorat bag‘ishlaydi. A.Mahkam dostonlarida dramatik kayfiyatlar lirizm vositasida, lirik kechinmalar esa dramatik holatlar silsilasidan o‘sib chiqadi. Bu ikki tasvir usuli shoir dostonlarida bir-birini to‘ldirib, boyitib boradi. Hayot voqeа-hodisalari hamda insoniy munosabatlarning past-balandini, murakkabligi va ziddiyatlarini falsafiy tafakkur sintezidan o‘tkazish o‘z mohiyat-e’tibori bilan liro-dramatik tasvir birligini talab etadi.

“Tavajjuh” dostoni Bobur hasratlariga doir. Bu hasratlar ruhning poyonsiz sarhadlaridan, ko‘ngilning tub-tublaridan sizib chiqadi.

Tun kechar. Yulduzlar xira va sovuq -  
 Ayozli tonglarning taqaddus bodi,  
 bir yonda- gunohlar, bir yonda-armon,  
 bir yonda Vatanning azosi, yodi...(219, 258).

Voqelikning dramatik suvratlari ko‘ngil hasratlari ko‘zgusida jonlana boshlaydi. O‘zga yurda shoh bo‘lishdan ko‘ra o‘z yurtida gado bo‘lishni afzal ko‘rgan Bobur uchun Vatan yodi mukarram. Shu bois yulduzlar xira va sovuq ko‘rinadi, ayozli tonglardan sovuq bod taraladi, gunohlar va armonlar qalb mehrobiga bosh qo‘yadi. Hayotiy mantiq bilan dalillangan bu liro-dramatik kayfiyat keyingi misralarda yanada avj oladi.

Lovullar oy aro falak dog‘lari,  
 sirg‘alar bulutlar uzra bir tobut.  
 Poyida daryolar yotmishdir o‘lib,  
 ustida yaraqlar qo‘rg‘oshinsovut.  
 Qamishzor chayqalar lashkargoh kabi,  
 Qoniga belanib kuylaydi azal.  
 Ko‘z yoshlar sizilib oqqan jismdan  
 tikilar sipohlar yozmishi-ajal... (219, 258-259).

Bu liro-dramatik tasvir zamirida butun boshli romanga asos bo‘la oladigan sujet yastanib yotibdi. Liro-dramatik tasvirlar qo‘shiluvining sharofati tufayli epopeyalar uchun mavzu bo‘la oladigan voqelik ixcham satrlarga jo bo‘ladi. Shu sabab so‘nggi yillarda shoirlarimiz bu tasvir usulidan samarali foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Yuqoridagi she’riy parcha o‘z holicha faqat lirk emas yo faqat dramatik emas. Metaforik tafakkur narsa va buyumlargan jon ato etar ekan, biz oy shu'lalariga belanib lovullab borayotgan falak dog‘larini, bulutlar uzra sirg‘alib borayotgan tobutlarni, bu tobutlar poyida yotgan o‘lik daryolarni, qo‘rg‘oshin Sovut yanglig‘ qotib qolgan daryo sirtini ko‘rgandek bo‘lamiz. Qamishzor shunchaki qamishzor emas, bu o‘lim sari yuzlangan lashkarning qarorgohi, taqdiri azal har kungi qo‘shig‘ini shunchaki takrorlayotgani yo‘q, u o‘z qoniga belanib kuylayapti, ko‘z yoshlardan namiqqan sipohlar jismidan qismat yozig‘i-ajal boqib turibdi.

Biz yuqorida E.Vohidovning liro-epik, A.Mahkamning lirk dostonlari misolida liro-dramatik tasvir usulini ko‘rib o‘tdikki, bu usul dramatik dostonlarda ham alohida o‘rinni ishg‘ol etadi. Adabiyotshunos N.Rahimjonov XX asr o‘zbek dostonchiliginin sharhlar ekan, quyidagilarni alohida qayd etadi: “60-yillarda bitilgan monolog tipidagi poemalarda hayot jarayonlari lirk “men”ning voqelikdan orttirgan taxayyullari orqali ayonlashar edi. 70-80-yillarga kelib lirk poemalarning sujeti va kompozitsion tuzilishi yanada rang-baranglik kasb etdi. Endi lirk qahramonning estetik pozitsiyasi, hayajonlari va fikri murojaat yoki e’tirof orqali yetkazilibgina qolmayapti, ya’ni subyektiv va obyektiv she’riy hikoya tez-tez o‘rin almashinadi...” (7, 191). Ana shu subyektiv va obyektiv she’riy hikoyalarning tez-tez almashinib turishi natijasida zamonaviy dostonlarda liro-dramatik tasvirning roli mustahkamlanib bormoqda.

Rus adabiyotshunosligida “dramatik doston” atamasi o‘rniga ba’zan “lirk drama” (18, 13), “lirklashtirilgan drama” (63, 7) atamasi ishlatalib kelingan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki dramatik dostonlarda yaxlitlik kasb etib turgan jihat dramatizm va lirizm uyg‘unligida ko‘rinadi.

Dramatizm va lirizm uyg‘unligining she’riy dramalarda, she’riy romanlarda, lirk dostonlarda hamda balladalarda ham uchratish mumkin. Lekin bu uyg‘unlik ularda dramatik dostonlardagichalik boshdan oxir faol ishtirok etmaydi, balki g‘oyaviy mazmun talablariga ko‘ra muayyan o‘rinlardagina namoyon bo‘ladi. Liro-dramatik vobastalik sanab o‘tilgan janrlarning tabiatini belgilovchi asos hisoblanmaydi. She’riy dramalarda dramatizm va epizm bir butunligi, lirk dostonlar va she’riy romanlarda

lirizm va epizm yaxlitligi yetakchi tasvir birliklari hisoblanadi. Balladalar ixcham sujetga asoslanganligi bois dramatizm va lirizm uyg'unligi yarq etib ko'zga tashlanavermaydi, qolaversa, ularda epizmning o'rni ham mustahkam.

"Adabiy turlar va janrlar" nomli tadqiqotda liro-dramatizm dramatik dostonlarning bosh tasvir usuli ekanligi to'g'ri e'tirof etiladi (7, 211).

A.Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostoni Dantening "Ilohiy komediya"si ta'sirida yaratilgan. "Jannatga yo'l" asarida epik, liro-dramatik tasvirlar omuxtaligi o'zining ajoyib samarasini bergan. Epik manzaralar liro-dramatik yaxlitlikka erishish uchun poydevor hozirlaydi. "Jannatga yo'l"da dramatik va lirk tasvirlar bir-birini tez-tez almashtirib turadi, bir-biriga uzviy qo'shilib ketadi va tasvir yo'nalishida mukammallikni yuzaga keltiradi.

Asar boshida Yigit va Tarozibonning suhbatlari epik tasvir bilan boshlanib, asta-sekinlik bilan lirizm va dramatizm birligi bu dialogda dominantlik darajasiga ko'tariladi.

## YIGIT

Bu gaplarni oshirdingiz me'yordan sal,  
Eshitganmiz bundaqangi kinoyalarni.  
Gunohimga iqrorman men, tonmayman tugal,  
Yuzga solmay, lekin har xil rivoyatlarni.  
Mayli, do'zax tublarida kuyib, kul bo'lay,  
Mayli, qaynoq daryolarda oqsin suyagim...  
Ko'zlarimdan qon, yosh oqsin, zardobga to'lay.  
Faqat bordir Ollohimdan bitta tilagim (228, 69).

Yigit va Tarozibon dialogining so'ngidagi bu she'riy parchada Yigit ruhidagi dramatik ziddiyat uning qalb nidosi bilan birlashadi. Tarozibon unga ota-onasi bilan uchrashish imkonini borligini aytgach, liro-dramatik ko'lam avj nuqtaga ko'tariladi.

## YIGIT

Oh, falakning yulduzlari chaqnang tobora,  
Farishtalar baxtlimassiz men kabi alhol.  
Men do'zaxda yonay, mayli, lekin bir bora  
Men ularni ko'rajakman, bu nechuk visol?! (228, 70).

A.Oripov Yigit obrazi misolida ma'naviy barkamol insonni ko'rmoqchi, lekin ma'naviy yetuklik yo'liga mashaqqatlar sahrosi orqali

o‘tiladi. Shu sabab A.Oripov Yigit xarakteridagi o‘zgarishlar silsilasini eng dramatik vaziyatlardan turib kuzatadi.

Ikkinchchi ko‘rinishning boshlanishi ham birinchi ko‘rinishda bo‘lgani kabi epik tasvir bilan boshlanadi. Voqeal-hodisalarning epik sokinligi astasekin liro-dramatik to‘lqinlar va girdoblarni harakatga keltiradi.

### **OTA**

Endi jannat quchog‘iga borurmiz, o‘g‘il?

### **YIGIT**

Yo‘q, dada men do‘zaximan.

### **OTA**

Nimaga? Nechuk?..

### **YIGIT**

Bundan ortiq qismat bo‘lmas, axir, dadajon

Jazo uchun joy bormikan do‘zaxdan ortiq?

Endi menga baribirdir er bilan osmon,

Do‘zax ekan qismatimga berilgan tortiq (228, 77).

“Nimadadir dramatizmni ko‘rish uchun,-deb yozadi E. Bentli,-birinchidan, konflikt elementlarini ko‘rish kerak, ikkinchidan, konflikt elementlariga emotsiyal munosabatda bo‘lish zarur. Emotsional munosabatda bo‘lish esa sizni to‘lqinlantiradi, ruhingizni qalqitadi. O‘zo‘zicha olingan konflikt esa dramatizmdan xolidir.”(20, 7). Yuqoridagi she’riy bo‘laklarda konflikt mavjud va Yigitning ichki kechinmalari ta’sirida bu konfliktga emotsiyal munosabat bildirilmoqda. Yigitning ishonchi hamda bu ishonchni chippakka chiqargan Tarozibonning hukmi o‘rtasidagi nomuvofiqlik konfliktning dinamik rivojini ta’minlab turibdi. Yigit va Ota ruhiyatidagi ana shu dramatizm lirkik ta’sirchanlik (ko‘ngillarda kechayotgan shubhalar, gumonlar, andisha-istiholalar, e’tiroflar, taajjublar) vositasida to‘lishib, mukammallashib bormoqda.

Ota va Yigitning uchrashuvlari shunchalik bir kutilmagan vaziyatda kechyaptiki, ular ko‘nglida cho‘g‘langan ehtiroslar otashi dramatizm alangasi bilan birlashib, ulkan bir gulxanni vujudga keltiryapti.

Ota o‘g‘lining jannatga o‘tishi uchun yetmay qolgan ikki paysa savobni bermoqchi bo‘ladi, biroq o‘g‘li bu taklifni keskin rad etadi.

### **YIGIT**

Hech bir.

Yetti qavat yer qa’riga tiqsa ham tangri,

Men dadamni jannatdan hech qilmasman judo.

Kechir meni dadajonim, safarim bois,

Vaslingiz-chun kelgan edim, xayr, alvido!

## **OTA**

Yo‘q, yo‘q, to‘xta!

## **YIGIT**

Xayr, otajon, urinmang bekor,  
 Sizni yo‘ldan qoldirmayin, garchi ketgim yo‘q.  
 Bu ayriliq mangulikdir, oh, na chora bor,  
 Tangri hukmi har narsadan oliv va buyuk... (228, 81).

“Tragediyada bir vaqtida yuz berayotgan voqeanning ko‘pgina qismlarini tasvirlab bo‘lmaydi, -deb yozadi Aristotel. – Voqeanning faqat sahnada aktyorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan qisminigina tasvirlash mumkin”. (10, 49).

Dramatik dostonlar sahnaga qo‘yilish uchun emas, o‘qishga mo‘ljallanganligi bois yuz berayotgan voqeanning xarakterli hamma tomonlarini tasvirlash imkoniyati bor. Chunki unda aktyorlarning hatti-harakati hisobga olinmaydi. Dramatik dostonlarda ko‘pgina voqealar qalamga olinishi mumkin, lekin bu voqealarni liro-dramatizm o‘z tasarrufida mustahkam saqlab turishi lozim. Dramatik dostonlarda harakatdan ko‘ra o‘y-mushohadaning salmog‘i baland. Bu esa lirik tasvirning faoliyatini kuchaytiradi, dramatik shiddat bilan uni to‘ldiradi.

Yigitning onasi bilan bo‘ladigan so‘nggi diydorlashuvi ham liro-dramatik tasvirni talab qildi, zotan bu uchrashuv ko‘p masalalarga aniqliklar kiritishi zarur edi. Ushbu ko‘rinishda murakkab psixologik holatlar shart-sharoitning aniqligi bilan uzviy bog‘langanligi sababli tasvirning ishontirish quvvati oshgan. Biroq liro-dramatik yo‘nalish asarning hamma ko‘rinishlarida ham bir xilda rivojlanmaydi. To‘rtinchik ko‘rinishga kelib tasvir usulida zo‘rma-zo‘rakilik vujudga keladi.

Ma’lumki, dialog badiiy asarga dramatik shiddat baxsh etishda sinovdan o‘tgan tasvir usuli. Ammo O‘siprin va Qariya, Kimsa va Yigit dialoglarida dramatik shiddat va keskinlik, eng asosiysi, hayotiy mantiq etishmaydi.

## **KIMSA**

Yomonlayman, bil!

## **YIGIT**

Nima? Nima?

## **KIMSA**

Uqdingmi, ig‘vo qilaman!

Menga baribir.

Ig‘vo qilib o‘z dardimga shifo qilaman (228, 99).

Birinchidan, yomon o‘zining yomonligini tan olganida konflikt yo‘qqa chiqadi, ikkinchidan, badiiy asar talablari ham bunday osongina e’tirofni ko‘tarmaydi. Yomonlikning yomonligi yaxshilik bilan bo‘ladigan keskin to‘qnashuvlarda namoyon bo‘ladi. Biz “Jannatga yo‘l”ning to‘rtinchi ko‘rinishida ana shu keskin to‘qnashuvlarni, g‘oyalar jangini ko‘rmaymiz.

Yigit va Do‘sning oxirgi sahnadagi dialoglari liro-dramatizm vobastaligining tarovatlari manzaralarini tashkil etadi, deb komil ishonch bilan aytish mumkin. To‘rtinchi ko‘rinishda uchraydigan so‘zbozlik, kerak-nokerak detal, hodisalarning aralashuvi, qolaversa, zo‘rmazo‘rakilik bu sahnada uchramaydi. Garchand ikki do‘st uchun bu uchrashuv kutilmagan bo‘lsa-da, lekin voqealarning tabiiy rivoji bu uchrashuvning muqarrarligini talab qilardi. Behishtga o‘tish uchun ikkala do‘stga ham ikki paysa savob yetishmaydi. Bu dardmanlik hissi ularni yanada jipslashtiradi, do‘stona samimiyat tuyg‘usini kuchaytiradi.

## DO‘ST

Mening uchun ikki olam bo‘ldi bir chaqa,  
Bilasan-ku, qiyomat qarz degan narsani.  
Tushun, axir, meni do‘stim, quloq tut gapga,  
Savobim ol, sen ol mendan ikki paysani! (228, 107).

Yigit o‘z navbatida Do‘sning jannatga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan ikki paysa savobni unga taqdim etmoqchi bo‘ladi. Shoir masalani bartaraf etishni Sado zimmasiga yuklaydi. Sado bu – iymon ovozi, mehr-muhabbat, samimiyat ovozi. Bu sadoda shoirning beg‘araz do‘stlikka, e’tiqodga bo‘lgan komil ishonchi mujassam.

Liro-dramatik tasvir uyg‘unligining ajoyib namunalaridan biri sifatida Cho‘lpon Ergashning “Ko‘zgudagi qiz” dramatik dostoni e’tiborni tortadi. Ch.Ergash asarni tartib berishda, xarakterlararo munosabatlarni rivojlantirishda realistik-romantik tasvirlar omuxtaligiga erishishda Gyotening “Faust”idan ilhomlanganligi ko‘rinib turibdi. Shuningdek, shoir “Faust”da bo‘lgani kabi turli xil vazn o‘lchovlaridan samarali foydalanadi.

Adabiyotshunos A.Alimuhammedovning fikricha, “she’rda uzun hijolarning ko‘proq bo‘lishi- voqeanning ulug‘vorligini, harakatning salmoqdarligini ta’minlaydi, qisqa hijolarning ko‘pligi esa harakatga tezlik, o‘ynoqilik, yengillik bag‘ishlaydi” (13, 71).

O‘zbek dramatik dostonlari asosan 11 va 13 bo‘g‘inli barmoq vaznidagi yozilmoqda. Chunki uzun hijoli bu vaznlari dramatik doston janrining jinsiy xususiyatlarini ro‘yobga chiqarishda qulaylik tug‘diradi. 5,7,9 bo‘g‘inli barmoq vazni xususiyatlari o‘ynoqi ohanglarga ko‘proq mos

tushadi. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, o‘ynoqi, yengil ohanglar dramatik doston tabiatiga unchalik ham mos tushavermaydi. A.Oripovning “Jannatga yo‘l” asari 13 bo‘g‘inli vaznda yozilgan bo‘lsa, Ch.Ergash turli vazn ko‘rinishlaridan qorishiq foydalanadi. Doston sujetining lirik qahramon xayolida kechishi shunday yo‘l tanlashni taqozo etgan.

Doston sujeti voqealari oshiqa yigit qalbida kechgan tug‘yonlarning, xayolida jonlangan olamning rango-rang manzaralaridan tarkib topgan. Asarning birinchi manzarasi “Faust”ning boshlanishini yodga soladi: “Tun. Tor hujra. Eski, omonat stolda kitob- daftarlar. Rahmon xira chiroq yorug‘ida kitob varaqlaydi. Eshik ochilib, Rahmon choyxonada tushida ko‘rgan Dalli kampir paydo bo‘ladi” (241, 73).

Rahmon hali o‘smir yoshida. U hali bolalikning beg‘ubor olamidan uzoqlashib ketmagan, kattalar dunyosiga kirib ulgurmagan. Kishi bu yoshda muhit ta’siriga tez beriluvchan bo‘ladi. U Dalli kampir, Qodir mo‘ylov, Yosh juvon, O‘rta yosh ayol kabi obrazlarning yurish- turishini, xatti-harakatlarini kuzatar ekan, ruhiy azoblar iskanjasida qoladi. Hayotning past-baland yo‘riqlari xarakter sifatida shakllanib ulgurmagan Rahmonning xayollariga raxna soladi.

Qodir mo‘ylov

...Senga shunday maslahat, jiyan:  
O‘zingni bil, o‘zgani qo‘y sen,  
Busiz biring ikki bo‘lmaydi, bola!  
O‘chakishma jinlar bilan ham,  
Shaytonni maqtab,  
Dev, pariylar etagini ushlagin mahkam.  
Hammaga ham ko‘rinmas Shayton,-  
Bir marta keladi yigitga omad,  
Fursat kepti, o‘ynab-kulib qol!... (241, 74).

Rahmon shaytonsifatlarning qutqulariga uchmaydi, asl tabiatining pokiza sadolariga qulop soladi. Uning qalbida Ra’no ismli qiz yashaydi. Ra’noga bo‘lgan pok va samimiyy muhabbat o‘tkinchi dunyoning omonat hoy-u havaslaridan ustun keladi.

Shoir Rahmon ruhiyatida bolalarcha samimiyyat ustivorligini ta’kidlash maqsadida asarga Chittak, Chumchuq, Chug‘urchuq, So‘zanak, Kapalak kabi obrazlarning monologlarini ham kiritadi. Oshiqa qalb o‘zini olam bilan bir butunlikda tasavvur etadi, borliq ichra bir borliq ekanligini anglaydi. Bu hayotiy haqiqatni teran anglagan shoir Rahmon xarakterini chizishda ana shu mantiqqa tayanadi.

Dramatik dostonlarda dramatizm va lirizm uyg‘unligi his-tuyg‘ular g‘alayonini ko‘rsatishda, murakkab psixologik holatlarni ochishda, ichki monologlarni ifodalashda, ko‘tarinki avj nuqtalar tasvirini chizishda, tush ko‘rish usuli orqali intrigalarni kuchaytirishda oydinroq namoyon bo‘ladi. Liro-dramatik yaxlitlikka erishishda romantik va realistik tasvirlar birday ishtirok etadi. Ko‘pchilik dramatik dostonlarda his -tuyg‘uni, psixologizmni, ichki monologlarni ochib berishda romantik tasvirdan foydalanilsa, avj nuqtalar ifodasi, xarakterlar to‘qnashuvi kabilar realistik sahnalarda amalga oshadiki, Cho‘lpon Ergashning “Ko‘zgudagi qiz”asari misolida bunga ishonch hosil qilish mumkin.

## RA’NO

(O‘ksik xayolda)

Uchib ketsam deyman rostdan ham uzoq,  
Biroq qanotlarim qayrilgan doim.  
Hatto qadamlarim sanab har nafas,  
Qo‘ymas o‘gay otam o‘z erkimga hech.  
...Nega qanotim yo‘q, nega qushmas men,  
Ammo talpinaman ko‘kka erta-kech! (241, 80).

Keyingi yillar o‘zbek dostonchiligidagi bugungi ijtimoiy hayotga tarix ko‘zgusi orqali qarash udumga aylanib borayotgandek bir holni ko‘rish mumkin. Tarixlar, rivoyat va afsonalar qatidagi dramatik voqelik liriklashtirilmoqda. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, A.Mahkamning “Ishq”, “Tavajjuh”, E.Shukurning “Ibtido xatosi”, “Naqshbandiy”, Faxriyorning “Yoziq”, N.Afoqovaning “Jazo” kabi qator dostonlarini sanab o‘tish mumkin. Mavzu tanlashdagi bunday o‘ziga xoslik so‘nggi yigirma yillikda liro-dramatizmning imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Jamiyat hayotida kechgan tub o‘zgarishlar, kishilar psixologiyasidagi yangicha qarashlar adabiyotga eng keskin va dramatik holatlarga ko‘proq e’tibor qaratish lozimligini ishora qilgan bo‘lsa, ajab emas. XX asrning 60-70 yillarida lirk shaxsning xayollari, e’tiroflari asosida yuzaga keladigan monolog ko‘rinishidagi dostonlar ko‘proq yaratilgan bo‘lsa, 80-90 yillarga kelib moddiy va ma’naviy olamning dramatik holatlariga e’tibor kuchaydi. Shoirlarimiz davr sadosiga hamohang ravishda tarkibida dramatik konflikt mavjud bo‘lgan epik va lirk manzaralarni qalamga ola boshladilar. Dostonlarda bu masalani hal etish liro-dramatik tasvir usulini taqozo etardi.

O.Matjon “Beruniy”, “Pahlavon Mahmud”, A.Qosimov “Turdi Farog‘iy”, U.Azim “Xalil Sulton”, T.Jo‘ra “O‘rtoq Mayakovskiy” singari

dostonlari bilan o‘zbek dostonchiligidagi liro-dramatik tasvir usulini mustahkamladilar.

Nodira Afoqovaning “Jazo” dramatik dostoni 1997- yilda chop etildi. Shoira jahon badiiy so‘z san’atida chuqur iz qoldirgan mavzuni, ya’ni Odam Ato va Momo Havo hayoti bilan bog‘liq rivoyatni qalamga oladi. Insoniyat tarixinining muqaddimasisidagi bu dramatik manzaralar o‘zining lirik ifodasini topish uchun shoiradan katta iste’dod talab etar edi. Nodira ana shu dramatik manzaralarga o‘ziga xos nigh bilan qarashga harakat qilgan. Shoira dramatik xarakterdagi bu rivoyatga lirik harorat bag‘ishlarkan, rivoyatning yangi bir talqini yuzaga keladi.

### **ODAM ATO**

Havvoning jonfizo ovozin nechun  
Teskari tomonga haydaysan, shamol?  
Yetmasmi shu ajr, shu azob, ko‘rim,  
Yetmasmi shu afsus, shu o‘kinch, zavol?!  
Qani taxt? Qani toj? Qani buyuklik?  
Kim edim? Kim bo‘ldim? Gunohkor kimdir? (195, 88).

Liro-dramatizm uyg‘unligiga erishishda monolog yo dialoglardagi savol ohangi muhim rol o‘ynaydi. Shu sabab shoira ritorik murojaat va ritorik so‘roqlarga alohida e’tibor qaratadi. Lirik qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni ifodalashda, personajlararo to‘qnashuvlarni aks ettirishda liro-dramatik tasvirning o‘rni beqiyos. “Jazo” dostoni misolida ham bunga ishonch hosil qilish mumkin. Mana Momo Havo ruhida kechayotgan qarama-qarshiliklarga bir misol.

### **MOMO HAVONING OVOZI**

Qaydamen? Bu ne yer? O‘ngimmi shu hol?  
Shu mening maskanim jannatmi?  
Nechun  
Bu ranglar...  
bu saslar...  
bu hidlar... malol,  
Malol solayotir ruhimga butun? (195, 85).

Odam Ato, Momo Havo behishtdagi hayotlarini ko‘z oldiga keltirganlarida ular nutqida lirik ifoda kuchayadi, zaminiy real tashvishlarga ro‘baro‘ kelganlarida ular nutqida liro-dramatik ifoda sezilarli tus oladi. Demak, tasvirdagi u yoki bu yo‘nalishning ustivorligi sharoit hamda xarakterlar mantiqi bilan asoslanishi kerak.

“Jazo” dostonining ayrim o‘rinlarida lirik tasvir bilan boshlangan ifoda dramatik shiddat bilan poyoniga yetadi yoki aksincha. Shoira bosh

qahramonlar ruhiyatidagi ziddiyatlarni tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi, u dramatik shiddatni saqlab qolish maqsadida Iblis obrazini chizar ekan, g‘oyalar jangiga zamin hozirlaydi. Odam Ato va Iblisning dialogi shunchaki aytishuv yo oddiy mashmasha emas. Bu -ilohiy va shaytoniy kuchlarning asrlar bo‘yi davom etib kelayotgan azaliy to‘qnashuvidir. M.Svetaeva bir she’rida “Xudo haddan tashqari xudo, shayton haddan tashqari shayton,” deb yozadi. N.Afoqova Iblis obrazini yaratar ekan, uning “haddan tashqari shayton”ligini hisobga oladi.

## **IBLIS**

(zaharxanda bilan)

Xohlasang o‘zingni o‘ldir, yoq, qil kul,  
Chiqmayman ichingdan, chiqmayman aslo!  
Qoningga qo‘shilib oqqum muttasil  
Sening yetmish ikki tomiring aro! (195, 100).

Rivoyatlarga ko‘ra, Odam Ato va Momo Havo Iblisning qutqusiga uchib, jannatdan mahrum bo‘lishadi. Zaminiy turmushlarida ham Iblis ularni ta’qib etadi. Insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlangan bu ta’qib bugungi kungacha ham davom etmoqda. Shoira Istiqlolgacha o‘zi ko‘rgan davr hayotini, tuzum yuzaga keltirgan turmush manzaralarini shu rivoyatlar asosida talqin etadi.

Xullas, inson hayotiga azaliy va abadiy mohiyat nuqtayi nazaridan qarash, zamondoshlar ongida kechayotgan o‘zgarishlar silsilasini butun murakkabliklari bilan aks ettirish, davrning epik manzarasini lirika vositasida chizish hamda serqatlamlikka, polifoniyaga intilish bugungi dostonchilikda liro-dramatik ifoda tarzining ahamiyatini oshirdi. Va bu yo‘nalish zamonaviy dostonchilik “sarhadi”ning muhim fazilatlaridan biriga aylanib bormoqda.

## **1.4. Aralash tasvir**

Adabiyotshunoslikda mumtoz dostonlar epik turga, zamonaviy dostonlar lirik turga nisbat beriladi. Ana shu nisbatning o‘zi ham doston tabiatи murakkabligini ko‘rsatib turibdi. Dramatik dostonlarda bo‘rtib ko‘ringan liro-dramatik tasvir dramatik tur alomatlari bilan doston imkoniyatlarini kengaytirdi, uning ko‘lamdorligi, serqamrovligini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan bir qatorda XX asrning 70-80-yillariga kelib she’riyat publisistikaning ham vazifasini o‘tay boshladi. Adabiy turlar sintezidan vujudga kelgan doston endi publisistikning hozirjavoblik, tezkorlik bilan hal qilinishi zarur bo‘lgan eng muhim ijtimoiy masalalarni

ko‘tarish kabi xususiyatlariga tayana boshladi. Adabiyot agar insonning abadiy orzu-umidlarini, armonlarini, ideallarini aks ettirsa, publitsistika uning muayyan davr uchun zarur bo‘lgan sotsial ehtiyojlarini, talablarini hal qilishga ko‘maklashadi. Boshqacha aytganda, publitsistika inson va hokimiyat o‘rtasida vositachilik qilsa, adabiyot inson va Iloh o‘rtasida tilmochlik qilishga harakat qiladi. Adabiyot va publitsistikaning qo‘shiluvi 70-80-yillar dostonchiligida qorishiq, aralash tasvirni yanada kuchaytirdi.

“Ayrim hollarda ikki xil janr munosabati natijasida ulardan biri ikkinchisining tarkibiga singib ketadi, - deb yozadi professor B.Sarimsoqov. – Masalan, afsona, rivoyat ertak yoki ertak doston. Fikrimizga afsona, rivoyat, ertak shaklidagi ko‘pgina hujayralar doston shakli uchun ham asos bo‘lishi mumkinligi dalil bo‘la oladi” (129, 101). Olim fikrini davom ettirar ekan, doston janrining tarixiy printsiplari barqaror bo‘lganligi uchun u rivoyat, ertak, afsonani o‘ziga singdira oladi, biroq u janrlar o‘z strukturasiga dostonni singdira olmaydi degan xulosalarga keladi.

O‘tgan asrning 70-80 yillari dostonchiligida ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin. Xabar, reportaj, etyud kabi adabiy – publitsistik janrlar doston tarkibidan joy ola boshladi. O.Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”, “Cho‘ldagilar”, M.Yusufning “Qora quyosh”, “Ko‘hna quduq”, I.Otamurodning “Muin Bisus monologi” kabi qator asarlari misolida doston janrining voqelikni o‘ziga xos qamrab olish chegaralari, tasvir imkoniyatlari publitsistika hisobidan kengayganligining guvohi bo‘lish mumkin. Bu ijodkorlarning o‘sha yillarda matbuot sohasida ishlaganliklarini hisobga oladigan bo‘lsak, mazkur diffuziya jarayonining yanada qonuniy asoslarga egaligi tasdig‘ini topadi.

“Gaplashadigan vaqtlar” XX asrning 50-yillar oxiri 60-yillar bosи o‘zbek qishloq hayotining tasviriga bag‘ishlangan. Unda liro-epik, liro-dramatik, liro-publitsistik tasvir usullari o‘zining ajoyib sintezini topdi. Markazida Anvar xarakteri turgan asar voqealari bir qator sujet tarmoqlaridan tashkil topgan. Anvar tarixi, otasining hayot yo‘li, kolxozning o‘tmishi va buguni, Gulshan bilan kechgan munosabatlari tarixi va boshqalar. Ana shu sujet tarmoqlarining har biri o‘zining mavzusi va g‘oyasi bilan, ahamiyati va o‘rni bilan, mundarijasи va mohiyati bilan o‘ziga xos alohida-alohida tasvir usullarini taqozo etgan. Anvarning bolaligi, o‘smirligi liro-epik, otasi va kolxozi tarixi lavhalari liro-publitsistik, Gulshan va Anvar munosabatlari liro-dramatik tasvirlarni taqozo etgan. Oxir-oqibatda bularning bari birlashib yagona adabiy-

publitsistik ohangga bo‘ysundirilgan.

Anvar aka! Ya’ni, Anvar. Bu ism menga bolalikdan xo‘p sirlidir. Qutli. Belgili.

Ona mehri garchi suttan o‘tsa go‘dakka, bolalikda yo tengquring yoki o‘zingdan sal kattaroq kimdir nogoh, allane bilan xayolingni mashg‘ul etsa, ruhingni tortsa bir-birovga mehr shunday uyg‘onar asli. (218, 73)

Asar boshidagi ana shu liro-epik tasvir ko‘p o‘tmay Anvar va maktab direktori to‘qnashuvida liro-dramatik tus oladi. Adib bosh qahramon xarakterini, qiziqish doirasini ko‘rsatishda natyurmortdan samarali foydalanadi. Odatda buyumlar tasviri peyzajdan ko‘ra kamroq emotsional ta’sirdorlikka ega. Shu bois asardagi bunday o‘rinlarda obyektivlikning maqomi oshadi. Anvarning institutdan “yiqilib” irrigatsiya texnikumiga o‘qishga kirganligi, hamon fizika, elektrotexnika bilan mashg‘ulligi-yu qog‘ozkarnay, naushnik, kollektor, dvijok, radiouzel, nasos kabi narsa, buyum, detallarga qiziqishi aks etgan satrlar bosiq obyektiv tasvirdan darak beradi. Maktab o‘quvchilarining kolxoz ishlariga jalb etilishi, masjid g‘ishtlarining maktab qurilishiga sarf etilishi, diniy kitoblar yoqilishi-yu yozuvning isloh qilingani haqidagi manzaralar, xabarlar publitsistik ohangning kuchayganligini, obyektiv tasvir bilan birlashganini ko‘rsatadi.

“Keyingi paytlarda adabiyotimizning “qizil imperiya” istibdodi davridagi, jumladan, 60-70-yillar rivoji tevaragida qizg‘in bahslar ketyapti. So‘nggi o‘n yilliklar adabiyoti ustida gap borganda o‘sha kezлari yaratilgan asarlar, xususan, she’riyatga xos yetakchi xususiyatlar, chunonchi, she’riyatdagi ijtimoiy grajdanlik ruhi, oshkora publitsistik talqin, “gap aytish”ga, davrning o‘tkir masalalarini ko‘tarib chiqishga moyillik tamoyillari xususida goho biryoqlamaroq fikrlar ham bildirilayapti; adabiyot, she’riyat kundalik hayot muammolari bilan haddan tashqari band bo‘lib ketib, inson qalbining ilohiy, sirli-sehrli tomonlari tahlili, mangu umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar ifodasi e’tibordan chetroqda qolgan demoqdalar” (215, 369).

Professor U. Normatov Omon Matjon she’riyatiga nazar solar ekan, masalaning ana shu tomonlariga e’tiborni qaratadi. Adabiyotshunos muayyan asarga baho berganda, tarixiy vaziyatni, adabiy hayotdagi ahvolni, zamonning talab va ehtiyojlarini hisobga olish kerakligini uqtiradi.

Chindanam o‘sha davr she’riyati, xususan, dostonchiligi borasida fikr yuritganda, uning bo‘rtib turuvchi publitsistik xususiyatini kamchilik

sifatida ko‘rsatish noo‘rin. Zero, u davr she’riyati publitsistikating ham vazifasini o‘z zimmasiga olganligini unutmaslik zarur.

Aralash tasvir o‘zining ajoyib sintezini topgan asarlar sirasiga Muhammad Yusufning “Ko‘hna quduq”, “Qora quyosh” dostonlarini kiritish mumkin.

“Ko‘hna quduq” XX asr Buxoro tarixiga bag‘ishlangan. M.Yusuf Buxoroni ko‘hna quduqga qiyoslaydi, bu “Iskandarning shoxi bor” deb dardini quduqqa aytgan cho‘pon afsonasini yodga soladi.

Chindanam mustaqilligimiz arafasidagi Buxoro ne-ne g‘am-u anduhlarni bag‘riga ko‘mgan, obidalari yanglig‘ ichidan nurab borayotgan va ayni paytda hazin sadolar taratib, ko‘kka unsiz nola qilayotgan quduqqa o‘xshardi. Shoир Buxoroga safari natijasida ko‘nglida tug‘ilgan titroqlarini, his-hayajonlarini goh publitsistika ohangida, goh oddiy so‘zlashuv uslubida, goh liro-romantik ba’zan liro-dramatik tasvirlarda muhtasham mazmunga jamlashga harakat qiladi.

“Buxoroning jin ko‘chalari” (A.Muxtor,) “Dushan qaysarning sarguzashtlari” (T.Po‘latov,) “Tosh tug‘yon” (J.Kamol), “Buxoroi sharif derlar” (A. Hasan), “Buxoronomma” (T.Ahmad) kabi asarlarda Buxoro mavzuiga qayta qayta murojaat etilgan. M.Yusuf bularni takrorlamagan holda “o‘z Buxorosi”ni yaratadi. Buxoroning haqiqiy qiyofasini gavdalantirish maqsadida shoир turli tuman tasvir usullarini qo‘llaydi.

“Kuygan joydan kuy chiqadi deydilar. Buxoroning esa kuymagan joyi yo‘q. Bunda nimaiki qulamasin kuy bilan qulaydi. Devor qulasa kuy, maqbara qulasa kuy, hovuz qulasa kuy . . .” (247, 113)

Dramatik holatdagi publitsistik mavzu lirik talqini bilan epik shaklda namoyon bo‘lmoqda. Boshqa biror bir janrda tasvir usuli dostondagidek rang-baranglik kasb etishi mushkul. Safarga qadar shoир xayollarida Buxoroning gullar va afsonalarga to‘la, Bog‘i Eram chamanlarini eslatadigan qandaydir sirli, diltortar romantik obrazi yashagan, biroq, u ko‘rgan real Buxoro xayoldagi, tasavvurdagi Buxoroga mutlaqo o‘xshamaydi. Shuning natijasida ruhiy drama tug‘iladi.

Ma’yus kunim ko‘zim tushsa,  
Kuyar osmon, tushunmaysan.  
Meni sabo tushungaydir,  
Sen ey inson tushunmaysan.  
Kuyib ko‘ksim o‘tar bo‘lsam,  
Oqar bo‘lsam, ketar bo‘lsam,  
Meni daryo tushungaydir,  
Sen ey ummon, tushunmaysan.

Men ham shaydo, men ham maftun,  
Men ham hech kimi yo‘q majnun,  
Meni Laylo tushungaydir,  
Sen ey jonon tushunmaysan.

Mening yo‘lim uzun armon,  
O‘zim dovon, o‘zim karvon,  
Meni sahro tushungaydir,  
Sen ey sarbon tushunmaysan . . . (247, 114)

Buxoroning sho‘r bosib, mog‘or anqigan tor ko‘chalarida zikr tushib aytish mumkin bo‘lgan lirik kayfiyat daf‘atan poyoniga yetadi. Endi liro-publitsistik kayfiyat epik yo‘l bilan dramatik sahnaga ko‘tariladi.

Mashhur shoir Yu. Martsinkyavichyus janrning ana shu xususiyatlariga quyidagicha munosabat bildirgan edi: “Xarakterlar yaratishda poema proza yutuqlarini o‘zlashtirmoqda, lirikaning ilohiy apparati bilan bir lahzalik yorqin kechinmani suratga olmoqda, drama esa poemani xarakatga solib kelayotgan asos. Hattoki publitsistika ham poema uchun begona emas. Men bundan boshqa universal janrni bilmayman.” (83, 146)

Muhammad Yusufning “Qora quyosh” asarini ko‘zdan kechirib, universal tasvirning doston poetikasida mustahkam asosga egaligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.

Doston xat bilan boshlanadi: “Jondan aziz singlim Qumri! Maktubingga javob yozaman, shuning uchun yozamanki, kechasi soat to‘rtda eslab xat yozganing uchun yozaman, yana shuning uchunki, yosh qalbing baxtsiz mahbus uchun ezib shirin uyqungni bema’ni sarguzashtim bilan buzganing uchun yozaman . . .” (247, 208)

Xatdan so‘ng muallif izohi beriladi.

“Muallifdan: Bu xatni men tasodifan topib oldim. Shu holda, imlolarini tuzatmay sizga havola etdim”. (247, 209)

Muallifning qisqa izohi hayot va o‘lim, baxt va armon, inson va davr kabi boqiy falsafiy masalarning dramatik tasviriga yo‘l ochadi.

- Umr nima, ey odam?
- Umr yo‘ldir bir quloch.
- Armon nima, ey odam?
- Armon ham bir ehtiyoj.
- Omad nima, ey odam?
- Ayvondagi qaldirg‘och.
- Orzu nima, ey odam?
- Bo‘ldi, mening qornim och . . . (247, 209).

Muallif monologining bu diologik shakli besh banddan so‘ng lirik tasvir bilan almashadi.

Soqovni qamashdi,  
Soqov “dushman”ni.

Siyosiy savodsiz,  
Anqov dushmanni . . . (247, 209)

Ana shu sakkiz bandlik lirik tasvir poyoniga yetgach, surgunda uchrashib qolgan ikki hamyurtning suhbati tasvirlanadi.

- Sizni nega qamadilar, birodar?
- Sulaymon Azimovning “dumi” san deb!
- Kimning –kimning?
- Aytdim-ku, Azimovning . . .

Anchadan keyin biroz o‘zimga kelib sekin borib elkasidan quchdim:

- Uni taniysizmi?
- Yo‘q, ko‘rmaganman . . .
- Unda keling, tanishvolaylik dedim,

Menman o‘sha siz aytgan odam!..” (247, 211)

Dostonning boshlang‘ich to‘rt sahifasidan keltirilgan qisqa ko‘chirmalardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘zgarayotgan kayfiyat, ohang, tasvir dostonning Yu.Martsinkyavichyus ta’kidlagan unversalligidan darak bermoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlarida ko‘ringan aralash tasvir barobarida “lirk-qissa” yoki “she’riy qissa” atamasi tez-tez tilga olinadigan bo‘ldi. Mirtemirning “Surat”, O.Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”, A.Mahkamning “Ishq”, T.Nizomning “Majnuntol yig‘isi”, “Oq gul”, “Botmay qolgan oy” kabi asarlari mualliflari tomonidan lirik qissa sifatida taqdim etildi.

“Lirk qissa” she’riy romanlardek obyektivizmga tayanadigan alohida hodisa emas. U universal tasvirni ifoda etishga yo‘naltirilgan tushuncha. Chunki “doston” so‘zining lug‘aviy ma’nolaridan biri qissadir, shu sabab adabiyotshunosligimizda nomlari qayd etilgan asarlar doston deb e’tirof etilmoqda. T.Nizomning “Majnuntol yig‘isi” asari Mirtemirga bag‘ishlanadi. T.Nizom ustozni yod etar ekan, Mirtemirning she’riyatga, yurtga, shogirdlariga, hayotga bo‘lgan munosabatlarini otashin lirik harorat bilan kuylaydi, uning insoniylik sifatlarini ulug‘laydi. T. Nizom boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi bu asarida ham masnaviy, musallas, murabba’, muxammas, musaddas she’riy shakllaridan foydalanadi. Liro-epik, liro-dramatik, liro–publitsistik tasvirlar chatishishi natijasida shoir Mirtemirning lirk siymosi jonlanadi. Biroq dostonning ayrim fasllaridagi

mavhum-lik, fikrning aniq ifoda etilmaganini ham uqtirib o‘tish lozim.

80-yillarning oxiri, 90-yillarning boshida dostonchiligidan modernizm san’atining namoyon bo‘lishi, uning milliy an’analar bilan uyg‘unlashuvi aralash tasvirning sarhadlarini kengaytirdi. Professor U.Normatov va adabiyotshunos U.Hamdamning “Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji” nomli adabiy suhbatida A.Qutbiddin, Faxriyor dostonlaridagi ana shunday o‘ziga xoslik, originallik teran tadqiq etiladi.

M.Yusuf “Qora quyosh”, “Ko‘hna quduq” asarlarida qo‘sishchilik san’ati (kuy bilan ijro etishga mo‘ljallanganligi)dan, Faxriyor “Ayolg‘u” sida tasviri san’at (so‘zlar vositasida rasm chizish) dan foydalanishga harakat qilganliklari dostonchilikda aralash tasvirning yangi-yangi ko‘rinishlari yuzaga kelishi tayinligini ko‘rsatmoqda.

## **II BOB. SHOIR SHAXSI VA QAHRAMON OBRAZI**

### **2.1. Mazmunni ifoda etish tarzi va muallif hikoyasi**

XX asrda barcha jabhalar singari adabiy turlar va janrlar ham qator inqilobiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi.

Mumtoz sharq an’analarini davom ettirish bilan birga turli xalqlar madaniyatining eng yaxshi fazilatlarini o‘zlashtirgan ijodkorlarimiz yangi poetik janrlar inkishofiga hissa qo‘shdilar. Bu janrlar orasida doston va uning ko‘rinishlari alohida o‘rin tutadi.

Adabiyotshunosligimizda “doston” va “poema” atamalari xususida yagona to‘xtamga kelinmagan. Realistik ruhdagi asarlarni “poema”, romantik ruhdagi asarlarni “doston” atash unchalik to‘g‘ri emas. Vaholanki, biror bir janr undagi realistik yoki romantik tafakkur tipiga qarab belgilanmaydi. “Poema” atamasini “doston” atamasining g‘arbona ekvivalenti. Zamonaviy doston mumtoz dostonning sifat va miqdor o‘zgarishlariga uchragan yangi modeli.

Doston tabiatini o‘z taraqqiyoti davomida o‘zgarib, yangilanib bordi. Tabiiyki, ming yilliklar bilan belgilanadigan o‘zbek og‘zaki va yozma dostonchiligi ham bunday o‘zgarishlardan mustasno emas. Garchand janr tinimsiz yangilanayotgan bo‘lsa-da, biroq u o‘zining o‘zak xususiyatlari: muayyan davr va xalq hayotini aks ettirishi, olamni epik ko‘lamdorlikda tasvirlashi, milliy ruhiyat silsilalarini “oliy ehtiroslar qurshovida” ko‘rsatish kabi sifatlarini saqlab qoldi.

Mumtoz dostonchilikda davrning epik qiyofasini xalq timsolida, obyektiv xarakterlar timsolida ko‘rgan kitobxon bugun shoir shaxsiyati orqali ko‘rmoqda. Doston markaziga lirk qahramon, ya’ni shoir shaxsiyatining o‘rnashishi bu epiklik ufqini yanada kengaytirdi, kechinmalarning keng qamrovi bilan boyitdi. Bugungi doston mumtoz dostonlardan, qolaversa, XX asrning 30-40 yillaridagi mazkur janr namunalaridan hajman kichiqroq, ixchamroq. Ammo bu ixchamlik davrning epik manzarasini chizishga monelik qilmayapti, balki uni lirizm bilan to‘yintirayapti.

Liro-epik, lirk, dramatik dostonlarning yuzaga kelishi, mustaqil janr sifatida o‘zligini namoyon etishi, sintezlashuvning kuchayganligi, obyektiv xarakterlar o‘z o‘rnini lirk qahramon, ya’ni shoir shaxsiyatiga bo‘shatib bergenligi, hajmdagi siqiqlik va boshqalarni mazmunni ifoda etish tarzidan, usulidan izlashga to‘g‘ri keladi.

Mumtoz og‘zaki va yozma dostonchilik muayyan davr hayotini xarakterlar faoliyati, xatti-harakatlarini hikoya qilish usuli asosiga qurilgan. Mumtoz dostonchilikda ham, yangi davr dostonchiligining ko‘pgina namunalarida ham muallif “kadr ortida” turadi, voqealar tizimiga aralashmaydi, u faqat hikoya qiluvchi vazifasini bajaradi, xolos. Bu esa o‘z navbatida liro-epik tasvirni talab etadi.

“Alpomish” klassik epos shaklidadir. U bu shaklga kиргунча tarixiy qo‘sinq – arxaik epos – xalqaro ideal (sujet) – klassik epos jarayoni bosqichlarini o‘tishi lozim bo‘lganligini B. Sarimsoqov isbotlaydi (152, 160).

Xalqimizning estetik madaniyati namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostoni quyidagi voqea tafsiloti bilan boshlanadi: “Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ qo‘ng‘iroq elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘in ikki o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysarisi boy edi, Boybo‘risi shoy edi, bu ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi...” (243, 5).

Ushbu manzara ehtiroslarning tasviri bilan almashadi.

Oh, urganda ko‘zdan oqar selob yosh,  
Maslahat ber o‘n ming uyli qarindosh.  
Barchinoyim bo‘y etgandir qalamqosh,  
Zolim bilan hargiz bo‘lmanglar yo‘ldosh.

Qo‘ng‘iroq eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh! (243, 12).

Mazkur lirk parchada ham epik unsurlarning faol harakatini kuzatish mumkin. Doston sujeti liro-epik tasvir omuxtaligida ochila boradi. Demak, hikoya usuli liro-epik tasvirni yuzaga chiqarmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu parchada ijodkor shaxsning aralashuvi sezilmaydi. Ijodkor voqelik va sharoit tufayli yuzaga chiqadigan xarakterlar xatti-harakatini, xarakterlarning munosabatidan kelib chiqadigan hodisalar tizimini hikoya qilib beryapti.

Yozma dostonchiligmizning go‘zal namunasi bo‘lgan “Farhod va Shirin”da ham shunday ifoda tarzi, ya’ni hikoya qilish usuli hukmronlik qiladi. “Uyg‘onish davri poemalarining o‘rtalasrlar poemachiligidan farqini anglab olishimizda Alisher Navoiy poemalarining qimmati beqiyosdir” (66, 95). Xuddi shu kabi bugungi dostonlar poetikasini Alisher Navoiy dostonlari bilan qiyosiy o‘rganish ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

An'anaviy na't, hamd, munojotlardan so'ng dostonning IX bobi shunday izoh bilan boshlanadi: "Bu iqbol varaqlarining muqobalasi va bu saodat tarhlarining mutorahasi va xayol bahrida maoniy tuhfa savdosi uchun masohat qilmoq va har fasona safinasin varaq-varaq, balki har tarix jungin safha-safha axtarib derazada ajnosqa rad iligin urmoq va maoniy aqmishasi nafoyisin bu latofat hujlasi aroyisi uchun g'ayb tujjoridin hayot naqdin berib savdo qilmoq va jon rishtasi va kiprik ignasi bila libosi namoyish va xilati oroyish tikib bu abkor qadlarig'a solib jilva bermak" (225, 41-42). Ushbu izoh keyingi voqealar tasviriga sharh bo'lish bilan birga unda janrning xususiyatlari ham ko'zga tashlanadi. Afsona va tarixdan yangi tarhdagi libos tikib Farhod va Shirin qadlariga jilva bermoq bosh maqsad. Afsona va tarixni epik asos deb qabul qiladigan bo'lsak, libos va undagi jilvalar lirik kechinmalar tasviridir. Alisher Navoiy sarlavha vazifasidagi epik izohini she'riy satrlarda davom ettiradi:

Agarchi nazmi dilkash tushsa masmu'  
Aning afsonasi ham bo'lsa masbu'.  
Burun jam et nekim bo'lg'ay tavorix,  
Borida ista bu farxunda tarix.  
Topilg'ay shoyad andog' bir necha so'z,  
So'z aytur elga ul yon tushmagan ko'z.  
Ani nazm etki tarhing toza bo'lg'ay,  
Ulusg'a mayli beandoza bo'lg'ay (225, 44).

Navoiy o'z dunyoqarashini, umuman ijodkor mas'uliyati borasidagi fikrlarini bayon etgach, XII bobdan bevosita Farhod va Shirin qissasini boshlaydi.

...Ki Chin mulkiki, rashki naqshi Chindur,  
Savodi g'ayrati xuldi barindur.  
Shahe erdi muazzam xoni oning,  
Dema xoni oning, hoqoni oning.  
Iki olamcha mulki vusat ichra,  
Eti garduncha taxti rif'at ichra.  
Sipohi er yuzida qum hisobi,  
Ne qum, gardun uza anjum hisobi...(225, 60)

Anglashilib turilganidek, doston voqeanavislik usulida yozilgan.

Shoir asardagi voqelikda shaxsan ishtirok etmaydi. Har bir bob so'ngida keladigan lirik kayfiyatlar ifodasi, lirik chekinishlar shoirning voqelikdan hosil bo'lgan taassurotlari mahsuli. Bu lirik chekinishlar hikoya qilinayotgan voqea-hodisalarning o'sish, o'zgarish jarayoniga daxl

etolmaydi. Liro-epik bu usul Navoiyning boshqa dostonlariga ham aloqadordir.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida hikoya usulining qo‘llanishi tabiiy hol. Buning boisi folklor bir shaxsning ijodi emasligidadir. Biroq mumtoz yozma dostonchilik namunalarining aksariyati ham shu tarzda yaratilgan. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Sayid Ahmadning “Taashshuqnomा” singari lirik dostonlari bundan mustasno, albatta.

XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk vakillari G‘.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon, E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, O.Matjonlarning aksariyat dostonlari muayyan bir rivoyatni, afsonani, tarixiy voqelikni, hayotiy hodisani hikoya qilish usuliga qurilgan. Mumtoz dostonchilikda bo‘lgani singari zamонавиy dostonchilikda ham hikoya qilish tarzi o‘z mavqeini saqlab qoldi va bu an’ana hozir ham doston mazmunini ifoda etish tarzi sifatida hukmronlik qilib kelmoqda.

H.Olimjonning “Zaynab va Omon” dostoni shunday satrlar bilan boshlanadi:

So‘ylab beray Zaynab va Omon  
Sevgisidan yangi bir doston.

Albatta, ilk satrlardan ko‘rinyaptiki, shoир voqealar oqimiga shaxsan aralashmay, balki bir sevgi tarixini hikoya qilib bermoqchi.

Dostonchilik borasida qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan N.Rahimjonov “Zaynab va Omon” asari haqida fikr yuritib, dostonning voqelik asosiga qurilganligi, ya’ni hikoya qilish usuli qo‘llanganligiga e’tibor qaratadi (123, 15).

XX asrning 60-70 yillari o‘zbek adabiyotida doston janrining ko‘tarilish davri bo‘ldi – Muhammad Ali, Jamol Kamol, Erkin Vohidov, Sulton Akbariy, Husniddin Sharipov, Jumaniyoz Jabborov kabi ijodkorlar doston bilan jiddiy shug‘ullana boshladilar. 60-70 yillarda qirqdan ortiq doston yaratildi. Albatta, bularning barchasini yuksak saviyadagi dostonlar, deb bo‘lmaydi. Biroq hozir gap ularning saviyasi haqida emas, balki yozilish usuli xususida. Ana shu qirqdan ziyod dostonning ko‘pchilik qismi liro-epik dostonlar bo‘lib, ma’lum voqea-hodisalarni hikoya qilish usulida yozilgan. Bu davrda yaratilgan lirik dostonlar ham mavjud, ammo ular barmoq bilan sanarli.

XX asrning 60-70 yillari sobiq ittifoq tarkibidagi xalqlar adabiyotida doston janri yillari bo‘ldi desak, xato bo‘lmas. Dostonlar ko‘plab yaratildi, u haqdagi ilmiy bahs-munozaralar avj oldi. Tabiiyki, bu bahs – munozaralarda turli xil qarashlar, fikrlar bildirildi. Ayrimlar uning kelajagi porloqligi xususida gapisra, boshqa birovlar janrning inqiroz arafasida

turganligidan bashorat qilishdi. Nima bo‘lganda ham doston o‘zining o‘sish-o‘zgarishda ekanligini davr tasdig‘idan o‘tkazib kelaveradi.

E.Vohidovning “Orzu chashmasi”, “Nido”, “Palatkada yozilgan doston”, “Ruhlar isyoni” kabi dostonlari hikoya qilish usulida yaratilgan.

“Orzu chashmasi” dostonining sujeti rivoyatdan iborat. “Orzu chashmasi”dagi Orzu va Og‘ado‘stning ertakdagi prototiplaridan farqi shundaki, bunda qahramonning individual xarakteriga oid tomonlar chuqurlashtirib, folklorga xos umumiy harakatlar o‘rni real harakatlar bilan almashtirilgan” (149, 9).

E.Vohidov dostonlarini debocha bilan boshlaydi. Bu uslub uning “Orzu chashmasi”da ham mavjud. Shoir debocha qismida asosiy voqeani boshlamay turib, o‘zining lirik kechinmalarini bayon etadi.

Moviy dengiz sohillari,

Lojuvard osmon,  
Jonbaxsh havo, bepoyon suv,  
So‘lim tabiat.  
Yer yuzida jannat bo‘lib  
Yaralgan makon  
Bugun menga orom bermas,  
Bermas halovat.  
Chag‘alaydek charx uradi  
Betinch o‘ylarim,  
Tug‘yon ichra jim kezaman  
Daryo bo‘ylarin (203, 320).

Shoir “men”i orqali moddiylik kasb etayotgan bu ichki olam manzaralari asarning faqat debocha qismi uchun xos.

Asar sujetida shoirning faol aralashuvini ko‘rmaymiz. E.Vohidovning ichki kechinmalari tasviri debocha qismida tugaydi. Shundan so‘ng shoir voqealarni hikoya qilish usuliga o‘tadi.

Go‘zal edi.  
Yosh edi Orzu,  
Sevgi uchun yaralgan sanam.  
Erkin edi go‘yoki ohu,  
Tiniq edi orzulari ham.  
Lablarida doimo xanda,  
Ko‘zlarida ishva-noz edi.  
Bog‘lararo xirom etganda  
Gullar unga poyandoz edi (203, 322).

Hikoya qilish asosiga qurilgan dostonlar sujeti hamisha liro-epik tasvirni talab etadi. “Orzu chashmasi”da ham shu holni ko‘rish mumkin.

Ota va o‘g‘ilning xayoliy savol-javobi asosiga tiklangan “Nido” dostonining kompozitsion qurilishi xiyla murakkab. Unda shoir “men”i ham, hikoya qilish usuli ham birdek aralash ishlatilaveriladi. O‘g‘ilning otaga xitobi, xayoliy murojaati shoir “men”i orqali shakllansa, xotiralar, tush tasviri kabilar hikoya qilish asosida yuzaga chiqadi.

Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni uning bu borada to‘plagan tajribalarining go‘zal namunasi. Asarning muqaddima qismi, rivoyatlaridan so‘ng keluvchi lirik chekinishlar va har bir faslning boshlanishi shoir “men”i mahsuli. Biroq bu usul asar sujetida hukmron mavqega ega emas. Asar voqealari hikoya qilish orqali ochiladi. Shoir asar voqealarini boshlashdan oldin muqaddima, rivoyat qismlarini kiritadi. Birinchi fasl ham lirik kirish bilan boshlanadi.

Tun bilan kun,  
O‘t bilan suv  
Bir-biriga zolimdir.  
Koinotda  
Azal,  
Mangu  
Isyon ruhi hokimdir.  
Zamin uzra qor quyunin  
Yog‘dirganda charx-falak,  
Qish qahriga egmay bo‘yin  
Isyon qilar  
Boychechak.  
Qora bulut zulumotga  
Chulg‘aganda samoni,  
Chaqmoq-nursiz bu hayotga  
Yorug‘likning isyoni... (202, 374).

Shoirning falsafiy-lirik kechinmalari shu tarzda “men”i orqali davom etadi. Va uning subyektiv qarashlari lirik chekinishlar bilan poyoniga etadi. Shoir o‘z qarashlarini bayon etgach, asosiy voqea – Nazrul Islom qismati bilan tanishtirishni boshlaydi.

Nazrul Islom  
Bu dunyoga  
Shoir bo‘lib tug‘ildi.  
Ilhom otli pok ziyoga  
Go‘dak qalbi yo‘g‘rildi.

Nigohidan  
Sehrli nur  
Borliq nur taradi.  
Koinotga u tahayyur  
Ko‘zi bilan qaradi (202, 375).

Voqelar, hodisalar rivoji keltirilgan parchada bat afsil hikoya qilinadi. Bu o‘rinlarda favquloddagi holatlar, dramatik manzaralar ham qamrab olinadi, biroq muallif bularni-da “epik vazminlik” bilan hikoya qiladi, o‘z his-tuyg‘ulariga erk bermaydi. Biz bu o‘rinlarda Nazrul Islom deb atalgan lirk xarakterning epik qiyofasini ko‘ramiz.

“Ruhlar isyon”da dramatik sahnalar, lirk bo‘yoqdor lavhalar bisyor, lekin ular dostonning hikoya qilish, bayon etish shaklini o‘zgartirmaydi, balki mana shu shaklga singib ketadi. Muallifning “aralashuvi” asosiy tasvir tarziga aylanmaydi. Muallifning o‘z nomidan gapisirishiga Nazrul Islom xarakteri monelik qiladi. Chunki muallifni Nazrul Islom qismati hayratga solgan, bu hayrat esa o‘sha lirk xarakterning boshidan kechgan savdolarni hikoya qilish bilangina reallashadi. Erkin Vohidov Hindiston fojiasi orqali O‘zbekistonni, Nazrul Islom qismati asosida o‘z qismatini ko‘rdi. Shu bois Nazrul Islom fojiasi darj etilgan “epik bosiqlik” jarayonida o‘z ehtiroslarini yashirmaydiki, bu lirk chekinishlarda namoyon bo‘ladi.

Jamol Kamol XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning “Tosh tug‘yon” (1971), “Quyosh chashmasi” (1972), “Armon” (1973), “Eshikda oy to‘lqini” (1974), “Varaxsha” (1975) kabi dostonlari birin-ketin e’lon qilindi.

Ushbu dostonlar ham muayyan voqealarni hikoya qilish usuliga bo‘ysundirilgan. Uning “Armon” dostoni unchalik katta hajmga ega emas. Ushbu ixcham asarda Shirin kampir hayotining so‘nggi kunlari lirk tasvirlar vositasida epik bayon etiladi.

Uch oydirkim,  
Sovuq xabar besabr,  
Qishloq bo‘ylab charx uradi shitobda:  
“Shirin kampir ko‘z yummoqda ko‘p og‘ir,  
Shirin kampir ko‘z yumolmay, azobda...” (212, 7).

Uchta o‘g‘lini jangga jo‘natib, uchta qoraxat olgan Shirin kampir ko‘z yumolmay qiynaladi. Xud va bexudlik oralig‘ida yotgan Shirin kampir alahsirab o‘g‘illarini tush ko‘radi, ular bilan xayolan gaplashadi. Ana shu yigirma besh betdan iborat doston davomida shoir voqelikka ikki o‘rinda munosabat bildiradi, lekin “aralashmaydi”. O‘lim to‘shagida yotgan Shirin

kampirning so‘nggi lahzalari, jon uzolmay qiynalayotgan iztirobli holatlari epik batafsillik bilan eng xarakterli mayda detallarigacha hikoya qilinadi. Tanlangan sujet voqeasining xarakteri, u har qancha dramatik bo‘lmashin, muallif “aralashuvi”ni talab qilmasdi. Buni teran tushungan Jamol Kamol asar oxirigacha obyektiv tasvir usuliga “sodiq” qoladi, bu izchillik va mantiqiylik me’yorini buzmaydi.

Shirin kampir vafot etgach, asar so‘ngida shoir ana shu yakka, xususiy voqeadan umumlashma ma’no, xulosa chiqaradi va yurtga murojaat qiladi.

Ona kuta-kuta so‘ndi, ularni  
Lekin sen kutasan jonajon,  
Sen kutasan shahid o‘g‘lonlaringni,  
Aziz O‘zbekiston – onajon!  
Buloqlar emas bu – bog‘laring aro,  
Intizor ko‘zingda sog‘inch yoshidir.  
Qoyalar emas bu – tog‘laring aro,  
Bag‘ringga zil cho‘kkan hijron toshidir...(212, 32).

Lirik xotima vazifani o‘tayotgan muallifning bu munosabati ham hikoya qilish usuliga “shikast” etkazmaydi. Jamol Kamolning boshqa dostonlarida bo‘lgani singari bunda ham muallif “men”i sahnaga chiqmaydi, balki sahna ortidan voqelikni kuzatib boradi, xulosa chiqaradi, kechayotgan voqelikka daxl qilolmaydigan munosabatini bildiradi, voqelikdan mutaassirlanish jarayonida xitoblar qilib turadi.

Dostonlarning hikoya qilish usuli asosidagi bunday qurilishi romantik dostonlar uchun ham, realistik dostonlar uchun ham xos.

Dostonlarda epik tasvir usulining dominantligi an'anasi bugungi kunlarda ham davom etmoqda. Chunki bu hikoya qilish usuli dostoniy tafakkur tarzini aks ettirishning sinalgan, ishonchli yo‘lidir.

Jamol Kamolning 1983 yilda yaratilgan “Rajab Ashurov dostoni” asari ham obyektiv voqelikning nazmiy ifodasi sifatida e’tiborni tortadi.

Jamol Kamolning “Rajab Ashurov dostoni” asaridagi obyektiv tasvirning yetakchiligi shoir shaxsining o‘z nomidan gapirolmasligi bilan belgilanmaydi, albatta. Tanlangan mavzuning xarakteri epik tasvir usulini talab etyapti.

Yiroqlardan –  
Kishnab kelar jiyron ot,  
Tuyog‘iga taslim bo‘lib maydonlar.  
Dupur-dupur qadamlari biyron ot,  
Yalt-yult yonib ko‘zlarida osmonlar.  
U qirlarni, ko‘klamlarni sevadi,  
Maysalarni, shabnamamlarni sevadi... (213, 40).

Doston ana shunday epik manzaraning lirik talqini bilan boshlanadi. Salkam olti bet davom etgan bu epik tasvir bayoniga ikkinchi epik obraz Rajabboy kelib qo'shiladi. Natijada epik tasvirni bo'yoqdor etib kelayotgan lirizm bir qadar susayadi, obyektiv tasvirning butun asar miqyosidagi faolligi kuchaya boradi. Shoирning "men"i o'z ichida qoladi, u endi voqeani hikoya qiluvchi, kuzatuvchi vazifasiga o'tadi. obyektiv epik tasvir jarayonida shoир "men"ining voqelikka munosabati ma'lum darajada u qo'llagan badiiy tasvir vositalardan, dramatik shiddatning ko'tarilishi va pasayishidan, qolaversa, epik unsurlarning o'zaro chatishuvidan sezilib, anglashilib turadi, ammo shoир "men"i voqea-hodisalarga shaxsan aralashib, voqealar oqimini boshqa o'zanlarga burib yuborolmaydi.

Doston so'ngida shoир voqelikni umumlashtirib, o'zida tug'ilgan histuyg'ularni, munosabatini bayon etadi, o'z "men"i nomidan so'zlaydi.

Sen ketding, alvido, deding olamga,

Ko'zda yoshimizni selday toshirib...

Men qanday chidayman bu g'amga,

Aziz birodarim – Rajab Ashurov! (213, 68).

Biroq bu o'rindagi shoир "men"ining aralashuvi, "biz", "men" nomidan so'zlashi voqelik harakatini o'zgartirolmaydi, balki voqelikka munosabatni oydinlashtirayapti, xolos.

Demak, liro-epik dostonlarda, hikoya qilish, bayon etish usulida bitilgan asarlarda muallif "men"i shaxsan ishtirok etmaydi. Liro-epik tasvir bunga yo'l qo'ymaydi.

Endi shoир "men"i orqali shakllanadigan ikkinchi tasvir tabiatini ko'rib chiqamiz.

## 2.2. Doston markazida shoир shaxsiyati

Doston janri o'z shakllanish va taraqqiyoti davomida obyektiv olamni chuqur va har tomonlama aks ettirishga intilib keldi. Buning natijasida muayyan voqealar silsilasini hikoya qilish asosidagi dostonlar bilan bir qatorda asarning poetik g'oyasini shoир shaxsiyati "men"i orqali ro'yobga chiqaruvchi ko'rinishlari yuzaga keldi. Lirik dostonlar ana shu ikkinchi xil ko'rinishni ifoda etuvchi asarlardir.

Doston asli obyektiv borliqni epik ko'lamdorlikda aks ettiruvchi janr. Unda lirizmnинг, shoир shaxsiyatining kuchayishi dostonning ana shu epik ko'lamdorligiga barham bermaydimi degan savol tug'ilishi tabiiy. Ayrim lirik dostonlar tahlili misolida bunga javob topish mumkin.

Lirik dostonlarda muallif shaxsiyati asarning markazi, yadroси sifatida

namoyon bo‘ladi, qolgan barcha unsurlar uning atrofida harakatga keladi. Liro-epik dostonlarda shoir voqelikning hikoyachisi bo‘lsa, lirik dostonlarda u voqelikni harakatga keltiruvchi, o‘zi voqeа yaratuvchi shaxs sifatida ko‘zga tashlanadi. XX asrning 80-90 yillarida shoir shaxsiyati orqali sujeti harakatga keluvchi doston namunalari ko‘plab yaratildi. Biroq o‘zbek lirik dostoni tarixi bugun yo kecha bilan belgilanmaydi. Uning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ana shunday lirik dostonlarning qadimgi namunalaridan biri Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidir.

“Muhabbatnoma” kompozitsiyasi ancha murakkab tuzilgan. Asar muqaddima, voqeа bayoni qismlaridan tashqari g‘azal, masnaviy, nomi, madh, vasfu hol, munojot, qit‘a kabi lirik janrlardan tashkil topgan. Bir qarashda bu she’riy janrlar har biri alohida asar sifatida, ya’ni turkum tarzida taassurot qoldirsa-da, biroq ularni tutashtirib va muvofiqlashtirib turuvchi nuqta bor, bu muallif shaxsiyatidir.

Doston muqaddimasi:

Ulug‘ tangri otin yod qildim,

“Muhabbatnoma”ni bunyod qildim, deb

boshlanadi. Olloh va payg‘ambarlar hamdida so‘z aytilgach, muallif doston yozishdan asosiy maqsadi Muhammadxo‘jabekning iltimosini bajo keltirish ekanligini aytib o‘tadi. “Bayoni voqein aytur” qismida o‘zi va Muhammadxo‘jabek orasida bo‘lib o‘tgan suhbatni hikoya qiladi. Shundan so‘ng asarda voqeа bayoni uchramaydi. Lirikaning yuqorida sanalgan janrlaridan ketma-ket foydalanib, shoir o‘z shaxsiy kechinmalar, taassurotlari, hayratlari bayoniga o‘tadi.

Yuzungda ko‘rdim, ey jon, bayram oyin,

Muning shukronasi qurban bo‘loyin.

Agar kun tug‘masa ham yoqtu qilg‘ay

Yuzing nuri bu dunyoning saroyin... (240, 42-43).

Dostonning g‘azal qismidan olingan ushbu parcha shu tariqa – g‘azal an’anasiga muvofiq davom etadi.

Asarning asosiy qismini tashkil etadigan nomalarda shoir masnaviyining qofiyalanish tartibiga amal qiladi.

Ayo, ko‘rk ichra olam podshohi,

Jahon tutti sening husning sipohi.

Pari ruxsoralarning ko‘rkaboyi,

Yuzing – navro‘zu, qoshing – bayram oyи... (240, 48).

Albatta, gap qofiyalanish tartibida emas. Biroq qofiyalanish tartibi ham asardagi epiklik yo liriklikning qay biri yetakchi usul bo‘lishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Qofiyalanish tartibining masnaviy shakli

ko‘proq liro-epik dostonlar uchun xos. Navoiy dostonlari masnaviy shaklda yozilgan. Xorazmiy nomalarni masnaviy shaklida yozgan bo‘lsa ham, lekin voqeani hikoya qilish, hodisalarini bayon etish yo‘lidan bormaydi. G‘azal, vasful hol, munojotda bo‘lgani kabi nomalarda ham shoir “men”i yetakchilik qiladi. “Muhabbatnoma” ixcham asar bo‘lsa-da, unda davrning epik manzarasi lirik bo‘yoq dorlikda aks etadi. Agar muallif poetik g‘oyasini liro-epik yo‘lda amalga oshirganida doston hajmi kengaygan, epik batafsillik tufayli yana qanchadan-qancha sahifa qo‘shilgan bo‘lardi. Dostonning aynan lirik usulda yaratilishi tanlangan mavzuga ham bog‘liq.

Muallif “men”i asosida yaratilgan ajoyib dostonlardan biri Mirtemirning “Surat” asaridir. Muallif voqeani hikoya qilish yo‘lidan bormaydi. Asar Toshlonning ayrim-ayrim monologlaridan, dil izhoridan, xotiralaridan tashkil topgan. Toshlonning ruhiy izardorblari muallif shaxsiyati orqali oydinlashadi. Shu ma’noda muallif va lirik xarakter yaxlitlik kasb etadi. Toshlonni muallifning “adabiy taxallusi” sifatida qabul qilish kerak.

Mirtemir urushdan keyingi davrning keng epik manzarasini yaratadi. Bu epik manzara obyektiv tasvirlar tufayli emas, balki subyektiv, ichki olam ko‘rinishlarini aks ettirish tufayli yuzaga chiqadi.

Na oltin na javohir edim,  
Armonli bir yosh shoir edim...  
Zuhro bo‘lmasang ham chiroyda,  
Men ishqingda naq Tohir edim.  
Toshlon o‘ldi, degan kim axir?  
Gulday so‘ldi, degan kim axir?  
Nahot poymol qutlug‘ ishq ahdi,  
Bol bo‘lurmi shunchalar taxir? (221, 135).

Ana shu lirik satrlardan, voqealarni ilg‘ash mumkin: u Oysuluv ismli go‘zal san’atkori qiz bilan sevishib turmush qurban, otalik baxtiga ega bo‘lgan. Biroq u urushga ketgach ayol erini o‘ldiga chiqarib, boshqaga turmushga chiqqan. Bola ham otasining kimligini bilmaydi. Urushdan qaytgan Toshlon shularni ko‘rib eziladi. Toshlonga sevgisidan birgina surat-u alamlı xotiralar qoladi. Toshlonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini shu surat yagona bir nuqtaga jamlaydi

Surat, surat! Nega sen tilisiz?  
Seni asrab to‘rt yil qo‘ynimda...

Topinardim, o‘pardim...esiz!  
E voh, qanday zil yuk bo‘ynimda  
Seni asrab to‘rt yil qo‘ynimda... (221, 136).

Belorus va rus dostonlarini tadqiq qilgan M.M.Arochko shoir shaxsiyati orqali olamni poetik idrok etish XX asr mahsuli ekanligini to‘g‘ri ta’kidlaydi (12, 203).

Biroq qadim tarixga ega bo‘lgan o‘zbek dostonchiligi uchun bu kashfiyat XX asr bilan belgilanmaydi. Shoir “men”i orqali harakatga keladigan doston ko‘rinishini Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si misolida ko‘rib o‘tgan edik. XX asr o‘zbek adabiyotida bu yo‘nalish qaytadan tug‘ildi. Lirik “men” vositasida olamning epik qiyofasini chizish istiqbolli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilindi. “Surat” dostoni shu yo‘ldagi intilishlarning bir mahsulidir.

Individual shaxsning qalb nidolari lirika o‘zagini tashkil etuvchi asosiy unsurdir. Lirik doston hisoblangan “Surat”dagi epiklik obyektiv tasvirdan emas, balki xarakterning ruhiy holatidan o‘sib chiqadi. 80-90 yillar o‘zbek dostonchiligi uchun tub burilish yillari bo‘ldi. Lirik dostonning maqomi oshdi. Turg‘unlik yillari, “qayta qurish davri”da ijodkor shaxsning jamiyat, ijtimoiy muhit, xalq, Vatan oldidagi burchi yanada ortdi. Xalq dardini, uning dilidagi gaplarni “men” nomidan so‘zlashga ehtiyoj kuchaydi. Ijtimoiy, axloqiy-falsafiy, milliy qarashlarni individual xususiyatlari kamolotga etgan shaxs qarashlariga omuxtalashtirish sezilarli tus oldi. Voqelik endi obyektiv jarayon sifatida emas, balki lirik qahramonning qarashlari, tuyg‘ulari, ruhiy holatlarida aks sado bera boshladи. Lirika asosida bir tuyg‘u, bir holatning tadrijiy rivoji turadi. Zamonaviy dostonlarda esa qahramon bir tuyg‘u, bir holat bilan cheklanib qolmaydi. Dostonda davr nafasini ifodalashga qodir tuyg‘ular silsilasi, xalq ruhini ochishga xizmat qila oladigan ko‘pdan ko‘p holatlar manzarasi namoyon bo‘ladi. Va shu jarayonda katta epopeyalarga asos bo‘la oladigan muhtasham voqelikning botiniy olami ko‘zga tashlanadi.

A.Mahkamning “Tavajjuh”, “To‘rt darvish”, “Ishq”, “Fotiha”, Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Yoziq”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at”, “I.Otamurodning “Sen”, “Sopol siniqlari”, “Istarim”, T.Nizomning “Giry” kabi qator dostonlari markazida muallif “men”i turadi.

Bobur monologi sifatida yangraydigan “Tavajjuh” tili muallif nutqining polifonik ko‘rinishidir. Bobur ruhidagi g‘alayon, tuyg‘ular taloshi shaxs va taqdiri azal munosabati tarzida ro‘yobga chiqadi.

Topmadim, ey, Bobur, na biror odam,  
Na Vatan, na mazor, na yor-u na mehr...

Yo, tangrim, iymonni salomat qilgil,

Yo, tangrim, oson qil, o'zing madad ber!.. (219, 255).

"Men" bilan boshlanib, "men" bilan poyoniga yetadigan kechinmalarining tizimi muallifning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini tushunishiga imkon beradi. Asarning biror satrida epiklik unsurlari uchramaydi, barcha misralar ruhiy kechinmalar tahliliga qaratilgan. Biz ana shu kechinmalar tahlili vositasida voqelikdan ogoh bo'lamiz.

Lirik "men" asosiga qurilgan dostonlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda turli davrlar, zamonlar, xalqlar tarixi birlashib ketadi, yuz yilliklar, ming yilliklar yagona nuqtaga jam bo'ladi. Lirik qahramon go'yoki insoniyat tarixinining markazida turgandek taassurot qoldiradi. U barcha voqe-hodisalarga "aralashadi", o'zi ham ishtirok etayotgandek xulosa qoldiradi. O'z qalbi va ongida bong urayotgan tarixiy hodisalarni chamalaydi, o'lchaydi, xulosa-saboqlar chiqaradi, muayyan umumlashmalarga keladi.

Asqar Mahkam Boburni shakllantirgan diniy va tasavvufiy ilmlardan yaxshi ogohligi, Bobur asarlari va dunyoqarashidan xabardorligi bois shoh va shoир Boburning xarakterini izchil va mantiqiy ochib berishga erishgan.

Ma'lumki, har bir yetuk asarda qahramon nutqidan uning kasb-kori, dunyoqarashi, yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqeyi anglashilib turadi. Jumladan, "Tavajjuh"da ham aytidayotgan har bir so'z, fikr, misra faqat va faqat Boburga xosligi sezilib turadi. Bobur o'ylari vositasida muhit shafqatsiz tahlil etilar ekan, unda Bobur va muallif qarashlari yaxlitlik kasb etadi.

"Ishq" dostonining lirik qahramoni qiyofasida aniq bir davr kishisini ko'rmaymiz. Bu lirik qahramon hamma davrlar va zamonlar uchun ham xarakterli bo'lib qoladigan kayfiyatlar sultanatida yashaydi.

...Bashar qolsa besar-u bebasar badtar

valiylarni chillaxona tortib ketsa

darvishlarni ulus quvsiga ko'chalarda

qalandarni it talasa har eshikda

Eldan nomus ketib

Elda el qolmasa

Erdan nomus ketib

Erda er qolmasa

Poklar kirib ketay desa, Er bo'lmasa

O'layotgan bir bandaning qulog'iga

Birov "Olloh" kalomini joylamasa

Harom o'lsa kecha mo'min bo'lgan kaslar...

Avliyolar faryod chekib go‘rdan qo‘par... (220, 4).

“Tavajjuh”da bo‘lganidek, “Ishq” dostonida ham surat va siyrat, nafs va ruh, ishq va o‘lim tushunchalari to‘qnashadi. Olamning o‘zi kabi qadimiy bu falsafiy tushunchalar talqinida lirik shaxsning ma’naviy olami namoyon bo‘ladi.

T.Nizomning “Giry” dostoni markazida ham lirik qahramon obrazi turadi. Musibat va ruhiy iztiroblar manzarasidan iborat bu dostonning qurilishi Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sini yodga soladi. “Muhabbatnoma”da bo‘lgani singari “Giry”da ham muallif kechinmalari tasvirini har xil lirik janrlar ro‘yobga chiqaradi. Lirik qahramon botinidagi o‘zgarishlar masnaviy, musallas, murabba, muxammas, g‘azal, ruboiy she’riy shakllari va janrlarida namoyon bo‘ladi. Guyo tartibsizdan sochilib yotgan, har biri alohida asardek taassurot qoldiradigan bu lirik parchalarni lirik qahramon shaxsi, uning ma’naviy olami birlashtirib turadi.

Markazida lirik qahramon turgan dostonlarda “men” nutqi polifonik xususiyat kasb etadi. Muallif “men”i “biz”, “siz”, “u” tilidan gapirishi mumkin, biroq ifoda tarzidagi bu o‘zgarish doston qurilishiga zarar etkazmaydi. “Biz”, “Siz”, “U” ning nutqlari “men” tilining turli shakllari ekanligi ayonlashadi.

“Ishq” dostonida Asqar Mahkam Gado va Odam Ato obrazlarini olib kiradi. Odam va olam munosabatlarini keng falsafiy miqyosda qamrab olishga harakat qilingan bu asardagi Gado, Odam obrazlari lirik “men”ning aynan o‘zidir.

Dedi gado – ishq keltirdim qo‘llarimda  
Qo‘llarimda mana sofol kaftlarimda  
Ko‘zlarimda mana buloq ko‘zlarimda  
Oyog‘imda oriq yoriq oyog‘imda  
O‘nglarimda  
So‘llarimda  
Tushlarimda  
Ishq keltirdim – dedi gado (220, 8-9).

Markazida shoir shaxsiyati turgan dostonlar tili “men”, “biz” nutqidan so‘zlash bilan cheklanib qolmaydi. Ma’lum hodisani, xarakterli voqeani hikoya qilish usuli bu doston shakli uchun yot emas. Biroq bu hikoya usuli voqealarni xronologik tartibda bat afsil hikoya qilish usuli bilan emas, balki lirik shaxs tasavvuridagi manzaralarni ifoda etish orqali namoyon bo‘ladi. Gado tilidan keltirilgan yuqoridagi lirik parcha lirik qahramon tasavvuri va tafakkuridagi ana shunday manzara chizgisidir.

“Ishq” dostonida Gado va Odam Atoning savol-javoblari lirik “men”

nutqini yanada bo‘yoqdor etishga, epik qamrov doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois lirik qahramon bir davrdan ikkinchi davrga, bir masaladan ikkinchi masalaga o‘tishda qiynalmaydi.

Epik voqeabandliksiz ham olamning epik tasvirini chizish mumkinligini Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Yoziq” dostonlar isbotlaydi.

“Yoziq” dostoni shoir tasavvurlarining assotsiativ bog‘lanishi asosiga qurilgan. Kitobxonning badiiy saviyasiga tayangan shoir insoniyat yozig‘ini miflar, afsonalar, rivoyatlar, hamda diniy qarashlar sintezi orqali ko‘rsatishga intiladi.

Gulning kosasiga quyib ichar vaqt

Meni – limmo – lim (239, 43), - degan noodatiy satrlar bilan boshlanadi va doston shu tarzda davom etadi.

Havo un tortadi – xudo bexabar!-

Saxush vaqtning boshida.

Bug‘doyini tortib olar.

Tabariy

Tarix bitar g‘orning toshiga.

Tarix – gunohlar – turnaqator.

Yoziqqa? termular ko‘r (savod) sichqon.

Devning haramidan qochgan qurbaqa ham

G‘orga kelib bitiklarni hijjalar, ne tong!.. (239, 44).

Quyuq metaforik yo‘lda bitilgan bu asarni idrok etish, tushunish jiddiy e’tiborni talab etadi. Lirik qahramon tasavvurida tarix voqe-a-hodisalari aralash-quralash bo‘lib ketgan. Tarixiy xotiralar zalvaridan zo‘riqqan tafakkur ularning barchasini qamrab olishga qodir emas. Inson, insoniyat yozig‘ini yorita olishga xizmat qila oladigan eng zarur hodisalarga e’tibor qaratiladi. Ammo bu hodisalar bayoni ham tagma’noli bir-ikki satrga jo bo‘ladi. Metaforik tafakkur qudrati shunda namoyon bo‘ladiki, insoniyatning yuz yillik, ming yillik tarixi ikki-uch satrga singdiriladi. Butun boshli dostonlar, afsonalar, epopeyalar ishora etilgan bir so‘z yo bir jumla vositasida anglashiladi.

Bozingar yutgan qilich singari

Quduqning bo‘g‘ziga qamish qadalar.

Cho‘pon yo‘q nay yasab olgani,

Qishloqqa qaytmadi hali podalar (239, 46).

Ko‘rinib turibdiki, Iskandarning shoxi haqidagi rivoyat shu misralarga jo bo‘lgan. Lirik “men” o‘zi aytganidek, vaqt girdobida oqyapti, insonlar tarixini ko‘rib turibdi, rivoyatlarini eshityapti, hodisalarda ishtirok

etaryapti, o‘tmish, bugun, kelajak uning tasavvurida qo‘nalg‘asiz qushlardek charx uryapti, go‘yoki dunyo tarixi, insoniyat qismati uning qalbida ro‘y beryapti.

Insoniyat qismatini poetik idrok etish Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostoni uchun ham xos. Shoir shaxsi hayotning turli jabhalarini aks ettirayotgan ko‘zgu. Bu ko‘zguda yaxshi ham, yomon ham, qulluq ham, qullik ham, orif ham, gumroh ham namoyon bo‘laveradi. Doston o‘n besh bob va xotimadan iborat. Har bir bob hayotning turfa bir qirrasini, og‘riqli bir masalasini taftish qiladi, baho beradi, xulosa yasaydi. Kinomontaj uslubini eslatuvchi bu yo‘nalish shoirning ma’naviy dunyosini ochishga qo‘l kelgan. “Yoziq”da bo‘lgani singari “Izohsiz lug‘at”da ham lirik “men” insoniyat tarixi markazida turgandek tuyuladi. Asarning barcha unsurlarini uning markazida turgan shoir tayin etadi. Bu o‘rinda voqealarning izchilligi emas, tasavvurlarning mantiqiyligi muhim. Lirik qahramon bir voqeani mutlaqo unga daxli bo‘lmagan boshqa bir voqe bilan solishtiradi, taqqoslaydi, qarama-qarshi qo‘ydi hamda boshqa bir hodisaning kelib chiqishi uchun zamin hozirlaydi. Albatta, dostonning bunday tartib berilishida falsafa fanining, abstraktsizm, simvolizm, ekzistentsializm singari adabiy-estetik yo‘nalishlarning hissasi katta. Realizm va romantizmning omuxtalashtirilishi lirik “men”ning makon va zamondagi harakatini erkinlashtiradi, endi u tarixiy hodisalarga shaxsan ishtirot etishi mumkin.

Olamda Odam Isoni mixlardi ustunga,  
Muhammadni toshparron qilardi quvonib.  
Sulaymon farzandlarin zirillatardi,  
Yusufdan qizg‘anardi sevgini... (244, 116).

“Izohsiz lug‘at”dagi bu tasvir bilan tarixiy voqelik orasida salkam ikki ming yillik masofa bor. Lirik shaxsning o‘sha voqealarni ko‘rishiga janr imkoniyatlari monelik qilmayapti.

Shoir shaxsining doston markazidan muhim o‘rin olishi 80-90 yillar adabiyotining jiddiy yutug‘idir. Shu yo‘nalish tufayli falsafiy fikrlashga intilish kuchaydi, psixologik tahlil teranlashdi, estetik tafakkur yangi bosqichga qadam qo‘ydi.

Markazida shoir shaxsiyati turadigan yangi yo‘nalishdagi dostonlar qisqa davr mobaynida o‘zlarining yashashga qodir ekanliklarini davr sinovidan o‘tkazishdi.

## **2.3. Obyektivlashtirilgan xarakter va lirk xarakter**

Dostonchilikka oid tadqiqotlarda “liro-epik doston”, “liro-epik tasvir”, “liro-epik tur”, “liro-epik janr”, “liro-epik xarakter” kabi atamalar ko‘p ishlataladi. Shu bois biz “liro-epik xarakter” o‘rnida “obyektivlashtirilgan xarakter” atamasini ishlatishni ma’qul topdik.

Adabiyot – xarakterlar saltanati. Xarakterlar yaratilyaptimi, demak, adabiyot mavjud. Xarakterlarning rang-barangligi, turli-tumanligi adabiyotning boyligini tashkil etadi. Shu bois yetuk so‘z san’atkorlari xarakter yaratishga mas’uliyat bilan yondashganlar, xarakterlarning betakrorligiga, bir-biriga o‘xshamasligiga alohida e’tibor bergenlar. “Muayyan iroda yo‘nalishi inson xarakterini belgilaydi” (10, 31), - deb yozadi Aristotel. Demak, yaratilajak har bir xarakter o‘zining yashash va hayot yo‘liga, o‘ziga xos fe’l-atvorga, tafakkur va fikrlash tarziga ega bo‘lmog‘i lozim. Har bir asarda jinsiy va janriy xususiyatlari muvofiq xarakter yaratiladi. Epik va dramatik asarlarda xarakter voqeal-hodisalar va xatti-harakat bag‘ridan o‘sib chiqadi. Lirkada esa bu hol tuyg‘ular tizimining muayyan manzarasini chizish orqali amalga oshadi. Doston esa xarakter yaratishning ana shu usullarini o‘zida birlashtiradi.

Badiiy asardagi turli usullar va bayon tarzi uning mazmunini ochishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Lekin ularning bu boradagi vazifalari bir xil emas: agar sujet va kompozitsiya qurilish tarzi hisoblansa, uning obrazi mazmunni ochishga xizmat qiladigan asosiy vositadir.

Doston obrazlari haqida gapirilganda “personaj”, “bosh qahramon”, “tip” kabi atamalar ishlatalib kelinyapti. Epik va dramatik turga xos bu atamalarning dostoniga nisbatan ishlatish hamisha ham o‘zini oqlamaydi. Chunki dostonning o‘ziga xos qurilish va tuzilish tarhi mavjud. Dostoniy obrazlar, eng avvalo, xarakter xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi.

Doston o‘z taraqqiyoti davomida qator o‘zgarishlarni, yanglanishlarni boshdan kechirgan janr. Tabiiyki, undagi obrazlar ham o‘zgarish va yangilanishda. Har qanday epik va lirk xarakter tarkibida muayyan darajada dramatizm mavjud. Chunki dramatizm xarakterni yuzaga chiqaradigan, uning hayotiy asos va mantig‘ini belgilaydigan tasvir usuli. Xarakterning xarakterligi uning zamiridagi dramatizmning keskinligi, o‘tkirligi bilan belgilanadi. Xarakter va dramatizm yaqinlik va yaxlitlik kasb etuvchi sinonimik qator darajasiga yetgan. Shu sabab dramatik xarakter demaymiz. Shulardan kelib chiqqan holda dostonlardagi xarakterlarni obyektivlashtirilgan va lirk xarakterlarga ajratish maqsadga

muvofiq. Zotan, bu ikki xarakter ko‘rinishi dostonning mohiyatini o‘zida jamlashga qodir mazmun unsurlaridir.

“Xarakter qurilishi asosan ikki yo‘nalishda amalga oshadi, - deb yozadi Baxtin. Birinchisi, klassik xarakter qurilishi, ikkinchisi, romantik xarakter qurilishi. Klassik xarakter qurilishida inson taqdiri asosiy o‘rin tutadi, romantik xarakter qurilishida g‘oyalar, ideyalar bosh asos sanaladi” (16, 152).

Mumtoz og‘zaki va yozma dostonchiligimizda ko‘proq inson taqdiri asosiy o‘rin egallagan bo‘lsa, XX asr o‘zbek dostonchiligi uchun “romantik xarakter qurilishi”, ya’ni ma’lum g‘oyalar tashuvchi, ifodalovchi xarakterlar xos. N.Rahimjonov XX asrning 30-60 yillari dostonchiligidagi ilgari surilgan g‘oyalar va mavzularni quyidagicha izohlaydi: “30-yillar dostonlarida, asosan, eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurash, shaxs dunyoqarashidagi ziddiyat, sinfiy kurash kabi konflikt ko‘rinishlari yetakchilik qilgan bo‘lsa, 60-yillarning ikkinchi yarmi, 70-yillar boshida konflikt tabiatidagi ma’naviy-psixologik ziddiyat ko‘rinishi birinchi planga chiqdi” (126, 53).

80-90-yillar dostonchiligi uchun esa komillikka intilayotgan inson g‘oyasi, uning ruhiy-ma’naviy olami yetakchi tasvir obyektiga aylandi. Balandparvoz g‘oyalardan chekinish, har bir hodisani o‘z nomi bilan atash, shafqatsiz realizm 80-90-yillar dostonchiligining muhim xislatlarini tayin etadi.

E.Vohidovning “Ruhlar isyonii”, A.Oripovning “Jannatga yo‘l”, “Ranjkom”, T.Nizomning “Giry”, A.Mahkamning “Ishq”, “Tavajjuh”, “Fotiha”, I.Otamurodning “Sopol siniqlari”, Faxriyorning “Ayolg‘u” kabi dostonlari shular jumlasidandirki, ularda qator liro-epik va lirk xarakterlar yaratildi.

80-90-yillarga kelib o‘zbek dostonchiligi o‘zining mumtoz an’analari o‘zaniga yaqinlasha boshladi. 20-yillardan boshlanib 80-yillargacha davom etib kelgan omonat g‘oyalar o‘rnini samimiylashtirishga dardlar, real hayat manzaralari egallay boshladi. Buni komil inson g‘oyasi kun tartibiga qo‘yilganligidan ham sezish mumkin.

Zamonaviy dostonchilikda o‘zga xarakter ko‘rinishlari: obyektivlashtirilgan xarakterlar, ba’zan ko‘zga tashlanib qoladigan epik xarakterlar lirk xarakterning bag‘ridan o‘sib chiqmoqda. Bugungi dostonlarda lirika qurilishining yetakchi mavqega ko‘tarilganligi xarakterlar tarkibida, tuzilishida shunday o‘zgarishlarni olib kirmoqda. Lirk asarlarda bo‘lgani singari bugungi dostonlarda ham asar tabiatini lirk xarakter belgilamoqda. Bugungi doston lirk xarakterning ma’lum bir

mavzu, muayyan bir masala doirasidagi qarashlari asosiga tiklanmoqda. Ixcham hajmli ayrim dostonlarda, masalan, I.Otamurodning “Sen”, “Istarim”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Yoziq”, “Muchal yoshi”, S.Ashurning “Tunchiroq”, “Atirgul” kabi asarlarida lirik qahramon dostonning butun mazmun-mundarijasini ifodalayotgan yagona xarakterdir. Biroq barcha dostonlarda ham lirik qahramon yagona xarakterligicha qolavermaydi. Ko‘pgina dostonlarda mavzu doirasining kengqamrovligi, mazmunning salmoqdorligi, falsafiy mushohadalarining sertarmoqligi lirik xarakterdan o‘zga xarakterlar yaratilishini ham taqozo etadi. Bunday asarlarda namoyon bo‘ladigan obyekтивlashtirilgan xarakterlar lirik qahramonning o‘ylariga, xayollariga, tug‘yonlariga yangi shiddat baxsh etuvchi obrazlar sifatida sahnaga chiqadi, lirik qahramonning boy ruhiy olamini, romantik dunyosini reallashtiradi. “Jannatga yo‘l”dagi Do‘st, Ota, Ona, “Ruhlar isyoni”dagi rivoyatlar qahramonlari, “Xalil Sulton”dagi Shodimulk, Ayol, “Ishq” dostonidagi Gado, Odam Ato singari obyekтивlashtirilgan xarakterlar lirik qahramon o‘ylarini, kechinmalarini davom ettiruvchi, ularga yangi salmoq va quvvat baxsh etuvchi obrazlardir.

Bugungi dostonlarda o‘zligidan darak berib kelayotgan obyekティブlashtirilgan xarakterlar lirik qahramonning polifonik ko‘rinishidir. Liro-epik xarakterlar bugungi dostonlarga epik kenglik va dramatik shiddat bag‘ishlashda muhim rol o‘ynamoqdaki, quyidagi asarlar tahlili misolida bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Bugungi lirik, liro-epik, dramatik dostonlarning hech birida mustaqil holdagi epik xarakterlar uchramaydi. Boisi bugungi doston janri tabiatи bunga monelik qiladi. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, A.Orlovning “Jannatga yo‘l”, U.Azimning “Xalil Sulton”, “Quyoshli olam”, “Oqpadar”, A.Suyunning “Sarbadorlar” kabi asarlarida rang-barang obyekティブlashtirilgan xarakterlar yaratildi. Xarakterlarning betakrorligi, o‘ziga xosligi jihatidan U.Azimning “Xalil Sulton”i alohida ajralib turadi.

Ma’lumki, Xalil Sulton Temurdan so‘ng uning taxtiga o‘tirgan shahzoda. O‘zining insoniy xislatlari bilan ko‘pgina ijodkor va ilm ahlining diqqatini tortgan shaxs. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Davlatshoh Samarqandiyilar Xalil Sulton haqida iliq fikrlar bildirishadi. Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, Xalil Sultonga juda qisqa muddat tojdorlik nasib etdi. Umri yigit yoshida fojiali yakun topdi. Uning Shodimulkka bo‘lgan sevgisi ham musibatlar girdobidan chiqolmaydi. Ko‘rinib turibdi, Xalil Sultonning butun hayot yo‘li foje’ xalqalardan iborat. Buni chuqur anglab yetgan Usmon Azim Xalil

Sultonning biografiyasini xronologik tartibda hikoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi, balki Xalil Sulton xarakteri ochiladigan oliy nuqtalarga, uning ruhiyat manzaralariga e’tibor qaratadi. Doston davomida Xalil Sultonning liro-epik xarakteri dramatizm va lirizm vobastaligida o‘zligini ko‘rsatadi. Atrofidagi beklarning, amirlarning xiyonati uni ruhan ezadi. Shodimulkka bo‘lgan muhabbat bu ezginlikni yanada kuchaytiradi.

### Xalil Sulton

Shodiyam, bizlardan ixtiyor ketdi  
Hayot ummonida endi bir xasmiz,  
Qayga uloqtirsa, oqamiz nochor... (194, 295).

Xalil Sulton o‘zida tojdorlikni, shoirlikni, oshiqlikni mujassam etgan murakkab xarakter. Uning tabiatan ko‘ngilchanligi bu murakkablikni yanada chigallashtiradi.

Xarakter va xarakterlararo ziddiyatlar konflikt rivojini jonlantirib turadi. Xalil Sultonning ruhiyatidagi ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo‘ladigan qarama-qarshiligini bosib tushadi. Ayni shu sifatga asoslanib, Xalil Sultonni lirik xarakter deyish mumkin, biroq uning lirik xarakter tarzida kasb etayotgan qiyofasi liro-epik tasvir jo‘rligida amalga oshadi. U.Azim Xalil Sulton hayotining eng dramatik lahzalariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Dramatik lahzalar tasviri esa liro-epik omuxtalik bag‘ridan o‘sib chiqadi.

Shodimulkning nutqida Xalil Sultonning bo‘lajak fojiasiga ishora bor:

Shodimulk  
Sultonim, jangohning qonuni qat’iy,  
Seni o‘ldirurlar, sen o‘ldirmasang (194, 147).

Lirik dostonlarda xarakter shakllangan holda namoyon bo‘ladi. Liro-epik, dramatik dostonlarda ham shunday. Mumtoz dostonlarda liro-epiklik, dramatiklik voqeа-hodisalarning tadrijiy rivojidan kelib chiqqan bo‘lsa, bugungi dostonlarda liro-epiklik, dramatiklik shakllangan xarakterning dramatik holatlari tasviridan yuzaga chiqmoqda.

“Xalil Sulton” dostonida mazkur xarakterdan tashqari Amir Temur, Amir Xudoydod, Shafqat devona, Ayol kabi talay xarakterlar ham yaratiladiki, bularning har biri o‘ziga xos fikrlash tarziga, hayot yo‘liga, qiziqish va iroda yo‘nalishiga ega. Dostoniy xarakterlar janr tabiatiga muvofiq lirika va nasrda yaratiladigan xarakterlar oralig‘ida turadi. Shuning uchun bu xarakterni biz ko‘pincha liro-epik xarakter deymiz. Xalil Sulton o‘z hokimiyatini saqlab qolish uchun qattiq kurashishi, xiyonatkorlarni mahv etishi, bo‘yinsunmaganlarni qilich yordamida tiz

cho'ktirishi, xullas, sultanat niholini qon va ko'z yoshlar bilan sug'orishi, oqibatda o'z mavqeyini saqlab qolishi mumkin edi. Xalil Sulton bularning barini tushunardi. Lekin u shunday yo'l tutganida Xalil Sulton bo'lolmasdi. Chunki uning xarakter mantig'i bu narsani ko'tarolmasdi. Uning tabiatidagi halimlik, yumshoqlik bunga monelik qiladi. Taqdir uni sultanat shohsupasiga ko'tardi va qismat undan ayovsiz bo'lishni talab qilardi. Xalil Sultonning fe'l-atvori qismat talabiga javob berolmasdi. Shu sababdan U.Azim talqinidagi Xalil Sulton voqeа-hodisalar girdobida keng quloch yozolmaydi, oqimga bo'ysunib, chor-nochor suzadi, xolos. Bu muayyan xarakterning ifodasi bo'lgan harakat, iroda yo'nalishidir.

Xarakter o'z mazmun mohiyatini faoliyatda ochadi. Shunisi ham borki, xarakter yuzaga chiqmog'i uchun mazkur faoliyatda, o'ylarda, xatti-harakatlarda izchillik bo'lmog'i zarur.

Asardagi Shafqat devona faoliyatida ham muayyan izchillik mavjud. U atrofdagilarning toshbag'irligidan zada bo'lgan qalb tasviri. Devona deyilganda pala-partish xatti-harakat qiladigan, og'ziga nima to'g'ri kelsa, shuni gapirib ketadigan kishi gavdalanadi. Biroq Shafqat devona unday emas. Uning qarashlarida, fikrlarida, o'ylarida ma'lum bir izchillik bor, ruhiy olamida muayyan bir mantiqiylik bor.

Shafqat devona asar davomida bir epizodda ishtirok etsa-da, yodda saqlanib qoladi. U kun bo'yi ishlab topgan choy-chaqasiga daryo bo'yidan baliq sotib olib, ularni qayta suvga qo'yib yuboradi. Shu rahmdilligi uning boshiga etadi. Baliqchilar uni suvga cho'ktirib yuborishadi. Rahmdillikning ko'pincha kulfat keltirishi Shafqat devona taqdiri misolida ko'rsatilar ekan, shu orqali Xalil Sulton qismatiga ishora qilinadi. Shafqat devona Xalil Sulton fe'l-atvorini to'ldiruvchi epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. U o'zining rahmdilligi bilan ma'lum darajada Xalil Sulton obraziga yaqinlashadi.

Asardagi har bir parcha, bo'lak, nutq, tush ta'biri, hodisa tasviri, fakt, dialog obyektivlashtirilgan xarakterlarning muayyan qirralarini to'ldirishga qaratilgan. Asar tilining lakonik xususiyati, badiiy tasvir vositalarining barcha-barchasi ana shunga xizmat qiladi.

T.Nizomning "Giry" dostoni umr yo'ldoshining vafoti munosabati bilan yozilgan. Qirq kunlik musibat tasviriga bag'ishlangan bu asarda munosabatlarning samimiyligi, musibat ruhining zalvari sezilib turadi. Marsiya davomida shoир fojeiy holatini, kechinmalarini tasvirlar ekan, yozilayotgan shakl musibat ko'lамини to'la aks ettirishga ojizlik qilayotganligini sezadi va turli-tuman janrlarga murojaat qila boshlaydi. Natijada lirik qahramon xarakteri o'zining turfa qirralari bilan namoyon

bo‘la boshlaydi. Mumtoz dostonlarda xarakter qiyofasini muayyan konflikt belgilab beradi. Lekin “Giry”da ochiq konflikt yo‘q. Lirik xarakter o‘yovlar va yo‘qlovlar izhori orqali namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy giryaning, ya’ni yig‘ining turli xil ko‘rinishlari mavjudligini “Muhokamatul lug‘atayn”da e’tirof etib o‘tadi. Yig‘lamoq, ingramak, singramak, siqtamoq, o‘kirmoq, inchkirmoq kabilarni forsiyda giry so‘zi bilan ifodalaydilar. Boshiga musibat tushgan odam bir xilda yig‘lamaydi, albatta. Ruhiy jarayonning mahsuli bo‘lgan bu qayg‘u shamoyili turli holatlarda turlicha bo‘ladi. Shu bois To‘lan Nizom qalb iztirobini turli shakllarda (masnaviy, musallas, murabba’, muxammas) tasvirlaydi va bu usul o‘zini oqlaydi.

Vodarig‘, iqbolim zabunmi chunon,  
Dunyodan yuz burib, kulbamga cho‘kdim!  
Qonim siyoh bo‘ldi, qalbim siyohdon,  
Qirq kun mushkulotin qog‘ozga to‘kdim! (227, 137).

Shoir giry davomida Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Muqimiylari shoirlarning darchil, hasratli g‘azallariga muxammas bog‘laydi. Ulug‘ shoirlarning g‘azallaridan hamdardlik tuyadi. Fojia ko‘ngil tubida cho‘kib yotgan tuyg‘ularni junbishga soladi, tasavvurdagi qo‘nalg‘asiz ko‘ngil sadolari tasviri, iztiroblar tug‘yoni assotsiativ ravishda moddiyasha boshlaydi. Shu tariqa lirik xarakter shakllanadi.

Qirq kunlik hasrat sharhi bo‘lgan bu doston xususida Ikrom Otamurod “Giry ko‘ngil maydonida ko‘milgan mangu ayriliq, ko‘ngil imkonida ulg‘aygan abadiy hijron” ekanligini e’tirof etadi.

Dostonda lirik tur janrlari va shakllarining qorishiq holda berilishi ruhning erkin parvozini ta’minlagan.

Yo‘ldan urmang, qaytmagaymen, endi kirdim o‘tg‘amen,  
Nuri pokmen, qo‘shilurmen to quyoshg‘a etg‘amen,  
Ham gunohim, ham alamim, dardim bila ketgamen,  
Eyki debsiz pandingizdin bodani tark etgamen,  
Tark etay avval meni shoistai pand etsangiz (227, 145).

Asarni turli-tuman janrlar vositasida ziynatlash zamonaviy dostonchiligimizda kuchayib boryapti. Erkin Vohidov “Ruhlar isyoni” dostoni bilan shu usulning ajoyib namunasini yaratgan bo‘lsa, Ikrom Otamurodning “Sen” dostonida bu hol o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

“Sen” dostoni ixcham hajmga ega bo‘lib, mumtoz dostonchiligimizning hamd, na’t, munojot kabi shakllarini yodga soladi. Shoir qalb kechinmalarini vazn va turoqlanishi erkin bo‘lgan qorishiq janrda bayon etadi.

To‘kiladi ko‘nglung yafroqlari moh,  
Ellar shikvasida yiroqdan-yiroq.  
Uch nuqtalar - so‘lg‘ingina oh,  
Uch nuqtalar - titroq (230, 70).

Ikrom Otamurod talay she’rlarida bo‘lgani singari dostonida ham muayyan so‘zlarga poetik salmoq yuklaydi. Bunday so‘zlar cho‘zilgan, siqilgan, sindirilgan shakllarga kiradi va shoirning poetik maqsadini ifodalashga xizmat qiladi.

Yolg‘izlik - sen kabi sukun ...  
Yolg‘izlik - sen kabi xushro‘y ...  
Yolg‘izlik - sen kabi ma'yus ...  
Yolg‘izlik - sen kabi ... (230, 64).

“Sen” dostonida epiklik belgilari: biror bir detal, hodisa, fakt muhim o‘rin tutmaydi. Shu bois lirik qahramon holati ixcham va siqiq satrlarga jo bo‘ladi. Shoir kompozitsion yaxlitlikni saqlash maqsadida maktub shaklidan ham foydalanadi. Lirik qahramon muayyan kechinmalar izhoridan so‘ng maktubga, ya’ni obyektiv koordinat qutbi hisoblangan “sen”ning xatiga e’tibor qaratadi. Va shu asosda yana ko‘ngil manzaralari tasviriga o‘tadi.

Adabiyotshunos I.I.Gribushin she’riy janrlarni tasnif etishda subyektning obyektga munosabati asosiy qoida sifatida qabul qilinishi lozim, degan fikrlarni o‘rtaga tashlaydi va “men”, “biz” subyekt, “sen”, “siz”, “u”, “ular” obyekt qismlardir, degan xulosaga keladi (37, 145).

Bizningcha, bu xulosani lirik asarlarning janrini tayin etishda emas, balki “men” va “sen” munosabatlarini oydinlashtirishda qo‘llash mumkin. Demak, “Sen” dostoni “men” ruhiy olamidagi o‘zgarishlar silsilasini ko‘rsatish asosiga qurilgan.

60-80-yillarda yaratilgan dostonlarda, asar mavzuidan qat’iy nazar, davrning ijtimoiy-siyosiy muammolarini ko‘tarib chiqish udumga aylangan edi. Intim xarakterdagи asar tabiatи hamisha ham publitsistik ohangni ko‘taravermaydi.

“Sen” dostonining lirik xarakteri siy whole side of the coin osida biz kurashchanlikni, faollikni, ijtimoiy g‘oyalar tashish xislatini ko‘rmaymiz. Bu lirik qahramon dardchil hislari, mahzun kechinmalar, bezovta tuyg‘ulari bilan namoyon bo‘ladi.

Qalbim tomirlari ilingan  
Royishi, xohishi muztardir.  
Sog‘inar xotirlar gurungin,  
Armonlar gurungin istaydir (230, 71).

Ikrom Otamurodning “yangi dostoni iforli ... she’riyatga to‘la” (179, 25), - deb yozadi Yo‘ldosh Eshbek.

Davr hodisalari, zamon o‘zgarishlari inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-madaniy, siyosiy-adabiy kayfiyatlar oqimi qalbga yo‘naladi, uning zarblariga ta’sir ko‘rsatadi. She’riy asar qalbning o‘ta shaxsiy, shu barobarda o‘ta ijtimoiy mahsuli bo‘lganligi bois zamonning o‘zgarayotgani, tafakkurning yangilanayotgani unga ham o‘z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o‘zgarishlarning, o‘sishlarning tasvir oynasi. Unda g‘oyalarning taraqqiyotlarini, inson ongi va ma’naviyatining o‘sish tarixlarini, ijobiy yangiliklar kasb etish jarayonlarini kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan farq qiladi, bir ijodkor yaratgan xarakter o‘zga ijodkor ro‘yobga chiqargan xarakterdan farqlanadi. Biroq bu xarakter va qahramonlar tabiatida mushtarak jihatlar ham mavjudki, bu, eng avvalo, zamondoshlarimiz ruhiy olamini badiiy tadqiq etishda ko‘rinmoqda.

Keyingi yillarda, ayniqlsa, mustaqillikdan so‘ng tarixga, qadimiy qadriyatlarga, jumladan tarixiy shaxslar hayotiga qiziqish bir qadar ortdi. Shunday siymolardan biri 3ahiriddin Muhammad Boburdir. Adabiyotimizda Bobur shaxsiyatiga bag‘ishlangan talay she’rlar bilan bir qatorda yirik epik va lirik dostonlar ham yaratilmoqda. Ana shunday dostonlardan biri Asqar Mahkamning “Tavajjuh” dostoni sujeti Bobur o‘ylari, xayollari asosiga qurilgan bo‘lsa, To‘lan Nizomning “Uch so‘z” dostonida Bobur faoliyati liro-epik voqeabandlik asosida tasvirlanadi.

“Tavajjuh”da Bobur ruhiyati keng ko‘lamda izchil va mantiqan o‘z ifodasini topadi. Asqar Mahkam Bobur hayoti va faoliyatining tarixiy sanalariga emas, balki uning psixologiyasiga, ruhiyat manzaralariga e’tibor qaratadi.

Topmadim, qonimga belab ilkimni,  
Artaman ko‘ksimdan ishqing dog‘larin.  
As’hoblar jasadin chuqurlarida,  
Chumoli izlaydi dil ushoqlarin (219, 254).

Boburning barcha lirik asarlarida, “Boburnoma”da insoniy dard va izardirob, inson qismatining chigalliklari, mahzun ko‘ngilning samimiy izhori balqib turadi. Shu ruh, shu pafos “Tavajjuh” dostoniga ko‘chgandek taassurot qoldiradi, shoh va shoир Boburning ruhi bezavoli tilga kiradi, xarakterining yangi-yangi qirralari ochiladi.

“Tavajjuh”dagi Bobur timsolida bandalikka bo‘yinsungan aftoda shoh, umrning oniy kayfiyat yanglig‘ omonat, ajib tush misol o‘tkinchilagini anglab etgan shoир, kuloh, kachkul va chorig‘idan bo‘lak

hech vaqosi bo‘lмаган darvish, insoniyat tarixiga tafakkurning sovuq ko‘zlari bilan boqayotgan faylasuf, judoliklar va ayroliqlardan zada va ozurda bo‘лган ко‘ngil faryod chekadi, nola qiladi, tavallo etadi, o‘tinadi, o‘kinadi.

Yo Rabbiy, tog‘larning qorlari kuysin,  
Buloqlar charaqlab oqsinlar quyi.  
Kushxona poyida yashagan itdek,  
Boburing bu olam haqqidan to‘ydi (219, 258).

“Tavajjuh” asos e’tibori bilan lirik doston bo‘lsa-da, unda Bobur o‘ylarining, andishalarining, kechinmalarining epik va dramatik keng qamrovligi asar tabiatini tayin etadi. “Tavajjuh” dostoni shaklan lirik, mazmunan dramatik, mantiqan epikdir.

Lirik tilning lakonik xususiyati, ko‘chma ma’no tashuvchi badiiy tasvir vositalarining faol qo‘llanishi, mazmunning falsafiy salmoq dorligi, asar sujeti uchun dramatik asosning tanlanishi dostonga alohida shukuh bag‘ishlagan, Bobur Mirzoning betakror xarakterini tiklashga imkon bergen.

“Jamiyat mukammallashtirilgan va kengaytirilgan shaxsiyatdir, shaxs esa siqilgan, ixtisoslashtirilgan jamiyatdir. Axloqiy-tarixiy vazifa shaxs va jamiyat hamkorligini tuzishmas, balki anglashdan iborat” (132, 65). Jamiyat shaxsiy sifatlari kamolotga etgan insonlarsiz jamiyat bo‘lomaganidek, shaxs ham jamiyatsiz ro‘yobga chiqmas. Shunday ekan, biz bu ikki tushunchaga yaxlit bir butunlikning ikki qirrasi sifatida qaramog‘imiz lozim.

Faylasuflar insonning axloqiy olamini bir-biriga chambarchas aloqador uch yo‘nalishga bo‘lib o‘rganishadi:

a) axloqiy tushuncha; b) axloqiy munosabat; v) axloqiy xatti-harakat.

Hayotda ham, adabiyotda ham ana shu axloqiy o‘lchovlar doirasida yashayotgan shaxs doimo diqqat markazida bo‘lib kelganki, Xalil Sulton, Mirzo Bobur, Nazrul Islom ana shunday shaxslar obrazidir.

Adabiyotimizda Bobur haqida anchagina prozaik asarlar yozildi. Bu asarlarning yaratilishida “Boburnoma”, “Humoyunnoma” kabi memuar bitiklar muhim manba vazifasini o‘tadi. Biroq Boburning lirik siymosi ilk bor “Tavajjuh” dostonida o‘zining ravshan ifodasini topdi.

90-yillar o‘zbek dostonchiligidagi yaratilgan voqeaband epik yo‘nalishdagi asarlar barmoq bilan sanarli. To‘lan Nizom “Uch so‘z” dostonida ana shu yo‘nalishni tanlaydi. Shoир dostonida Boburning tug‘ilishidan tortib, so‘nggi yo‘ligacha bo‘лган ayrim voqea-hodisalarni, ertaknamo rivoyatlarni qamrab oladi.

To‘lan Nizom dostonchilik borasida katta tajribaga ega ijodkor. Uning qator she’riy qissa va dostonlari iliq kutib olindi. Biroq “Uch so‘z” dostoni xususida bunday deyish qiyin. “Uch so‘z”da ham T.Nizom boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi turli xil she’riy shakllardan foydalanadi. Ammo doston markazida turgan sujet voqealari tarix elagidan o‘tgan hodisalarining quruq bayoni bo‘lib qolgan.

Bir mavzuga bir qancha ijodkor murojaat qilishi mumkin. Lekin har bir asar o‘zicha betakror bo‘lmog‘i, mavzuning boshqalar ilg‘amagan o‘zga qirralarini kashf etmog‘i lozim. To‘g‘ri, dostonda ayrim-ayrim hollarda uchrab turadigan ajoyib lirik kayfiyat tasvirlari mavjud, biroq bu tasvirlar mustahkam asosga ega bo‘lmagan voqealarning sayozliklarida yo‘qolib ketadi. Har qanday badiiy asar ehtiros va samimiyat mahsuli bo‘lgandagina kitobxon qalbiga yo‘l topadi. Bizningcha, “Uch so‘z” dostonidagi poetik asos shoir qalbida yetilmasdan yozilgandek taassurot qoldiradi. Shu bois asardagi obyektivlashtirilgan xarakterlarning xatti-harakatida, o‘ylarida sun’iylik, zo‘rma-zo‘rakilik seziladi.

“Poeziya, xususan lirik poeziya boshqa adabiy janrlarga qaraganda voqelikdagi o‘zgarish va yangiliklarga tezroq munosabat bildiradi, voqelikni badiiy o‘zlashtirish ishiga tezroq kirishadi, – deb yozadi adabiyotshunos N.Karimov. – Biroq poeziyaning xuddi shu tabiat诗人 ijoddagi ayrim nuqsonlarni – bayonchilikni, ritorikani, deklarativlikni ham vujudga keltiradi” (61, 81). “Uch so‘z” dostonida ana shunday nuqsonlar ko‘zga tashlanadi.

Shoir dostonda Boburning Afg'onistonidagi hayotiga Bubna ismli qiz bilan bog'liq bir rivoyatni keltirib o'tadi. Asarning ancha qismini egallagan bu tasvir axborot tarzida yozilgan maqolaga o'xshab ketadi. Cho'pchaknamo bu tasvir o'mniga shoir Bobur ruhiyati manzaralariga e'tibor qaratganda, asar emotsiyal ta'sir kuchiga ega bo'lardi.

Xush keldingiz, aziz mehmon.

Sizni kutib ko‘z nigoron,  
Quchoq ochur ahli afg‘on,  
Qadamingiz bosh ustina (227, 226).

Afg'on xonining qizi Boburni mehmon sifatida kutib olishi asarda bachkanalikni, yolg'onne vujudga keltiradi. "Agar shoир Tarixga, Xronologiyaga, Geografiyaga ochiqdan-ochiq qarshi borsa, bu uning o'zi yaratgan san'atiga qarshi borganligidir. Bu shoирning asari uchun halokat demakdir. Muxlislar bu holni shoирni umuman hurmat qilmaganliklaridagina kechirishlari mumkin" (72, 149).

“Badiiy asarda bosh qahramon asarning asosiy g‘oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Yo‘qsa, asar pafosiga ham, qahramon jozibasiga ham putur yetadi”, deb yozadi adabiyotshunos B.Nazarov. (96, 215)

Asardagi poetik g‘oyaning pishib yetilmaganligi dostonning lisoniy qurilishiga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Maloli kelmasin, aziz o‘quvchim,

Bul bobni o‘rtacha insho aylasam (227, 220) –

deb, shoirning o‘zi ham asarning quruqroq chiqayotganligini payqaydi. Dostonda na adabiy til, na poetik til qurilishga muvofiq keladigan g‘aliz jumlalar bisyor. “Bobur qutqarildi yomon ahvolda” (227, 217), “Odamlarning bo‘yin bukdi” (227, 206), “Kosoniy hayrat qildi” (227, 207), “Hamma bilsun sirru asrorga” (227, 202.), “Samarqanddan keldi darak, Samarqandga hujum kerak” (222, 202) kabi qator omonat misra va jumlalar yosh boshlovchi ijodkorning xomaki mashqlarini yodga soladiki, oqibatda asardagi xarakter qiyofalari ham xiralashadi.

T.Nizom Bobur hayotini to‘la qamrab olishga intilganligi bois bo‘lsa kerak, sujet voqealari tarqoq holda namoyon bo‘ladi. Boburning biografiyasi ko‘p va xo‘b yozilgan, uni jiddiy janr bo‘lgan dostonda qayta bayon etishning hojati yo‘q. Boburning hayoti va ijodi “oliy ehtiroslar qurshovida aks ettirishga” arzigulik faktlarga boy. To‘lan Nizom ana shu faktlarni saralab, yagona bir o‘zanga solganida Bobur haqida yangi bir doston yuzaga kelardi.

J.Neru aytganidek, Bobur dilbar shaxs. Bu shaxsning dilbarligini ko‘rsatish ijodkordan katta mehnat talab qiladi. Bobur haqda yo‘l-yo‘lakay yozib bo‘lmaydi. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan ikki doston ham buni ko‘rsatib turibdi.

Albatta, dostonnavislikdagi va boburshunoslikdagi ijoddha muvaffaqiyatlar bilan birga kamchiliklarning ham bo‘lishi tabiiy hol. Bu kamchiliklar ham kelgusidagi ishlarda saboq vazifasini o‘tasa, ajab emas.

“Lirkada inson xarakterlari ko‘pincha hayotiy g‘oyaning ifodasi tariqasida maydonga chiqadi. Xarakter lirkada o‘zining asosiy chiziqlari bilan ko‘rinadi. Lirkada inson xarakterining shakllanish jarayonlari emas, xarakterning tayyor o‘zi gavdalaniadi” (186, 8), deb yozadi I.G‘afurov. Ushbu fikrni lirk dostonlarga nisbatan ham ishlatish mumkin. Chunki dostonda “hayotning oliy momentlari” qamrab olinishi tufayli xarakter shakllangan holda namoyon bo‘ladi. Buni Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni misolida ham ko‘rish mumkin.

Shaxs va davr hamma zamonlarda ham adabiyotning dolzARB mavzularidan sanalib kelingan. “Ruhlar isyoni”ning ham asosiy mavzui shu. Keskin dramatizm, fofia ruhi asarning har bir fasliga, har bir rivoyatiga o‘z hukmini o‘tkazadi. Nazrul Islom qismatiga bag‘ishlangan bu asarning kompozitsion qurilishi E.Vohidovning avvalgi dostonlari qurilishidan tubdan farq qiladi. Shoir hayotining eng dramatik lahzalari tasviridan so‘ng qoliplovchi rivoyat keladi va bu tartib ozodlik kurashchisi Nazrul Islomning ruhiyatidagi dramatizmni ochishga juda qo‘l kelgan. Bu haqda adabiyotshunos S.Mamajonov quyidagilarni yozadi: “Eng muhimi E.Vohidov Nazrul Islomning hayot yo‘li va she’riyatini puxta o‘rganadi. Nazrul Islom she’riyatidagi isyonkor ruhni, yuksak sururni va katta maqsad idealini misralarga, birinchi navbatda Nazrul Islom xarakteri talqiniga singdira olgan” (33, 186).

Asar muqaddimasidanoq olamni teran anglaydigan, dunyoqarashi keng shaxsning xarakter belgilar bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Kuchli his-hayajon, ehtiroslar tug‘yoni, ruhiy iztiroblar tasviri obyektiv olamning achchiq haqiqati va shafqatsizligi bilan almashib turadi. To‘g‘rirog‘i, biri biridan kelib chiqadi, biri birining mohiyatini kashf etadi. E.Vohidov Nazrul Islom xarakterini ana shunday murakkab fojeiy holatlarda kuzatadi va bu xakterning sobitligini misralar osha tadqiq eta boradi.

Sobir inson yuragida  
Qanoatki barqaror,  
Kosa yanglig‘  
Sabr tagida  
Otash yanglig‘ Isyon bor.  
Kuy,  
g‘azali  
odamzodning  
Darddir,  
ezgu armondir.  
Yaralishdan  
Iste’dodning  
Tabiati  
isyondir (202, 374-375).

Ruhning zulm va istibdod iskanjasidagi isyoni fasldan faslga, rivoyatdan rivoyatga kuchaya, mantiqiyasha boradi. Fojianing ildizi shundaki, Nazrul Islom nazdidagi ezgulik olomonga yovuzlik bo‘lib ko‘rinadi.

Bulbullarga,  
gullarga mast  
Yozsam faqat g‘azallar,  
Balki meni  
mirshablarmas,  
Izlardi yosh go‘zallar (202, 405),

deb o‘yaydi Nazrul Islom. Biroq bu shunchaki bir xomxayol. Shoir o‘z e’tiqodidan, xarakter mantig‘idan chekinolmasdi. Chunki u ozodlikka orzumand xalqning ovozi edi.

“Qahramon va muallif o‘zaro munosabatlarining shunday shaklini xarakter deb ataymizki, deb yozadi M.M.Baxtin, unda qahramon alohida shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Eng asosiysi ham shunda: qahramon bizga boshdan alohida shaxs sifatida taqdim etiladi. Muallifning faolligi qahramonning xatti-harakati doirasida amalga oshadi, har bir holat qahramonga berilgan tavsifnomaday qabul qilinadi, asar boshdan oxir u kim? degan savolga xizmat qiladi va olib keladi” (16, 151).

“Ruhlar isyoni”da ham muallif va qahramon o‘rtasidagi mushtaraklik juda mustahkam. Muallif va u yaratgan xarakter esh arqondek yaxlitlik kasb etgan, muallif va xarakterni ajratadigan chegara yo‘qdek. Bu munosabatni E.Vohidovning o‘zi shunday izohlaydi: “Ruhlar isyoni” garchi Nazrul Islomga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, asar faqat otashin shoir hayoti ifodasidan iborat emas. Unda men shoir hayoti bahonasida o‘zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erk tashnaligi haqidagi, qolaversa, inson hayotining ma’nosи, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o‘y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko‘rishga intildim” (33. 151).

Garchi Erkin Vohidov Nazrul Islom bilan o‘lkadosh, zamondosh bo‘lmasa-da, ularni tutashtirib turuvchi nuqtalar mavjud: bu milliy ozodlik g‘oyasi, istibdodga qarshi isyon g‘oyasi edi. Shu bois Nazrul Islom xarakteri Erkin Vohidov shaxsiyatining muayyan qirralari bilan birlashib ketadi.

“Ruhlar isyoni” hayajonli dramatizm bilan boshlanadi, susayish bilmay kulminatsiyaga chiqadi va harorati pasaymagan cho‘g‘ yanglig‘ kechinmalar bilan yakunlanadi:

Hindu ishi tahqir bo‘ldi,  
Muslim ishi  
tahdidlar.  
Butxonalar vayron bo‘ldi,  
Yakson bo‘ldi masjidlar.

Rikshami bu, sohibmi bu,  
Gadomi yo zodagon  
Farqsiz,  
Faqat  
Bir yon hindu,  
Bir yon esa musulmon (202, 149-150).

“Obyektiv xarakterdan lirik xaraktergacha bo‘lgan obraz evolyutsiyasi, - deb yozadi V.P.Kikans, - tasvir ob’ektidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq: individual psixologiyaning chuqurlashuvi, muayyan iztirob silsilalariga alohida ahamiyat berish davr hayotining botiniy manzaralarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu assotsiativ aloqalar natijasida lirik xarakter shakllanadi” (68, 148). Bu fikrning ilmiy asosini “Ruhlar isyoni”ni tadqiq etish asosida ham ko‘rish mumkin. Mumtoz dostonchilikda mavzu keng qamrovda, epik ko‘lamdorlikda yoritiladi. Unda tarix, madaniyat, etnografiya, geografiya, tibbiyot va boshqa ko‘plab ong qirralari uchun joy topilardi. Doston qahramonlari esa afsonaviy kuch-qudrat sohiblari sifatida tasvirlanardi. Gomer dostonlari, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asari, o‘zbek xalq dostonlari, xususan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi eposlarda shunday holni ko‘ramiz.

“Gerkules kollektiv qudratini o‘zida jamlagan zotdir” (176, 844), - degan edi Gyote. Ushbu ta’rif umumjahon madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek mumtoz dostonlariga ham aloqadordir.

XX asr o‘zbek dostonchiligi, xususan 80-90- yillar dostonchiligi endi avvalgidek umumxalq hayotining barcha jabhalarini qamrab olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi. Bugungi sujet doirasi nisbatan “sinq va tordir”. Bu “sinq va torlik” shaklan shunday, ammo u mazmun salmoqdorligiga jiddiy shikast yetkazmaydi.

8090-yillar dostonchiligidagi alohida shaxsning ruhiyatiga, tuyg‘ulari bag‘ridagi iztiroblarga jiddiyroq e’tibor qaratilmoqda. To‘g‘ri, XX asrning 30 yillarda ham, 70 yillarda ham muayyan shaxs hayotiga, ruhiyatiga ba’zan e’tibor berilardi, biroq bu e’tibor baxtiyorlikning soxta talqinidan iborat bo‘lganligi bois real zamindan yiroq edi, inson ruhiyati kashfi yuzakiroq edi.

Bizningcha, 8090-yillar o‘zbek dostonchiligining haqiqiy hayotga yaqinlashganligi, ruhiyat iqlimlariga tobora chuqurroq kirib borganligi, qalb tebranishlarini aniq ilg‘aganligi, insoniy dardlarni teran idrok etganligi muallif “men”i orqali ifoda etilayotgan tasvir usuli o‘zini oqlaganligi hamda “men”ning shaxs sifatida shakllanganligi bilan

izohlanadi. 8090-yillar o‘zbek dostonchiligidagi sotsialistik realizmga xos bo‘lgan sinfiy kurash g‘oyasi lirik xarakterning ichki faolligi bilan almashdi.

“Nazrul Islom fojiasi ming yillik aqidalar taloshi ichidagi Hindiston fojiasigina emas yo O‘zbekiston fojiasigina emas, insonning, insoniyatning fojiasi” (182, 160) ekanligi tushunildi. Erk va ozodlikni kuylagan, Vatan va millat taqdiri uchun qayg‘urayotgan, umuminsoniy dard bilan og‘rihan, tasavvuf ohanglariga qayta jon bag‘ishlagan 8090-yillar dostonchiligining lirik qahramoni “Hibbatul haqoyiq”, “Muhabbatnoma”, “Taashshuqnomma”, “Gul va Navro‘z” asarlaridagi lirik xarakterlarning avlodidir.

80-90 yillar dostonchiligi shoirning ma’naviy olamini, to‘g‘rirog‘i, lirik qahramonning ichki dunyosini tasvirlashni muhim sanadi. T.Nizomning “Giryा” dostonida voqeа hodisalar tasviri, muayyan portret belgilari chiziladi. Muallif barcha qarashlarni birinchi shaxs, ya’ni lirik qahramon tilidan ifodalaydiki, bu zamonaviy dostonchilikda yaratilgan lirik xarakterning yorqin namunasidir.

Lirik qahramon bugungi dostonlar markazida turgan asosiy vosita, asarning jamiyki hujayralari u tufayli harakat qiladi. Lirik qahramon dostoniy xilma-xil obrazlarning shakliy mazmunidir. Shartli-fantastik sujet asosiga qurilgan “Jannatga yo‘l”da, falsafiy teranlik kasb etgan “Ruhlar isyoni”da, Iloh bilan muloqot tarzida yozilgan “Ishq”, “Tavajjuh” dostonlarida biz ana shunday lirik xarakterlarni ko‘ramiz.

O.Matjonning “Nega men?”, U.Qo‘chqorning “Quvg‘in”, Q.Rahimboevaning “Qishning oxirlari” kabi dostonlari ijtimoiy, sotsial, axloqiy masalalardan bahs yuritadi. Har uchala dostonda ham lirik xarakterlarning voqelikka munosabati, boy ichki dunyosi, keng dunyoqarashi dostonlarning iqlimini belgilaydi.

Bugungi dostonlarda yaratilayotgan obyektivlashtirilgan xarakterlarni lirik xarakterning sinonimi deyish mumkin. Chunki obyektivlashtirilgan xarakterlar lirik qahramon, ya’ni shoir o‘z oldiga qo‘ygan axloqiy-ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilmoqda. Obyektivlashtirilgan xarakterlar lirik xarakterning o‘ylarini, fikrlarini, g‘oyalarini ifoda etmoqda. Xullas, liro-epik xarakterning harakat va faoliyat darajasini lirik karakter belgilab bermoqda.

Dostonlarda namoyon bo‘layotgan bu obyektivlashtirilgan xarakterlar epik asar qahramonlaridek fe’l-atvorining barcha qirralari bilan batafsil gavdalanmaydi yoki dramatik asar qahramonlaridek “taqdir ustidan xudolik”ka intilmaydi. Ular asar markazidagi lirik shaxsning ma’lum bir masalaga qaratilgan o‘ylariga shiddat, aniqlik va hayotiylik bag‘ishlaydi.

“Ruhlar isyoni”dagi Nazrul Islom, “Jannatga yo‘l”dagi Ota, Ona, Tarozibon, “Xalil Sulton”dagi Xalil Sulton, Amir Xudoydod, Shafqat devona ana shunday liro-epik xarakterlardir. Shu sabab “Ruhlar isyoni”dagi Nazrul Islom, “Jannatga yo‘l”dagi Yigit, “Xalil Sulton”dagi Xalil Sulton , “Tavajjuh”dagi Bobur kabi qator bosh qahramonlar muallif shaxsiyati bilan yaxlitlik kasb etgan xarakterlardir.

XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, Istiqlol arafasi va undan keyingi davr dostonchiligidida shoir shaxsining asar markazidan muqim joy olishi xarakterlar qurilishi va tabiatida ana shunday o‘zgarishlar, yangiliklar olib kirganligi bilan belgilanadi.

### **III BOB. SUJET VA KOMPOZITSIYA**

Sujet, fabula, kompozitsiya bir-biriga uzviy bog‘liq tushunchalardir. Ularni ayri holda tasavvur etish mushkul. Badiiy asar qurilishidagi bu uch muhim qirra xususiyatlari ayrim ishlarni hisobga olmaganda, yetarli darajada o‘rganilmagan. Adabiyotshunos N.Xudoyberganov ilmiy-nazariy tadqiqotlar xususida fikr yuritar ekan, konflikt, kompozitsiya va sujet kabi komponentlar she’riyat hamda dramaturgiyada yetarli darajada o‘rganilmaganligiga e’tibor qaratadi. (162, 162). Sujet, fabula, kompozitsiya belgilari, asosan, nasriy asarlar, ba’zan dramatik asarlar misolida ko‘rib o‘tilgan. Lirik tur tarkibida muhim o‘rin tutib borayotgan bugungi dostonlardagi, sujet, fabula, kompozitsiya qurilishi nasriy va dramatik asarlardagi ko‘rinishlaridan tubdan farq qiladi. Ushbu mavzuni yoritishdagi qiyinchiliklardan biri – sujet, fabula, kompozitsiya belgilari to‘g‘risida adabiyotshunoslikda yagona to‘xtamga kelinmagan.'

Badiiy asar qurilishini belgilovchi ko‘pgina unsurlar adabiyotshunoslikda turlicha talqin va tahlil etilmoqda.

1990-yil chop etilgan ensiklopedik lug‘atda sujet va fabula to‘g‘risida quyidagi fikrlar bildiriladi: "Sujet epos, drama, poema, kino va boshqalarda voqeа-hodisalar haqidagi bayonning borishi, yo‘nalishi. Asar mavzuini ochish yoki fabulasini bayon etish yo‘li"(177, 236).

Ba’zan sujet va fabula tushunchalarini bir xil deb, ba’zan, aksincha, boshqa-boshqa deb hisoblaydilar. Ushbu ta’rifdan, muayyan bir xulosaga kelish qiyin, albatta. "Voqeа-hodisalar haqidagi bayonning borishi, yo‘nalishi", deb tushunish masalani yanada chalkashtiradi.

"Fabula lotincha so‘z bo‘lib, hikoya, afsona, ertak ma’nosini bildiradi va badiiy asarning voqeiy asosini tashkil etadi. Asar fabulasi deyilganda, unga asos bo‘lgan hayot materiali tushuniladi"(174, 101).

Mazkur ta’rifda ham umumiy xulosalar bildiriladi, xolos. Vaholanki, fabula uchun asos bo‘ladigan hayot materiali sujet uchun ham asos bo‘laveradi. Bu o‘rinda ham fabulaga yuzakiroq yondashilganligi, uning sujetdan farqli o‘ziga xos xususiyatlari oydinlashmaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Rus adabiyotshunosi V.Tomashevskiy voqealarning hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lgan tartibini "fabula" deb, ularning badiiy asardagi tasviri tartibini "sujet" deb atashni taklif etadi (142, 194). L.I. Timofeevning fikricha, fabula voqealarning tabiiy bog‘liqligi, sujet esa- fabulaning badiiy ishlanganligi (142, 142).

Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" darsligi (137, 182)da, H. Umurovning "Adabiyot nazariyasi" o'quv qo'llanmasida (152, 157)da sujetni xarakter mantig'i bilan bog'lab o'rganishga jiddiy e'tibor qaratiladi.

"Har qanday xarakter o'z harakatlaridagi kuch-quvvatni tarixiy oqimdan oladi, tarixiy-konkret sharoit ularni yurgizib-turg'azadi" (152, 157). Ushbu mulohazalarda sujetni o'rganishda xarakter va sharoitni hisobga olish lozimligi uqtiriladi.

Adabiyotshunos I.Sulton yozuvchi tasvirlayotgan voqeа hayotning o'zida qanday tartibda ro'y bergenini aks ettiruvchi "sujet" dan farqli o'laroq, shu voqealarning badiiy asardagi tasviri tartibini fabula deb atashni taklif etadi (137, 194). Bizningcha, ushbu taklif "fabula deganda voqealar yig'indisini tushunaman" (10, 57) umumlashmasiga aniqlik kiritadi va uni yanada konkretlashtiradi.

Biroq sujet va fabula xususida yuqoridagi fikrlardan boshqacharoq qarashlar ham mavjud. Masalan, G.N.Pospelov atamalarning fransuz va lotin tillaridan kelib chiqishi, yani- o'z lug'aviy ma'nosida tushunish va qo'llash lozimligini uqtiradi (112, 37).

Shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, adabiyotshunoslikka oid ko'pgina atamalar hamisha ham o'z lug'aviy ma'nosida ishlatalavermaydi hamda o'zgarib turadi. Nazarimizda, G.Pospelov buni e'tiborga olmagan ko'rindi. Buning uchun "roman" va "ballada" atamalarining kelib chiqishi hamda bugungi ma'nosini, tushunilishini hisobga olish kifoya.

Muayyan bir janrga mansub asarlar misolida sujet va fabulaning o'ziga xos belgilarini tayin etish ham ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi.

Voqeа-hodisalarni hikoya qilish asosiga qurilgan sujetlarda fabula mavjud bo'ladi. Misol uchun E.Vohidovning "Ruhlar isyonи" dostonida. Unda sujetning tarkibiy qismlari: ekspozitsiya, tugun, voqeа rivoji, kulminatsiya, xotima uchraydi.

Mazkur asarda lirizm kuchli mavqega ega bo'lsa-da, ammo u liro-epik doston. Asardagi barcha fasl, rivoyatlarda shoир "men"ining aralashuvi birdek emas. Shoир, eng avvalo, kitobxonni Nazrul Islom qismati bilan oshno qilmoqchi. Va, tabiiyki, unda sujet qismlarining shoир g'oyasini ochish uchun xizmat qiladigan tartibda tuzilishi, ya'ni fabula yorqin namoyon bo'ladi.

Biroq shoирning monologi, xitobi, o'y-mushohadalari, falsafiy qarashlari, tasavvur va xayollari, lirk kechinma va kayfiyatiga tayanayotgan bugungi lirk dostonlar sujetida fabula mavjudmikan degan

savol tug‘iladi. Lirik asarda sujet bor yoki yo‘qligi masalasi xususida ham xilma- xil qarashlar tizimi vujudga kelgan. Tojik adabiyotshunosi R.Musulmoniyon lirik asarlarda sujet bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydi va adabiyotshunos Izzat Sultonni shu masalada tanqid etadi (90, 131).

Bizningcha, ushbu o‘rinda Izzat Sulton qarashlari asosli. Zotan, lirik asarda sujetning barcha tarkibiy bo‘laklari uchramasa-da, lekin unda sujet unsurlari namoyon bo‘ladi. Shu bois lirik asar sujeti xususida gapirilganda I. Sulton qarashlariga tayanamiz.

XX asrning 80-90 yillarda o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutgan lirik dostonlarning o‘ziga xos xarakterli belgilaridan biri unda muallif shaxsi asar markazidan joy olishi bilan tayin etiladi. 60- yillar o‘zbek lirik poemalarini tadqiq etgan adabiyotshunos N.Rahimjonov asosli tarzda quyidagi xulosalarga keladi: "Lirik poemada hayot xossasi liro-epik poemadan farqli o‘laroq, aniq sujet oqimidan emas, balki "men" shaklida ifodalangan lirik qahramonning obyektiv voqelikdan tug‘ilgan ichki kechinmalari, ana shu hayotga munosabati, tuyg‘ulari orqali ochiladi" (122, 13).

Adabiyotshunos V.D.Kubilyus o‘z tadqiqoti davomida sujetning harakatdagi kolliziya ekanligini, lirik poema sujetidagi har bir manzara muayyan kollizianing rivoji yo xotimasi bilan yakun topishini uqtiradiki, bu zamonaviy dostonlar sujetini tekshirishda ma’lum aniqliklar kiritadi. Zamonaviy poemalarda lirika yetakchi maqomdaligini ta’kidlagan V. Ognev Yu. Martsinkyavichyusning "Devor" asarini tadqiq etar ekan, "Men buni poema sujeti demoqchi emasman. Bu qahramonlar xatti-harakatining sujeti emas, muallif o‘ylari sujetidir" (68, 93), – degan xulosaga keladi.

Demak, epik asarlar uchun xarakterli bo‘lgan qahramonlar faoliyatidan o‘sib chiquvchi sujet bilan lirik poemalar sujetiga ana shunday aniqlik kiritiladi.

"Muallif o‘ylari sujeti" atamasi lirik dostonlar sujetini tayin etishda, bizningcha, juda qo‘l keladi. Chunki lirik doston, N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, tuyg‘ular orqali ochiladi. Biz bu dostonlarda obyektiv olamdan olingan subyektiv kechinmalarni, holatlarni, tasavvur va taxayyul olamini ko‘ramiz.

Sujet harakat tizimi bilan bog‘liq, albatta. Sujetning faqat obyektivizmgamas, subyektivizmga ham tayanishini unutmaslik lozim. Zotan, har qanday obyektiv hodisa subyektivizm zaminida etiladi. Shunday ekan, nega ayrim adabiyotshunoslardan lirika sujetisiz tur hisoblanadi, degan haqli savol tug‘iladi.

L.I.Timofeevning fikricha, lirik xarakterning yaratilishida harakat muhim o‘rin tutmaydi, shu bois lirika sujet sizdir (142, 145-148).

G.N.Pospelov esa faqat voqeaband she’riyatdagina sujet mavjud deb hisoblaydi (112, 160).

Nazarimizda, tojik adabiyotshunosi R.Musulmoniyon L.I.Timofeev, G.N.Pospelov fikrlariga asoslangan ko‘rinadi. Bu adabiyotshunoslар masalaning mohiyatiga chuqurroq kirishdi deyish qiyin. Biroq bu borada yuqoridagi fikrlardan o‘zgacharoq qarashlar ham bildirilganki, bularni ham hisobga olmoq lozim.

“Lirik sujet epik sujetdan ko‘ra boshqacharoq ko‘rinish olgan, bu fabulasiz sujetdir” (165, 14), – deb ta’kidlaydi L.M.Tsilevich.

O‘tgan asrning 80-90- yillarida yaratilgan aksariyat dostonlarda muallif o‘ylari assotsiativ tarzda bog‘lanishi manzarasiga ko‘proq duch kelamiz. Dostonlarda voqea-hodisalarni hikoya qilish muhim bo‘lmay qoldi. Lirik kechinma dostonlarning shakl va mazmuniga, g‘oya va badiiyatiga, kompozitsiyaning barcha unsurlariga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladи. Natijada doston sujeti o‘zgacharoq shaklda-lirik tur janrlariga xos tarzda namoyon bo‘la boshladiki, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov buni shunday izohlaydi: “Avvalombor, poemani sujetli va sujet siz deb ajratish noto‘g‘ri. Sujet- xarakterlarning o‘sish tarixidan iborat. Modomiki shunday ekan, lirik poemada, ya’ni qahramoni shoirning o‘zidan iborat bo‘lgan va voqelik shu qahramonning o‘zi orqali ochiladigan poemalarda ham sujet bo‘ladi. Negaki, lirik poemalar hamisha lirik xarakterning o‘sishi, shakllanishi yoki namoyon bo‘lishini esa ma’lum sujet orqaligina ifodalash mumkin” (169, 108).

Yuqorida keltirilgan ko‘chirmalardan shu narsa oydinlashadiki, lirik dostonlarda sujet bo‘ladi, ayrim adabiyotshunoslarning fikricha esa bu sujet fabulasizdir. Chindan ham lirik dostonlar fabulasizmikan? Ayrim asarlar tahlili misolida bunga javob topishga harakat kilib ko‘ramiz.

### **3.1. Fabula konsepsiysi**

Fabula hodisasi shu jihatdan qiziqarligi, olimlar bu borada ham turli xil qarashlarni ilgari surishadi. Eng avvalo, “fabula” atamasi janr tushunchasini ifoda etgan. Antik davrda fabula masal, hikoya ma’nolarini bildirgan. fabula – lotincha so‘z bo‘lib, tarix, hikoya demakdir. O‘rta asrlarning ilk davrlarida fabula nomini olgan janr paydo bo‘ladi va rivojlanadi. “Fablio – she’riy shakldagi, komik, didaktik xarakterga ega bo‘lgan hikoya, masaldir” (126, 431). Aksariyat hollarda inglizcha

lug‘atlarda ham fabula janr ma’nosini tashiydi (128, 677). Ayrim hollarda sujet va fabulani farqlash uchun latifa (sujet) va chizgilar (fabula)ga nisbat berishgan (144, 18).

Fabula atamasiga bunday yondashuv XX asrda ham uchrab turadi. Ko‘pgina lug‘atlardagi sharhlar shundan dalolat beradi. Jumladan, M.Fasmer boshqa olimlarning fikrlariga tayanib, fabula janrini Ezop masallariga yaqin janr, deya e’tirof etadi (157, 182).

Adabiyotshunoslik ilmining rivojlanishi jarayonida olimlar fabulaga sujetning bir ko‘rinishi sifatida qarashadigan bo‘lishdi. Biroq bu borada ham mutaxassislar ikki xil qarashni ilgari surishadi. Ayrim olimlarning fikricha, fabula va sujet aynan bir hodisa, aniqroq aytganda, fabula badiiy asardagi voqealar tizimidan tashkil topadi. Boshqacha ifodalaganda, fabula va sujet sinonimik xarakterga ega yagona hodisa. Ikki tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday deyiladi: “Badiiy asarda tasvirlangan voqeaning izchil bayoni, voqealarning rivojlanish sxemasi” (181, 292). Fabula to‘g‘risidagi shunga yaqin fikrlarni boshqa maxsus lug‘atlarda ham uchratish mumkin. “Fabula – badiiy asar sujetining asosi, adabiy an’anaga muvofiq shaxslar va voqealarning joylashuvi” (104, 736).

Olimlarning sujet va fabula bir tushuncha ekanligini ilgari suruvchi qarashlaridan yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. XIX hamda XX asrlar adabiyotshunoslida masalaga bunday qarashlar keng tarqaldi (139, 529).

Shu bilan bir qatorda adabiyotshunoslар fabula va sujetning mustaqil kategoriylar sifatida ham talqin etishmoqda. Mazkur nuqtayi nazarga muvofiq fabula sujetning bir qismi hisoblanadi, ya’ni sujet tushunchasi fabula tushunchasidan kengroq ma’nolarni qamrab oladi. Bunda asosiy e’tibor yozuvchining voqealar tizimini bayon etishiga qaratiladi. Ana shu voqealar tizimining majmuiga sujet sifatida qaraladi. Fabula esa – badiiy asar sujeti asosida izchillik bilan rivojlanib boruvchi voqeа va hodisalardan tashkil topadi (70, 320). Ko‘rinib turibdiki, bu yerda fabulaning asosiy belgisi sifatida voqealardagi izchillik, ketma-ketlik nazarda tutilmoqda. Demak, yozuvchi qahramonlar taqdiridagi yoki voqealardagi xronologik tartibni buzsa, fabula rivojini ma’lum muddatga to‘xtatgan bo‘ladi. Bunday qarashlar boshqa lug‘atlarda ham uchrab turadi. “Fabula voqealar tizimining ma’lum muddatdagi izchilligida namoyon bo‘ladi” (72, 439).

Fabulaning ma’lum bir voqealarni o‘ziga xos tarzda ifodalash vositasi ekanligi quyidagi ta’rifda yanada aniqroq ta’kidlanadi: “Fabula asarda tasvir etilgan voqeа va sarguzashtlarning xronologik ketma-ketligidan

yuzaga keluvchi adabiy hodisa; badiiy asarda izchillik bilan bayon etilgan hayotiy voqealar rivojining chizgisi” (138, 548).

Ba’zi olimlarning fikricha, fabula tushunchasi sujet tushunchasidan kengroq. Ularning fikricha, sujet faqat muhim voqealarni qamrab oladi va xarakterlar asosida yotgan konfliktlarni belgilaydi, fabula esa asardagi barcha voqealarning bir butunligidan tarkib topadi (43, 906). Biroq bunday qarashlar adabiy iste’molga uncha keng tortilmadi.

Ayrim hollarda fabulani qandaydir bir voqeaning ixcham bayoni hisoblashishadi va A.A. Ostrovskiyning shu to‘g‘ridagi qarashlariga e’tiborni tortishadi: “A.A. Chexov o‘rganilayotgan mavzuning dolzarbligini hisobga olish kerak deydi: “sujet yangi bo‘lishi kerak, fabula esa shart emas” (140, 431).

Shunday qilib, maxsus lug‘atlarning ko‘pchiligida fabula va sujetning bir qator o‘ziga xos belgilari aks etadi: 1) Voqeaning izchil bayoni fabulani tashkil etadi; 2) sujet asarda tasvir etilayotgan voqealarning mayda-chuyda ikir-chikirlarigacha qamrab oladi, fabula esa hikoya, hodisaning alohida, qisqa bayonidan iborat; 3) sujet yangiligi bilan farqlanadi, fabula esa an’anaviylik doirasida qolishi mumkin.

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida qator nazariyachilar fabula o‘zining ahamiyatini yo‘qotib bo‘ldi, uning o‘rniga endi “sujet” atamasini qo‘llash lozim, degan xulosalarga ham kelmoqdalar (28, 168). Alovida qayd etish kerakki, ayrim adabiyotshunoslar “fabula” atamasini umuman ishlatmaslikni lozim topadilar (42, 138).

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, fabulaga oid alohida monografik tadqiqotlar yuzaga kelmagan bo‘lsa-da, lekin ayrim adabiyotshunoslarning bu boradagi ayrim izlanishlari diqqatni jalg etadi. Shu munosabat bilan fabula muammosiga alohida bo‘lim va bob bag‘ishlangan ayrim monografiyalarni qayd etib o‘tish zarurati seziladi. Misol uchun O.P. Chudakov “Chexov poetikasi” kitobining beshinch bobini “Fabula va sujet” deb ataydi. Fabula masalasini u Chexov hikoyalari misolida ko‘rib o‘tadi. Uning fikricha, fabula voqealarining tasviri ikki xil bo‘lishi mumkin. Birinchisi, “boyitilgan, to‘ldirilgan fabula voqealari”, ikkinchisi, “ayrim konkret epizodlar”.

A.P.Chudakov “fabula yo‘nalishlari” tushunchasini iste’molga kiritadi. Ular mantiqiylidir va badiiylik bilan asoslangan bo‘lishi kerak. Fabulaning asosini badiiy asardagi voqealar qatori tashkil etadi. Voqealarning bayon tarzini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, yangi personajning yoki sarguzashtning paydo bo‘lishi fabula harakatini ma’lum muddatga to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Yangi personaj va yangi sarguzashtning voqeaga kirib kelishi “fabula yo‘nalishi”ni o‘zgartirib yuboradi. Voqea – fabulaning markazi.

Fabulaning quyidagi tartibi adabiy an’ana uchun odatiy hol: voqeaga tayyorgarlik – voqea – voqeadan keyingi holat (xulosa) (168, 202-208).

Hatto, ba’zi holatlarda hech qanday voqea ro‘y bermaydi va hech qanday natija kuzatilmaydi. Bunday o‘rinlarda kitobxonning taassurotlari, asardan olgan emotsiyal ta’siri asosiy natijadirki, zamonaviy dostonlarda ana shu jihat muhim bo‘lib bormoqda. Zamonaviy dostonchilikda lirizmning yetakchi asosga aylanganligi shunday xulosalarga kelishimizga imkon beradi. Shunday qilib, A.P.Chudakov fabula bilan bog‘liq voqealar tizimini ikkiga ajratadi: a) natijasiz voqealar; b) fabulani harakatga keltiradigan voqealar.

Fabulaga aloqador voqea o‘sha materialning o‘zida tugallanishi mumkin (natijasiz ravishda) yoki sujetiga qo‘shilib ketishi mumkin. “Chexov poetikasi”ning muallifi badiiy asarlarni ikkiga ajratadi: “fabulasi tugallangan” va “fabulasi tugallanmagan” (168, 213-217-228).

L.E. Pinskiy “Magistral sujet” asaridagi alohida boblarni “Sujet - fabula” va “sujet - holat” deb nomlaydi. “Sujet-fabula” va “sujet-holat” adabiyotshunoslikdagi yangi atama va tushunchalar. Olimning fikricha, sujet-fabula mifologik an’analar bilan bog‘liq bo‘lib, unda Prometey, Faust, Don Juan kabi tayyor obrazlardan samarali foydalaniladi. L.E. Pinskiyning ta’kidlashicha, Servantes Don Kixot obrazi bilan sujet-holatni ro‘yogda chiqardi. Chunki Don Kixot an’anaviylik doirasida qolib ketmay, o‘zi ham yangi afsonalarni yaratdi. Masalan, uning shamol tegirmonlar bilan bo‘lgan jangi sujet-holatga yorqin misoldir (114, 322-367).

Adabiyotshunoslikda fabula nazariyasini o‘rganish shunday xulosaga olib keldiki, fabula va sujetni alohida tushunchalar va hodisalar sifatida o‘rgangan adabiyotshunoslarning qarashlari ilmiy masalalarni obyektivroq yoritishga qo‘l keladi. Biz zamonaviy o‘zbek dostoni poetikasini yoritishda ana shu adabiyotshunoslarning fikrlariga tayanishni lozim topdik.

So‘nggi yillarda chop etilgan adabiyotshunoslikka oid ishlarda, nazariy qo‘llanmalarda, monografik tadqiqotlarda fabula masalasiga unchalik ham e’tibor qaratilmayapti. Aksincha, sujet va kompozitsiyaga ko‘proq diqqat qilinmoqda. Albatta, fabula sujet va kompozitsiyachalik keng tahlil etilmagan. Biroq muayyan bir asar yo janrlar tabiatini o‘rganishda fabulani chetlab o‘tish mantiqiy va asosli ilmiy xulosalarga kelish uchun ma’lum darajada monelik qiladi.

Sujet tadqiqi xususida ish olib borgan adabiyotshunoslar ko‘pincha sujet va fabula munosabati masalasida alohida to‘xtashadi. Bu ikkala atamaning bir-biriga qarshi qo‘yilishi uzoq tarixga ega. “Fabula” atamasi lotin poetikasida qo‘llanilgan, “sujet” atamasi esa frantsuzcha kelib chiqish tarixiga ega. Uzoq yillar mobaynida ikkala atama o‘rin almashtirib kelgan. Lotin manbalariga murojaat qilgan mutaxassislar fabula to‘g‘risida, frantsuz manbalariga tayanganlar sujet xususida to‘xtalishgan. Hikoya qilinayotgan epizodlarning xronologik izchilligi buzilganda yoki lirik chekinishlar bilan to‘xtalganda hamda hikoya usulida tezlik yo sekinlik kuzatilganda fabula sujetga aylanadi.

Oybekning 1950-yillarga qadar yaratgan dostonlarida fabula, ya’ni voqealar izchilligini aniq ilg‘ash mumkin. Jumladan, 1950-yilda yozilgan “Zafar va Zuhra” dostonida ham. Doston besh epizoddan tashkil topgan. Birinchi epizodda 10 yashar Zafarning og‘ir mehnati, mustamlakachilik sharoitidagi qyynoq hayoti aks etadi. Ikkinci epizodda Zafar chinor ostida dam olayotganda Zuhra ismli qizaloq bilan tanishib qolib, shaharga yetguncha u bilan suhbatlashib boradi, uning ham nochor ahvoldidan ogoh bo‘ladi. Uchinchi epizodda Zafar uyga kelib, uylariga soliq yig‘uvchi kelganligidan xabar topadi, ota-onasi va opasining qayg‘uga cho‘mib o‘tirganini ko‘radi. Shundan so‘ng boy kelib, Zafarni qul qilib sotib oladi. Asar asosidagi fabula shu. Shoир to‘rtinchи epizodda faktlar falsafasiga e’tibor qaratadi.

Xiyobonlar, daraxtlarga, gullarga boy,

Ular bo‘ylab qator-qator uy va saroy,

Egalari inglizlar, har xil puldor

Kimda yer bor, fabrika bor, magazin bor.! (233, 169)

Beshinchи epizod liro-romantik tasvir bilan, ya’ni shoirning Pokiston yoshlari istiqboliga bo‘lgan optimistik ishonchi bilan yakunlanadi.

Oybekning 1965-yilda yozilgan “Davrim jarohati” asarida yuqoridagi dostonda ko‘rilganidek voqealar izchilligini kuzatmaymiz. Asar pafosini shoirning liro-publisistik nutqi tayin etadi. Grajdanlik e’tiqodi mustahkam lirik qahramonning o‘y-xayollari yigirma yil muqaddam Xerosimada yuz bergen mudhish voqeaning dahshatli oqibatlarini taftish etadi. Bu dostonning fabulasi mazkur tarixiy voqeaning ongda muhrlangan fotonegotivi yanglig‘ kitobxon o‘ylarida jonlanadi.

B.Boyqobilovning “Yangi Xamsa”, O.Matjonning “Gaphaeladigan vaqtlar”, T.Nizomning “Oq gul”, “Botmay qolgan oy” kabi she’riy qissalari, ya’ni epik asosi mustahkam asarlarida fabula bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Biroq XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan aksariyat

dostonlarda obyektiv fabulalilik subyektiv sujetning bag‘riga singadi. Shuningdek, kompozitsion qoliplash maqsadida dostonlar tarkibidan o‘rin olayotgan afsona, rivoyat, ertaklar tasviri xronologik izchilllikka tayangan aniq fabulalikka ega.

Adabiyotshunosligimizda ba’zan “doston”, ba’zan “she’riy qissa” atamalari bir janr ma’nosida qo’llanilgan holatlar uchraydi. Mirtemirning “Surat” O.Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”, T.Nizomning Mirtemir hayotiga bag‘ishlangan “Majnuntol yig‘isi”, A.Mahkamning “Ishq” kabi asarlari shular jumlasidan.

She’riy qissada epiklik belgilari yetakchi o‘rin egallaydi. Yuqoridagi asarlardan “Gaplashadigan vaqtlar” va “Majnuntol yig‘isi”ni she’riy qissa deyish mumkin. Buni ulardagi fabula tuzilishi tartibi bilan ham kuzatish mumkin. Masalan, “Gaplashadigan vaqtlar” qissasidagi fabula dostonlar fabulasidan o‘zining bo‘rtib turishi, aniq namoyon ekanligi bilan ajralib turadi.

Ertasi kun Anvar butlab “Hofiz”ni xursand  
yotoqxona eshigiga keldi-yu, bunda  
Hukm surgan sukunatga e’tibor qilmay,  
orqasiga qaytdi-shahar markazi tomon.  
... “Nima olsam?” U tentirab yurib shu ko‘yi,  
nazarida eng mos narsa topdi. Ikkita  
plastinka oldi-biri Komiljon, biri  
yana allakimdi ... Mamnun yotoqqa borib,  
koridorda qorovulning aytgan gapidan  
nogohonda hafsalasi pir bo‘ldi-qoldi. (218, 116)

Ko‘rinib turibdiki, tasvirlanayotgan voqeа-hodisada izchillik, bayonda xronologik tartib yetakchilik qilmoqda. Biroq zamonaviy doston fabulasida bunday izchillik, xronologik ketma-ketlikni uchratmaymiz. She’riy qissada fabula konkret namoyon bo‘ladi, dostonda esa mavhumroq tarzda uchraydi. Chunki dostonda mazkur kategoriya tugallanmagan ko‘rinish oladi, to‘g‘rirog‘i ilg‘anadi, idrok etiladi.

Agar biz fabula deb bir-biriga bog‘langan va rivojlanib boruvchi voqealar tizimining asardagi tartibini tushunadigan bo‘lsak, lirikada biz batartib voqealar tizimini uchratmaymiz.

Ammo Aristotelning "fabula" deganda voqealar yig‘disini nazarda tutaman"deb aytilgan ta’rifida fabula tabiatи muayyanlashadi. Shoир yozuvchi va dramaturg singari o‘z g‘oyasini ochishga xizmat qiladigan voqeа- hodisalarni tanlab, saralab oladi. Yozuvchi va dramaturgdan farqli o‘larоq lirika voqeа-hodisalarni ixcham, qisqa satrlarda ifodalaydi.

Insoniyat tarixidagi muhim voqealar, olamshumul hodisalar, butun-butun davrlar tarixi, chegara va hudud bilmas epik manzaralar, olam ahlining yuz yillik, ming yillik qismati, ma'naviy va ijtimoiy qiyofasi lirikaning bir bandi, bir bayti yo bir misrasida o'z ifodasini topadi. Shoir qalbi Farhod oynasi yanglig' jumlayi olamni o'zida jilvalantirishga qodir. Shoir xayollari tilsimotlar xazinasi yanglig' saralangan, sayqallangan voqeot durdonalarini bizga baxsh etadi. Tanlab olingan har bir jumla, har bir kalima zamirida muhtasham epik kenglik mavjud. Epik vaqt nuqtayi nazaridan bir-biridan uzoq bo'lgan, ba'zan bir-biriga daxli bo'lмаган hodisotlar shoir o'ylarida umumlashadi, yaxlitlik kasb etadi, muayyan mantiqqa ega bo'ladi. Shoir tanlagan voqelikning bunday tartibi lirik fabuladir, to'g'rirog'i lirik dostonlarga xos fabuladir.

Epik va dramatik asarlarda fabula sujet tarkibiy qismlarining ma'lum tartibda joylashtirilishida namoyon bo'lsa, lirik dostonlarda sujetning an'anaviy tarkibiy bo'limlari uchramaydi. "Sujeti shoir o'ylaridan iborat" lirik doston fabulasi uzuq-yuluq xayollar, olis-yaqin xotiralar, o'tmish, kelajak, zamon xususidagi tasavvurlar, falsafiy tafakkur izhori asnosida shaklga kiradi, mazmun tashiydi. Fabulasi shoir hikoyasini ochishga yo'naltirilgan bunday tartib xronologik xarakterga ega bo'lmay, badiiy mantiq talablariga bo'ysunadi, ruhning erkin harakatiga asoslanadi. Keyingi yillarda dostonshunoslar lirik dostonlarda epik muhtashamlit mavjudligini e'tirof etmoqdalar (67; 68; 156; 167).

Bu epik muhtashamlit lirikaning lakonik uslubida o'z aksini topmoqda. Har bir jumla olam-jahon mazmunni, har bir ishora epik kenglikni, har bir so'z o'yini butun-butun davrlarni ifodalanmoqda.

R.Bartning fikricha, fabula cho'zilgan tarix bo'lib, voqelikni tez va har tomonlama ko'rishga monelik qiladi. Shu bois zamonaviy romanda fabulaning rivoji unchalik ham yuqori emas (17, 242). Bugungi dostonga nisbatan ham shunday xulosaga kelish mumkin.

E.Vohidovning "Ruhlar isyoni", J.Kamolning "Varaxsha" kabi liro-epik dostonlarida, A. Oripovning "Jannatga yo'l", U.Azimning "Xalil

Sulton" singari dramatik dostonlarida sujetning tarkibiy qismlarini uchratish mumkin. Biroq, K.Rahimboevaning "Qishning oxirlari", I.Otamurodning "Sopol siniqlari", "Istarim", A.Mahkamning "Ishq", "Tavajjuh", "Fotiha", A.Qutbiddinning "Izohsiz lug'at", Faxriyorning "Ayolg'u", "Muchal yoshi", "Yoziq" singari lirik asosi etakchi dostonlarda sujet tarkibiy qismlari uchramaydi. Bu lirik eposlarda turli davr voqeahodisalarining kulminatsion nuqtalari bor, shu kulminatsion avj pardalarning ruhda va qalbda aks sado bergen zalvorli tasviri mavjud.

Lirik doston fabulasi makon va zamon qarichida chegaralanmaydi. Lirik qahramon turli zamonlarning hodisalariga o‘zi ham ishtirok etayotgandek bo‘ladi. Insoniyat tarixi go‘yoki lirik qahramon qalbida ro‘y berayotgandek taassurot qoldiradi. Misol uchun Faxriyorning "Yoziq" dostoni shunday satrlar bilan boshlangan:

Gulning kosasiga quyib ichar

Vaqt meni limmo-lim.

Shundan so‘ng asar fabulasi uchun asos bo‘lgan vaqtning uzlusizligi, qamrov doirasi kengligi birgalikda namoyon bo‘la boshlaydi: g‘or toshlariga tarix bitgan Tabariy, Ikarning parvozi, butlarni sindirgan Ibrohim tarixi, Namrudning amri, oltin qazib charchagan zulfiqori belkurak Ali, shamshiri cho‘kich Temur, doshqozoni aravag‘altak Yassaviy, Iskandarning tobuti va boshqalar.

“Ilgarigi rangtasvir san’ati o‘z sujetini ko‘pincha mifologiyadan olardi” (25, 5). Mifologik obrazlarga murojaatni bugungi dostonlar misolida ham ko‘rish mumkin. Tasviriy san’at va she’riyat orasidagi yaqinlik dostonlarda mifologik sujetlarga ehtiyojni kuchaytirgan bo‘lsa, ajab emas.

Tarixiy hodisa va faktlar, rivoyat va afsonalar aynan o‘zichamas, balki g‘oyasini ochishga qodir shoirning o‘z badiiy haqiqati bilan qayta ishlanadi. Muallif kitobxonni islomiy va milliy tamaddunning tamal toshini qo‘ygan buyuk siymolardan ibrat olishga chaqiradi, ularning hayot tarzidan, faoliyatlaridan saboq olishga undaydi. Muallif bani bashar yozig‘ini o‘qishga harakat kiladi. Shu bois dostonda Odam Ato va Momo Havo tarixidan tortib bugungi kungacha bo‘layotgan voqealarni qisqa jumla, satrlarga singdirishga intiladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan fabula belgilari xronologik asosda sanab o‘tilganda edi tarix haqida bitilgan hisobotdan farq qilmasdi. Biroq shoir bu tarixiy hodisalarga o‘z shaxsiy qarashlarini, kechinmalarini, o‘zi anglab yetgan haqiqatini omuxtalashtirib yuboradi. Natijada asar fabulasi qismlari orasida mutanosiblik yuzaga keladi.

“Tarixiy voqealardan nimani olib, nimani qo‘yish, deb yozadi Homil Yoqubov, tarixiy shaxslardan kimni olib, kimni qo‘yish va qaysilariga o‘zgartirish kiritish asarning asosiy ideyasi bilan belgilanadi” (48, 204). Chindan ham “Yoziq”da saralab olingan voqealar asar g‘oyasini ochishga qo‘l kelgan.

V.Kikans Oyar Vatsientisning "Eynshteynada" poemasini tahlil etar ekan, asar fabulasi xususida quyidagicha xulosaga keladi: "Demak,

muallifning sujet, kompozitsiya, obraz yaratish yo‘lida tanlagen va tartib bergen tasviri, undagi aloqadorlik poema fabulasini tashkil etadi" (68, 99).

Darhaqiqat, aksariyat lirik dostonlarda sujet, kompozitsiya, obrazning shakl va mazmun kasb etishida barcha unsurlar poetik g‘oyani ochishga yo‘naltirilgan. Ana shunday asarlardan biri Abduvali Qutbiddinining "Izohsiz lug‘at" dostonidir. Asar kitobxonni ruhiy bedorlikka da’vat etadi. Bu uchun muallifga realistik obrazlar (bobo, lirik qahramon, qul), ramziy obrazlar ("Hotam, oq maymuncha, faylasufning arvohi), folklor obrazlari (shahzoda, malika) birdek xizmat qiladi.

“Yaxshi tanlangan fabula shoirning ma’naviy olami, qalb kayfiyatini yorqinroq ochishga xizmat qiladi” (46, 12).

Abduvali Qutbiddin bugungi, kechagi hayot tarziga, ma’naviy masalalarga abadiyat ko‘zi bilan qarashga harakat qiladi.

Hamshiram - turna,

Qondoshim - jayron,

Jigarim - arg‘uvon.

Xoki turobdanman, inim - qumursqa, og‘am - ot,

Bildim - odamiyzotman,

Odamiyozot... (244, 132).

So‘nggi yillar dostonchiligi fabulasi umuminsoniy g‘oyalar, umuminsoniy dardlarga tayanadigan bo‘ldi. Va shu barobarida o‘zini-o‘zi anglash tuyg‘usini shakllantirishga e’tibor qaratdi. Muallif xayolat erki bilan o‘tmishdan bugunga, bugundan kelajakka zo‘riqishsiz o‘tib turadi.

Avlodlar ajdoddan

Bedoddan emas,

Qon quvurlari, ong simlari,

Tafakkur jilg‘alari quyilgan o‘zan

O‘ragan, chirmagan

Yer mavjud-vatan (244, 131-132).

Tarix vaqt tarozisida o‘lchanadi, makon doirasida ro‘y beradi. Biroq lirik doston fabulasi bu vaqt va makon o‘lchovlarini tayana olmaydi. Fabula vaqt chegarasidan tashqarida, makon tushunchasidan xoli. Asar fabulasi uchun hamma zamonlarda ro‘y bergen va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan eng xarakterli, eng zarur voqeа-hodisalarining belgilari, barcha makonlarda bo‘lgan, bo‘lishi mumkin bo‘lgan inson qismati va uning eng muhim qirralari asos qilib olingan.

"Badiiy asarda fabulaning vazifasi sujetning tarkibiy qismlari o‘rnini almashtirish bilan cheklanmaydi", deb yozadi I.Sulton (137,187).

Bu albatta epik va dramatik asarlar haqida aytilgan gap. Ammo I.Sulton fikrlarini dostonlarga nisbatan ham tadbiq etish mumkin. "Lirik asarlarning ko‘pchiligi aniq fabulalikka egadir" (147, 34). Biz buni ayrim lirik dostonlar misolida ko‘rib o‘tdik.

Bugungi dostonlarda bir voqeа yo hodisa izchil bayon etilmaydi, balki o‘sha voqeа-hodisaga ishora qilinadi, fabula esa kitobxon xayolida jonlanadi. Shu bois bugungi doston fabulasini tugallanmagan xarakterga ega deyish mumkin. Shu bilan birga doston fabulasini tayin etishda bugungi she’riyatimizning punktuatsion belgilar bilan munosabatidan o‘zga mulohazalar ham tug‘iladi.

“Yozuvdagи eng kichik belgilardan biri vergul... lekin uning qudrati shunchalikki, musulmonni shirk egasiga aylantirishi mumkin, – deb yozadi H.Umurov. – “Yo‘q, Allohning har bandasi goh xud, goh bexud tushlar ko‘rar...” jumlasidagi birinchi vergulni olib tashlang-chi, dahriyning aynan o‘ziga aylanasiz...” (153,164).

Mazkur mulohazalar tinish belgilarsiz yozilayotgan bugungi dostonlarga qayta nazar solishga undaydi. Chindan ham masalaning bu jihatlariga jiddiyroq e’tibor qaratmoq zarur. She’riyatimizda tinish belgilarsiz she’r yozish mumkinligini R.Parfi boshlab berdi. Bu hodisa A.Mahkamning ayrim dostonlarida, Faxriyorning aksariyat dostonlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Jahon adabiyoti uchun bu hodisa tajribadan o‘tgan usul. Bizningcha, tinish belgilarini qo‘llamaslik she’riyat bilan tasviriy san’atni uyg‘unlashtirishga intilishdan kelib chiqmoqda. Masalan, Faxriyorning “Ayolg‘u” dostonida Ayol, Nahang, Oy, Sirtmoq, Nun, Zunnun so‘zları mazkur tushunchalarni ifoda etadigan shakllarda tasvirlanadi. Asqar Mahkamning “Ishq” dostonida tinish belgilarni ishlatmasligi musiqiy ohangdorlikni kuchaytirishga qaratilgandek. Shu bois bo‘lsa kerak, unda so‘zlar, jumlalar, iboralar, misralar takrori, anofora, epiforalar tez-tez uchrab turadi.

Og‘zaki nutqda tinish belgilariga ehtiyoj sezmaymiz. Nazarimizda, shoirlarimiz og‘zaki va yozma nutq imkoniyatlarini birlashtirishga harakat qilmoqdalar. Kelgisida ushbu yo‘nalishdagi badiiy asarlar, ular tadqiqiga oid ilmiy asarlarning yuzaga kelishi shubhasiz. Biroq hozir mazkur hodisaning fabula bilan aloqador o‘zga bir jihat e’tiborni tortadi.

Fabula ma’lum bir voqeа-hodisalarning izchil bayoni ekan, demak, lirik doston fabulasi o‘y-xayollarning, tasavvur va mushohadalarning izchil bayoni, mantiqiy-badiiy ifodasıdir. Bugungi doston fabulasi o‘ylaridagi izchillikka tayanishi bilan epik hamda dramatik asarlar fabulasidan farqlanadi. Doston fabulasi epik asarlar fabulasidek, voqeа-

hodisalarning izchil bayonidan kelib chiqmaydi, balki o'sha voqeahodisalarning chizgilaridan tashkil topadi.

Fabula, sujet, kompozitsiya bir-biriga uzviy bog'liq tushunchalarki, ularni bir-biridan ayri holda tasavvur etish mushkul. Quyida sujet va kompozitsiyaga to'xtalib o'tamiz.

### **3.2. Sujet modellari**

A. N. Veselovskiy sujetni badiiy motivlarning tizimidan iborat deb hisoblaydi. Motiv sujet rivojining oddiy birligidir. Uning fikricha, motivtabiat tomonidan inson oldiga qo'yilgan savollarga javob bera oladigan formula (30, 301).

G.N. Pospelov voqealar tizimini shart-sharoit mantig'i bilan asoslashga intiladi. Uning fikricha, sujet-asar dinamikasi, voqeahodisalarning rivojlanish tarixi (113, 175).

Strukturalist adabiyotshunoslar sujetni dunyo manzaralarining modeli sifatida talqin etishadi. Sujetning Yu.M. Lotman tomonidan talqin etilishi o'ziga xos qiziqish uyg'otadi. "Hodisa deb personajning semantik maydon hududlariga o'tishini tushunaman" (75, 282).

X.Ortega-i-Gasset esa sujetni o'yinning bir ko'rinishi sifatida talqin etadi (106, 237).

Sujet obrazlarning "o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qaramaqarshiliklar, simpatiya va antipatiyalar umuman kishilar o'rtasidagi munosabatlar"dan (41, 243) tashkil topar ekan, sujetning tarkibiy qismlarini tashkil etadigan voqeahodisalarda hayotiy ziddiyatlar badiylashtiriladi. Demak, badiylashtirishning asosiy talablaridan birini sujetning hayotiyligi, ehtirosliliği tayin etadi.

"Garchi sujetlar rang-barang ko'rinishlarda uchrasalar-da, baribir sujet yozuvchi g'oyasiga, asarning mavzuiga mos tarzda badiylashadi. U avtor xohishiga muvofiq tarzda yaratilmaydi, balki u asardagi xarakterlarning mantig'idan voqealar mantig'i, voqealar mantig'idan xarakterlar mantig'i kelib chiqadigan universal qonuniyatga bo'ysunadi", – deb yozadi professor H. Umurov (152, 157).

Sujetning tarkib topishi barcha turdag'i asarlarda bir xilda kechavermaydi. "Epik va dramatik asarlarda voqealar silsilasi ko'pgina muayyan bosqichlar bilan rivojlanadi. Shunga ko'ra asar sujetini quyidagicha muayyan qismlarga ajratib tekshirish mumkin: 1) ekspozitsiya; 2) tugun; 3) voqeа rivoji; 4) kulminatsion nuqta; 5) yechim.

Ayrim asarlarda bularidan tashqari prolog va epilog ham beriladi. Bu fikr epik va dramatik asarlar sujetiga oid. Biroq lirkada, jumladan, lirk dostonlarda sujet tarkibi o‘zgacharoq tartibda tuziladi.

"Sujetni qahramon tarixi deb kelinadi, binobarin, lirkadagi sujet lirk qahramon "tarixi"dir" (147, 35). Ushbu fikrga qo‘sishimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, lirkadagi sujet qahramonning qalb "tarixidir".

V.P.Kikans lirika va lirk doston qurilishiga munosabat bildirar ekan, E.Delakrua fikrlariga asoslanib, ulardagi sujetni "muallif o‘ylarining sujeti" deb atashni ma’qul topadi (68, 99).

Afsonaviy mifologik xarakterdagi epik dostonlarda, muayyan voqealar tizimini hikoya qilishga asoslangan liro-epik dostonlarda, dramatik shakl va pafos namoyon bo‘ladigan dramatik dostonlarda epik va dramatik asarlarga xos bo‘lgan sujet qurilishini, uning tarkibiy va yordamchi qismlarini ko‘rishimiz mumkin. Lirk dostonlar, birinchidan, lirk qahramon o‘ylariga tayanadi, ikkinchidan, mazmunan ko‘lamdor bo‘lsa-da, shaklan ixchamdir. Lirkada ham, lirk dostonlarda ham sujetning barcha tarkibiy bo‘laklari to‘liq holda uchramaydi.

Markazida "men" turadigan dostonlar sujeti obyektiv voqelikdan olingan kechinmalar, xulosalar, mulohazalar, umuman taassurotlarga asoslanadi. Bu taassurotlar ko‘pincha umumlashma xarakterga ega bo‘lib, "men" kechinmalari ijtimoiy ahamiyatga molikdir. Asardagi katta-kichik har bir epizod "muallif o‘ylari sujeti"dan o‘rin oladi. Sujet asarning barcha bo‘laklarini qamrab oladi, demak, unda sujetdan tashqari elementlar bo‘lmasligi kerak.

Biz yuqorida asarning barcha unsurlari kompozitsiyadan joy oladi, degan edik. Bu o‘rinda sujet va kompozitsiya masalasida mantiqsizlik yuzaga kelmayaptimi? Sujet asarning hamma unsurlarini qamrab olsa, "qurilish" atamasi ortiqchalik qilmayaptimi? Sujet asar tuzilishi ma’nosini ham berayotgan ekan, kompozitsiya atamasini ishlatishning nima hojati bor?

Asarning bu komponentlarini teran va chuqur tahlil etish so‘nggi yillar adabiyotshunosligining yutuqlaridan biridir. Sujetshunoslarning bu yo‘nalihdagи izlanishlarini davom ettirib S.Vayma quyidagi xulosalarga keladi: "... asar sujeti- bu uning butunligi, bu "butunlik"-butunning bir qismi emas, mukammallikning o‘ziga xosligidir. Harakat nuqtayi nazaridan shunday. Kenglik va qamrov nuqtayi nazaridan esa kompozitsiya boshqa "butunlik"dir. Tushunish va baho berish nazdidan esa dunyoqarash ham o‘zga bir butunlikni tashkil etadi. Adabiyotshunoslilikning tahlil psixologiyasi ham bu metodologik

yondashuvni quvvatlaydi: sof sujet nazariy illyuziyadan boshqa narsa emas, oxir-oqibatda u hech qachon sof holda uchramaydi, chunki unda kompozitsiya, nutq, janr, dunyoqarash va boshqalar singib ketgan...

Badiiyat olamibu jarayon... Biz aytayotgan adabiy matn- kompozitsiya sujetga, sujetning janrga, janrnning poetik sintaksisga va hokazoning hokazoga o'tib turishidir. Bu o'lchovlarning har biri o'sib, o'zgarib, maromiga etib o'zligini namoyon etishi mumkin"(27, 118-129).

Adabiy asar matnini tadqiq etganda, undagi barcha komponentlarning o'zaro qo'shilib, chatishib, birlashib ketishini hisobga olish to'g'ri ilmiy xulosalarga kelish uchun imkon beradi.

V.Kojinovning fikricha, "sujet butun borlig'i bilan harakatlanayotgan kolliziyadir; Sujetning har bir ko'rinishi rivojlanayotgan yo yakunlanayotgan kolliziyadagi bir bosqichdir" (65, 421).

Nazarimizda, ushbu mulohaza lirk "men" monologi sifatida yangraydigan dostonlar tabiatini tadqiq etishda juda qo'l keladi.

Istiqlol arafasi o'zbek dostonchiligining yorqin namunalaridan biri E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" asaridir. Mazkur asar liro-epik xarakterga ega bo'lib, unda sujetning muayyan tarkibiy qismlari va yordamchi bo'laklarini uchratish mumkin. Asar muqaddima va nihoya qismlaridan tashqari besh fasl hamda shu fasllar rukniga mos qator qoliplovchi rivoyatlardan iborat. Muqaddima olam va odam to'g'risidagi falsafiy mushohadalardan tashkil topgan. Abadiyat haqidagi rivoyatdan so'ng birinchi fasl, ya'ni sujet voqealari boshlanadi. "Shoir qalbi" deb nomlangan birinchi faslda ekspozitsiya sochilgan holda namoyon bo'ladi. Bosh qahramonning kimligi, kelib chiqishi, u o'sgan muhit, kasb-kori, zamon, davr, yurti to'g'risidagi ma'lumotlar lirk chizgilar holida birinchi faslning turli qismlaridan joy oladi.

Shoirni  
u tug'ilmasdan  
Gado qilgan edilar.  
O'z yurtida  
O'z yurtidan  
Judo qilgan edilar.  
O'rabi  
naq yurakdek  
Ona Hindistonini,  
Zobitlar  
oq o'rgimchakdek  
So'rardilar qonini.

Bir tomonda,  
Yovni emas,  
Bir-birini beomon-  
So‘yar edi  
taqvodan mast  
Hindu bilan musulmon...(202, 377).

Shundan so‘ng sujet tuguni boshlanadi. Asosiy voqealarni keltirib chiqaruvchi holat, ya’ni tugun

Har nechakim zo‘r iste’dod,  
Toshqin ilhom,  
u nega,  
Xalqing yotsa  
chekib faryod,  
Yaramasang kuniga...(202, 388) –

kabi otashin misralarda ifodalananadi. Va o‘z o‘zidan savol tug‘iladiki, xalqini istibdoddan qutqarish uchun shoirning qo‘lidan nima ham kelardi? Uning quroli bo‘lmasa, lashkari bo‘lmasa, xalq esa jaholat va gumrohlik botqog‘iga botib yotgan bo‘lsa... Ana shunday mulohazalarni tug‘diruvchi satrlarda voqea tuguni joylashgan. Tugun asosiy konfliktning debochasidir.

Asar sujetida tugundan so‘ng voqealar rivoji boshlanadi. "Ruhlar isyoni"dagi voqealar rivoji Nazrul Islom monologi sifatida yangraydigan "Isyon qo‘shig‘i" bilan boshlanadi. Asar sujetning tarkibiy qismlari, epik va dramatik asarlar sujetidan farqli ravishda, lirk bo‘yoqdorlikda, iztirobli kechinma va xitoblar, otashin tuyg‘ular va haroratlari ehtiroslar qurshovida namoyon bo‘ladi. Shu sabab voqealar rivojini sujetning lirk rivoji deya atash joizroq ko‘rinadi.

Lirk rivoj sujetning katta qismini tashkil etib, unda Nazrul Islom xarakterini o‘zining eng muhim qirralari bilan gavdalantiradi. Epik va dramatik asarlarda xarakterlar shakllanish va rivojlanish jarayonida ko‘rsatiladi. Biroq bu o‘rinda bizga Nazrul Islom xarakteri shakllangan holda taqdim etiladi. Nazrul Islom lirk xarakterini rivojlanishda ko‘rsatish dostonning lirk haroratini, dramatik tarangligini susaytirib yuborardi. Buni yaxshi anglagan muallif Nazrul Islomni toblangan, kamolotga yetgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Birinchi fasldan o‘rin olgan "Isyon qo‘shig‘i"dan tortib to‘rtinchi faslgacha bo‘lgan sahifalar sujet voqealarining lirk rivojini tashkil etadi. Bu sahifalarda biz xalq ozodligi yo‘lida Nazrul Islomning orzu-a’moli, fikru xayoli, kurash va intilishlaridan ogoh bo‘lamiz. Va ayni o‘rinlarda asarning mazmuni, muallifning g‘oyaviy

maqsadi ochila boradi.

Voqea rivoji sujetning silliq kechadigan bo‘lagi emas, albatta. Kulminatsiyaga yaqinlashgan sari chigalliklar, murakkab holatlar, ruhiy iztiroblar ko‘lami asar ruhini egallab oladi.

Kalkuttani  
Quchdi g‘ulu,  
Bosh ko‘tardi  
olomon.  
Qutlug‘ jang,  
deb turdi hindu,  
G‘azot,  
dedi  
musulmon.  
Baraxmanlar  
dovul qoqdi,  
Fatvo berdi  
Imomlar.  
Ko‘cha to‘lib  
qonlar oqdi  
To‘qnashganda imonlar... (202, 388).

Dostonning to‘rtinchi faslidagi "Sharpalar" qismi mohiyat e’tibori bilan asarning kulminatsiyasini tashkil etadi.

..Shoir qalbning  
Dildoshi yo‘q,  
Qiynaladi  
yosh joni,  
Qutulmoqning  
iloji yo‘q,  
Yo‘q o‘lmoqning  
imkon... (202, 427).

Milliy nizolar alanga olgan voqelikda yurish Nazrul Islom uchun bir musibat edi. Zindonga qamalganidan so‘nggi yolg‘izlik, tanholik, o‘zni ojiz va notovon his etish, bu musibatni ming chandon oshiradi. Musibat zalvori uning ruhini asta-sekin mahv eta boradi. Hayot ishqisi, she’r zavqi, kurash hissi shoir qalbini manguga tark etadi. Odamlardek sokin yashashning ilojini topolmagan Nazrul Islom o‘limning ham ilojini topolmaydi. Xalq boshiga yog‘ilgan musibat va sho‘rishlarni ko‘rmaslik uchun o‘ziga o‘lim tilashi aqldan judo bo‘lish bilan yakunlanadi.

...Ey, xoliqi olam,

Tilagimni qondir.  
Umrimga ber barham,  
Vujudimni yondir! ..(202, 430).

Nazrul Islom bilan uni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi ziddiyatning g‘oyatda keskin tus olganligi asar asosida yotgan konfliktning eng yuqori cho‘qqisidir.

"Ozodlik" deb nomlangan beshinchi fasl asar sujetining yechimidir. Beshinchi faslgacha voqeа-hodisalar hozir bo‘layotgandek tasvirlangan bo‘lsa, beshinchi faslda bu voqeа-hodisalar qachonlardir bo‘lib o‘tgandek tasvir etiladi. Beshinchi faslgacha davom etgan o‘tkir dramatizm o‘z o‘rnini hukmi o‘qilgan davr voqealari izohiga bo‘shatib beradi. Lirik qahramon taqdiri hal etildi, uning o‘ylaridagi g‘alayon, ruhidagi iztirob, qalbidagi kurashchanlik alangasi tafti pasaydi, tindi. Beshinchi fasldagi sujet manzarasi xotiraga aylana boshlagan obyektiv voqelikning subyektiv talqinidan iborat. Sujetning echim qismi to‘fonlar tingandan keyingi sokinlikni yodga soladi.

Qirq yil o‘tdi,  
Uzoq qirq yil.  
Bu dunyoda begona-  
Nazrul Islom  
Yashar bedil,  
Yashar darvish,  
Devona.  
Qirq yil ichra  
Nelar ko‘rib,  
Nelar chekdi  
Hindiston,  
Ammo  
ko‘zi  
Ochiq turib,  
G‘ofil o‘tdi  
yoniq jon (202, 435-436).

O‘ttiz ikki yoshida hushidan ayrilgan shoir etmish besh yil umr ko‘rdi. Bosqinchilar yurtdan ketdi, el ozodlikka erishdi, biroq Nazrul Islom buni na his etadi, na ko‘radi. Bu dunyoi dunda uning quruq jismigina qolgan edi.

"Ruhlar isyoni" kuchli lirizm va dramatizm omuxtaligida bitilganiga qaramasdan, unda lirik monologlar va lirik xitoblar mustahkam mavqega

egaligiga qaramasdan, u liro-epik dostonlarda. Undagi epik ko‘lam, obyektivlik talqini shunday xulosaga olib keladi.

Lirik dostonlarda esa sujet qurilishi boshqacharoq tartibda hal etiladi. Bunda endi liro-epik dostonlarda bo‘lgani kabi sujet qismlari to‘liq holda bo‘y ko‘rsatmaydi. "Muallif o‘ylaridan iborat doston sujeti" da biz sujet belgilarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. A.Mahkamning "Tavajjuh", "Ishq", Faxriyorning "Ayolg‘u", "Yoziq", I.Otamurodning "Sopol siniqlari", "Istarim", A.Qutbiddinning "Izohsiz lug‘at" kabi asarlari ana shunday xarakterdagи dostonlardir. Zamonaviy dostonlar sujeti uchun xronologik tartib ham, tafakkurdagi assotsiativ aloqadorlik ham birdek xizmat qilishi mumkin. Buning uchun sujetda uchala tur xususiyatlari namoyon bo‘ladi: voqealar yoki qahramon tarixini hikoya qiluvchi epiklik, konfliktli dialoglardan iborat dramatiklik, shoira yoki uning ideali bo‘lgan shaxsning monologik nutqi tarzida ko‘rinadigan liriklik. Biroq bularning barchasida lirik tur xususiyatlari yetakchi mavqega ega. Bu, albatta, adabiyotda "tub islohotlar" o‘tkazish yo “adabiy oliftalik” bilan belgilanmaydi, balki aksincha, ko‘tarilgan masalalarning xarakteri bilan izohlanadi. Bir-biriga aloqasi yo‘qdek tuyulgan narsa va hodisalar mohiyatidagi aloqadorlikni, mushtaraklikni izlash, soat sayin, daqiqa sayin o‘zgarib borayotgan davrning qiyofasini to‘laqonli aks ettirishga intilish, zamon shiddati bilan tepinayotgan qalbdagi yangilanishlarni, o‘zgarishlarni qadam-ba qadam tadqiq etishga bo‘lgan ishtiyoq dostonlarda lirik tur xususiyatlarini kuchaytirgan bo‘lishi tabiiydir. Bularsiz doston sujeti jo‘n, quruq bayonchilik yo oddiy nusxa ko‘chirishdangina iborat bo‘lib qolardi.

Qutlibeka Rahimboyevanining "Qishning oxirlari" dostoni kechagi kunimiz haqida. Doston arxitektonikasi markazida shoira "men"i turadi. Asarda dialogik parchalar (dramatiklik), qishloq hayoti manzaralari (epiklik) keng aks etgan. Biroq bu dramatiklik va epiklik ko‘rinishlari shoira qalbi orqali, uning kechinma-sezgilarini orqali kechadi. Shu bois butun asar sujeti lirik asoslar izmiga bo‘ysundirilgan.

Istiqlol arafasida xalqimiz boshidan kechgan uqubatlarning shoira qalbida uyg‘otgan og‘riqlari sujet unsurlarini o‘zida jamlab turadi. Lirik qahramonning hamqishloqlari bilan, onasi bilan, Norgul, Oygullar bilan bo‘lgan muloqotlaridan shu holat anglashilib turiladi.

Maktublar shaklida bitilgan bu doston yetti xatdan iborat. "Qishning oxirlari"da biz "Ruhlar isyoni"dagi sujet qurilishini ko‘rmaymiz. Har bir xat o‘zining alohida sujet chiziqlariga ega. Shoira qishlog‘ida kechgan va kechayotgan voqelikning liro-dramatik tasviri orqali butun Respublika

ijtimoiy hayotining manzarasini chizishga erishadi. Ma'lum bir xat turmushning muayyan bir qirrasini aks ettiradi, hayot og'riqlaridan bahs yuritadi. O'zining alohida sujet ko'rinishiga ega bo'lgan yettala xat ham lirk qahramon obrazi tufayli yaxlitlik kasb etadi.

Bizni aldadingiz, muallim, nega?  
Mana, biz ulg'ayib nega yaradik?  
Qishga yupun kirgan kimsaday kecha  
Bulut sal qatlansa, cho'chib qaradik (236, 55).

Dostonda dramatik va epik asoslar aralashuvi faol bo'lsa-da, ammo undagi ritorik so'roqlar, ritorik murojaatlar, qolaversa, qalb kechinmalarining iztirobli manzaralari sujet qurilishida lirk asosning poydevor vazifasini o'taganligidan dalolat beradi.

Sujeti lirk asoslar bilan to'yangan asarlardan biri Asqar Mahkamning "Tavajjuh" dostonidir. Bu asar uzoq tanaffuslardan so'ng she'riyatimizda, dostonchiligidan tasavvuf ohanglarini uyg'otganligi bilan ham e'tiborlidir. Bobur ro'zg'origa oid bu asar mustahkam sujetli yaxlit bir she'rdek o'qiladi. Bobur ruhiyatidagi ziddiyat doston sujeti rivojini belgilaydi.

Bu Boburning borlig'u yo'qlikka xitobi, Biru Borga munojoti, bani basharga murojaati, o'z qalbiga yog'dirgan malomat va savollaridir. Doston "men" nutqida davom etadi. Bu "men"da Bobur va muallif shaxsiyati birlashib ketadi. Muallif o'zini qiyayotgan davr muammolariga, ma'naviyat masalalariga Bobur shaxsiyatidan, uning ruhiy olamidan javob izlaydi. Shu sabab Bobur o'ylari, u tushgan murakkab vaziyatlar "men" nutqi uchun asos bo'ladi. Sho'ir Asqar Mahkam Bobur hayotini, faoliyatini xronologik tartibda hikoya qilish yo'lidan bormaydi. U Bobur hayotini eng qaltis, eng ziddiyatli, ruhiy behudlik va beqarorlik eng avj nuqtaga yetgan holatlarini tanlab oladi hamda ana shu jarayonda uning ruhiy kechinmalariga, munojotlariga, qalb nidolariga diqqatini qaratadi. Asar "muallif o'ylari sujeti"dan iborat. Unda obyektiv olam shafqatsizliklaridan, charx kajraftorligidan, dunyoning dunligidan, qismatning chigalliklaridan larzaga kelgan, yig'layotgan, tavba va tavallo etayotgan qalbning nolalarini tinglaymiz.

Tishlarin gizladi ochun ganjlari,  
Dedim, ey, bas, fano haqqi-kafanim...  
Men keldim adashgan daryolar kabi,  
Qismat to'lqinida chayqaldi tanim.  
Bir tubsiz jahannam edi ul ofat  
va iblis izmida tentidim mardud.

Shoyad bir bokira saboh oldidan  
bu majnun ruhimdan chekinar vujud (219, 255).

Bu va bundan keyingi misralarda ruh va jismning, aql va sezgining, u dunyo va bu dunyoning, iblis va ilohning mangu mojarosi ifodasi bor.

Modomiki, lirik doston "muallif o‘ylari sujeti" dan tashkil topar ekan, undan epik va dramatik asarlardagidek sujetning tarkibiy qismlarini izlash noo‘rin bo‘lardi. O‘y-xayollarning aniq bir ekspozitsiya, tugun yo rivoji bo‘lmaganidek, uning in’ikosi bo‘lgan lirik dostonda ham bu hol kuzatilmaydi. Bu o‘ylar chegarasizlik va behududlikka tutashib ketadi. Shu sabab ularga aniq bir o‘lchovlar, deylik, epik asarlarning sujet bo‘laklari qarichi bilan yondashib bo‘lmaydi.

"Tavajjuh" Bobur qalb tarixi, Bobur qalbining tarjimayi holidir. Bu qalb tarixiy voqelik markazida turibdi, hayotni va o‘limni ko‘ryapti, quvonch va qayg‘udan ogoh bo‘lyapti, odamni tinglashga va anglashga harakat qilyapti, iztirob zalvoridan zo‘riqib boryapti.

Bobur ruhiyatidagi kolliziya, Bobur va muhit orasidagi konflikt "Tavajjuh" sujetini janr talablariga muvofiqlashtirib turibdi.

XX asrning 80-yillariga qadar yaratilgan dostonlarda rus poemachiligining sezilarli ta’siri bo‘ldi va bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: mavzu tanlashda, talqinda, insonga munosabatda, dunyoviylikka kengroq e’tiborda, materialistik dunyoqarashda va boshqalarda. Biroq Istiqlol arafasi va undan keyingi yillar dostonchiligidagi milliy qadriyatlarga etibor kuchaydi, tarixga xolisona nazar tashlash shakllandi, insonga munosabatda sharqona badiiy talqin an’analari kuchaydi, eng asosiysi, dunyoqarashda, tafakkurda Istiqlol mafkurasi tufayli keskin o‘zgarishlar jarayoni kechdi. Materialistik ong romantik tafakkurga o‘rin bera boshladi.

Buyuk mutasavvuf-shoirlar Hazrat Rumi, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliylar ijodidan bahramandlik zamonaviy dostonlar uchun yangi istiqbollar ufqini ochdi. Yangi davr voqeligini badiiy talqin etishda tasavvufiy-falsafiy tafakkur tarzi muhim rol o‘ynamoqda. Biroq bugungi doston sujeti mumtoz dostonchilikdagi sujet qurilishidan tubdan farq qiladi. To‘g‘ri, mumtoz doston sujet qurilishiga taqlid qilingan ba’zi asarlar paydo bo‘ldi. Masalan, B.Boyqobilovning “O‘zbeknomá”, “Yangi Xamsa” asarlari kabi. Ammo bu asarlar adabiy jarayonda voqeа bo‘ladigan natija bermadi.

Bugungi doston markaziga qo‘yilayotgan ziddiyatlar oq bilan qoraning, yaxshi bilan yomonning, ijobiy bilan salbiyning ananaviy bo‘lib qolgan qarama-qarshiligi sifatida emas, inson va insoniyat tabiatidagi, haq va haqiqat zamiridagi, tarix va davr qatidagi qarama-qarshilik ifodasi

o‘lar o‘yin yuzaga chiqyapti. Ibtidodan tortib mangulikka qadar muhim bo‘lib qoladigan umuminsoniy g‘oyalar, qalb va imon butunligini belgilovchi omillar bugungi doston sujeti uchun asos vazifasini o‘tayapti.

Bunday olib qaraganda, zamonaviy dostonlarda qarama-qarshi tomonlar: jangchilar yo g‘oyalar kurashi ko‘rinmayotgandek. Go‘yo bugungi doston sokin oqayotgan osuda daryoni eslatadi. Biroq bu sokinlik ostida shiddatkor to‘lqinlar, ayovsiz girdoblar yashirinki, biz buni shoir tafakkuridagi o‘zgarishlar silsilasida ko‘ramiz.

Adabiyotshunos T.Boboevning fikricha, "konfliktning an’anaviy shakli qarama-qarshi xarakterlar kurashi bilan bog‘liq bo‘lsa, uning kolliziyalı ko‘rinishi asosida qahramonlarning ruhiy dunyosi, ongi, sezgilari va psixologiyasidagi ziddiyat turadi" (22, 112)

Biz tadqiqot davomida "kolliziya" atamasini T.Boboev tushungan ma’noda qo‘llashni lozim topdik.

Liro-epik dostonlar sujetida konfliktning asosan uch xil ko‘rinishi ko‘proq namoyon bo‘ladi. Birinchisi, asar qahramonlari bilan ular yashayotgan sharoit orasidagi ziddiyatdir. Ikkinchisi, bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o‘rtasida kechadi. Uchinchisi esa, qahramon ruhiy olamidagi fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalararo to‘qnashuv tarzida gavdalanadi.

Bu konflikt xillari alohida-alohida holda emas, yaxlit bir butunlik shaklida namoyon bo‘ladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan dostonlarga qayta murojaat qilamiz.

"Ruhlar isyonii" dostoni sujetini harakatga keltirib turuvchi konflikt qanday ko‘rinishga ega? U qaysi konflikt turiga mansub?

Eng avvalo, bu shaxs va muhit orasidagi konfliktdir. Bu haqda Murtazo Qarshiboev yozadi: "Nazrul Islom avom xalqqa hech bo‘limganda baxt va fojianing mohiyatini anglatishga harakat qildi. Ammo harakatsiz qo‘ymijoz olomon bu mohiyatni bilishga zormi? Unga shundoq ham yaxshi: qorni to‘q, usti but, umri bemalol. Sertugun dolg‘ali orzular uning diqqinafa oromi-baxtini (fojiasini) o‘g‘irlaydi. O‘z baxtida fojianing nafasini sezib, fojiadan baxt tabassum qilishini bilmagan bu yovvoyi oqim yo‘liga Nazrul Islom o‘z hayotini ko‘ndalang qo‘ydi, uni ezgu o‘zanga oqizmoqchi bo‘ldi. Lekin bu oqim ko‘p qadimiyl, ko‘p vahshiy edi" (182, 165).

Bulbullarga, gullarga mast  
Yozsam faqat g‘azallar.  
Balki meni mirshablarmas,  
Izlardi yosh go‘zallar.

Menga ham yor sokinligu  
Sening ham yo‘q bu darding.  
Men-uylik,  
Sen-kelinlig-u  
Nabiralik bo‘larding.  
Oh, u yo‘l berk,  
Menda yo‘q erk.  
Tirik umrim aftoda,  
Ne qilayki  
Odamlardek  
Yasholmadim dunyoda...(202, 405).

Dostonda Nazrul Islom obraziga qarama-qarshi turgan o‘zga bir xarakter yo‘q. Asarda xarakterlararo ziddiyat ko‘rinmaydi. Nazrul Islom muhitga o‘z ta’sirini o‘tkazolmagach, taqdir hukmiga tan bergandek bo‘ladi, "jaholatda gunoh yo‘q", deydi. Ana shu o‘rindan boshlab konfliktning kolliziyali ko‘rinishi boshlanadi. Endi Nazrul Islom ruhiyatida ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar avj nuqtaga ko‘tarila boradi. Bu kolliziya o‘yovlar, yo‘qlovlar, xotiralar, pushaymonlar, o‘kinchlar, vasvasalar shaklida namoyon bo‘la boshlaydi. To‘rtinchi fasldagi "Sharpalar" qismida Nazrul Islom ruhiy olamidagi kolliziya o‘zining yuqori nuqtasiga ko‘tariladi. Hayot va o‘lim oralig‘idagi goh xud, goh behudlik, tor zindonda sharpa yanglig‘ kezib, musibat bilan yuzma-yuz qolish, umid va umidsizlik bu kolliziyani o‘tkirlashtiradi, sujetning dramatik rivojini kuchaytiradi.

Asar sujetidagi konflikt qurilishida ham lirik tur xususiyatlarining ustivorligini ko‘rish mumkin. Asosiy konflikt (Nazrul Islom va ingлиз bosqinchilari orasida) ochiqdan-ochiq tus olmaydi yoki to‘qnashuvlarda ko‘rinmaydi. Nazrul Islom o‘ylarida kechadi. Agar bu konflikt yuzma-yuz to‘qnashuv sifatida ko‘rsatilganda edi, konfliktda dramatik tur xususiyatlari bo‘rtib ko‘ringan bo‘lardi. Yoki hindu va musulmonlarning Nazrul Islom xatti-harakatlariga bo‘lgan adovatlari ham ochiq to‘qnashuv tarzida tus olmaydi. Bu ziddiyat ham lirik qahramon o‘ylarida kechadi. Natijada asar konflikti ham lirik tur sifatlari bilan to‘yinadi. Asardagi bu konfliktlar Nazrul Islom ruhini ozod, jismini tutqun etib, boshqa bir konflikt girdobiga olib keladiki, bu lirik qahramon qalbidagi, ruhidagi kolliziyadir.

Konfliktning ana shunday lirik asosga qurilishi zamonaviy dostonlarning juda ko‘pchiligiga xoski, boshqa asarlar misolida ham buni ko‘rish mumkin.

Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", Omon Matjonning "Nega men?", U.Qo'chqorning "Quvg'in", E.Shukurning "Naqshbandiya" kabi asarlari kolliziyaning lirik harakati tufayli konflikti ochiladigan dostonlar sirasiga mansub.

Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" dostoni o'tgan asrda o'zbek xalqi boshdan kechirgan hayotning poetik talqinidan iborat. "Xotiram siniqlari"da muhasham epik qamrov mavjud. Butun bir xalqning bir asr davomidagi orzu a'molini, psixologiyasini, turmush tarzini, tarixini shoira 193 satrdan iborat ixchamgina dostoniga jo etgan. Doston tashqi voqeahodisalar tasviri bilanmas, ichki poetik faoliyat bilan sug'orilgan. Shoira taqdiri xalq taqdiri bilan vobasta.

Tushlarimda topib akam jasadin,  
Otam yoniga qazitdim qabr.  
O'zim yonganimda ruhlar yondi, deb  
Xokiga suv sepib tiladim sabr.  
Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,  
Taqdir peshonaga yoziq, deyishdi.  
Yoziqni devorga urdim-u biroq,  
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi (209, 14).

Mustabid tuzumning qatli kushlari, qatag'onlari, surgunlari, yetmish yildan ziyod davom etgan nobop siyosati va buning natijasida tarixi toptalsa-da, udumlari ta'qiqlarga uchrasa-da, biroq irodasi bukilmagan, o'zligini anglab borayotgan xalqning g'amangiz siymosi shoira o'ylarida tug'ilgan og'riqlarning, xotira siniqlarining kolliziyasini belgilaydi.

"Jamiyatning ko'nglidagi, odamlarning tili uchidagi gaplarni, davrning ijtimoiy-ruhoniy hayot qatlamlarini aks ettiruvchi, mushohada yurituvchi bosh qahramon bu -tafakkur" (125, 10), – deb yozadi N.Rahimjonov. Zamonaviy dostonlarimiz to'g'risidagi bu ta'rifni "Xotiram siniqlari"ga ham bemalol tatbiq etish mumkin.

Chindan ham qalb va tafakkur zamonaviy dostonlarning sujetini harakatga keltiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Istiqlol arafasi va undan keyingi yillarda ham voqeabandlikka asoslangan doston namunalari ijod etilmayapti.

Bugungi gruzin poemachiligi xususida adabiyotshunos S.Sigua quyidagi xarakterli fikrlarni bildiradi: "Bugungi doston-epopeyalar menga anaxronistik xususiyat kasb etib borayotgandek tuyulmoqda... Gruzin adabiyotida qadimiylar eposning shonli an'analarini davom ettirish uchun qancha harakatlar bo'ldi... Lekin bu harakatlar deyarli qiziqish uyg'otmadi.

Poema asta-sekinlik bilan tashqi hodisalarni tasvirlash usulidan voz kechyapti... Aniq bir voqealar tizimiga ega bo'lmagach, uning yangidan tashkil topayotgan ko'rinishlari o'zaniga lirik oqimlar kelib qo'shilyapti..." (136, 252-258). Zamonaviy gruzin poemachiligi to'g'risidagi bu mulohazalar bugungi o'zbek dostonlari tabiatiga ham muvofiq keladi.

Kecha, bugun, erta... Bu falsafiy tushunchalar zamirida uzviylik va bir butunlik mavjud. Zamonning insonga munosabati, insonning davrga munosabati nuqtayi nazaridan bu uzviylikda sezilar sezilmas uzilish bor, bu butunlikda bilinar-bilinmas xususiylik namoyon. Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" dostonida ana shu uzviylikdagi uzilish, butunlikdagi xususiylik teran his etilib, falsafiy-badiiy talqin etiladi.

Ko'zgu atrofni mukammal aks ettirsa, siniqlari mukammallikdagi notugallikni, undagi darzlarni ko'rsatadi. Xotira ham ko'zguga o'xshash. Afsuski, mustabid tuzum siyosati qanchadan qancha xotira ko'zgularini chilparchin etdi. "Xotiram siniqlari" ana shu haqda. Shu bois lirik qahramon ovozi siniq, shikasta.

Yallig'lanib yotar keksa xotiram

Ichida shu dardlar, tig'li siniqlar... (209, 16).

Shoiraning bugungi, kechagi kunga munosabati voqelikni bat afsil tasvirlash yoki bosqichma-bosqich hikoya qilish usulida ochilmaydi. Uning munosabati ichki psixologik kolliziya tufayli ro'yobga chiqadi.

"Xotiram siniqlari"ning fabulasi epopeyalarga asos bo'ladigan keng zamon va makon hududiga ega. Bu uning sujeti harakati uchun qulaylik yaratadi va tarixning ichki manzarasini chizishda qo'l keladi. Doston sujetidagi epiklik lirikaga yo'g'rilgan. Biz unda fabulaga ko'ra "Ko'kan", "Zaynab va Omon" dostonlarida bo'lgani kabi tugallangan biror epik voqeani, maromiga etib tasvirlangan biror epik hayot bo'lagini ko'rmaymiz. Barcha tarixiy hodisalar shoira his-hayajonlari, so'roqlari, xitoblari, e'tiroflaridan o'rin oladi. Doston shoira oilasi tarixidan tashkil topgan. Shoira oilasi tarixini to'liq aks ettirganda tom-tom asarlar paydo bo'lardi. Bugungi doston tabiatini yaxshi bilgan shoira ana shu oila tarixidan ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan, davrning xarakterli qiyofasini aks etishga qodir bo'lgan voqealarning muhim chizgilarini qalamga oladi. Shuning uchun dostonda epiklik ko'rinmaydi, epiklik his qilinadi.

### 3.3. Kompozitsiya poetikasi

Adabiyot ilmida adabiy kompozitsiya nuqtayi nazar sifatida ham talqin etiladi. Shu ma'noda o'zbek dostoni poetikasini o'rganishda adabiyotshunos B.A. Uspenskiyning "Kompozitsiya poetikasi" asari

e'tiborni tortadi. Muallif asar kompozitsiyasini o'rganishda "nuqtayi nazar" tushunchasini joriy qiladi. Uning fikricha, muallif nuqtayi nazar, qahramonlar nuqtayi nazar asar kompozitsiyasini tiklashdagi asosiy unsurlardir (155, 224).

Badiiy asar kompozitsiyasi ayrim olimlar tomonidan qahramonning xatti-harakati tarzida ham baholanmoqda (36, 462).

Kompozitsiya lotincha so'z bo'lib, tuzib chiqish, tartibga solish ma'nolarini bildiradi. Kompozitsiya asar qismlari, fasllari va boblarning o'rinalashish tartibi, tamoyillarining bir tizimga markazlashuvi, ularning o'zaro munosabatlarining ifodalanish tarzi, tasvir vositalarining ijodkor o'z oldiga qo'ygan maqsadga xizmat qilishi, tasvirdagi mutanosiblik va me'yordir.

Kompozitsiya sujetdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, badiiy asarni yuzaga chiqaradigan barcha poetik vosita va unsurlarni qamrab oladi. Kompozitsiya fabulaga nisbatan ko'proq tadqiq etilgan bo'lib, aksariyat adabiyotshunoslar bu borada yagona to'xtamga kelishgan. V.M.Jirmunskiy, L.I.Timofeev, I.Sulton, N.Shukurov va boshqalarning mulohazalaridan kompozitsiya to'g'risida quyidagi holat namoyon bo'ladi:

1) Kompozitsiya badiiy asardagi alohida tasvir vositaliniig o'zaro aloqadorligidan kelib chiquvchi tizimdir. Kompozitsiya badiiy asarning barcha jihatlarini qamrab oladi;

2) Matnda o'z aksini topgan adabiy tasvirning muayyan shakllari (dialog, monolog, peyzaj, obrazli tasvir va boshqalar) kompozitsiya bo'laklaridir.

Kompozitsiya zaruriy asos ekan, eng avvalo, uning bu sifatini sujet bilan aloqadorligida ko'ramiz. Chunki sujet bo'laklarining muayyan maqsadda birikuvi ham kompozitsion hodisadir. Ayrim asarlar matnida sujet bo'laklarining ba'zilari tushirib qoldirilishi yoki boshqacharoq tartibda joylashtirilishi mumkinki, biz yuqoridagi bobda buni ko'rib o'tdik.

Badiiy asardan o'rin olgan sarlavha, epigraf, lirk chekinish, qistirma epizod kabi sujetdan tashqari belgilar ham kompozitsiya unsurlari hisoblanadi.

Kompozitsiya badiiyat namunasi sifatida tasvir etilayotgan hayot, ijodkor nuqtayi nazar, shakl va mazmun, metod va uslub, tur va janrlar tabiatini bilan xarakterlanadi.

Odatda lirk asarlar misra, bayt, band kabi qismlardan tashkil topadi. Bu kompozitsion bo'laklarni ham shakl, ham mazmun jihatdan bir-biriga bog'lab borilishi natijasida asarda yaxlitlik yuzaga keladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida nasriy va dramatik asarlar kompozitsiyasi keng o‘rganilgani holda, lirika, jumladan, doston kompozitsiyasi yetarlicha tadqiq etilgan emas. Bizningcha, mumtoz dostonlar kompozitsiyasining bugungi doston kompozitsiyasi bilan qiyoslab o‘rganish zamonaviy doston poetikasini chuqurroq ochish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Taniqli adabiyotshunos S.Mamajonov mumtoz dostonlar kompozitsiyasiga xos bo‘lgan asosiy belgilarni quyidagicha izohlaydi: "Asarda asosiy qahramonlar nisbatan oz bo‘lsa-da, umuman ishtirok etuvchilar soni ko‘p va xilma-xildir: dostonda qahramon odamlar, lashkarboshilar, podsholar, shahzodalar, donishmandlar, munajjimlar, oddiy odamlar, qanotli otlar, yalmog‘iz kampirlar va ajdarlar, sirli qushlar va ilohiy kuchlar bo‘ladi. Asosiy qahramonni qiyinchiliklar, to‘siqlar, har xil katta kuchlar orasidan olib o‘tuvchi va uning kuch-qobiliyatini g‘ayritabiiy qilib tasvirlovchi shartli o‘rinlar ko‘p uchraydi. Klassik poemalarning shakli, kompozitsion qurilishi ham hozirgi poemalarning shakli va kompozitsion qurilishidan farq qiladi. Bunday poemalarda alohida kirish qismi bo‘lib ("Hamd", "muqaddima", "na’t" va "sababi nazmi kitob" kabi), bularda shu poemaning ahamiyati va qimmati, shu mavzuda avval boshqa shoirlar tomonidan yozilgan poemalarning yutuq va kamchiliklari, o‘z asarining u asarlardan farqi, badiiy adabiyotning (so‘zning) ahamiyati, she’riy nutq nasrdan ustunligi, asarning yozilish sababi, kimga bag‘ishlanganligi haqida gapiriladi va so‘ngra voqeа boshlanadi. Poemaning xotimasida esa avtor o‘zi va o‘z mehnati, zamona va zamondoshlari haqida fikr yuritadi, o‘sha tuzum va hukmdorlarga imo-ishorasi beriladi. Masalan, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida voqeа o‘n ikkinchi bobdan boshlanadi" (80, 156-157).

Mumtoz dostonlar kompozitsiyasiga xos bunday belgilarning aksariyati bugungi dostonlar tuzilishida uchramaydi. Mumtoz dostonlarda turli sotsial tabaqaga mansub shaxslar qahramon qilib olingan bo‘lsa, zamonaviy doston qahramoni muallifning o‘zidir.

Mumtoz dostonlar qahramonlari qiyinchiliklar, to‘siqlarga duch kelgan bo‘lsa, bugungi doston lirik qahramoni ruhiy kechinmalar og‘ushida tasvir etilmoqda. "Hamd", "Na’t", "Madh" hamda "Sababi nazmi kitob" singari kompozitsion qismlar zamonaviy dostonlar qurilishidan joy olmayapti.

Yozma dostonchilikning ham, folklor namunalarining ham kompozitsion asosini belgilovchi sujeti voqealar rivoji vositasida yuzaga

kelgan bo‘lsa, zamonaviy doston sujeti kechinmalar asosiga, muallif o‘yxayollari asosiga qurilyapti.

“Doston sujetining rivojida motivlar, epizodlar, manzaralar takrori alohida ahamiyat kasb etadi” (86, 44). Zamonaviy dostonlarda bu xususiyatlarning kuchayib borayotganligini Asqar Mahkam, Faxriyor, Ikrom Otamurod, Salim Ashur dostonlari misolida ko‘rish mumkin. A.Mahkamning “Ishq” dostonida Iloh va uning sifatlari, payg‘ambar va avliyolarning ismu shariflari musiqiy ohangdorlik vobastaligida qayta-qayta takrorlanadi, emotsiyonal ta’sirdorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Doston kompozitsiyasining tarixan keng tarqalgan shakllaridan biri muayyan bir hayotiy tarixdir. Xalq og‘zaki ijodining Alpomish, Go‘ro‘g‘li va boshqa qahramonlar bilan bog‘liq sarguzashtlari tarixi, yozma dostonchilikning Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Shayboniyxon, Abdullaxon kabilar hayoti tarixi bilan bog‘liq voqealar tizimi shular jumlasidandir.

Zamonaviy dostonlar sujetida lirik kechinmalarning yetakchi tasvir usuliga aylanganligi kompozitsion qurilishning "hayotiy tarix" shaklidan butunlay voz kechganligini ko‘rsatmaydi. Kompozitsiya tuzilishining bu shakli zamonaviy dostonlarda to‘liq bo‘lmasa-da, qisman saqlanib qolgan. Bugungi dostonlarning ayrim boblari, fasllari muayyan bir voqeа bilan boshlanib, shu voqeа rivoji, tarixi bilan nihoyasiga yetayapti. Biroq shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, ana shu ayrim boblardagi, fasllardagi muayyan "hayotiy tarix"lar lirizmnning jo‘shqin ehtiroslariga, psixologizmning teran mushohadalariga yo‘g‘rilgan. Shu "hayotiy tarix"lar ham lirika hukmiga bo‘ysungan.

“Sarlavha-poetika unsuri hisoblanadi... Sarlavha shoirning shaxsiy taqdimnomasidir. Sarlavhaning yo‘qligi – anglash mushkul, tutqich bermas assotsatsiyalarning quyuqligidan darak beradi” (45, 208). Bugungi dostonlarimiz nomlanishini kuzatib yuqoridagi fikrning haqligiga ishonch hosil qilish mumkin.

“Ruhlar isyoni”, “Jannatga yo‘l”, “Ayolg‘u”, “Qishning oxirlari”, “Ming bir yog‘du”, “Xotiram siniqlari”... Bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Biroq shu narsa ayonki, sanab o‘tilgan bu dostonlar nomlanishida nedir tanishlik va nedir notanishlik bor, qandaydir ro‘shnolik va qandaydir tumanlilik bor, e’tiborni tortadigan nedir g‘alatilik bor. Ko‘pgina dostonlar boblarga, fasllarga bo‘linsa-da, biroq bu bob, fasllarga sarlavha qo‘yilmayapti. Chunki bu bob va fasllar asarning umumiylar sarlavha tasarrufiga oid tuyg‘u-kechinmalarning rang-barang shakllaridan tashkil topadi.

Usmon Qo‘chqorning "Quvg‘in" dostoni uchun kompozitsiyaning an’anaviy shakli- hayotiy tarix asos qilib olingan. Asarda shaxsga sig‘inish yillarida fojiaga uchragan xalqlarning achchiq qismati, ularning Vatan vaadolat uchun chekkan aziyatlari tasvirlangan. O‘z yurtidan quvilgan Mahdining ruhiy iztiroblari asar konfliktiga asos bo‘lgan. Konfliktning rivojlanishi va ma’lum maromga etishi obyektiv xarakter Mahdining ichkinidolarida moddiylashadi. Bu psixologik sujet fabulani tashkil etuvchi qator voqealar bilan uzviy bog‘liq: Mahdi va yurtdoshlarining quvg‘in etilishi, xotini Nurlananing yo‘lda jon taslim etishi, Mahdining Mavlud ismli chaqalog‘i bilan qolishi, yo‘ldagi mashaqqatlar, Mavludni Nigora ismli ayol o‘z tarbiyasiga olishi, badarg‘a etilganlarning O‘zbekiston dashtlariga joylashtirilishi, chor-nochor hayot, dashtdagi maishiy hayot tarzi va boshqalar.

Fabula voqealarining bunday ketma-ketligidan ma’lum bir hayotiy tarix yuzaga keladiki, natijada muayyan sujet harakatga kela boshlaydi. Lekin bu hali sujet emas, balki sujetni shakllantirishga xizmat qiladigan voqealarining chizgilaridir. Sujet asosini belgilaydigan omil Mahdi ruhiyatidagi tug‘yonlardir. Yuqorida zikr etilgan fabula voqealarining birortasi to‘liq tasvirlanmaydi, aksincha, montaj xarakteriga ega bo‘lib, asarning yetakchi tasvir usuli bo‘lgan lirikaga hayotiylik va emotsiyonallik baxsh etib turadi. Mana Mahdining Fikrat ismli yetim bolani uchratishi voqeasi. Ammo shu voqeа tasvirida ham epiklikdan ko‘ra lirik kechinmalar ustunlik qiladi.

-Adashdingmi, bolajonim, ayt,  
Yo qildingmi biror bir gunoh?  
...Bosh ko‘tardi bolakay shu payt,  
Bola sekin ko‘tardi nigoh.  
Bu qandayin qarashdir, yo rab,  
Dunyo to‘lib ketdi ohlarga.  
Bu ko‘zlarga bo‘lmaydi qarab,  
Chidab bo‘lmas bu nigohlarga.  
Bobosidan ajragan bola  
Odamzodga bunday boqmas, yo‘q.  
Momosidan ajragan bola  
Odamzodga bunday boqmas, yo‘q.  
Otasidan ajragan bola  
Odamzodga bunday boqmas, yo‘q.  
Onasidan ajragan bola  
Odamzodga bunday boqmas, yo‘q.

Vatanidan ajragan bola  
Odamzodga bunday boqmas, yo‘q.  
Vujud emas, mushtday bir nola,  
Mushtday ta’na, mushtday bir kadar-  
Hammasidan ajragan bola  
Odamzodga shunday tikilar (245, 107).

Agar shoir shu voqeani she’riy yo‘l bilan epik tasvirlaganda edi, unchalik ta’sirchan chiqmasdi. Misralar takrori, mungsiz g‘ussa bayoni, foje holatning lirik talqini va bular barchasining asosiy poetik g‘oyaga buysundirilganligi ta’sirchanlikni kuchaytirgan.

Doston XIII bobdan tashkil topgan. Sinkretik xususiyatlar bilan to‘yingan har bir bob muallif nuqtayi nazarini ochishga qaratilgan. 1-bob asar ruhiga kirish uchun muqaddima vazifasini o‘taydi. I bobdan V11 bobgacha quvg‘in manzarasi xarakterli chizgilarda namoyon bo‘ladi. Muallif quvg‘in voqealarini bat afsil bayon etmaydi. Balki shu voqealarning fojeiy mohiyatini ochishga ko‘mak bera oladigan ayrim qirralarigagina e’tibor qaratadi. Asar sujetidagi konflikt biror bir o‘rinda yuzma-yuz to‘qnashuv tusini olmaydi. Vaholanki, tarixiy faktlarning guvohlik berishicha, turklarni yurtidan badarg‘a etish paytida qanchadan-qancha to‘qnashuvlar, otishmalar, isyonlar, qarshiliklar bo‘lgan. Agar shoir bu qarshiliklarni aynanligicha tasvirlaganda edi, dostonda epik usul xususiyatlari kuchaygan bo‘lardi. Shu bois bugungi doston tabiatini yaxshi ilg‘agan muallif konfliktni ichki qobiqda, ya’ni Mahdi ruhiyatidagi ziddiyatlar tasvirida ko‘rsatadi.

Shoir asardagi yetakchi tasvir-lirik ta’sirchanlikni bo‘shashtirmaslik maqsadida dramatik tasvir usulidan ham unumli foydalanadi. X bob Vatanga qaytamiz deb, Maskovga xat yo‘llagan xalq vakillari bilan “leninchi rahbar”ning dramatik dialoglaridan iborat. Bu dialoglar qimtinib savol berishlaru “muloyim” tushuntirishlar sahnasidek ko‘rinsa-da, uning mohiyatida keskin dramatizm mavjud.

Asar kompozitsiyasi makon va zamon nuqtayi nazaridan ancha kenglikni qamrab olgan. Dostonning ilk sahifalarida avtodahol, kichkinagina bolakay sifatida tasvirlangan Fikrat, Mavlud obrazlari X bobga kelib, Vatan sog‘inchini anglab etgan, navqiron avlod vakillari tarzida ko‘rina boshlashadi. So‘nggi sahifalarda muallif ota-bobolar udumiga sadoqatni, avlodlararo uzviylik va vorisiylik tushunchalarini Fikrat va Mavlud timsolida ko‘radi. Doston ajoyib bir she’rdek tez o‘qib chiqilsa-da, uning qurilishida yarim asrlik davr tarixi qamrab olinadi. Bu orada Vatan sog‘inchini ko‘ksiga jo etgan yangi bir avlod shakllanadi. Bu

yarim asr davomida qanchadan-qancha voqealar yuz bermadi, deysiz. Muallif lirik tafakkur mezonlariga muvofiq ana shu voqelikdan eng muhimlarini, zaruriylarini tanlab olib umumlashtiradi.

Yillar o'tib ketdi oradan,  
Mazlumlarning tindi yoshlari.  
Qonlar oqmay qo'ydi yaradan,  
Jarohatlar bita boshladi (245, 108).

O'tgan yillar davomida Mahdi va Nigora oila qurishdi, Mavlud va Fikratlar voyaga yetdi, dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lishdi, o'zbeklar bilan og'a-ini tutinishdi, maktabga borishdi, balog'at yoshiga yetishishdi, ilk sevgi azobini va totini boshdan kechirishdi va hokazo. Biroq biz faraz qilayotgan voqelik belgilarining birortasi asarda tasvir etilmaydi. Lirikaning tabiatи bunday batafsillikni ko'tarmaydi. Muallif bu obrazlarning hayot tarixini yozishni maqsad qilib olmaydi. Shoir ana shu obrazlarning kechinmalari "tarixi"ni yaratishni maqsad qilib olgan va barcha boblar shu maqsadni ochishga yo'naltirilgan. Lirik tasvirning ustivorligi tufayli sujet asosidagi yarim asrlik vaqt voqealari sezilmay kechadi.

X bobda Mavlud va Fikrat Darbandga, o'z yurtlarini ko'rib kelishga borishlari tasvirlanadi. Asarning butun matnida bo'lgani kabi bu bobda ham lirik uslub yetakchilik qiladi. Agar shu holat mumtoz dostonlarda tasvir etilganda edi, bu qahramonlar yo'lda qator qiyinchiliklarni, to'siqlarni uchratishardi, tilsimli g'orga qadam qo'yishardi, yovuz kuchlar ( dev, yalmog'iz, ajdar va boshqalar)ga duch kelishardi. Xullas, sarguzasht to'la qator voqealarni boshdan kechirishardi. Usmon Qo'chqor esa zamonaviy doston talablaridan kelib chiqib, o'z qahramonlarini ruhiy ziddiyatlar, iztirobli o'ylovlar qarama-qarshiligidagi tasvirlaydi va bu usul asarning umum kompozitsion tuzilishiga mos kelib, kompozitsiya qismlari silsilasiga mustahkam bir uzb sifatida bog'lanadi.

Nechun yorilmaysan, ey zamin,  
Nechun qulamaysan, ey osmon!  
Axir do'zax azob-alamin  
Chekmoqqami yaralgan inson?!

Tuprog'ing o't olsin, ey dunyo,  
Suvlaring qonlarga qotilsin!...(245, 99).

Singari lirik chekinishlar har bir bobda takrorlanib turadi va bular tasvir etilayotgan holatga monandligi tufayli kompozitsion butunlikni yuzaga keltirishda muhim o'rinn tutadi.

Asar so'ngida tasvirlangan manzaralardan kelib chiquvchi yechim, xulosa berilmaydi. Qanday yechim va xulosaga kelish kitobxonga havola

etiladiki, bu ham zamonaviy dostonlar kompozitsiyasining muhim xususiyatlaridan biridir.

E.Vohidov qalamiga mansub "Ruhlar isyoni" dostonining qurilishi Alisher Navoiyning "Lisonut-tayr", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarlari kompozitsiyasini yodga soladi.

"Muallif dostoniga bosh mavzu qilib bengal shoiri Nazrul Islom qismatini olar ekan, uni ochishga yordam beruvchi yordamchi yo'nalishlarni ham kiritadi. Qoliplash yo'li bilan bog'langan boshqa mustaqil sujet chiziqlari shu tarzda asosiy maqsadga qaratiladi. Dostonda ikki narsa yonma-yon rivojlantiriladi: afsona va hayotiy voqelik" (149, 62).

Ushbu ta'rifda doston kompozitsiyasiga to'g'ri yondashilgan. Biroq "qoliplash yo'li bilan bog'langan boshqa mustaqil sujet chiziqlari" deyish unchalik ham to'g'ri emas. Dostonda keltirilgan afsona va rivoyatlar sujetdan tashqari kompozitsion bo'laklardir.

Nazrul Islom qismati bilan bog'liq voqealar asosiy sujet hisoblanadi. Shoir ana shu sujetning butun asar davomidagi liro-dramatik emotsiyonalligi va shiddatini saqlab qolish maqsadida qoliplash yo'li bilan asar matniga rivoyat, afsonalarni kiritadi. Rivoyat va afsonalar sujetdan tashqari bo'laklar. Ammo bu rivoyat va afsonalar asosiy sujet voqealarini aks etgan fasllarga hamohangligi, uyg'unligi bilan kompozitsion mutanosiblikni yuzaga keltiradi. Asarning sujeti Nazrul Islom holati va ruhiyati aks etgan makon va zamondagi harakat yo'nalishini qamrab olsa, asarning fabulasi esa ana shu sujet bilan birga sujetdan tashqari bo'lgan rivoyat va afsonalardagi vaqt va makon tushunchalarini ham qamrab oladi. Demak, sujet ham, fabula ham kompozitsion qurilishining ajralmas qismlaridir. Asar kompozitsion qurilishining o'ziga xosligi, originalligi lirik chekinishlarda namoyon bo'ladi. Har bir rivoyatdan so'ng muallif o'sha rivoyat ta'sirida tug'ilgan falsafiy mulohazalarini lirik chekinishlarda bayon etadi.

Dostonning birinchi faslida abadiyat to'g'risida rivoyat keltiriladi. O'tmishda hindlar udumiga ko'ra eri o'lsa, xotinini ham tiriklayin qo'shib ko'mganlar. Farzandlar tirik yetim qolgan. Mutelik va jaholatga giriftor bo'lgan olomon buni ota-bobolar udumiga, ilohlarning amriga yo'yishgan. Rivoyatda hikoya qilinishicha, jangga otlanayotgan mard bir o'g'lon bu udumga qarshi chiqadi. Shohga yuzma-yuz turib, "Men-ku Vatan uchun o'limga boryapman. O'lsam, xotinimni ham qo'shib ko'mib, farzandlarimni yetimlikda baxtiqaro qilmanglar. Shularning baxti deya jangga jo'nayapman-ku", deydi.

Uning bu talabi gumroh olomon uchun udumga nisbatan isyon bo‘lib tuyuladi va jangchini qatl etadilar. Bu bir rivoyat. Lekin shoir ana shu rivoyatni real hayotiy voqea, ya’ni Nazrul Islom qismati bilan taqqoslaydi, bu voqealararo o‘xshashlikdan, yaqinlikdan asar kompozitsiyasini mustahkamlash uchun foydalanadi.

Kel, ey ko‘nglim,  
Inson asli  
Yaralmagan sabrga.  
Sig‘inaylik o‘sha tanho  
Tahqirlangan qabrga.  
Xaq uchun  
Bosh tutgan tikka  
Mardlar ruhi  
yor bo‘lsin.  
Bu dunyoda  
nohaqlikka  
Ko‘nmaganlar bor bo‘lsin.  
Zo‘rlik ko‘rsang  
Qilma toqat,  
Har boshda bir o‘lim bor.  
Fidoiylar umri faqat  
Bu dunyoda  
Poyidor! (202, 387).

Rivoyat so‘ngida keltirilgan ushbu lirik chekinish rivoyat (sujetdan tashqari bo‘lak)ga ham hayot hodisasi (sujet)ga ham birdek aloqador. Natijada kompozitsyaning turli qismlari-fabula, sujet, lirik chekinish, jangchi va Nazrul Islom obrazlari, muallif "men"i yagona bir g‘oyaga to‘lasincha bo‘ysundiriladi.

"Ruhlar isyoni"ning ikkinchi fasli "G‘alayon" bobi bilan boshlanadi. G‘alayonning sabablari, oqibati muallifning poetik talqini, muallif nutqi orqali oydinlasha boshlaydi. Biroq muallif muayyan o‘ringa yetgach tasvir usulini o‘zgartiradi. O‘z nutqini to‘xtatib qo‘yib, bobni Nazrul Islom monologi bilan davom ettiradi. Muallif bobni o‘z nutqida davom ettirsa, tafsilotlar, epik voqeabandlik kuchayishini, natijada voqelikning liro-dramatik shiddati susayishini teran his etadi va bayon uslubiga o‘zgartirish kiritib, nutqni bevosita voqea ishtirokchisi bo‘lgan Nazrul Islom tilidan maromiga yetkazadi.

E.Vohidov kompozitsion yaxlitlikni janr talablariga muvofiqlashtirish uchun bundan tashqari o‘zgacha usullarni ham qo‘llaydi. Nazrul Islomning

nutqi johil olomonga, uning qalb ko‘zini ochishga qaratilgan. Hayajonli, emotsional nutq cho‘zilib ketsa, o‘zining ta’sirchanlik quvvatini ma’lum qadar yo‘qotadi. Shu sabab muallif olomonning Nazrul Islomga bo‘lgan munosabatiga ham e’tibor berib turadi. Birov "Bu isyonni, bu nifoqni Chiqarmoq ne zohirga. Siyosat-la o‘ynashmoqni kim qo‘yibdi shoirga", - desa, boshqa birov "Hamma bilar, Inson erkin Yashashi shart poyidor. Biz ham aytsak bo‘lar, lekin, Uyda bola-chaqa bor",

deydi. Boshqa bir o‘rinda esa olomonning Nazrul Islomga munosabati yanada ayanchliroq, fojeroq tus oladi.

... Nazrul Islom  
She’ri butun  
Hindistonda yangrardi.  
Ammo shoir  
uni bugun  
Na tinglar  
Na anglardi.  
Shoirini qo‘ymay –  
Qo‘lda –  
El ko‘tarib eltardi.  
Na quvonar  
Nazrul bundan  
Va na parvo etardi.  
Bir yonidan quchar hindu,  
Bir yonidan musulmon.  
Ammo  
Hushdan ayrilgan u,  
Unga yotdir bu jahon... (202, 434).

Bayon usulidagi bunday o‘zgarishlar lirik tasvirga dramatik shiddat baxsh etib turadi, voqelikning to‘laqonli va emotsional mohiyatini ochishga ko‘maklashadi.

Albatta, voqelikning butun murakkabliklari va chigalliklarini lirik yo‘sinda aks ettirish, uning kompozitsion tuzilishini belgilab olish ijodkordan katta talant egasi bo‘lishni taqozo etadi. Shu bilan birga muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Dostonning kompozitsion usullarini tayin etib olish ijodkorni ko‘p o‘ylantirganligini uning o‘z e’tirofidan ham bilsa bo‘ladi.

"...Otashin bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojeali taqdiri ko‘pda meni hayajonga solib kelar, u haqda biror narsa yozish xayolida yurar edim. Shu maqsadda shoir hayoti va ijodini qo‘limdan

kelgancha o'rgandim, shoir hayotiga oid faktlar bilan yaqindan tanishish niyatida Hindistonga bordim, shoir yashagan joylarda bo'ldim, shoirni yaqindan bilgan kishilar bilan suhbat qurdim. Shu materiallar, taassurotlar asosida dastlab bir she'riy qissa yozildi, unda Nazrul Islom hayot yo'li, kurashi, fojiali taqdiri ancha batafsil hikoya qilingan edi... Lekin bu asardan, negadir, ko'nglim to'lmadi. O'y lab qarasam, unda men Nazrul Islom hayotiga oid ko'pchilikka tanish faktlarni shunchaki belletristik yo'lida sharhlash, hikoya qilib berish bilan cheklanib qolgan ekanman. Yozuvchi-shoirning vazifasi biror shaxs hayoti, sarguzashtini shunchaki hikoya qilib berishdan iborat bo'lsa, dunyoda yozuvchilikdan oson hunar bo'lmazıdi. Ijodkor o'z qahramonining hayoti, taqdirini badiiy tahlil etishi, shu bahonada o'zining hayot haqidagi kuzatishlari, o'y-mushohadalarini o'rtaga tashlashi kerak-ku, axir! Mening qahramonim Nazrul Islom taqdiri bu jihatdan nihoyat boy material berardi. Mushkul ijodiy izlanishlar pallasi boshlandi, dostonning tayyor ilk variantidan voz kechishga to'g'ri keldi. Ko'p urinishlardan keyin dostonning o'quvchilarga taqdim etilgan hozirgi varianti paydo bo'ldi" (33, 149).

Ko'riniib turibdiki, muallif doston qurilishini hozirgi holatga keltirguncha qancha chidam, vaqt, asab, kuch sarflagan.

Faxriyorning "Ayolg'u", A.Qutbiddinning "Izohsiz lug'at" asarlarining tuzilishi an'anaviy kompozitsion qurilishlarga o'xshamaydi.

"Ayolg'u" dostoni misolida biz muhitga, tarixga, dunyoga teran nigoh bilan qarayotgan lirik qahramonni ko'ramiz.

Doston yorga murojaat bilan boshlanadi. Biroq bu yerda murojaatning an'anaviy ko'rinishi emas: yorning go'zalligi, yakka-yu yagonaligi, latofati, jab-ru jafolari, bemehrligi bilan bog'liq kayfiyatlar silsilasi qalamga olinmaydi. Asar "oy yuzing dog'lariga qarab yig'ladim," deb boshlanadi va shoir voqelik ko'nglida qoldirgan dog'lar bayoniga o'tadi. Bu oy yuz dog'lari shoir xayoliga o'zga bir timsolniyaram oyni jonlantiradi. Yarim oy timsoli orqali turkiylar bayrog'idagi ramzlardan biri-xun turklar tarixiga nazar solinadi. Yarim oy shoирга turli xil obrazlar yaratish uchun asos bo'ladi: yarim oyning arab alifbosidagi nunga, Yunus payg'ambarni yutgan nahangga, qobirg'aga, qoshga, qayiqqa, beshikka, dil yarimligiga o'xshashligi, monandligi xayolda jonlana boshlaydi va shu obrazlar bilan bog'liq hodisalarning tasavvurdagi saltanatiga safar boshlanadi.

Zamon va makon nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin bo'lmagan bu buyum-tushunchalar, tasarruf etilishi va vazifasiga ko'ra bir-biriga mutlaqo daxli bo'lmagan bu obrazlar shoir o'ylarida yagonalik kasb etadi.

...Nahang yo‘q  
ummon yo‘q  
ohang yo‘q  
sahro bor  
va unda men borman  
yo‘qolgan beshikka belangan men  
beshik nun  
sulaymon baliqning uzuk ko‘ziday  
mitti og‘ziga  
sig‘moqlik uchun  
daryolari quriyotgan  
osmonlari chiriyotgan  
sahroda turib  
egamdan mo‘jiza so‘rayotgan men  
ketgim kelar  
mening bu yerdan  
Karvonlarga ergashib  
karvon esa ketib bo‘lgan  
kechikdim  
mingani ulov yo‘q  
tutgani yalov  
shamol qamg‘oq misol beshikni  
bir yumalatib  
aylantirib qo‘yar qayiqqa  
qayiq nun  
Qo‘llarimga qamchi o‘rniga  
yugan o‘rniga  
uzun eshkak tutib olganman  
kimsasiz sahroda barxanlar osha  
ketib bo‘lgan karvon ortidan  
qayiqqa o‘tirib ergashaman jim  
suzayotgan qayiq ohista  
qumga cho‘kib borar... (239, 158).

Tasavvurlarning mantiqiyligi shoirni yana mavjud borliqning mantiqsizligiga qaytaradi.

Vaqelikni butun qarama-qarshiliklari bilan qamrab olishga intilish, hayot hodisalariga yuqoriqoqdan nazar solishga harakat, umr mazmuni haqida teranroq o‘ylash kompozitsiyaning ana shu tartibda tuzilishini taqozo etgan.

"Harqalay, Faxriyorning she'rlari ko'ngil xushi uchun rohat qilib o'qiydigan emas, arg'umoqning dag'al yoli tortilgan kamoncha bilan chalinadigan sozga mengzaydi, balki ayolg'usi shudir; ko'ngilni bezovta qiladi, tiryaydi, titadi, fikrni turtadi; tarix haqda, e'tiqod haqda, muhabbat haqida, tabiat haqida, umuman, Uyg'oqlik haqida odamni o'zi bilan o'zini babs qilishga dalda beradi. Faxriyorning yangi shoirligi balki shudir" (239, 6), deb yozadi Ahmad A'zam kitobga bitgan so'zboshisida.

Dostonda juda ko'p mavzular qalamga olinadi: turkiylarning shonli o'tmishi, tabiat hodisalari, so'fiylar e'tiqodi, o'tmish va kelajak, hayot va o'lim, jamiyat va shaxs tushunchalari va boshqalar. Biroq kompozitsiyada aniq bir voqelik tarixi yo'q. Go'yoki har xil mavzu va turli holatdagi suratlar bir joyda ko'rgazmaga qo'yilgandek, hayotning rang- barang lavhalari montaj qilingandek.

Doston kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklardan yana birini undagi lirik chekinishlar belgilaydi. Taxayyul saboqlari bo'lgan falsafiy-badiiy mushohadalar kitobxonni toliqtirishi mumkin. Shuning uchun shoir dostoniga o'zgacha kompozitsion usulni, ya'ni lirik chekinishlarni kiritishni lozim topadi. Shoir lirik chekinishlarni tanaffuslar deb ataydi. Tanaffuslar muhabbat haqida, uning quvonchlari va ozorlari haqida. Biroq bu lirik kechinmalar ifodasi ham taxayyul saboqlari, yana "shoir o'ylari sujeti" ruhiga hamohang, esh.

"Ayolg'u" biror voqealib bilan boshlanib, muayyan bir xulosa bilan yakunlanmaydi. Asarning boshlanishida ham, so'ngida ham o'y-xayollarda bo'lgani kabi bir bepoyonlik mavjud. Doston tugamaydi, balki, kitobxon qalbida davom etadi. Zamonaviy dostonlar kompozitsiyasiga xos yangiliklardan biri ham shundadir.

Zamonaviy doston kompozitsiyasi lirik epiklikka tayanmoqda. Buni nafaqat o'zbek adabiyotshunoslari, balki rus, latish, gruzin, tojik adabiyotshunoslari ham e'tirof etmoqda. Voqeaband epiklik bugungi doston qurilishi uchun muhim bo'lmay qoldi. Shiddat bilan o'sib-o'zgarayotgan davr voqealarini va undan andoza olayotgan kishilar psixologiyasini, zamondoshlarning murakkab dunyoqarashlarini, hayotning surati va siyratini doston janrida aks ettirish uchun qadimiy dostonlarga xos voqeabandlik usuli o'zini unchalik ham oqlamayapti.

"XX asr adabiyotida (roman va povest nazarda tutilmoqda – Sh.H) juda ko'plab voqealarni qamrab oladigan, bir-biridan uzoq va bir-biriga unchalik ham daxli bo'lmanan hodisalarni montaj qilish orqali asarning bir yoki bir necha qahramonini tushunishga yo'naltirilgan sujetga ega asarlarga ehtiyoj kuchaydi" (88, 354).

Shu o‘rinda zamonaviy dostonchilik poetikasida ham montaj usulining kuchayib borayotganligini alohida qayd etmoq lozim.

O.Matjonning “Nega men”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” asarlaridagi voqeabandlik asosida yaratadi. Lirik “men” bu asarlardagi rang-barang voqelik manzaralarini bir-biriga bog‘lab turadi. Bu dostonlardagi turfa hodisaholatlarning montaji lirik qahramonlarning ma’naviy qiyofalarini tasvirlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Demak, bugungi o‘zbek dostonining o‘zga janrlarda kechayotgan yangilanishlar bilan oziqlanayotganligi ham uning tabiatida o‘zgarishlar, yangilanishlar an’anasi davom etayotganligidan guvohlik beradi.

Barot Boyqobilov "Yangi Xamsa", "O‘zbeknoma" turkum dostonlarini voqeabandlik asosida yaratadi. Masalan, "O‘zbeknoma" asari yetti fasldan tashkil topgan bo‘lib, unda oltmishta noma va yetta doston mavjud. Nomalarda ham, dostonlarda ham ma’lum bir tarixiy voqelik epik batafsillikda barmoq vazniga solinadi. To‘g‘ri, "O‘zbeknoma"da ham sujet zamonaviy dostonlarda bo‘lgani singari muallif "men"i atrofida aylanadi. Lirik "men"ning kompozitsion markazdan joy olishi asarda lirik buyoqdorlikni kuchaytirishi kerak. Biroq "O‘zbeknoma" muallifi "men" nutqi orqali ham voqealar bayoniga kengroq e’tibor qaratadi. Natijada voqeaband epiklikning maqomi oshib har joy-har joyda uchrab turadigan lirik qahramon nutqidagi ta’sirchanlikni yo‘qqa chiqaradi.

Mumtoz dostonlar kompozitsiyasiga hech qanday o‘zgartirishlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri ergashish davr ruhiga ham, zamondosh ruhiga ham to‘g‘ri kelavermaydi. "O‘zbeknoma" kompozitsiyasining tarixiy voqelikning xronologik tartibi asosiga qurilishi (ko‘p hollarda ham bu tartibga amal qilinmagan) asarni zamonaviy dostonlarga xos bo‘lgan qator fazilatlardan mahrum etgan. Zamondoshlarning murakkab ruhiyat iqlimlariga kirib bormaslik, kompozitsion qismlarning bir g‘oya atrofiga jipslanmaganligi, badiiy to‘qimadagi voqealarning mantiqan bir-biriga bog‘lanmaganligi, shaklga ko‘proq e’tibor qaratilishi shular jumlasidandir.

Shu o‘rinda Asqad Muxtorning 60-yillarda dostonchilik xususida bildirgan fikrlari e’tiborni tortadi: "Menimcha, poemachilik qandaydir "arosat" davrini boshdan kechiryapti. Bu poeziyaning prozadan yanada ajralish, uzoqlashish tendensiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy hodisa. Eski, oddiy sujetli epik turga qaytishga yurak dov bermayapti. Chunki poetik belletristika davri o‘tgan, ichki, falsafiy, salmoqli o‘y surush poemalarining etishmagan joylari ko‘p, eskicha ma’nodagi poemalarda hozirgi zamondoshning keng mulohazalarini berish qiyin bo‘lyapti,

yangicha o‘ychan yoki qasida poemalarda esa zamondoshning inson sifatidagi maishiy detallariga joy topilmay, qonsizroq bo‘lib qolayapti. Hozir bu ikki turni qo‘sib, ikkisining ham yaxshi tomonlaridan foydalanib, poema yaratish tajribalari ham ko‘rinyapti” (89, 138, 139).

Adabiy tanqidda “O‘zbeknoma” to‘g‘risida turlicha qarashlar bildirildi. Akademik M.Xayrullaev va faylasuf A.Ortiqovlarning “Moziydan sado, kelajak chorlovi” maqolalarida asar haddan ziyod maqtalgan bo‘lsa, O.Sharafiddinovning “Mag‘zi puch so‘zlardan bir tosh nari qoch” maqolasida bu asar keskin tanqid qilindi.

Bizningcha, har ikkala maqola mualliflari ham asarni chuqur tadqiq qilmay, umumiyl mulohazalar bilan cheklanishgan.

B. Boyqobilov “O‘zbeknoma” kompozitsiyasini tartib berishda mumtoz dostonlar tuzilishiga xos yana bir usulni qo‘llagan, u ham bo‘lsa, she’riyatning noma, sonet, to‘rtlik, doston janrlaridan birdek foydalanishga harakat qilgan. Biroq bu janrlarning asar umumkompozitsiyasidagi bog‘liqligi, aloqadorligi tarixiy voqealarni hikoya qilish nuqtayi nazaridangina bir-biriga munosib ko‘rinadi. Masalan, Amir Temur faoliyati aks etgan quyidagi baytlarga e’tibor beraylik.

...Sarbadorlar boshin tikkanda dorga,  
O‘liklar sig‘magan chog‘da mozorga,  
Amir Temur chiqdi bo‘lib xaloskor,  
Og‘rigan tuproqqa izladi mador.  
Bosh bo‘lib ulusning qo‘zg‘oloniga,  
O‘zini urdi u jang ummoniga.  
Chingizzondan xalos qilib o‘lkasin,  
Boshidan aritib kulfat ko‘lkasin,  
Ozod qildi g‘animlardan Turonni,  
Kafka-zu Xuroson, mulki Eronni.  
Osoyish kishvarin qildi-da bunyod,  
Xaroba diyorni etoldi obod.  
Banokatni tiklab sohibi davron,  
Shohruhiya debon unga qo‘ydi nom.  
Shohruh mirzo sharafiga bu shahar  
Vayrona o‘lkani qildi munavvar.  
Ne Banokat, jannat etdi mulkini,  
Savobli a’molga urdi ilkini.  
Obodon ayladi Baylakonni ham,  
Kafkaz tuprog‘iga baxsh etdi hasham.  
Araks bilan Kura tutashgan ma’vo

Barlos kanalidan bo‘ldi dilkusho... (201, 412-413).

Ushbu baytlardan shoirning ilmiy, tarixiy, jug‘rofiy ma’lumotlarni chuqur o‘zlashtirganligi sezilib turibdi. Yuqoridagi misralarda hamma narsa joy-joyida: qofiya ham, turoqlanish tartibi ham, tarixiy hodisalarning izchilligi ham. Ammo badiiy ruh, nutqning obrazliligi, emotSIONalligi sezilmaydi. Albatta, bir she’riy parcha vositasida butun asar lirik jo‘shqinlikdan, fikriy teranlikdan xoli degan xulosa chiqarmoqchi emasmiz. Alovida dostonni tashkil etgan sonetlar kitobxonda ancha qiziqish uyg‘otadi. Sonetlarning mazmun-mundarijasi keng, ta’sirchan. Lekin muhtasham asarning umumiyligi kompozitsiyasida bu ta’sirchanlik unchalik ham ko‘zga tashlanavermaydi.

Ma’lumki, mumtoz dostonlarda hamd alovida bir bobni tashkil qiladi, ularda muallif o‘zi xususida, kamtarona mehnati to‘g‘risida ham so‘z yuritadi. Mumtoz dostonlar kompozitsiyasiga ergashgan B.Boyqobilov esa ham-du sanoni cho‘zib yuboradi. O‘zi va faoliyati haqida ko‘proq va oshiribroq fikr yuritgandek taassurot qoldiradi. Shoirning ijodiy niyati poetik g‘oya darajasida pishib yetilmaganligi bois asardagi sonet, nomi, lirik chekinishlar, to‘rtliklar, dostonlar bir maqsad tevaragida birlashmaydi.

B.Boyqobilovning besh dostondan tashkil topgan "Yangi Xamsa" asari kompozitsiyasi ham mumtoz dostonlarning tartib berilishiga xos bo‘lgan ba’zi an’analarni yodga soladi. Muqaddima, xotima, lirik chekinishlar, sujetning liro-epik usulda bayon etilishi va boshqalar ana shunday kompozitsion belgilardandir. Asardagi "Notinch Xuroson", "Shukuhli karvon", "Sokin Xuroson", "Qonli Xuroson" dostonlari Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, beshinchi doston "Hayratul- Ahror" Xoja Ahrorga bag‘ishlangan.

Shoirning "Yangi Xamsa" siga dostonlar majmuyi sifatida qaraydigan bo‘lsak, bu asar ham "O‘zbeknoma" dagi kamchiliklardan xoli emas.

"Yangi Xamsa" to‘g‘risida juda ko‘p adabiyotshunoslar fikr bildirishgan bo‘lsa-da, bu ishlarning birortasida janr xususiyatlari, kompozitsion belgilariga aloqador biron bir qarash bildirilmaydi. Jumladan, Aziz Qayumovning "XX asr "Xamsa"si" risolasida ham "Yangi Xamsa"ning mazmuni so‘zlab beriladi, xolos (183).

“Shoir o‘z yuragiga termulganda – she’r tug‘iladi, ya’ni lirika, - deb yozadi J.Kamol. –Shoir o‘z yuragidan ko‘z uzib, olamga termulganda, yurak rishtalarini olam voqealari bilan bog‘laganda-doston tug‘iladi, ya’ni liro-epika. Bu bog‘lanish dialektik xarakterga ega bo‘ladi. Shoir qalbi va dunyo!.. Ular epik tasvir va lirik kechinma suvratida qo‘l ushlashib yuradi.

Biri ikkinchisini rad etadi va biri ikkinchisini taqozo etadi. Ana shu ziddiyatli birlik yoki birlikdagi ziddiyatdan ruhiy drama tug‘iladi. Ruhiy drama – liro-epikaning qoni va joni. Shuning uchun har bir dostonni baholashda uning zamirida biror ruhiy drama yotadimi?- degan savol qo‘yilishi mutlaqo tabiiy” (59, 122). Ana shu savolga ijobiy javob topilgach, doston xususida batafsil mulohaza yuritish imkonи paydo bo‘ladi. B.Boyqobilov dostonlarida ritmni yuzaga chiqaruvchi unsurlar – bo‘g‘inlarning muayyan tartibda guruhlanib kelishi kuzatiladi, turoq bor, qofiya mavjud, badiiy tasvir vositalaridan foydalilaniladi, arxaik va tarixiy so‘zlardan yaxshigina misralar tiziladi, tarix to‘g‘ri yoritiladi, unda faqat ruhiy drama yo‘q. Bu esa asarning ta’sirdorlik kuchiga ega emasligini ko‘rsatadi.

“Yangi Xamsa”ning to‘rtta dostoni Alisher Navoiyga bag‘ishlangan. Oybek, Mirkarim Osim bobokalon shoirimiz haqida yaxshi asarlar bitishgan. B.Boyqobilov shu mavzuga murojaat qilarkan, Oybek, Mirkarim Osim asarlaridagi gaplarni takrorlamasdan, ular bilan ijodiy musobaqaga kirishishi, o‘zining original gapini aytishi lozim edi. Badiiy asar poetik fikr taraqqiyotini orqagamas, oldinga surishga xizmat qilishi kerak.

Bizningcha, bu asarlarni dostonlar emas, she’riy romanlar deya atash bir qadar to‘g‘ri bo‘ldi. To‘g‘ri, Sharq adabiyotida yaratilgan dostonlarning ba’zilari xorijiy tillarga tarjima qilinganida, ularga nisbatan “doston” emas, “she’riy roman” atamasi ishlatalmoqda. Masalan, fransuz sharqshunosi Anre Masse Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”ning bir dostonini frantsuz tiliga tarjima qilib, uni “roman” janri ostida (“Xisrav va Shirin” romani) 1970-yilda Parijda nashr ettirdi” (53, 168).

Biroq tarjimadagi bu o‘zgarish ikkala janrning xususiyatlari bir xil ekan, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Tarjimon bu ikki janr orasida ba’zi bir o‘xshashliklarga hamda fransuzlar uchun “doston”dan ko‘ra “she’riy roman” tushunarliroq bo‘lganligi bois shunday yo‘l tutgan bo‘lishi mumkin.

“Yangi Xamsa”da dostonlarga xos “hayotning eng oliy momentlari”ni liro-dramatik aks ettirish o‘rnini voqenavislik egallagan. Asardagi qator xarakterlar, masalan, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Jomiy va boshqalar lirik kechinma va kayfiyatlar og‘ushida emas, ko‘proq voqeahodisalar girdobida aks ettirilgan. “Yangi Xamsa”ni shartli ravishda she’riy roman deyishimizga quyidagi asoslar mavjud:

1) janr tabiatini kompozitsion usul tayin etar ekan, asar tuzilishining bosh alomati-ifoda tarzini she'riy romanlarga xos bat afsil voqeabandlik tashkil etadi;

2) xarakterlar she'riy romanlarga xos asta-sekin rivojlanish jarayonida ko'rsatiladi (Bu usul zamonaviy dostonlarga xos emas);

3) Bir inson hayoti davomidagi voqeа-hodisalarni xalq hayoti bilan bog'lab, tarixning ko'lamdor manzarasini chizish ham romanga xos.

Mumtoz dostonlarda ham, zamonaviy dostonlarda ham bir qahramonning tug'ilishidan boshlab umrining oxirigacha bo'lgan voqeа-hodisalar asos qilib olinmaydi. Muayyan qahramon hayot tarixining ma'lum davrigina dostonlar uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

"Farhod va Shirin"da Farhod hayoti tarixi hikoya qilinganidek tuyulishi mumkin. Biroq bunday emas. Dostonda Farhod hayotining ilohiy ishq g'oyasiga xizmat qila oladigan nuqtalarigina qamrab olingan. Dostonda biz Farhod hayotini epik batafsillikda ko'rmaymiz.

Yuqorida fikrlarga tayanib, shuni aytish lozimki, B.Boyqobilovning Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan to'rt dostonini she'riy roman, Xo'ja Ahror tarixi aks etgan oxirgi dostonni ham alohida bir she'riy roman deb atash ma'qulroqdir.

Doston tuzilishini lirik janrlar vositasida amalga oshirish, eng avvalo, ijodkorning tanlagan mavzusiga, qolaversa, estetik g'oyasiga chambarchas bog'lik masala. Bu usulning mumtoz namunalarida, asosan intim mavzu yoritilgan. Dostonchilikdagi "noma" shakli lirik tur janrlarini aralash qo'llash uchun juda qo'l kelgan. Nomada asosan intim tuyg'ular, lirik kechinma-kayfiyatlar, xullas, izhori dil muhim o'rin egallaydi. Sof lirika janrlarining barchasi "izhori dil"ga tayanadi. Shu bois nomalarda lirika janrlaridan qorishiq holda foydalanish kompozitsion yaxlitlikni yuzaga keltirishda o'ng'aydir.

To'lan Nizomning "Giry" dostoni intim mavzuda. Shoир umr yo'ldoshi Hikmatxonning xotirasiga bag'ishlangan bu dostonida lirikaning turli janrlaridan unumli foydalanadi.

Mazkur janrlar shoир qalbidagi motamzadalikni ochib berish uchun qo'l kelgan. "Giry" dostoni chilla, ya'ni qirq kunlik kechinmalar tasviridan iborat. Doston kompozitsiyasining qirq kunlik xotiralar asosida tuzilishi asar kompozitsiyasining qamrov doirasini kengaytirib yuboradi. Muallif hayot yo'lining nurli sahifalarini, turmush o'rtog'i bilan o'tkazgan shukuhli onlarini ko'z o'ngida gavdalantiradi, shirin xotiralar bilan musibat ruhini yengishga harakat qiladi. Xotiralar esa mohiyatiga ko'ra shirin-achchiq, uzun-qisqa, olis-yaqin... Shu sababdan shoир ana shu

xotiralar mohiyatidan kelib chiqib, ulardagi izchillikni, mantiqiylikni saqlab qolish, ta'sirchanroq ifoda etish, musibat ko'lamini teranroq anglash uchun lirikaning turli janrlariga murojaat qila boshlaydi. Mumtoz she'riyatdagi dardchil, hasratli g'azallarga muxammaslar bog'laydi. Musibat shoirni har xil ruhiy iktiroblar, alamli tug'yonlar girdobiga tashlaydi. Albatta, ruhiyatda tinimsiz o'zgarayotgan holatlarni ifoda etish uchun yagona bir janrning imkoniyatlari yetarli bo'lmaydi. Haddan ziyod ruhiy taranglik doston kompozitsiyasini aynan shunday usulda qurilishini taqozo etgan.

Zamonaviy dostonlar kompozitsiyasini tartib berishda xalq og'zaki dostonlari kompozitsiyasi an'analaridan foydalanish ham o'zining samarali natijalarini bermoqda.

XX asr o'zbek dostonchiligi ifoda tarzi jihatidan ham, mazmun-mundarija jihatidan ham mumtoz dostonlar zaminidan uzoqlashganligi ko'zga tashlanadi. Bu davr bilan, adabiy aloqalar yo'naliشining o'zgarganligi bilan bog'liq jarayon. Biroq XX asrning 80-yillariga kelib, yani Istiqlol arafasida milliy ananalarga e'tibor kuchayganligini nafaqat hayotdagi o'zgarishlarda, balki adabiyotdagi o'zgarishlar misolida ham ko'rish mumkin. Ana shunday o'zgarishlardan biri doston kompozitsiyasida kechdi.

Ma'lumki, xalq dostonlarida nasr va nazm bir butunlikda qo'llanilgan. Asar kompozitsiyasi bilan bog'liq makon va zamon tushunchalari (masalan, oradan oylar, yillar kechishi, voqeа sahnasining o'zga bir geografik hududga ko'chishi va boshqalar) qisqa nasriy parchalarda ifoda etilgan. Shuningdek, "dostonlardagi nasrni haqiqiy badiiy nasr namunasi, deyish qiyin" (133, 11).

Shunday bo'lsa-da, doston sujetini harakatga keltirishda nasriy izohlar, sharhlar muhim rol o'ynagan, asar g'oyasini ro'yobga chiqarishda kompozitsion silsilani vujudga keltirgan. Shu tur dostonlaridagi nasriy parchalarda epik voqeabandlik mavjud. Bir lirk kayfiyatdan o'zga bir lirk kechinmaga o'tish uchun "ko'chish maydonchasi" vazifasini o'taydi. Zamonaviy dostonlar kompozitsiyasidagi nasriy parchalarda esa epik voqeabandlik emas, lirk kayfiyatni, kechinma tasvirini ifodalash kuchayib boryapti, kompozitsion tuzilishdagi ichki bir o'ziga xoslikni yuzaga chiqarmoqda.

Omon Matjonning "Qush yo'li", To'lan Nizomning "Uch so'z", Ikrom Otamurodning "Sen", Asqar Mahkamning "To'rt darvish", "Fotiha" dostonlari kompozitsiyasi nasr va nazmdan tashkil topgan.

Ikrom Otamurod "Sen" dostonida botiniy va g‘amgin lirik kechinmalar manzarasini chizadi. Asar noma shaklini eslatadi. Noma bilan lirika orasida uyg‘un jihatlar talaygina. Ikkovida ham qalbning e’tirofi, qalbning izhori muhim o‘rin tutadi. Nomalar uchun eng intim tuyg‘ular asos bo‘ladi, lirkada ham shunday. "Sen"-yorga qaratilgan munojot. Bu yor- ilohiy tuyg‘ulardan yaralgan shoir xayolidagi yor.

Nigohlaring aytar sog‘inchlariningi,  
jovdirar miltirab yoshlari.

Kanglungning iymangan bog‘ichlarini  
nigohlaring uzib tashlaydi... (230, 65).

Ana shunday sof lirik kechinmalar tasviri nasriy parchalarga ulab yuboriladi. Bu parchalar lirika talablariga bo‘ysungan, lirik tuyg‘ularga to‘yingan nasriy bo‘laklardir. Bugungi dostonlar tabiatini tayin etadigan lirika undagi nasriy bo‘laklarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazyapti. "Sen" dostoni matnidagi nasriy parchalar shaklan nasriydir, mohiyatan esa lirkadir.

"Sokinlik to‘shalgan yo‘llar joyidami?.. Mayli ularga kanglungizni yoring... Borsam, ulardan kanglungiz yoriqlarini terib olaman... shivirlarini terib olaman..."

Hayot men o‘ylaganimdan ko‘ra murakkabroq, qiyinroq ekan... Mana shunday qiyin daqiqalarda sizni ko‘rgim, yig‘lab nimalarnidir gapirib bergim kelaveradi..." (230, 70).

Bu parchada hech qanday epik alomatlarni ko‘rmaymiz. Bunda faqat tuyg‘uning izchil bayoni bor. Shuni lirik shaklga ham solish mumkin edi-ku! Biroq kayfiyat qandaydir nasriy kenglikni istayapti.

Bugungi doston intim tuyg‘ular ifodasidan iborat. Yuqorida "Sen"ni behudaga nomalarga o‘xhatmadik. Nomalarning turli lirik janrlar qo‘shiluvidan hosil bo‘lganligini ko‘rib o‘tgan edik. Chunki intim mavzudagi bir yo‘nalish o‘zining badiiy mukammal ifodasini topish uchun har xil ohanglar va janrlarni talab qiladi. Bir xildagi ohang esa dostonday sintezlangan janr uchun g‘ariblik qiladi. Shu sabab "Sen" muallifi ham har xil lirik janrlar o‘rniga nasriy parchalarni kiritadi. "Sen" dostonidagi nasriy bo‘laklarni nasrdagi nazmlar deyish mumkin. Nasrdagi nazmlar so‘nggi yillar o‘zbek she’riyatida ancha rivojlandi. Lirika janrlariga xos bo‘lgan ohanglar rang-barangligini nasrdagi nazmlarda ifodalash mumkin. Ikkinchidan, "Sen" dostonida dramatik shiddat va epiklik alomatlari yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Asar sof lirik tuyg‘ularning tadrijiy rivojiga tayanadi. Lirik tuyg‘ularning cho‘ziqligi esa kitobxonni ruhan toliqtiradi. Shularni hisobga olgan shoir o‘zgacha kompozitsion usul qo‘llash

lozimligini his qiladi. Nasriy parchalarni she'riyatga singdirish an'anasini jahon xalqlari adabiyoti misolida ham ko'rish mumkin. Karl Sendberg, Nozim Hikmat, Pablo Nerudalar she'riyati bunga misol bo'la oladi. Eduardas Mejelaytisning "Kontrapunkt", Imant Ziedonisning "Epifaniyalar", Andrey Voznesenskiyning "Xandaq", Yevgeniy Yevtushenkoning "Fuku!" kabi asarlarida nasr va nazm o'ziga xos tarzda omuxta etiladi.

Rus adabiyotshunosi S.A.Kovalenko shunday kompozitsion usuldag'i asarlarni "prozopoeziya" (64, 242) deb ataydiki, bunga qo'shilish qiyin. Chunki "doston" yo "poema" degan atamaning o'zi uning bag'rida proza mavjudligini inkor etmaydi.

Omon Matjon "Qush yo'li" dostonida nasriy parchalar bilan birga dramatik sahnalardan ham muvaffaqiyatli foydalanadi. Asar kompozitsiyasining bunday tuzilishi muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini ochishga qo'l kelgan.

Alisher Navoiy "Lisonut-tayr" dostonida qushlar tilidan tasavvuf falsafasini yoritish uchun foydalangan bo'lsa, Omon Matjon davr voqeahodisalarini, ijtimoiy tuzumning ma'naviy qiyofasini chizish uchun foydalanadi.

Asqar Mahkam "To'rt darvish", "Fotiha" dostonlarining muqaddimasidagina nasriy parchalardan foydalanadi. Butun asar ruhida bo'lgani kabi nasriy parchalarda diniy-tasavvufiy qarashlar ifoda etiladi. Muqaddimadagi nasriy parchalar liro-falsafiy o'ychanlikka yo'g'rilmagan bo'lib, kitobxонни "shoir o'ylarining sintezi"ga kirish uchun hozirlaydi.

Mumtoz adabiyot an'analarining davom etayotganligini va yangi xususiyatlar bilan boyib borayotganligini zamonaviy dostonlar kompozitsiyasi ham ko'rsatib turibdi.

Kompozitsion markazda muallif "men"ining mustahkam o'rashishi, shubhasiz, zamonaviy dostonlarni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Muallif "men"i o'z ko'ngliga chuqurroq kirib borgani sari tarix va hayot haqiqatini teranroq idrok eta boshladi, insoniyat tarixi rivojining sabab va maqsadini anglay boshladi. "Men"ning bu intilishi natijasida umuminsoniyatga daxldor masalalar tasvir obyektidan o'rin oldi.

Vatan, istiqlol, tinchlik, urush, burch, e'tiqod, iymon, haqiqat singari hayotning eng muhim jarayonlari, ongning eng muhim omillari shoir shaxsining lirik iztiroblarini harakatga keltirmoqda. Kompozitsion asosida "men" turgan dostonlarda oddiy taqdirlar ham, mo'tadil kechinmalar ham uchramaydi. Bunday dostonlar badiiyatidagi hamma narsa muhtasham,

yirik: vaqt ham, kenglik ham, inson ham, g'oyalar ham, ko'tarilgan masalalar ham.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan dostonlarning aksariyati kompozitsiyasi "men" atrofida tiklanadigan dostonlarning istiqboldidan darak bermoqda. Zamonaviy dostonlarda lirik asosning kuchayishi unda she'r kompozitsiyasiga xos yana qator shakliy belgilarning qaror topib borayotganligini ham ko'rsatib turibdiki, bu xususiyatlar xalq dostonlarida, yozma dostonchilikda kamdan-kam hollardagina uchraydi. Bular lirika andozasidagi so'zlar takrori, misralar takrori, anoforik kompozitsiya, ambey kompozitsiya, kompozitsion xalqa, kompozitsion yechim, refren va boshqalardir.

A.Mahkamning "Ishq", "Tavajjuh", I.Otamurodning "Sen", "Yobondagi yolg'iz daraxt", "Istarim", Faxriyorning "Yoziq", "Ayolg'u" dostonlarida ta'sirchanlik va ohangdorlikni kuchaytirishda lirikaning ana shu kompozitsion alomatlari muhim rol o'ynaydi.

Masalan, "Ishq" dostonidan olingan quyidagi sheriylarga diqqat qilsak, undagi ohangdorlik va serbo'yoqlik aynan lirik janrlar kompozitsiyasiga xos unsurlar sharofati bilan ro'yobga chiqayotganligi oydinlashadi.

Ellar tanin so'rар mozor pushtalarin  
pushtalarda kuymalanar qalandarlar  
Qalandarlar Qalandarlar Qalandarlar  
Ko'zlarida xalqalari, zikrlari, nolalari  
tasbihlari  
qo'llarida asolari kachkullari kangullari  
oyog'ida g'ussalari o'lkalari ko'chalari... (220, 6).

Bu o'rinda "qalandarlar" kalimasining takrori tasvirga hissiy emotsiional harorat bag'ishlasa, keyingi misralarda qalandarlarning yorqin portreti mukammal tasviriy vositalarda ifodasini topgan. Portretning bunday qisqa, yorqin, ta'sirchan namunasini faqat she'riy so'z qudrati bilangina yaratish mumkin.

Portret atamasi, odatda, ikki ma'noda, ya'ni tashqi qiyofa (tor ma'noda) va qahramonning individual- psixologik qiyofasi (keng ma'noda) qo'llaniladi. Zamonaviy dostonlarda portretning ana shu keng ma'nosiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Liro-epik dostonlarda esa tashqi qiyofani tasvirlashga kengroq imkoniyat mavjud. Lirik dostonda hamma narsa, jumladan, portret ham ichkariga, "subyektivizm saltanati"ga yo'naltirilgan.

Bu tazoddir bu azobdir bu kazzobdir

bu dunyomas bu qassobdir bu qassobdir... (220, 7).

Ushbu misralarda esa g‘azal kompozitsiyasiga xos ichki qofiyalanish tartibiga guvoh bo‘lamiz. "Ishq" dostonida tez-tez takrorlanib turadigan bunday qofiyalanish tartibi tanlangan mavzu va poetik g‘oya yo‘nalishiga mos bo‘lib, ta’sirchanlikni yanada kuchaytirgan.

Ey navosoz ey nag‘masoz ey qazosoz  
ey sadosoz ey safosoz ey azosoz  
ey balosoz  
ey balosoz  
ey balosoz... (220, 7).

Har bir so‘z, har bir xitobda qalb aralashuvi, qalb kechinmasi. Qalbning bu xitobi bir daqiqalik yo bir kunlik holati ifodasi emas. Qalb bu xitobni aytmoq uchun o‘zining bepoyon va behudud sarhadlarida ming yillik yolg‘izliklarni boshdan kechirgan. Taxir taqdirning, sho‘r qismatning zahr-u zaqqumlarini simirgan.

Vatan- xotirasi jizg‘anak tana,  
Vatan-tili kesib tashlangan oqin  
Vatan-go‘rlar uzra avaxtaxona,  
Vatan-ajdodi haq, avlodi xoin.  
Vatan-tishlangan non, tashlangan uvoq,  
Vatan-muazzinlar so‘yilgan masjid... (219, 270).

"Tavajjuh" dostonidan olingan ushbu lirik bo‘yoqdor satrlar anoforik kompozitsiyaning ajoyib namunasidir. Sho‘ro davrida tariximizning soxtalashtirilishi, udumlarimizga bepisand munosabatda bo‘linganligi, milliy qadriyatlarga panja orasidan qaralganligi, ruslashtirish siyosatining amalga oshirilganligi, ta’lim-tarbiya tizimining nobop bo‘lganligi, faqat istiqlol tufayligina ro‘shnolikka chiqqanligimizni shoir hikoya qilib bermaydi. Uning vatanga bo‘lgan hissiy munosabatidan shu voqeahodisalar anglashiladi. "Vatan" kalimasiga urg‘u berilishi anglashilgan voqeahodisalarning tub mohiyatini idrok etish uchun qulaylik yaratadi.

Faxriyorning "Ayolg‘u" dostonidagi har bir saboq "Oy yuzing dog‘lariga qarab yig‘ladim" misrasi bilan boshlanib, shu misra yordamida poyoniga yetadi. Ushbu misralar kompozitsion bo‘laklarni muayyan doiraga olib doston qurilishiga o‘ziga xos yaxlitlik bag‘ishlagan.

"Ishq" dostonida A.Mahkam kompozitsion halqaning dostonlarga xos yirik namunasini yaratadi. Ushbu kompozitsion halqa bir yarim sahifadan iborat bo‘lib, uni to‘lig‘icha keltirishni lozim topmadik. Mana shu halqadan ixcham bir namuna.

Bashar qolsa besar-u bebasar badtar

valiylarin chillaxona tortib ketsa  
darvishlarin ulus quvsu ko‘chalarda  
Qalandarin it talasa har eshikda...(220, 4), –

kabi iymoniy butunlikka chorlovchi misralar bilan boshlanib Olloh sifatlarini tilovat qilish bilan nihoyasiga yetadi. Bu kompozitsion bo‘lak asarning boshida, o‘rtasida, oxirida takrorlanadi va doston davomida ifoda etilgan barcha ruhiyat manzaralarining mazmunini qamrab oladi.

Kompozitsion usullardan yana biri ko‘chuv bo‘lib, uning vositasida shoir asarni jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtiradi. Bu usul xalq dostonlarida, shuningdek, bugungi she’riyatda keng qo‘llaniladi.

Bir kecha tush  
sherning tirnog‘ini bo‘yinga  
tumor qilib o‘rab  
shohning xotini  
tumso malikaga  
inchi iqlimdan  
zangori olmalar keltirib berdi  
olmani edi u rusumga ko‘ra  
sumalakday eriy boshлади  
tosh siynalari... (239, 160).

Jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlikni E.Vohidovning "Ruhlar isyonii", Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", I.Otamurodning qator dostonlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Biz yuqorida qator dostonlar vositasida zamonaviy doston janriga xos kompozitsion qurilishning yetakchi tamoyillarini tahlil qilishga harakat qildik. Kompozitsion qurilishdagi bunday o‘zgarishlar va yangilanishlarning yanada davom etishiga shak-shubha yo‘q.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompozitsiyadagi o‘zgarishlar, yangilanishlar dostonning azaliy tabiatiga daxl qilmadi, balki uni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi.

## **IV BOB. G‘OYA VA OBRAZ**

### **4.1. Barkamol inson obrazi**

Komillik falsafasi bugungi dostonda lirik qurilish ustuvorligini ta’minlayotgan xislatlardandirki, bunga ham alohida e’tibor qaratmoq lozim.

Badiiy so‘z san’atida komil inson masalasi tayanch nuqtalardan biri hisoblanadi. Insonning yashash tarzi, turish-turmushi, hayotidagi maqsad-mohiyat shu tushuncha bilan u兹viy aloqador. Shu bois har bir davr ijodkori bu masalaga alohida mas’uliyat bilan yondashgan. Tasavvuf falsafasida komil inson borasida turkum qarashlar, nazariyalar tizimi yuzaga kelgan. Adabiyotda, xususan, mumtoz dostonchilikimizda komil inson va Olloh, komil inson va xalq, komil inson va hayot kabi munosabatlar silsilasi badiylashtirilgan. A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, Y.Isoqov, N.Komilov, I.Haqqlul kabi adabiyotshunoslarning ayrim maqola va chiqishlarida bu masalaga muayyan oydinliklar kiritildi.

“Olamning yaratilishidan maqsad inson, insonning yaratilishidan maqsad esa komil insondir” (144, 140), – deb yozadi Usmon Turar.

Inson o‘zida Rabboniy va nafsoniy xususiyatlarni birlashtirgan borliq. Nafs unsurlaridan qutula borish jarayonida komillik sari yo‘l ochiladi. “Komillik yo‘liga kirgan inson shariat, tariqat va haqiqat bosqichlarini bosib o‘tishi kerak”(110, 38). Mumtoz adabiyotda bu yo‘l insonni ruhiy, ma’naviy kamolotga yetaklovchi yo‘l hisoblangan.

Albatta, tasavvufda komil inson ilohiyashtirilgan – uning mezonlari yuksak. Komil insonning zamindagi timsoli sifatida so‘nggi payg‘ambar – Muhammad alayhissalom e’tirof etilgan. Qolgan anbiyo-yu avliyoning kamoloti esa ul zotga nisbatan olingan. Demak, biz ham shu ilmu ma’rifati yuksak, xulq-u odobi go‘zal, so‘zi va ishi ko‘pchilikka ibrat bo‘ladigan shaxslarni, obrazlarni barkamol insonlar deyishga haqlimiz.

Ruhiy poklanish, tozarish jarayoni zamonaviy dostonchilikda o‘zgacharoq tarzda amalga oshmoqda. XX asr ibtidosidan 80-yillargacha yaratilgan dostonlarda komil inson masalasi go‘yoki kun tartibidan tushib qolgandek taassurot qoldiradi. Tasavvuf adabiyotida inson o‘z nafsiqa qarshi kurashgan bo‘lsa, XX asr adabiyotida inson o‘z nafsiqa qarshimas, o‘zgalarga qarshi kurashdi. XX asr adabiyotida insonga munosabat, hayotga munosabat davr mafkurasi bilan bog‘liq holda keskin o‘zgardi. G‘oyalar insonning emas, inson g‘oyalarning xizmatkoriga aylandi. Shu sabab asrlar davomida Sharq adabiyotida yetakchi mavzu sanalgan komil

inson masalasiga e'tibor susaydi. Istiqlol arafasi, ayniqsa, 90-yillar adabiyotida tasavvuf an'anlarining uyg'onishi komil inson tushunchasini yana kun tartibining birinchi masalasiga aylantirdi.

Zamonaviy dostonchilikning ajoyib namunasi bo'lgan "Ruhlar isyoni"da komil shaxs Nazrul Islom qiyofasida namoyon bo'ladi. Nazrul Islom (Erkin Vohidov) Hindiston (O'zbekiston) qismatini o'zida mujassam etgan shaxs. Ikki yurt uchun ham mushtarak bo'lgan erk tashnaligi, ikki shoir ruhiyatidagi izardiroblar silsilasi xalq taqdirini o'z ko'ngil oynasida jilvalantirgan insoni komilni, uning yaxlit siymosini gavdalantiradi.

Mumtoz dostonlar xarakterni asta-sekin rivojlanish bosqichlarida ko'rsatsa, zamonaviy dostonlarning aksariyatida bu xarakter shakllangan holda namoyon bo'ladi.

"Ruhlar isyoni"da hikoyatlar, rivoyatlar shaxsning takomil yo'lini mumtoz dostonlarga xos qadam-ba qadam ko'rsatish bilan birga zamonaviy dostonlarga xos shoir "men"i orqali aks ettirgan. "Ruhlar isyoni"dagi Nazrul Islom xarakteri bir qarashda endigina shakllanayotgandek tuyulsa, bir qarashda shakllangan qiyofa kasb etadi. "Ruhlar isyoni" mumtoz va zamonaviy dostonchilikni bog'lab turgan mustahkam uzvdir.

Lirk dostonlarda bugun komillik xislati shoir shaxsiyatida namoyon bo'lyapti. Lirk dostonlarda subyektivizm orqali epik olam manzaralarini chizishga intilish shoir shaxsiyatini sujet markaziga olib chiqdi. Bugungi lirk dostonni shoirning bir zarb bilan aytilayotgan monologi sifatida qabul qilish mumkin. Shoirning bezovta o'ylari, fikr to'lg'oqlari, otashin ehtiroslari komillik olami sari yo'l olgan shaxsning qiyofasini ko'z o'ngimizza jonlantiradi. "Ruhlar isyoni"da ham shu holni ko'ramiz.

Mashrab bir she'rida "Ruhi jonom arshga etdi, men o'zim osmoniman", - deb yozadi. Shu kabi Nazrul Islom ham hind qalbining osmoni bo'ldi. Bu qalbning ko'zyoshlari va faryodi, izardirobi va anduhlari edi Nazrul Islom. Nazrul Islom qullik va jaholat botqog'iga botayotgan xalq va xalqlar fojiasining ramzidir.

Komil inson tasavvufda Muhammad payg'ambar haqiqatini ro'yobga chiqaruvchi shaxs sifatida ham talqin etiladi. Nazrul Islomning xalq taqdiri yo'lidagi fidoyiligi ham ana shu haqiqatning bir ko'rinishidir.

Har nechakim zo'r iste'dod,  
Toshqin ilhom,  
U nega,  
Xalqing yotsa

chekib faryod,  
Yaramasang kuniga.  
Shoir esang,  
Shoir bo‘lib  
Nega kelding hayotga,  
Eling yotsa  
dardga to‘lib,  
Kelolmasang najotga?! (202, 387).

Xalq, el-yurt baxti-saodati yo‘lida fidoyilik, insoniy musibat va qismatlarga hamdardlik, o‘zgalarga mehr-shafqat, futuvvat bilan yondashish komillikning muhim qirralaridan birini tashkil etadi. Shu ma’noda o‘zining hayot mazmunini, shoirlik iqtidorini xalqning ozodlik yo‘lidagi kurash va intilishlariga omuxta etgan Nazrul Islom kamolot pillapoyalarida qator ruhiy iztiroblarni boshdan kechiradi. Tirikchilik kuyida timirskilanib yurgan avom buni tushunsa yaxshi , tushunmasa-chi? Shoirni milliy nizolarning sababkori desa-chi? Uni qatl-u kushlarning aybdori deb aytsa-chi? Ana shu savollarga javob izlash jarayonida shoir o‘z xalqining fojiasini teranroq anglaydi va jaholatda gunoh yo‘q, deya faryod chekadi. Shu tariqa komillik yo‘lidagi mashaqqatlar Nazrul Islom qismati misolida yana bir bor adabiyot tomonidan e’tirof etiladi.

Zamonaviy adabiyotimizda tasavvuf ohanglarini joriy etayotgan shoirlardan biri Asqar Mahkamdir. Uning “Ishq”, “Tavajjuh”, “Fotiha” asarlari dostonchiligimizga umidbaxsh nasimlar olib kirdi.

“Ishq” dostonida komil inson falsafasi shoir “men”i orqali ro‘yobga chiqadi. Mumtoz dostonchilarimizga xos vazmin donishmandlik, teran falsafa, salmoq dor mushohadakorlik “Ishq” dostonidagi bu komil inson yo‘llarini yoritib turadi.

Dedi Gado - Abubakr Shibliydir Ishq-  
Oyoqlari uyolgan er xoklaridan  
Nigohlari uyolgan ko‘k ranglaridan  
Tomoqlari uyolgan suv saslaridan  
Dimog‘lari uyolgan dahr bog‘laridan  
Panjalari uyolgandir asosidan... (220, 19).

Uyat hissi axloqi barkamol shaxslardagina o‘zining bokiraligni saqlab qoladi. Uyat yo‘qolgan joyda axloqsizlik boshlanadi. Tarixidan, madaniyatidan, milliy g‘ururidan judo etilgan kishilardagi uyat hissini, sharm-u hayo tuyg‘usini uyg‘otish harqalay oson ish emas. Bu balandparvoz so‘zlar bilan, chiroyli shiorlar vositasida yoki safarbarlik e’lon qilish bilan amalga oshmaydi. Shu bois shoir tushkunlikka tushgan,

o‘zlik tuyg‘usi so‘nayozgan kishilarni aziz-avliyolardan, valiy va oriflardan ibrat olishga chorlaydi.

“Uyat tuyg‘usi (eng avvalo-jinsiy uyatchanlik) insoniyat ma’naviyatining tabiiy o‘zagidir,- deb yozadi faylasuf Vladimir Solovev, - ... uyat, rahm-shafqat, xayrixohlik hislari inson ma’naviy munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Vijdon esa uyat tuyg‘usini boshqacha ko‘rinishdagi o‘ziga xos va to‘yingan shaklidir” (134,52). Faylasufning xristianlik aqidalariga tayanib bildirgan ushbu mulohazalarini ma’naviy-falsafiy qiyofa kasb etib borayotgan bugungi o‘zbek dostoniga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Komillikni qisqacha ruhiy barkamollik, deb ta’riflash o‘rinli bo‘lardi. Ruhiy barkamollikka esa qalbdagi sezgilar va sezimlarni, hislar va tuyg‘ularni taftish etish hamda uni ilohiy haqiqat shu'lalari bilan nurlantirish orqali erishiladi.

“Ishq” arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosи zarpechak demakdir. Zarpechak nimjon, chuqur ildiz otmagan o‘simpliklarni quritganiday ishq ham nochor va zaiflarni abgor qilishi mumkin. Ishq asli o‘z mohiyati bilan insonni ruhiyatning musaffo osmonlariga, komillik sarhadlariga yetaklaydi.

“Ishq” dostonidagi lirik qahramonning, ya’ni komil insonning Ilohgaga bo‘lgan ishqini uning Vatanga, elga, yorga, insonga bo‘lgan ishqini bilan birlashib ketadi. Natijada ishq zamiridagi ma’no va tushunchalar ufqi kengayadi.

Odatda, oshiq holatida ruhiy beqarorlik, jonsaraklik seziladi. Ishq tufayli ko‘ngil qa’rida mudrab yotgan tuyg‘ular junbushga keladi. Oshiqning rashki-yu ashki, shubha va gumonlari, iztirob va muhabbati birpasda tiliga ko‘chadi. Ana shunday ruhiy holat girdobiga tushgan dostondagi lirik “men”, ya’ni komillik martabasiga intilayotgan shaxs Ilohgaga munodiyilar qiladi, Odam Atoga, Momo Havoga, payg‘ambarlarga, avliyo va darvishlarga murojaat qiladi, o‘zini ham, o‘zgalarni ham ulardan ibrat olishga chaqiradi. Inson tabiatidagi besaranjomlikni, haq va haqiqatdan chekinishni, ruhdagi mutelikni, zillat va zalolatga moyillikni ayovsiz, shafqatsiz tahlil va tanqid qiladi.

Gado dedi - Diyonatsiz kunlar aro  
tupugini ishqalab oy chehralarga  
fasodini surtib shaffof tanalarga  
lattasini osib gardan kallalarga  
bu olamda buncha balo nima qildi?! (220, 15).

Komillikka yo‘l haqiqiy ishqidan boshlanadi. Ishqsiz odam komillikning ko‘chasiga ham yo‘lamaydi. Ishqqa esa, tayinki, ozorsiz erishilmas.

A.Mahkamning “Ishq” va “Tavajjuh” dostonlaridagi lirik qahramon Haqqa yaqinlashish va haqiqatni so‘zlash uchun jonli-jonsiz narsalarning hech biriga shafqat qilmaydi. Bu ayovsiz tahlildan hech narsa chetda qolmaydi. Jaholat va gumrohlik, riyokorlik va fosiqlik qusurlaridan tozarishga, rujni poklashga da’vat A.Mahkam dostonlarining yo‘rig‘ini belgilaydi. Adabiyotshunos I.To‘lakov shoir asarlari haqida fikr yuritib, shunday qaydni keltiradi: “Asqar Mahkam tasavvufona fikrni teran falsafiy ruh va murakkab badiiy tasvir vositalari yordamida ifodalashni ma’qul ko‘radi. Uning lirik “men”i abadiyatga intilgan inson” (149, 16).

Lirik “men” komillikka intilayotgan shaxs. U olamni tabiiy go‘zalligicha ko‘rmoqchi. Biroq manfaat va nafs ridosini egniga tashlagan dunyo bunga monelik qiladi. Lirik “men” solih amallarni o‘zida mujassam etgan nuroniyo ko‘rinishga ega bo‘lsa, dunyo, ya’ni nafs zulmoniy xarakter kasb etmoqda. Tasavvuf ta’limotiga muvofiq, inson o‘zida ikki zid quvvat kurashib turgan bir borliqdir. Ruhning holat va harakati, parvozi nafsi ammoraning tiyilishini talab etadi. Nafsni yengish ruhning yo‘lini nurafshon etadi. Professor Usmon Turarning fikricha, tasavvuf nazariy ilm sohasi bo‘lish bilan birga falsafiy mohiyat kasb etib, tasavvuf falsafasi sifatida shakllangan.

A.Mahkam dostonlari ana shu tasavvufiy falsafadan ruh oladi, bizni o‘rab turgan tabiat va jamiyatni poetik idrok etishimizga, qolaversa, “olami sug‘ro”, ya’ni o‘zlikni anglashimizga ko‘mak beradi.

Jamiyatimiz hayotida kechayotgan ma’naviy takomillashuv jarayoni bugungi dostonlarning tasvir markazida turibdi. Komillik falsafasi mumtoz dostonchilikda voqeа-hodisalar oqimida aksini topgan bo‘lsa, zamonaviy dostonchilikda bu hol shoir shaxsining boy intellektual olami, uning ruhiyat iqlimlari tasvirini berishi orqali ro‘yobga chiqayotir.

Faxriyorning “Yoziq”, “Ayolg‘u” dostonlarini ana shunday asarlar sirasiga kiritish mumkin. “Ayolg‘u” asarini shoirning o‘zi “besh juft taxayyul sabog‘i... va to‘rt tanaffusdan iborat doston” deb ataydi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, shoir voqeа-hodisalar ta’sirida ongda muhrlangan, ko‘ngilda kechilgan, xayolotda jonlangan manzaralarga e’tibor qaratmoqchi. Xayolot olami esa cheksiz va chegarasizdir, tugal va notugaldir.

Taxayyul sabog‘i oydayin za’far  
dilimning hijrati qayg‘uga safar

alam bor gunoh yo‘q na hojat g‘affor  
yo‘q gunohga buncha mag‘firat  
qaro tun qatida ummidim falaj  
o‘ylarim o‘yilar ko‘zday na iloj  
men na osiydirman, na Mansur Xalloj  
o‘zim qolib senga sig‘indim (239, 152).

Komillikka yo‘l – shod-u xurramlikka, dili xandonlikka yo‘l emas. Bu yo‘l, Faxriyor ta‘biri bilan aytganda, “qayg‘uga safar”, mashaqqatlarga, iztiroblarga safar. Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ijodida ham komillik shunday talqin etiladi. Faxriyorning dostonida ayolg‘u chalib, turkular kuylayotgan baxshi siymosini ko‘ramiz. Bu baxshining sharqona dunyoqarashi modernistik, syurrealistik ohanglar bilan uyg‘unlashib ketadi.

Taxayyul saboqlari tarix saboqlaridir. Shu sabab markazida lirik “men” turadigan dostonlarda insoniyat tarixining yuz yilliklari birlashib ketadi. Falak gardishi va tarix g‘ildiragi shoir atrofida aylanayotgandek bo‘ladi. Biz har bir hodisotni eng mayda detallarigacha shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz.

Elkamdag so‘fiylarning chakmonidan  
tikib olgan safarxaltamda  
karvonlar yo‘lidan  
topib olganim  
boznab ketgan  
yarimta shak bor  
Muhammadning xurjunidan tushib qolgan  
yarimta oy shu emasmikan  
va unda  
kimningdir tishlar izi bor  
tishlaringiz butmi  
hazrat Bistomiy... (239, 159).

Bu lirik parcha yirtiq jandasiga o‘ralib kelayotgan Shamsiddin Tabriziyni, hazrat Rumiy otining jilovini mahkam tutib, Muhammad payg‘ambar va Bistomiy masalasida buyuk shoirni so‘roqqa tutayotgan uning jununvash ko‘zlarini eslatmayaptimi? Va shoirning teran mulohazalarini eshitib, hushidan ketib qolgan darvishni, so‘fiyni ko‘z oldingizga keltirmayaptimi?

“Ayolg‘u” muallifi komillik martabasiga yetgan zotlar haqida ochiqdan ochiq gapirmay, balki ularga ishoralar qilyapti. Qisqa-qisqa

satrlarga singdirilgan ushbu ishoralar orqali esa tarixning butun-butun sahifalari ko‘z o‘ngimizda jonlanyapti.

“Komil inson g‘oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodga xos bo‘lgan eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oljanob g‘oyadir” (6, 56). Shuning uchun ham adabiyot va san’at sohasida ijod ahlining g‘oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo‘naltirish davrimizning ustivor tamoyillaridan biriga aylanib bormoqda.

“Komil inson deb shunday insonni aytamizki, – deb yozadi Shayx Aziziddin Nasafiy, - unda to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘ladi, ya’ni: yaxshi so‘z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma’rifat” (94,4).

Bugungi doston komillik masalasini falsafiy talqin etayotgan ekan, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Boyazid Bistomiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy singari komillik martabasidagi shaxslar uning sujetidan qonuniy ravishda joy olmoqda. Ijodkor esa o‘zining axloqiy, ma’rifiy qarashlarini shu obrazlarning shaxsiy sifat va fazilatlariga tayanib ro‘yobga chiqarmoqda.

Abdulkarim Jiliyning fikricha, komil inson atrofida butun borliq olami aylanayotgan bir qutbdir... va uning o‘ziga xos haqiqati bordir (144, 140). Bu haqiqatni anglash va tinglashga intilishning kuchaytib borayotganligi esa adabiyotimiz va ma’naviy hayotimizdagи muhim hodisadir.

Xullas, muallif shaxsiyatining asar markazida o‘rnashuvি zamonaviy dostonlardagi komillik falsafasi ohanglarini kuchaytirdi, lirika qurilishiga xos alomatlarning ustivorligini ta’minladi.

## 4.2. Xalq obrazi

Badiiy so‘z san’atining qayta-qayta murojaat etiladigan, hech qachon eskirmaydigan ilhom manbalaridan biri xalq hayotidir, uning psixologiyasi, orzu-intilishidir. Bu borada har bir janrning o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqadigan muayyan vazifalari mavjud. Xalqning turmush tarzi, ruhiyati, a’molini aks ettirish ming yilliklar bilan bo‘ylashadigan dostonchiligidizning tub mohiyatini tashkil etadi.

Qator yillar va asrlar davomida dostonlarning shakli, hajmi, qurilishi, ifoda tarzi o‘zgarib keldi, biroq uning siyrati, ya’ni xalq hayotini tasvirlash vazifasi o‘zgargan emas, u surati kabi islohotlarni boshdan kechirmadi. Baxshilar ham, dostonnavislar ham bunga ehtiyoj sezmadilar. Xalqning o‘tmishi, buguni, kelajagiga daxldor masalalarning ko‘tarilishi va talqin etilishi dostonlarning ichki tabiatini tayin etadi. Xalq hayoti dostonlar

oziqlanadigan mangu buloqdir. Bu mavzu dostonlarda keng, bat afsil va butun murakkabliklari bilan yoritilgan. “Dostonning eng muhim alomati,- deb yozadi Izzat Sulton- hayotni keng qamrab olishga intilish, jamiyat (qabila, urug‘, elat, yurt, xalq) hayotidagi eng muhim hodisalarini aks ettirishdir” (137, 256).

Umummillat manfaatlari bilan bog‘liq, umumxalq hayotining eng muhim qirralari bilan aloqador masalalar talqini dostonlardagi liro-epik eshlikni yanada quvvatlantirmoqda, unga yangi ohanglar baxsh etmoqda. Liro-epik bir butunlik xalq ruhiyati, turmushi, orzu-intilishlari aks etgan nuqtalarda o‘ziga xos joziba kasb etmoqda.

Doston qahramonlari (lirk dostonlarda muallif) o‘z murod-maqsadlarini eldan, xalqdan ayri tasavvur etisholmaydi.

Yorimni olib Qo‘ng‘irotga ketmadim,  
Elga borib murodimga yetmadim,  
Elga borib katta to‘ylar qilmadim,  
Xaloyiqning duosini olmadim (243, 43).

Alpomish munojotidan keltirilgan ushbu parcha xalqchillikning, el-yurt kuch-qudratiga bo‘lgan mustahkam ishonchning bir namunasidir.

Doston qahramoni (ba’zan muallif) kechayotgan har bir voqeahodisaga el-yurt manfaatlaridan kelib chiqib baho beradi.

Sarg‘aymasin hech bandaning siyog‘i,  
O‘zbek ko‘p yashasin, uyilmasin qabog‘i (243, 7).

Xalqona lutf-mutoyiba va samimiyat ufurib turgan bu baytda qahramon o‘z qismatini el taqdiri bilan yaxlitlikda ko‘radi. “Doston qahramonlarining o‘z qabilasi, xalqi va yurtiga bo‘lgan vatanparvarlik hislari, xususan, dostonning ikkinchi qismida o‘quvchini to‘lqinlantirarli darajada tasvirlangan”( 118, 213).

Xalq ruhiyatini aks ettirish, xalq dardi bilan hamnafas bo‘lish Alisher Navoiy she’riyatining ham o‘zagidir. Bu ruh, bu pafos, ayniqsa, uning dostonlarida bo‘rtibroq namoyon bo‘ladi.

Ilmni kim vositgi joh etar,

O‘zini-yu xalqni gumroh etar (226, 220), – deb yozar ekan ulug‘ shoir, xalq kelajagiga mas’ullik har bir olimning bosh a’moli bo‘lishi kerak, degan fikrlarini bayon etadi. Hazrat Navoiyning bu qarashlari XV asrda qanchalik e’tiborli bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunchalik diqqatga molikdir.

Alisher Navoiy bir o‘rinda “Parim bo‘lsa, uchib ochsam ulusdin to qanotim bor, qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor”, – deb yozadi. Bu misrani badbinlik yo odamlardan bezish ma’nosida emas, balki

yolg‘izlik istab qolgan qalbning muayyan muddatdagi ruhiy holati sifatida qabul qilish lozim.

Doston qahramoni (ya’ni muallif) “Odamiy ersang demagil odami, Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” (226, 240),- deya, xalq g‘ami bilan yashashni odamiylikning bosh belgisi sifatida talqin etadi.

Doston qahramoni (yoki muallif) o‘zi harakat etayotgan sujet doirasidagi konflikt girdoblariga tushganda haqdan madad olib, xalq irodasiga tayanadi, garchi u bu holatni hamisha ham ochiqdan ochiq gapirmsa-da, uning xatti-harakatidan, iztirobli o‘ylaridan shu narsa anglashilib turadi.

XIX asr va XX asr boshlari belorus poemalarining tarkib topishini tadqiq etgan adabiyotshunos M.A.Lazaruk masalaning bu jihatlariga shunday munosabat bildiradi. “Jamiyatning diqqat e’tibori xalqning milliy taqdiri masalalariga qaratilganda yoki umuminsoniy muammolarga yo‘naltirilgan paytda poema janri, ayniqsa, faollashadi.... Poemada eng muhimi badiiy sintezdir; unda xalqning badiiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashdek, xalq taqdirini yaxlit idrok etishdek buyuk jarayonlar kechadi. Muayyan umrlar oqimi, insoniy munosabatlar murakkabligi, hayotiy faktlar psixologiyasi poemaning qiziqish doirasini belgilolmaydi; tarixning harakati, faktlar falsafasi, insonning o‘z davridagi yirik voqelikka munosabati poemaning doimiy diqqat markazida turadi.”

“Xoliq”, “Maxluq”, “Xalq”, “Xulq”, “Axloq”bu kalimalar mohiyatan bir-biri bilan bog‘liq,” – deb yozadi Ibrohim Haqqul. Adabiyotshunos ta’kidlagan bir-biriga bog‘liq bu kalimalarni Xoliqning yaratuvchanligi va sifati muhrlangan tushunchalar sifatida qabul qilish mumkin. Albatta, dostonlarda xalq yo el so‘zlarining ko‘p takrorlanishi undagi xalqchillikni belgilayvermaydi.

Adabiyotshunos Izzat Sultonning fikricha, bosh qahramon bilan jamiyat (qabila, elat, yurt) orasida ziddiyatning yo‘qligi qadimiy eposning muhim xususiyatidir (137, 256). Biroq yangi davr, ayniqsa, bugungi doston xususida bunday xulosaga kelish mushkul. Boisi qahramon (muallif) ko‘pincha olomon xatti-harakatidan iztirob chekadi, ozor topadi, o‘ksinadi. E.Vohidovning “Ruhlar isyon” dostonida shaxs, ya’ni qahramon fojiasi chigal hayot sahnida namoyon bo‘ladi. Qahramon (shaxs) ba’zan xalqqa murojaat qiladi, gohida xalq nomidan so‘zlaydi. Biroq, A.Oripov ta’biri bilan aytganda “tomoshaga o‘ch olomon” qahramon (shaxs)ni tinglarmikin, anglarmikin?

Nazrul Islom  
nomi oxir

Ming baloga taqaldi.  
El uchun  
Jon tikkan shoir  
El dushmani  
ataldi.  
Hukm o‘qildi:  
Bosh egib u  
Asta borar hibs tomon.  
Ajab!  
Soqchi  
bir yon hindu,  
Bir yon esa musulmon (202, 395-396).

Liro-epik tasvir ko‘lamdorligi xalq turmushining eng qaltis holatlarini o‘z tasarrufiga ola boshlaydi. Nazrul Islomni istibdoddan ham ko‘ra xalq ruhiyatida ildiz otgan johillik va gumrohlik qiyaydi. Shaxs va muhit o‘rtasidagi mutanosiblik buziladi. Orada ma’naviy jarlik hosil bo‘ladi. Shaxs bu ma’naviy tanazzulning oldini olishga harchand urinmasin, ojizlik qiladi. Chunki muhit, el, jamoa irqiy, diniy aqidalar otashida jizg‘anak bo‘lib yotibdi. Uni bu otash qa’ridan chiqarishga uringanlarni ham shu girdob yutadi.

“Inson shaxsi muhit ta’siri ostida o‘z xarakteri imkoniyatlari doirasida o‘zgaradi. Kuchli va sobit xarakterlar o‘tkinchi muhit ta’siriga ha deganda tushavermaydilar” (8, 153).

Nazrul Islom ana shunday kuchli va sobit xarakter egasi edi. Uning baxti ham, baxtsizligi ham shunda. E.Vohidov jaholat to‘g‘risidagi rivoyat bilan Nazrul shoir fojiasini yanada bo‘rttiradi.

Ko‘r ko‘zlarga  
Mehrigiyohdek  
Nur baxsh etdi  
nashtarim.  
Qalblar ko‘zin  
ochmoqqa lek  
Kamlik qildi  
Hunarim (202, 402).

Asqar Mahkamning “Tavajjuh” dostonidagi alohida bir bob “Mirzo Boburning ulusga arzi” deb nomlanadi. Asarning bu qismida shaxs va xalq munosabati teran falsafiylik va otashin ehtiroslar omuxtaligida poetiklashtiriladi. Mazkur arzda Boburning podsholigi ham shoirligi ham mujassam: goh arazlagandek bo‘ladi, goh haq yo‘liga da’vat etadi, goh

kayfiyatning miskin va nochor holatlariga tushadi. U kayfiyatning bahor havosidek o‘zgaruvchi qaysi bir iqlimiga tushmasin, unda diniy-tasavvufiy dunyoqarashi ko‘rinib turadi.

Men Temurxon emas, shoh Bobur edim,  
Haq subhon-taollo ko‘rmishdir ravo.  
Ey Xalq, nidolarim to‘kilib ketdi,  
Ey Xalq, ketdim oyoq etgungacha to...  
Pushti kamarlarim ketar belimda,  
To qiyomat bo‘ldim ularga zomin.  
Ey Xalq, ichganim zahr bo‘lgan elimda,  
Ey Xalq, oshaganing osh bo‘lsin, omiyn! (219,275).

Boburga xos tafakkur tarzi, Boburga xos rostgo‘ylik ana shunday ehtirosli satrlarda mantiqiy lashadi. Ichki olam nolalari tashqi dunyoning achchiq manzaralari bilan qorishib ketadi.

Doston adabiy turlar sintezining natijasi o‘laroq xalq hayotini keng, batafsil, ehtiroslar qurshovida va dramatik murakkabliklari bilan aks ettirishda katta imkoniyatlarga ega. Shu bois unda tuyg‘u kechinmalar manzarasini ham, voqeа-hodisalar tasvirini ham, fojeiy-dramatik holatlarni ham uchratish mumkin.

Xalq-miqyosi keng tushuncha. Bizningcha, XX asr adabiyotshunosligida xalq atamasiga bирyoqlama munosabatda bo‘lib kelindi, ya’ni xalq deyilganda faqat ijobjiy xislat kasb etgan xarakterlar, shaxslar anglashildi. “...Adabiy asarlarning xalqchilligini ta’minlaydigan asosiy mezon-shu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalarning xalq manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilganligi va shu davr ijtimoiy tafakkuridagi eng progressiv g‘oyani ifodalashidir” (8,33). Badiiy asar qahramoni xarakterida butun bir xalqqa xos xususiyatlarning aks etishi, shuningdek, hayot tasviridagi haqqoniylit ham xalqchillikning muhim qirralarini tashkil etadi.

Asqar Mahkamning “Ishq”, Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostonlari ana shunday asarlar sirasiga mansub.

Ko‘rgiliklar odam shaklin oldi bunda,  
Tirikliklar odam shaklin oldi bunda,  
Harb-u zarblar odam shaklin oldi bunda,  
Bunda Odam bo‘ldi fisq-u fujurlar ham,  
Odam bo‘ldi xiyonat ham, diyonat ham,  
Odam bo‘ldi xoinliku munofiqlik,  
Jumla ezgu,  
Jumla yovuz  
Ehtiroslar...(220, 20).

“Ishq” dostonidagi shafqatsiz realistik uslub, liro-epiklik xalq hayotining butun chigalliklari va qarama-qarshiliklarini ham o‘z tasvir obyektiga tortaveradi. Unda xalq hayoti, turmush tarzi bir tomonlama, faqatgina fazilatli tomonlari bilan ko‘zga tashlanavermaydi. Aksincha, hayotning jamiyki og‘riqlari, zalvori asar ruhiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

XX asr nafaqat insoniyat taqdirida, balki hayvonot olamiga ham o‘z asoratlarini qoldirdi. O.Matjonning “Qush yo‘li” dostonida bu masala ramziy obrazlar vositasida batafsil tahlil etiladi. Qizil imperiya davrida mehnatkash insonning yaqin hamkori otlarni qirish haqida maxsus ko‘rsatmalar berilgan edi. T.Murod “Ot kishnagan oqshom” asarida bu qirg‘inning salbiy oqibatlarini mohirona aks ettiradi. Qatag‘onning bunday ko‘rinishi badiiy madaniyatga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Agar “Xalq og‘zaki ijodi va mumtoz dostonlarda ot mustaqil obraz bo‘lish barobarida qahramonlar taqdirida muhim o‘rin tutgan” (77,246) bo‘lsa, XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida yaratilgan dostonlarda ot obrazini deyarli uchratmaymiz. Otga ulov sifatida qarash, uning vazifasini texnika vositalari bajarmoqda, degan xulosaga kelish to‘g‘ri emas. Zotan, bugungi kunda ham o‘zbek xalq bayramlarini otlarsiz tasavvur etish mushkul. Umuman turkiy xalqlarda azaldan otlarga alohida mehr bilan qarash odati bugungi kunlarda ham davom etmoqda. Ot inson bilan tabiat uyg‘unligining namunasi. Mumtoz dostonlarda xalq, qahramon, ot yagona uchlikni yuzaga keltirgan. J.Kamol “Rajab Ashurov dostoni” (1983) asarida ot obraziga murojaat qiladi va bu obraz asarga romantik shukuh bag‘ishlagan.

Bugungi dostonlar markazida shoir timsolidha xalq obrazi turgan ekan, demak, ot obraziga ehtiyoj sezilib turishi tabiiy.

So‘nggi yillar o‘zbek dostonchiligining eng muhim xususiyatlaridan biri xalq hayotining shoir shaxsiyati, ichki kechinmalari orqali ifodalanishidir. Dostonlarda hayotni voqeа-hodisalar oqimida aks ettirish bir qadar susaydi. Shoир “men”ining faolligi kuchaydi. Ifoda etish tarzidagi bunday o‘zgarish shoirga xalq nomidan so‘zlash imtiyozini berdi. Bugungi dostonlarda shoir xalqning yetuk, intellektual xususiyatlari kamolga etgan vakili sifatida elning orzu-intilishlarini, quvonch-tashvishlarini, kam-u ko‘stini o‘z monologida ifoda etmoqda. Adabiy yolg‘onlar o‘rnida achchiq bo‘lsa-da, rostgo‘ylikning tobora teranroq tomir otib borayotganligi Istiqlol davri o‘zbek dostonchiligining jiddiy yutug‘idir.

Habib Sa’dullaning “Jarohat” dostoni 1999-yil 16-fevral Toshkent voqealariga bag‘ishlangan. Shoир fojiaviy voqeа-hodisalarni lirik talqin etadi. Asar “Bag‘ishlov”, “Toshkent”, “Suiqasd”, “Ajdodlar hukmi”,

“Uchrashuv”, “Yo‘lboshchi”, “O‘zbekiston”, “Xotima” singari bo‘limlardan tashkil topgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad doston haqida shunday deb yozadi: “Dostondagi chaqnab turgan satrlar mening, sizning, barchamizning qonimizni qaynatib turgan alam, bo‘g‘zimizdan otilib chiqayotgan bir olovli vulqondir” (237, 4).

Shoir 16-fevral voqealariga munosabat bildirar ekan, yurtimizning, millatimizning tarixi bilan bugungi kunimizni muqoyasa qiladi. Shoir “Ajdodlar hukmi” bo‘limida Toshkentning fojeiy manzaralariga ulug‘ bobokalonlarimizning nigohi bilan qarashga intiladi.

Mashrab:

Xudo yagonadir, yagona Vatan,  
Vatanga o‘t qo‘yib qochmog‘ing mumkin.  
Ey nodon, qayoqqa qochgung xudodan,  
Kuzatib turar u, axir o‘z mulkin (237, 4).

Imom Buxoriy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Qodiriy, Cho‘lon, U. Nosir singari obrazlar nutqida ham shoir shaxsining nuqtayi nazarini ilg‘ash mumkin.

Yurtni larzaga solib, xalqning nafratiga uchragan suiqasd tarixdan 16-fevral voqealari deb nom oldi. Muallif dostonida Amir Temur va yurtboshi muloqotlariga alohida o‘rin ajratadi. Bu xayoliy muloqotlar natijasida o‘tmishning bugunga, bugunning kelajakka tutashib ketganligi mohirona talqin etiladi. Habib Sa’dulla poetik g‘oyasini turli she’riy shakllarda ifoda etadi. G‘azal, musallas, murabba’, muxammas, musamman kabi shakllar birlashib, xalq ruhiyatidagi kechinmalarni aks ettira olgan dostonni yuzaga keltirgan.

Axloq tushunchasining “xalq” kalimasiga yaqinligini eslab o‘tdik. Bugungi doston milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini mustahkamlashda axloqiy masalalarga alohida e’tibor qaratmoqda.

Shu jihatdan A.Muxtorning “Dol qoya” asari xarakterlidir. Shoir afsona vositasida bugungi ma’naviyat masalalariga nazar soladi. Mana nevara bobosini dol qoyaga olib chiqishi tasviri.

Tizzang toldi, bolam... dedi ezilib.  
Nafsingni rostlab ol jichcha.  
Bir buta yonida asta egilib,  
“Yuk”ni yerga qo‘ydi yigitcha.  
Manglayida sho‘rlab qotdi ter  
Dol Qoyaning zax sovug‘idan.  
Chaqir toshlar yo‘lda qizg‘imtir  
Qondanmi, quyoshning so‘nggi cho‘g‘idan... (222)

Afsona zamirida keskin tragik holat bor. Yigitcha bobosini sovuq qoyaga, taqdir hukmiga tashlab ketmoqchi. Bobo o‘zini nimalar kutayotganini yaxshi anglab turibdi. Biroq hozir uni qiyayotgan narsa bu emas. U nevarasiga ortiqcha “yuk” bo‘lganidan xijolatda. O‘z navbatida nevara ham nochorligidan xijolatda. Asar boshida qarama-qarshilik sezilib turgan obrazlar munosabatida dardmandlik hissi paydo bo‘ladi. Urinib-surinib qoyaga o‘rlayotgan yigitchaning oyoqlari qontalash bo‘lganligidanmi, quyoshning so‘nggi cho‘g‘laridanmi yo‘ldagi chaqir toshlar qizg‘imtir tus ola boshlaydi. Bu tasvirda nafaqat tashqi predmetlar chizgisi, balki ruhiyat surati mujassam. Qon – boboning jarga qulashiga ishora, quyoshning so‘nggi cho‘g‘i – uning umri poyoniga yetayotganligiga imo, qizg‘imtir chaqir toshlar – manglayda sho‘rlab qotgan terdek sovuq... Bu ruhiyat manzaralarini aks ettirayotgan predmetlar uyg‘unligida mungsiz bir g‘ussa, tilsiz bir faryod mujassam. Bobo taqdirga tan beradi, biroq yigitchaning qalbida kechayotgan ziddiyat urug‘ning azaliy udumiga qarshi isyonga aylanadi.

A.Muxtor bobo siyemosida axloqiy barkamol insonni ko‘rsa, yigitcha misolida o‘zligini topishga intilayotgan zamondosh qiyofasini kuzatadi.

Salim Ashurning “Atirgul” dostoni intim mavzuda. Biroq doston shu mavzu doirasida qolib ketmaydi. Shoir intim tuyg‘u-kechinmalari vositasida Vatan, Xalq haqida fikrlashga, o‘ylashga mas’uliyat sezadi. O‘z baxtini, intilishlarini el saodati va orzularidan ayri tasavvur etolmaydi.

Vatan, yurt, xalq deya qayg‘urolmasam,  
Qalbimni o‘sha qiz band etsa yana,  
O‘limimga rozi sevsam men uni,  
Qanday kunlar uchun tuqqanding, ona! (197, 69).

Baqir-chaqirlardan xoli, balandparvoz hayqiriqlardan ozod, o‘z-o‘zini malomat qilish ohangidagi ushbu satrlar toza tarovati bilan dilga o‘rnashadi.

A.Muxtor “Dol qoya”, Zulfiya “Xotiram siniqlari”, E.Vohidov “Ruhlar isyoni”, A.Oripov “Jannatga yo‘l” asarlarida xalq og‘zaki ijodi janrlariga, xususan, rivoyat, hikoyat, hikmat, maqollarga qayta-qayta murojaat etishlari, shuningdek, bu asarlarda xalq xotirasida yashab kelayotgan narigi dunyo bilan bog‘liq mifologik manzaralarning aks etishi bugungi dostonning xalq turmush tarzi bilan uzviy aloqada ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Bugungi dostonda lirizm faollashgan, subyektivizm kuchaygan bo‘lsada, biroq doston o‘zining umummiliy masalalarni aks ettirish va umumxalqqa daxldor g‘oyalarni ko‘tarib chiqish an’anasiga sodiq qoldi.

Xullas, xalq obrazini yaratish doston janrining qadimiy va muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bu an’ana bugungi kunda ham davom etib kelmoqda, barkamollikka intilayotgan doston qahramonining suvrati va siyratini to‘laqonli aks ettirishga ko‘maklashmoqda.

“So‘z san’ati hali musiqiylikdan, epiklik lirklikdan, tarixiy-mifologiya maishiylikdan ajralmaganligi san’at shakllarining ilk davrlaridagi sinkretizmdan xabar beradi” (58, 175). Bugungi dostonlar tabiatida ham xuddi shunday holat ko‘zga tashlanmoqda. Butun-butun boblar, fasllar xalqona qo‘schiqlarni yodga soladi, ya’ni musiqiy ohangdorlikda bitilgan, lirika epiklik bilan birlashib, yaxlit bir manzarani yuzaga keltirmoqda, tarixiy-mifologik hodisalar, sujetlar bugungi maishiy hayot bilan omuxtalik kasb etmoqdaki, bu masalalarning tahlili alohida maxsus ilmiy tadqiqotni talab etadi.

### **4.3. Vatan obrazi**

Badiiy so‘z san’ati yaratilibdiki, unda Vatan madhi, Vatan qiyofasi bosh mavzu sifatida talqin etilib kelinyapti. Homerning “Iliada” sidan tortib bugungi kungacha yaratilayotgan badiiy durdonalarda Vatan nafasi ufurib turadi, asarga emotsiyalik kuch, dramatik ulug‘vorlik bag‘ishlaydi.

Badiiy asarlarda Vatan obrazi hamisha bir xilda kuylanmagan. Har bir davr ijodkorining Vatanga munosabati o‘ziga xos, betakror, ba’zan bir-biriga zid. Bu hol, ayniqsa, lirkada ko‘proq hamda yorqinroq namoyon bo‘lyapti. Cho‘lpon Vatanni “Buzilgan o‘lka” qiyofasida ko‘rgan bo‘lsa, G‘ayratiy “Tuzalgan o‘lka” holatida ko‘radi. Hamid Olimjon Vatanni “Baxtlar vodiysi” deb tushunsa, Oybek “Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor”, – deya madh etadi. Cho‘lpon Vatanni real aks ettirgan bo‘lsa, H.Olimjon, Oybek va shu avlod shoirlari liro-romantik tasvir yo‘lini tanlashgan. 60-yillardan e’tiboran Vatan xususidagi asarlarda tarixiylik, o‘tmish ajdodlarning yodi va ruhi yetakchi tasvir usuliga aylandi (A.Oripov, E.Vohidov, J.Kamol va boshqalar). 70-yillarda yetishgan shoirlar U.Azim, X.Davron, Sh.Rahmon, M.Rahmon asarlarida Vatanning ijtimoiy-sotsial qiyofasini badiiy-publisistik ohanglarda tasvirlashga moyillik seziladi.

“Dante “Illohiy komediya” (D.Matsitsini bu asarni “Illohiy poema” deb ataydi) asarida ko‘pchilikka ma’lum ohanglardan tashqari, Vatanga, Italiyaga muhabbat ohangini ham singdirib yubordi” (77, 53). A.Oripovning “Jannatga yo‘l” dostonida ham Vatanga bo‘lgan otashin muhabbatning haroratini ilg‘ash qiyin emas. Yigit xarakteri ochiladigan

jannat, do‘zax, arosat kabi harakat doiralari o‘ta ramziy xususiyat kasb etib, unda grajdanlik e’tiqodi barqaror lirik qahramonning el-u yurtga bo‘lgan qalb tilaklari, ezgu istaklari tajassum topgan. Vatan mavzusi talqinini shoirning “Hakim va ajal” dostoni misolida ham kuzatish mumkin.

Usmon Qo‘chqor “Quvg‘in” dostonini “Dunyodagi barcha Vatandan quvilgan, quvilayotgan va quviladigan jabridiydalarga bag‘ishlashi” bejiz emas. Mazkur asarda Vatan ichra bevatan qolgan Qirim turklarining Ikkinchı Jahon Urushi yillaridagi ayanchli hayoti liro-psixologik tahlil etiladi.

Shamol esdi goh Sharq, goh G‘arbdan,

Dovullar o‘tlar guvullab.

Qolaverdi har bitta qalbda

Vatan o‘pqon kabi huvillab. (245, 111)

Shoir zamonlar qiyosidan haqiqat izlaydi, insonni ezgu va mukammal qiluvchi ruhni axtaradi. Bu haqiqat, bu ruh Vatan sog‘inchi tuyg‘usi bilan tutash, hamohang.

Bugungi she’riyat Vatan timsolini falsafiy o‘ychanlik, teran mushohadakorlik asnosida talqin etishga, g‘amangiz kayfiyatlarning dramatik silsilasida ko‘rsatishga intilmoqda.

Bir qarashda Vatan mavzusi siyqasi chiqqandek taassurot qoldiradi. Biroq Hodi Toqtosh “muhabbat ko‘p eski narsa, lekin har bir ko‘ngil uni yangortar” deganidek, Vatan ham qadimiyl tushuncha. Har bir chinakam ijodkor u haqdagi tasavvurlarimizni yangilashga, Vatanning biz anglab etmagan jihatlarini idrok etishimizga ko‘maklashadi.

Ana shunday ijodkorlardan biri Asqar Mahkamdir. Uning “Nasiba” deb atalgan she’ri mazmun e’tibori va ifoda tarzi bilan ham yangi, toza.

Men bilaman, nimadir Vatan,

Vatan! Mening tanam bag‘rida

Yashayotir bir kampir dardmand,

bu dunyoning tirik dardiday (219,30).

She’riyatimizning Vatan haqidagi o‘xshatish va sifatlashlari taxminan “quyosh”, “ona”, “non”, “tong”, “gulzor”, “bog‘-u bo‘ston”, “kelinchak”, “oltin vodiy”, “mard”, “muzaffar” kabi so‘z va iboralar maqomini olgan ta’riflardan tashkil topardi. Asqar Mahkamning she’rida bunday an’anaviy tasviriy-ifoda vositalari yo‘q. U Vatanni dardmand kampirga o‘xshatyapti. Noodatiy o‘xshatish. Shunchalar noodatiyki (g‘ayri tabiiy emas!), shundayligidan samimiyat haqiqatni, haqiqat samimiyatni

ro‘yobga chiqaryapti. Biz Vatanning navqironligiga urg‘u berarkanmizu uning dardmandligi yodimizdan ko‘tarilgan ekan.

Asqar Mahkam “Bibi ena, Vatan nima?” deb boshlanuvchi she’rida Vatan atamasini yangi-yangi chizgilar bilan to‘ldiradi, “Nasiba” she’rida bayon etilgan poetik fikrni mukammallashtiradi. “Keksarganda tanasi enatutga, qo‘llari tok zangiga, sochlari pichan tusiga, ko‘zlari oyga aylangan Bibi ena bilan Vatan haqida so‘ylashganlarim” deb nomlaydi u she’rini. Sarlavhaning o‘zi lirik kirish vazifasini o‘tayapti.

Bibi ena, Vatan sensan,  
Tovoningdan aylanay.  
Tog‘dan so‘ra, tog‘ aytadi,  
Men ne bilam bolam-a?  
Bibi ena, Vatan sensan,  
Mozoringdan aylanay.  
Tog‘dan so‘ra, tog‘ aytadi,  
Men ne bilam bolam-a? (219,41).

Yaqin o‘tmishimizda Vatan haqida shunchalik ko‘p va jimjimador gapirilardiki, ko‘pligidan va soxtaligidan tasavvurimizga g‘ira-shira manzara, mavhum xira tasvir o‘rnashib qolgan edi. Ushbu she’r nevara va buvining savol-javobi asosiga qurilgan. Nevaraning savollari tabiiy, buvining javoblari sodda-samimi. Ana shu sodda-samimi metonimik javoblarda Vatan tushunchasining mohiyati ochiladi. She’rda o‘ylab topilgan gap yo balandparvozlik yo‘q. She’r ruhidagi osuda, sokin ohang toza tarovati bilan qalbimizga o‘rnashadi.

Vatan manzaralari tasviri Asqar Mahkam dostonlariga alohida shukuh bag‘ishlaydi. Xususan uning “Tavajjuh” dostoni shu jihatdan xarakterlidir.

Bobur – Vatan sog‘inchiga aylangan timsol. Bobur haqda yozgan ijodkor uning yurtga bo‘lgan sog‘inchini chetlab o‘tolmaydi. Muhammad Rahmon “Tilak” she’rida “Senga musofirlik sog‘inmayman, yo‘q, Musofir sog‘inchin tilayman faqat”, - deb yozadi va bu sog‘inch iztirobini Furqat timsolida ko‘radi. O‘zbekning buyuk farzandlari ko‘p. Biroq ularning hech biri Vatan sog‘inchini Bobur va Furqatchalik mantiqan ifoda eta olmaydi.

Garchi “Tavajjuh” dostonida Bobur iztiroblari tasvir etilgan bo‘lsa-da, biroq kitobxon ko‘z o‘ngida totalitar sho‘ro davrida xarobaga aylangan O‘zbekiston namoyon bo‘ladi.

Vatan – xotirasi jizg‘anak tana,  
Vatan – tili kesib tashlangan oqin.  
Vatan – go‘rlar uzra avaxtaxona,  
Vatan – ajdodi haq, avlodи xoin (219, 270).

“Ijodkor uchun tarixiy shaxs yo‘q. U o‘z davrining g‘oyalarini, muammolarini ko‘rsatish uchun tarixiy shaxslarga murojaat qiladi”(19., 214), - deb yozadi V.G.Belinskiy. Chindanam “Tavajjuh”da qizil imperiya asoratidagi Vatanni ko‘ramiz. XVI asrda o‘zaro feodal urush-nizolar oqibatida vayronaga aylangan Movarounnahr bilan XX asrda taroj etilgan Vatan ko‘rinishlarida mushtaraklik mavjud. Shu bois Bobur shaxsiyati bilan lirik qahramon “men”i yaxlitlik kasb etadi.

Bugungi dostonda Vatan tarixining eng dramatik, qaramaqarshiliklarga boy murakkab nuqtalari qamrab olinayotgan ekan, unda, albatta, liro-dramatik omuxtalik o‘zining keng imkoniyatlarini namoyish etishi tabiiy. Vatanni hamisha qandaydir muborak, nedir mukarram narsaga o‘xshatish qadimiylar haqiqat. Bugungi she’riyat bu haqiqatni rad etmagani holda yomg‘ir hazinligiga o‘xhash, xazonrez sasiga monand holatlarni ham tasvir obyektiga tortyapti. Bu, albatta, jamiyatda, kishilar psixologiyasida kechayotgan ruhiy jarayonning poetik ko‘rinishi bo‘lsa, ajab emas. Asqar Mahkam va unga tengdosh shoirlar ijodida bu hol alohida bo‘rtib ko‘rinyapti. Sirojiddin Sayyid bir she’rida Men Vatanni na kitob, na Jaridan o‘rganganman. Momolarning yuzidagi G‘G‘Xaritadan o‘rganganman, deb yozadi.

Vatanni o‘rganish, uni idrok etish ana shunday qiyin kechadi. “Tavajjuh”da alohida bir bob “Bobur Mirzoning Vatanga marsiyasi” deb nomlanadi. Dostonning o‘zga fasllarida bo‘lgani kabi bu bobda ham Bobur ruhiyatidagi iztiroblar ko‘lamli salmoqli vaznga ega. Insoniyat tarixidan ma’lumki, shohlik va shoirlar qismatlarini birlashtirish ko‘p hollarda ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqargan. Bobur o‘ylaridagi g‘ussalar ana shu qismat daraxtining ildizlaridan kuch oladi.

Boqdim zahri zaqqum yoshlarim tiyib,  
Devor taglarida qolgandek tanim.  
Naqshbandiyarlarning chorig‘in kiyib,  
Yohu chekayotgan vayron Vatanim!...(219, 289).

“Qissasi Rabg‘uziy”da naql qilinishicha, odamzod tuprog‘i uzra qirq yil yomg‘ir yog‘gan. Shundan bir yili shodlik yomg‘iri, qolgan o‘ttiz to‘qqiz yili qayg‘u yomg‘iri ekan (234,16). Ehtimol, shuning uchundir ko‘ngil g‘amga moyilroq. Shu bois Bobur she’riyatiga xos ulug‘ hasrat “Tavajjuh” dostoniga ham ko‘chadi va Bobur obrazi Vatanni aftodahol ko‘radi.

“Ko‘nglimdin o‘zga mahrami asror topmadim”, “Yo rab! Netay, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi”, “Kim ko‘ribdi ey ko‘ngil, ahli jahondin yaxshiliq”, “Bir sorig‘a boshin olib ketsa kishi” kabi insoniy hasratlar aks etgan

misralarni insho etgan Bobur Vatanni aynan shunday tasavvur etishi tabiiy va mantiqiydir.

Dostonning eng muhim fazilatlaridan yana biri shundaki, Asqar Mahkam Bobur obrazini yaratishda ayrim ijodkorlar, tarixchilar kabi Bobur va Shayboniyxon masalasida tarafkashlik yo‘lini tutmaydi. Balki bu munosabatga yuqoriroqdan nazar tashlaydi. Asardagi ziddiyat Bobur va Shayboniyxon o‘rtasida emas, Bobur va borliq o‘rtasida kechadi.

Shoirlik-ojizlikni tan olishning go‘zal namunasi. Dostondagi Bobur shohona zarboflarda emas, darvish hirqasida bo‘y ko‘rsatadi. Podshoh bo‘lsa-da, o‘z ko‘nglining quli bo‘lgan bu darvish charxi kajraftorning sitamlaridan ozor chekadi, o‘rtanadi.

Bobur Mirzoning tazarrusimi, qazoyi qadar, baqo va fano xususidagi o‘ylari bo‘ladimi, ulusga arzi bo‘ladimi, Alisher Navoiyga bitgan maktubi bo‘ladimi, piri bilan muloqotlari bo‘ladimi, qat’iy nazar, bularning bari Vatan degan tushunchada birlashadi, Vatan degan sog‘inchdan nur emadi. Vatan tarixining shonli-shonsiz sahifalari, dramatik lavhalari lirik qahramon o‘ylovleri va yo‘qlovlarini junbishga keltiradi.

Iymon Vatan so‘zi bilan yonma-yon istifoda etiladigan tushuncha. “Vatanni sevmoq iymondandir”, deyilgan hadisda. Asardagi liro-dramatik tasvirlar Boburning Vatanga bo‘lgan ana shu iymoniylar va islomiy sevgisini ochishga xizmat qiladi. Bobur Vatanni boyliklari uchun sevgan deyolmaymiz. Zotan, uning Hindistondagi mol-dunyosi Samarqanddalik davridan-da ziyoda edi. Uning Vatanga bo‘lgan sevgisi iztirobli misralarda moddiylashadi.

Bundan Bobur o‘tar, Shayboniy o‘tar,  
Tangri o‘z mulkidan xaq qilsin joyin.  
Ey, xalq, Buxoroni boshingga ko‘tar,  
Ey, xalq, Samarqandni xor qilma, omiyn!...(219, 275).

Bugungi dostonning “subyektivlashgan”, o‘ta “shaxsiylashgan”ligida dramatik tasvirning o‘rni beqiyos. Dramatik tasvir o‘z tabiatini bilan lirik kechinma ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Va shu bois Vatan manzarasi ham she’rga nisbatan dostonda batafsил, ko‘lamdor aks etmoqda.

Ana shunday dostonlardan biri Faxriyording “Ayolg‘u” asaridir.

Oy  
Yuzing dog‘lariga qarab yig‘ladim...  
azonda azon yo‘q xazon bor  
Muazzin xazon  
Yaproqlar qapishib qilur ibodat  
Ular Yassaviyning shogirdlaridir

yerga kirmoq istar  
bir yilda payg‘ambar yoshini yashab  
bo‘lgan yaproqlar  
tuproq bo‘lmoq istar  
tuproq tangri osmondan tushgan  
tuproq ustod  
tuproq Vatan  
tuproq kuyindi (239, 150).

Doston besh soatlik taxayyul sabog‘i va to‘rt tanaffusdan iborat. Shoир taxayyul saboqlarida Vatan qismati bilan ko‘nglida tug‘ilgan og‘riqlarni tarix haqiqati bilan dalillashga intildi. Shu bois asarga Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Shohmashrab, Najmiddin Kubro kabi qator tarixiy shaxslar obrazlari kiritiladi. Vatanning iztirobli manzarasi taxayyul saboqlarida birma-bir darj etila boradi.

Daryolari quriyotgan,  
Osmonlari chiriyotgan  
Sahroda turib  
EgAMDAN mo‘jiza so‘rayotgan men (239, 158),  
deb yozadi shoир to‘rtinchи saboqda.

Har bir asarda qay mavzuda yozilishidan qat’iy nazar o‘z davrining muammolari aks etadi. 1990 yilda yozilgan ushbu asarda ham zamonning eng muhim va xarakterli masalalari ifoda obyektiga tortiladi.

Vatanning taqdiriga kuyunchaklik, uning buguni va ertasiga mas’ullik saboqlarning poetik asosini tayin etadi. Shu bilan birga tasvir usulidagi liro-dramatik eshlikni kuchaytiradi.

Har bir saboqdan so‘ng keluvchi tanaffuslarda shoир go‘yo yangi safar tadoragini ko‘rish uchun bir zum to‘xtagandek, o‘zining intim kechinmalarini bayon etadiki, bu ham zamonaviy dostonning muhim fazilatlaridan biridir.

Vatan tarixiga oid faktlar, voqeа-hodisalar taxayyul suratlari tarzida namoyon bo‘ladi. Dostonda Ko‘k tangri haqidagi rivoyatlarni, xalqning ma’naviy-estetik saviyasini belgilaydigan og‘zaki ijodini, undagi ayrim sujet voqealarini, millatning diniy, tasavvufiy va dunyoviy qarashlarini uchratish mumkin.

Garchand asardagi tasvirlar pala-partish, sochilib yotgandek ko‘rinsa ham, biroq u lirk qahramonning muayyan muddatdagi ruhiy holatining assotsiativ ko‘rinishidir, qolaversa, badiiy haqiqatning mantiqiy talabidir. Turkiy tamaddunning ramzi bo‘lgan oy va bo‘ri xususidagi shoир

qarashlarining dramatik aksi dostoniga alohida ramziy-romantik shukuh bag‘ishlagan.

Vatan timsoli bugungi she’riyatning, xususan, dostonchilikning muhim mavzularidan biriga aylanib boryapti, asarga emotsiyal quvvat, ehtiros va jon bag‘ishlayaptiki, yuqorida ko‘rib o‘tilgan dostonlar fikrimizning isbotidir.

## V BOB. JANR TIPOLOGIYASI VA RANG-BARANGLIGI

### 5.1. Liro-epik va lirik dostonlar., ularning janriy xususiyatlari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoligimizda “doston” atamasi lirik, liro-epik, dramatik singari adabiy turlarning nomlari bilan birgalikda qo’llanila boshlandi. Janr spetsifik xususiyatlaridagi murakkabliklardan yana biri shundaki, endi “doston” atamasiga izoh tariqasida har xil adabiy-publisistik janr nomlanishlari qo’shila boshladi.

Adabiyotimiz va uning ilmida ishlatib kelinayotgan “ertak-doston”, “reportaj-doston”, “ocherk-doston”, “qasida-doston”, “balladalardan iborat doston”, “sonet-doston”, “kino-doston”, “radio-poema” kabi atamalar dostonchiligidagi shulsuz ham chigal nazariy muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Agar shunaqa tasnifga amal qiladigan bo‘lsak, “Ruhlar isyon”ni “rivoyat-doston” degan sun’iy va zo’rma-zo’raki atama bilan nomlashga to‘g’ri keladi. B.Sarimosoqov ta’kidlaganidek, “ertak-doston” bo‘lgach, ya’ni ertak-doston tarkibiga qo’shilgach, o‘zining janr xususiyatlarini yo‘qotib, doston strukturasiga singib ketadi. Ocherk-doston ham sonet-doston ham shunday. Ocherk-dostonga qo’shilgach biz doston tarkibidagi ocherk janri to‘g’risida emas, balki doston asosida yotgan adabiy-publisistik hayot manzarasiga e’tibor beramiz. Endi ocherk bizning ko‘z o‘ngimizda o‘zining dostoniy xususiyatlari bilan ko‘rinadi.

XX asrning ikkinchi yarmida dostonchilikda yakka shaxs (lirik qahramon) dominantligi o‘rnatildi. Ana shu lirik qahramonning monologi lirik dostonni, monolog-hikoyasi liro-epik dostonni, dialogi (o‘zi va o‘zgalar bilan) dramatik dostonni yuzaga keltirayapti. “Qasida doston”, “ertak-doston”, “ocherk-doston” kabi atamalar ostida taqdim va tahlil etib kelinayotgan asarlar lirik, liro-epik yo dramatik dostonlardan biriga mansub.

Shu bois biz dostonning adabiy turlar nomlari bilan yonma-yon qo’llaniladigan ko‘rinishlariga e’tibor qaratdik. Bugungi kunda obyektiv olam manzaralarini batartib tasvirlaydigan, muayyan voqeа-hodisalar tizimini xronologik davomiylik va batafsillikda aks ettiruvchi epik dostonlar yaratilmayapti. Xalq dostonlari yo mumtoz yozma dostonchilik namunalari ruhini eslatuvchi asarlarning yaratilmayotganligi ijtimoiy-ruhiy munosabatlarning murakkablashuvi, qolaversa, davr talabi bilan bog‘liq ravishda adabiy jinslar va janrlararo kechayotgan assimilyatsiya-dissimilyatsiya jarayonlarining tabiiy natijasidir. Bugungi kunda

dostonchilikning liro-epik, dramatik va lirik ko‘rinishlari ko‘plab yaratilayotgan ekan, bu uning epik mazmundan mahrum bo‘ldi degani emas. Epik mazmun zamonaviy dostonchilikda lirik qiyofada namoyon bo‘lmoqda. Doston kompozitsiyasining muallif nutqi asosiga qurilishi, lirik qahramonning bosh obraz ekanligi, olamning epik qiyofasi tafakkurdagi assotsiativ bog‘lanishlar orqali namoyon bo‘lishi lirik tasvirning yetakchiligidan dalolat beradi. Ana shu lirik tasvirning epik mazmun va salmoqdorlikni ifodalashga yo‘naltirilayotganligi janrning o‘zgarishlar jarayonida asrab qolgan xususiyatlaridan biridir.

Doston va epiklik ajralmas istilohlardir. Doston deyildimi, unda o‘z-o‘zidan epiklik mavjud degan xulosa kelib chiqadi. Chunki doston ham eposning mulkidir. Davriy o‘zgarishlar dostonlardagi bu epiklikning turli shakllarini yuzaga keltirdi. Ilgari dostonlardagi epiklikni ma’lum bir qahramon taqdiri bilan bog‘liq voqeа-hodisalar tizimi yuzaga chiqargan bo‘lsa, bugungi kunda bu epiklikni voqeа-hodisalar, faktlar, xatti-harakatlarning ruhiy tahlili ro‘yobga chiqarmoqda. Dostonlardagi epiklikning bunday ko‘rinishi keyingi yillar adabiyotshunosligida o‘z tasdig‘ini topdi.

“Janr tabiatini o‘rganishda muhim va nomuhim, yo‘qolayotgan va paydo bo‘layotgan belgilarni dialektikasini ochish orqali janr o‘zgarishlarini o‘zida ifodalaydigan nuqtani topmog‘imiz lozimki, shakl va uning asosiy unsurlari unda namoyon bo‘lsin” (115, 229). Ilmiy tadqiqotimizga shu nuqtayi nazardan yondashganda qator masalalarga aniqliklar kiritiladi.

Liro-epik dostonlar an’naviy dostonchilikning voqelikni hikoya qilish usulini ma’lum ma’noda saqlab qoldi. Biroq bu usul an’naviy mumtoz dostonchilikdagi yo‘nalishning aynan o‘zi emas. Chunonchi, bugungi liro-epik dostonlarda epik batafsillik muhim o‘rin tutmaydi, ikkinchidan, hikoya qilinayotgan voqelik manzaralari yagona sujet chizig‘iga ega emas. Uchinchidan, bugungi liro-epik dostonda mumtoz namunalarda bo‘lganidek voqelik emas, balki lirik “men” hukumronlik qiladi. Doston qurilishini lirik “men” tayin etadi. Tarixiy, afsonaviy, ramziy hamda badiiy fantaziya mahsuli bo‘ladigan voqelik chizgilari lirik shaxsning ichki olamini yoritish uchun u tomonidan tanlanadi, saralanadi, sintezlashtiriladi. Lirik “men” ruhiy olamini yoritish jarayonida obyektivlashtirilgan turli xarakterlar ham etishib chiqadi. Liro-epik dostondagi bu obyektiv xarakterlar lirik “men”ning makon va zamon behududligidagi tarixiy ko‘rinishidir. Masalan, “Ruhlar isyoni”dagi lirik “men”ni Nazrul Islom va Erkin Vohidov shaxsiyati tashkil etadi. Bu lirik “men” o‘zligini ifoda etish jarayonida har xil rivoyat va hikoyatlarga

murojaat qiladi. Natijada shu rivoyat va hikoyatlarni bayon etish jarayonida har xil obyektiv xarakterlar o'sib chiqadi. Dostondan o'rin olgan "Abadiyat haqidagi rivoyat"da foniy umr tanlagan yo'lchi hikoyati, "Fidoiylik to'g'risidagi rivoyat"da azaliy xurofot va bid'atga qarshi bosh ko'targan jangchi qissasi, "Jaholat haqidagi rivoyat"da olomonga ezgulik qilib, ezguligi evaziga gulkanda yoqilgan tabib qismati hikoya qilinadi.

Ana shu rivoyatlardagi yo'lchi, jangchi, tabib obrazlari liro-epik usulda yaratilgan obyektiv xarakterlardir. Chunki ularning xarakteri obyektiv olamning birgina voqeasi vositasida namoyon bo'lmoqda. Bu xarakterlarni epik yo'lda yaratish uchun birgina voqeа kamlik qilardi. Mumtoz dostonlarga xos xarakter yaratishda ham birgina voqeа etishmasdi. Boisi mumtoz dostonlarda xarakter voqeа-hodisalar silsilasidan ro'yobga chiqardi. O'z-o'zicha mustaqil sujetli rivoyatlardan o'sib chiquvchi bu xarakterlar lirk "men" timsolini mukammallashtirishga yo'nalgan. Chunki yo'lchi, jangchi, hakim va dostondagi boshqa obyektiv xarakterlar bilan lirk "men" o'rtaisdagi ruhiy yaqinlik va qismatdoshlik mavjud.

"Bandasiga bermak doru  
Yaratganga isyondir.  
Demak,  
Hakim ishi makr-u  
Uning o'zi  
Shaytondir."  
Bu so'zlarni  
chin, deb bildi.  
Nodon,  
johil olomon.  
Donishmandni sazo qildi  
Kaltakladi  
Beomon (202, 398).

Gulxanda jizg'anak bo'lgan hakim siymosi va lirk "men" taqdiridagi uyqashlik Shaxs va Jamiyat, Shaxs va Davr muammosini liro-epik yo'sinda tasvirlashda qulaylik yaratgan. Olomonchilik kayfiyati mavjud ekan, jaholat va xurofot mavjud ekan, tarixiy va geografik hududlarga qaramasdan shaxs qismati bir xilda yakunlanishi asar ruhiga singdirilgan.

Lirk dostonlarda esa biz obyektiv xakterni uchratmaymiz. Dostonning bu ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan o'zga xarakterlar lirk "men" o'ylaridan joy oladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek alohida sujet tarzida hikoya qilinmaydi.

Asqar Mahkamning 60 sahifadan iborat “Ishq” asari lirik dostondir. Lirik qahramon asar markazidan o‘rin oladi. Ishq mavzui lirik qahramonning odam va olam xususidagi mulohazalarini jamlash imkonini bergen. Olamning epik qiyofasi lirik qahramon o‘ylarida namoyon bo‘ladi. Xuddi she’riy asarlarda bo‘lgani kabi bu dostonda ham biz hamma narsani shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz.

Sen menga jazo bergil, oshkora sazo bergil,  
Kuyida ado bergil, ey, Ishq- baloyi jon!  
Qismatki azal shuldir, yondir, meni kuydirgil,  
Dardimga davo bergil, ey, Ishq- baloyi jon! (220, 3).

G‘azal shaklida boshlangan lirik qahramon monologi shu tarzda davom etadi. Asar boshdan oxir lirik qahramonning haqqa murojaati va munojotidan tashkil topadi. Inson qalbi kunlardan bir kun buloq yanglig‘ ko‘z ochadi, buloqning zilol suvlariday pokiza tuyg‘ulari jamiki mavjudotni yaratgan Tangriga qaratiladi. Bu ishqdan iymon va e’tiqod kamol topadi. Asarda lirik qahramondan tashqari Gado va Odam obrazlari ham yaratiladi. Lirik “men” nutqida bo‘lgani kabi Gado va Odam muloqotlarida ham asosiy mavzu iymon-e’tiqodga qaratiladi. “Ruhlar isyoni” dagi obyektiv xarakterlar ma’lum bir voqeа bag‘ridan yetishib chiqqan bo‘lsa, “Ishq” dostonidagi obrazlar lirik “men” nutqining polifonik xususiyatidan kelib chiqadi. Gado va Odam muloqotlari lirik qahramon nutqining tarkibiy qismlaridir. Gado, Odam obrazlarining muayyan masalaga munosabati, fikrlash tarzi, olam hodisalarini qabul qilish va talqin etish yo‘sini lirik qahramon ruhiyatiga juda yaqin turadi.

Lirik “men”, Gado, Odam obrazlari qarama-qarshilikdan iborat turli qutb vakillari emas. Bular yaxlit lirik qahramonning shartli ravishda bo‘lingan ko‘rinishidir. Dostonning lirik qurilishi obrazlarning ziddiyatlari qutblardan o‘rin olishiga monelik qilgan.

“Ishq” dostonida olamning epik mazarasi gavdalanadi, lekin bu epiklik voqeа-hodisalar oqimidan emas, o‘y-xayollar po‘rtanasidan kelib chiqadi. Fikrimizning asosli bo‘lishi uchun dostonning butun bir sahifasini to‘liq ko‘chirma qilamiz.

Yaraldi tiyg‘u iymon-  
biri qon istadi  
sanchildi chaqnab dil vujudiga  
biri dil istadi  
oqdi vujud sahrolarida  
Yaraldi Ishq-  
yaraldi kufr-u iymon

biri non istadi  
bo‘ldi gadoyi nafs-u hirs-u kom  
biri dil istadi oqdi vujud sahrolarida  
Yaraldi Ishq-  
yaraldi nur-u iymon  
biri nursiz yurak qumloqlarida singdi  
kuydi jon talashdi  
Biri dil istadi oqdi vujud sahrolarida  
Yaraldi Ishq-  
Yaraldi mehr-u iymon  
biri yanchildi toshdek  
ko‘ksida sog‘onayi tanning  
biri dil istadi  
oqdi vujud sahrolarida  
Yaraldi Ishq-  
yaraldi aysh-u iymon  
biri aysh-u tarab istab  
yiqildi har daru devor arosida  
biri dil istadi  
oqdi vujud sahrolariga  
Yaraldi Ishq (220, 37).

Ko‘rinib turibdiki, biror o‘rinda voqeа tasviri yoki voqeabandlik uchramaydi. Fikrning rivoji, misralarning o‘zaro bog‘lanishi lirika qonuniyatlariga mos va xos. Ishqning ta’rif- tavsifi, otashin e’tirof, ishq tuyg‘usi atrofida jonlangan sifatlarning zanjirsimon tarzda bog‘langanligi, kechinmaning ruhiyat iqlimidagi erkin parvozi va yana qator xususiyatlar dostonning lirik tabiatidan ogoh etib turibdi. Lirik doston epik tasvirdan tamoman mahrum etilmaydi, albatta. Biror-bir voqeani hikoya qilish lirik doston uchun butunlay yot hodisa emas. Alovida ta’kidlash joizki, hikoya qilingan ana shu voqeа ham liriklashtiriladi. Epiklik – hikoya qilishga emas, uni his qilish asosiga quriladi.

Liro-epik dostondagи epiklik lirik dostondagи epiklikdan farq qiladi. Buni “Ruhlar isyonи” va “Ishq” dostonlarining qurilishi ham ko‘rsatib turibdi.

“An’anaviy hikoya qilish usuli poemalarda kamayib boryapti,- deb yozadi gruzin adabiyotshunosi Soso Sigua. - Lirika xususiyatlari kuchaymoqda. Bugungi poemachilikning hukmron ko‘rinishlari sifatida liro-epik va lirik dostonlarni ta’kidlash joizdir” (136, 252). Adabiyotshunosning bu fikriga qo‘shilgan holda shuni ham qayd etish

lozimki, voqeabandlik asosida yaratiladigan epiklik doston janrida o‘z imkoniyatlarini sarflab bo‘ldi. Bugungi kunda epik doston yaratishga urinish ba’zan ko‘zga tashlansa-da, biroq bu ko‘rinish o‘zining tarixiy shuhratini tiklashga qodir emas. G.V.Chernishevskiy asosli ta’kidlaganidek, har bir davrning o‘z g‘oyalari bo‘lganidek, o‘z shakllari ham bo‘ladi.

“Bizning tushunishimizcha, deb yozadi adabiyotshunos V.Kikans, olamni epik manzaralarsiz, hech bo‘lmaganda, dunyoni epik idrok etish xususiyatisiz doston o‘zining mavjudligini oqlamaydi... Qadimgi epos va poemalardagi epiklik zamonaviy poemalardagi epiklikdan farqlanadiki, bu tafovut zamonaviy dostonlardagi falsafiy epiklik bilan belgilanadi” (68, 193).

Bizningcha, falsafiy epiklik atamasini bugungi Boltiqbo‘yi va slavyan xalqlari dostonchiligiga nisbatan ishlatish to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki bu adabiyotlar nisbatan navqiron. Lekin o‘zbek, fors-tojik dostonchiligi uchun bu xususiyat qadimiylariga ega. O‘rtalarda Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy va boshqa dostonnavislar ijodida falsafiy epiklik qaror topgan edi. Nazarimizda, zamonaviy dostonlardagi epiklikni falsafiy lirika vositasida idrok etiladigan epiklik deb atash ma’qulroqdir.

Kechinmada aks etayotgan ruhiy holatlarning o‘zgarib turishi, cho‘ziqligi lirik dostoniga xos xususiyatdir. Liroepik dostonlarda xarakter shakllanish bosqichlarini boshdan kechiradi, lirik dostonda esa shakllangan holda ko‘rinadi. Lirik qahramon obrazlari lirik dostonda asarning g‘oyaviybadiiy qurilishini belgilaydi. Unda o‘zga bir personajning paydo bo‘lishi lirik qahramon tuygan kechinmaning ko‘lamdorligini ta’minalash uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi o‘rinda esa lirikaga xos xarakter va sharoit aloqadorligi ko‘zga tashlanadi: sharoit xarakterni ro‘yobga chiqaruvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Tasvirning o‘zi tashqi jihatdan obyektiv ko‘rinsa-da, lekin unda botiniy olam namoyon bo‘ladi. Faxriyorning “Yoziq” dostoni misoldida bunga ishonch hosil qilish mumkin. Bunda insoniyat tarixi keng aks etadi. Shoir o‘z shaxsiyati va insoniyat tarixi bilan bog‘liq faktlarni badiiy-falsafiy idrok etar ekan, sharoit tez-tez o‘zgarib turadi: Solor bo‘yi, Vang Gog ijodi, maishiy hayot, turli xil o‘lkalar, odamlar chizgisi va hokazo. Sharoitning shunday o‘zgarishi lirik kechinmaning harakati bilan bog‘liq. Kechinma o‘zgarar ekan, uni ifoda etish shakllari ham o‘zgarib turadi. Xarakter o‘zining ziddiyatli oliy nuqtasida turadi: bu qalb torlarining zo‘riqqan, eng avj holatidir. Umuman, lirikaga xos bu xususiyat

lirk dostonlarda xarakter ifoda etayotgan kechinmaning tasvir doirasini kengaytiradi.

Liro-epik dostonlarda sharoit xarakterga nisbatan mustaqilroq harakatda bo‘ladi. Lirk dostonlarda unchalik ham ko‘zga tashlanavermagan obyektivlik liro-epik dostonda ayon ko‘rina boshlaydi. Liro-epiklikdagi kechinma voqelik manzaralaridan turtki olib, rivojlanadi. Bu o‘rinda yuqorida ko‘rib o‘tganimiz “Ruhlar isyoni”ning qurilishini yodga olish kifoya.

Lirk dostonlarda lahza vaqt harakatidan to‘xtatib qolinadi: o‘zgarayotgan sharoitda shu lahza bag‘ridagi kechinma o‘zining yangi-yangi qirralari bilan ko‘zga tashlana boshlaydi. Ichkaridan ochilayotgan xarakter turli-tuman holatlari bilan ko‘rina boshlaydi va keng miqyos kasb etadi. Xarakterni ochishga qaratilgan sharoit ham eng keskin konflikt holati atrofida aylana boshlaydi.

A.Mahkamning “Tavajjuh” dostoni Bobur Mirzoning muayyan bir paytdagi ruhiy holati tasviridan iborat. Asarning katta-kichik barcha bo‘laklari ana shu ruhiy holatni ochishga qaratilgan.

Butun dunyo ishlaridan qo‘l yuvib, harb-u zarblardan toliqqan Bobur hayot varaqlarini qayta ko‘z o‘ngida jonlantiradi. Umr kitobining sahifalari uning qalbida og‘riqlar, pushmonlar, o‘kinchlar, alam va armonlar uyg‘otadi.

Ana shu ruhiy holat o‘zining badiiy ifodasini topish uchun Bobur taqdirining eng chigal, eng ziddiyatli lavhalarini qamray boshlaydi. Dostondagi har bir faslning ilk satrlaridanoq biz miskin dilning ana shunday nolalariga duch kela boshlaymiz.

Mirzo Bobur tazarrusi faslidan:

Tishlarin gizladi ochun ganjlari,  
dedim, ey, bas, fano haqqi – kafanim...  
Men keldim adashgan daryolar kabi,  
Qismat to‘lqinida chayqaldi tanim (219, 255).

Mirzo Boburning muroqabasi faslidan:

Qismat kundasiga tole talashib,  
Sajdaxon boshimni tikkan qurbanman.  
Ko‘ngil hovuziga otilgan toshdan  
dahr lablariga sachragan qonman (219, 262).

Mirzo Boburning ulusga arzi faslidan

Noayon pushtalaring bu kun ulg‘aydi,  
birovi palag‘da, birovi sag‘ir.  
Ey, Xalq daryolaring to‘ng‘iz bulg‘adi,

Ey, Xalq, qo‘rg‘onlaring yiqilayotir (219, 273).

Mirzo Boburning Fano va Baqo haqida o‘ylaganlari faslidan:

Tole toj-u taxtni g‘ussaga qordi,  
la’nat tavqin oltin bo‘yniga osib.

Gura-gura keldi tulporlar bodi

Tuzlig‘ manglaylarning sinig‘in bosib (219, 276).

Va hokazo.

Vaqtning shafqatsiz hukmidan saqlab qolingga bir lahzalik ruhiy iztirob ifodasi Boburning butun hayotini qamrab oladi. Dostonda o‘tmish yo‘q, kelajak yo‘q. Daqiqa, lahma tasviri bor, xolos. Shu daqiqa, shu lahma tasviri zamiridan o‘tmish va kelajak sadolari eshitiladi. Janr xarakter uchun keng harakat maydonini yuzaga keltiradi, shu bilan birga o‘z ichida qolish imkonini ham beradi.

Buning isboti uchun nafaqat “Tavajjuh”, balki istiqlol arafasi va undan keyin yaratilgan qator lirk dostonlarni misol keltirish mumkin.

Dostonchilik borasida olib borilgan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda “epik doston” atamasi tez-tez uchrab turadi. Doston deyildimi, unda epiklik mavjud, degan xulosa kelib chiqadi. Shu bois “epik doston” atamasi o‘rniga “liro-epik doston” atamasini qo‘llash ma’qulroqdir.

Liro-epik va lirk doston orasidagi asosiy farqni obyektiv va subyektiv tasvir usuli belgilaydi. Liro-epik dostonlarda voqeа-hodisalar, xarakterlar, hayotning turfa manzaralari o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalana boshlaydi, shoirning shaxsiy ehtiroslari ikkinchi darajaga o‘tadi.

Lekin lirk dostonda esa lirk qahramonning taassurotlari, ehtiroslari yagona bir mavzu doirasida badiiylashadi va shoir qalbidagi tug‘yonlar uzviy aloqadorlik kasb etadi. Agar unda ba’zi bir voqeа tafsilotlari bayon etilsa-da, u ham lirk shaxsning ruhiy olamini yoki hasbi holini ochishga xizmat qiladi.

Tojik adabiyotshunosi R.Musulmoniyon lirk dostonga xos xususiyatlardan quyidagilarni qayd qilib o‘tadi.

“1) davrning muhim ijtimoiy-axloqiy masalalariga bag‘ishlanadi;

2) bunda faqat birgina masala muhim emas, balki qator masalalarning uzviyligi va yoki mohiyatan vobastaligi muhimdir;

3) masala voqealar yordami bilan emas, lirk qahramon xulosalari vositasida hal etiladi;

4) lirk doston fasafiy xususiyatga ega; o‘z xalqining peshqadam vakili bo‘lgan ijodkor o‘tgan, o‘tayotgan va o‘tajak voqelik masalalarini teranlik bilan tahlil etib, zamondoshlari va kelajak avlod uchun muhim bo‘lgan xulosa – o‘ylarini bayon etadi;

5) lirik dostonda san'atkor dunyoqarashi juda ravshan namoyon bo'ladi; lirik dostondan adibning ijtimoiy-g'oyaviy niyatini osonlik bilan ilg'ash mumkin;

6) lirik dostonda shoir obrazlar sisilasini yaratishi mumkin. Ammo bu obrazlar lirkaga xos tarzda aks etadi. Adib o'z qahramonini yolg'iz ko'rsatadi, uning xarakteri takomilini tasvir etolmaydi;

7) barcha lirik obrazlar markazida lirik qahramon turadi. Shunisi muhimki, uning asar markazida turishi hamisha ham ko'zga tashlanavermaydi. Lirik qahramon ayrim masalalarni o'zga obrazlar ishtirokida hal etar ekan, o'zi ko'rinnmay turadi. Ammo diqqat bilan mulohaza yuritsa sezish qiyin emaski, barcha masalalar mohiyatida lirik qahramon siymosi gavdalanadi. Shuni ham inobatga olmoq kerakki, uning bu ishtiroki bevosita emas, bavositadir;

8) masalalarning yaxlitligi lirik doston uchun muhimdir. Shakl va mazmun birligiga erishishda, g'oyaning tajassum topishida turli xil mavzu va masalalar yagona bir tizimga solinadi;

9) asar vositalarining yagonaligi va yaxlitligi rang-barangdir, chunonchi, ba'zan lirik qahramonning shaxsiyati bu yagonalikni vujudga keltirishi mumkin, ba'zan g'oyaviy mundarija, ba'zan har xil mavzularning bir doirada hal etilishi, ba'zan shakl unsurlari va hokazo;

10) lirik doston o'z muallifining nafaqat adabiyot tarixidagi, balki jamiyatdagi mavqeini ham belgilaydi" (90, 194-195).

Adabiyotshunos lirik doston xususiyatlarini to'g'ri ko'rsatgani holda epik (liro-epik) doston sifatlarini belgilashda unchalik ham aniq xulosaga kelmaydi. R.Musulmoniyoning fikricha, epik dostonni katta va kichik dostonga ajratish mumkin (90, 142).

Janr masalasini asarning hajmiga qarab belgilash mantiqiy mulohazalarga kelishga imkon bermaydi. Zotan ixchamgina dostonlarga ham muhtasham epik mazmunni singdirish mumkinligini yuqoridagi bo'limlarda ko'rib o'tdik. Shu bois adabiyotshunosning epik doston masalasidagi qarashlariga qo'shilish qiyin.

Liro-epik dostonlarda epik olam aniq va ravshan tarzda ko'zga tashlanadi, lirik dostonda esa epik olam idrok etiladi, his qilish orqali ayonlashadi.

Lirizmning kuchayganligi bois XX asrning 80-90-yillarida yaratilgan liro-epik dostonlar o'z o'tmishdoshlaridan qisman farqlanadi. Liro-epik dostonchilikning 30-50-yillarda yaratilgan namunalarida muayyan voqealar tizimi namoyon bo'lsa, 60-90-yillardagi namunalarida turli-tuman voqealarning shtrixlari muallif nutqidan o'rinn oladi yoki hayotning

alohida-alohida lavhalari aks etadi. Chunki lirizm voqea-hodisalarining sertarmoqliliga yo‘l qo‘ymaydi. Yagona voqea doirasida qahramon hayotining eng qaltis holatlari qalamga olinadi. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, T.Nizomning “Majnuntol yig‘isi”, T.Ahmadning “Fig‘on”, “Sirli chashma” dostonlari shunday xususiyatga ega.

Turfa hayotiy lavhalar vositasida doston yaratish keyingi yillarda sezilarli tus oldi. Bu turfa hayot manzaralari yagona bir voqealar tizimiga bog‘lanmasa-da, shoirning hayotiy masalalarga bo‘lgan izchil munosabatida yaxlitlik hosil qiladi. Omon Matjonning “Nega men?”, “Cho‘ldagilar”, Qutlibeka Rahimboevaning “Qishning oxirlari” kabi asarlari shular jumlasidan. Liro-epik dostonchilikdagi bu yo‘nalishning yaxshi samaralar berayotganligini “Nega men?” dostoni misolida ham ko‘rish mumkin.

“Nega men?” dostoni 1987-89 yillarda yozilgan. Unda kechagi kunning rang-barang manzaralari shoir ehtiroslariga omuxtalashtirib aks ettirilgan. Dostonning “Ajab “namozxon” lar- va’zxonlar” faslida qarsakbozlik bilan umrguzaronlik qilgan sho‘ro rahbarlarining ma’naviy qiyofasiga chizgilar beriladi.

Bosh imom alhol bir kalom aytmayoq  
Qolganlar qo‘l tiklab, takrorlar yakdil,  
Chapak chalardilar, “xo‘p-xo‘p” derdilar,  
Chehra ham, yuz ko‘z ham, tillar ham bir xil...  
“Ha-ha” muridlari, “xo‘p-xo‘p” nullari  
Samolyotga chiqib hammadan burun,  
Etib kelasolib poytaxtlariga  
Majlis boshlardilar shu kun kechqurun (215, 350).

O‘z mohiyati bilan epik qiyofa kasb etgan bu lavhalar lirik qahramon kechinmalarining ehtirosli alangasi bilan birlashib, liro-epik bir butunlikni yuzaga keltiradi.

Dostonning “Yosumanlar” faslida esa Navro‘z bayramini qatag‘on qilishga bo‘lgan urinishlar fuqarolik e’tiqodi mustahkam lirik qahramon o‘ylarida aks etadi. “Paxtadami fojea?” faslida esa milliy g‘urur ramzining milliy tanazzul ramziga aylantirilganligi teran poetik talqin etiladi. Millat boshiga falokatlar yog‘dirgan “o‘zbeklar ishi” jarayonining fojeiy oqibatlari, sabablari ro‘y-rost ko‘rsatiladi.

Asarning “Bog‘bon qayda, bog‘ qayda?”, “Bolalarga bir nima bering” kabi fasllari ham ijtimoiy turmushdan olingan alohida-alohida manzaralardan tarkib topgan.

Ko‘rinib turibdiki, dostonda aks etgan voqealararo aloqadorlik yo‘q yoki ular yagona bir voqealar tizimiga bo‘ysunmaydi. Bu fasllarni bog‘lab turgan uzb lirik qahramonning davriy masalalarga, xalqning ijtimoiy turmush tarziga bo‘lgan faol munosabatidir.

O.Matjonning “Cho‘ldagilar” asarini juda muvaffaqiyatli chiqqan deb bo‘lmasa-da, lekin unda liro-epik ko‘rinishning muhim xususiyatlari qaror topgan. Shoir har bir bob avvalida tarixiy, hujjatli fakt va voqealarni misol tariqasida keltirib, so‘ng ularga emotsiyal munosabatini bildiradi. Natijada cho‘l hayotining qizg‘in epik manzaralari kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalana boshlaydi.

Lirik dostonlarda biz obyektiv olamni boshqacharoq tarzda ko‘ramiz. Bunda obyektivlik subyektiv kechinmalar mohiyatida zuhur topadi. Lirik dostonning mazmuni obyektiv voqeanning taraqqiyotida ko‘rinmaydi, balki mazmun subyektning o‘zi va u orqali o‘tgan hamma narsada akslanadi.

Liro-epik dostonda shoir obyektiv olam bilan o‘z qalbi orasida tilmochlik qilsa, lirik dostonda shoir o‘z qalbiga cho‘madi, u obyektiv olamga qalb ko‘zi bilan qaraydi.

V.G.Belinskiyning lirik asarlarga bergan quyidagi ta’rifi lirik doston haqidagi qarashlarimizga ham muayyan aniqliklar kiritadi. “Dunyoni va hayotni harakat qildiruvchi kuchlar bo‘lgan hamma narsa, hamma substansiya oidi narsa, har qanday g‘oya, har qanday fikr- lirik asarning asosi bo‘la oladi, lekin bu umumiy narsa subyektning eng yaqin, eng ichki narsasiga aylanishi, uning sezgisiga kirishi, uni biror tomoni bilan emas, balki butun mavjudiyati bilan bog‘lagan bo‘lishi shart. Kishini mashg‘ul etgan, to‘lqinlatgan, shodlatgan, qayg‘uga solgan, zavqlantirgan, tinchitgan, hayajonlantirgan nima bo‘lsa, qisqasi, subyektning ma’naviy hayotini tashkil qilgan hamma narsa, subyektning ichiga nima kirsa, unda nima paydo bo‘lsa, shularning barchasini lirika, o‘zining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi” (18, 184).

Demak, lirik dostonda ham ana shu xususiyatlar ustivorligi ko‘zga tashlanmog‘i lozim. Voqea-hodisadan ko‘ra fikr, hujjatlilikdan ko‘ra falsafiylik lirik dostonlarni janr tabiatiga muvofiqlashtirib turadi. Biz yuqoridagi boblarda tahlil etishga harakat qilib ko‘rgan lirik dostonlar shundan dalolat berib turibdi. Lirik dostonlarda boshqa lirik janrlarga nisbatan tuyg‘ularning ko‘lamdorligi, kechinmalarning sertarmoqligi muhim omil hisoblanadi.

Faxriyorning “Muchal yoshi” (1999) lirik dostonida jamiyatda kechayotgan yangilanishlar jarayoni – zamondoshlar psixologiyasidagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar qadam-baqadam tadqiq etiladi. Tafakkur

va qalbda kechayotgan sezimlar butun murakkabliklari bilan gavdalanadi. Natijada lirik doston janriga xos tuyg‘ular sisilasi, kechinmalarning uzviy vobastaligi vujudga keladi. Ruhiyatdagি o‘zgarishlar zanjiri vositasida davrning muhtasham epik qiyofasi his etiladi.

Kechmish vaqt daryosiga otilgan toshdir,  
cho‘kib yotar sobit, mustahkam  
uni o‘zgartirib bo‘lmaydi,  
shisha ortidagi  
ko‘rgazma ashynosiday  
tashlanar ko‘zga  
goh jivirlab,  
gohi turg‘un,  
gohi chayqalib,  
xalqoblar orasidan  
elas va elas.

Kechmish uyg‘onadi  
qish uyqusidan turgan ilonday  
yo‘lsizlikning muqarrar xavfiday  
Hidoyat bo‘lib,  
himoyat bo‘lib (239, 212-213).

Lirik qahramon ongida kechayotgan o‘zgarishlar jarayonining ana shu taxlitda yagona ruhiy holatlar, ishtibohlar tizimiga solinishi dostonning lirik tabiatini ko‘rsatib turibdi. 15 sahifadan iborat bu asarda aniq bir voqeа-hodisa manzarasi uchramaydi. Kechayotgan vogelikka nisbatan bildirilayotgan umumiy xarakterdagи mushohadalar davrning ruhoniy olamidan xabardor etib turibdi.

Keyingi yillarda yaratilayotgan lirik dostonlarda metaforik tafakkur tarzi tobora ildiz otib bormoqda. Lirik dostonlarda bu yo‘nalishning kuchayib borayotganligi janr tabiatidagi siqiqlik bilan belgilanadi. Chunki metaforik tafakkur vositasida ixcham satrlarga, kichik-kichik jumla qurilishlariga olam-jahon epik mazmunni jo etish mumkin. Shu jihatdan Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Muchal yoshi”, “Yoziq”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at”, S.Ashurning “Tunchiroq” dostonlari xarakterlidir.

...Ko‘k bo‘rilar jo‘r bo‘lar  
ayolg‘uning sasiga  
kuylarning eng ichida  
xanjar yovga qasida  
oyga qarab uvlagan  
oy bolasi bo‘rining

ko‘ziga oy baliqlar  
sirtmoq bo‘lib ko‘rinar  
sirtmoq esa oy bo‘lar  
bo‘rilarning onasi oy  
yuzing dog‘lariga qarab yig‘ladim (239, 164).

“Ayolg‘u” dostonidan olingan bu she’riy parchada ko‘k turklarning ramzi bo‘lgan oy va bo‘ri obrazlari badiiy tafakkur mezonlarida sentizlashtiriladi. Mazkur she’riy bo‘lak zamirida turkiylarning millat sifatida shakllanish bosqichlariga doir tarixiy, etnik, afsonaviy qarashlar mavjud. Va bu qarashlar o‘zining muhtasham epik mazmuniga qaramasdan ixcham satrlarga jo bo‘lgan.

Metaforik fikrlash natijasida to‘liq aytilmagan bir fikr, ishora etilgan bir so‘z yoki narsa ma’lum bir davrning, muayyan bir millatning qiyofasini belgilab bermoqda. Insoniyatning yuz yillik tarixlari, yirik-yirik eposlar ishora etilgan bir so‘z vositasida anglashilmoqdaki, bu yo‘nalish lirik dostonlarda etakchi mavqe egallashi shubhasizdir.

Dostonchilikdagi liro-epiklik adabiyotshunoslikda bugun ko‘tarilayotgan masala emas. Masalaga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilganda, mavzuning mohiyatiga chuqurroq kirish mumkin bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda liro-epiklik tur ma’nosida ham, janr ma’nosida ham qo‘llanib kelinmoqda. Biz yuqorida ham, hozir ham atamaga janr ma’nosida yondoshayapmiz. Ayni paytda ikki ma’noda qo‘llash muayyan chalkashliklarni keltirib chiqarishi tayin. Liro-epik doston atamasi juda keng tushuncha. Mumtoz yozma va og‘zaki dostonlarni ham, XX asrning 30-40-yillarida yaratilgan dostonlarni ham, hali hanuzgacha yozilayotgan dostonlarning ayrim namunalarini ham liro-epik doston atamasi vositasida tushunamiz. Biroq sanab o‘tilgan bu doston namunalari ham aynan bir xil emas. Mumtoz dostonchilikda biz lirik “men”ning voqelikka aralashganligini ko‘rmaymiz. Faqat ayrim o‘rnlardagi lirik chekinishlarda lirik “men” o‘zligidan darak berib turadi. Muallif voqelikning kuzatuvchisi sifatida ko‘rinadi. XX asrning 30-yillarida yaratilgan dostonlarda, jumladan, G‘.G“ulomning “Ko‘kan”, H.Olimjonning “Zaynab va Omon” dostonlarida ham mumtoz dostonlarga xos shunday holat ko‘zga tashlanadi. Biroq yangi davr dostonchiligi namunalari o‘tmishdoshlaridan realistik xususiyatlari bilan farqlanadi. XX asrning 60-70-yillarida yaratilgan o‘zbek dostonchiligining liro-epik ko‘rinishlarida lirik “men” asar markazidan joy ola boshlaydi. Bugun yaratilayotgan liro-epik dostonlarda ushbu lirik qahramonning asar markazidagi o‘rni tobora qat’iylashgan. Ana shu xususiyati bilan bugungi liro-epik doston lirik

dostonga juda o‘xshab ketadi. Masalan, “Ruhlar isyoni” liro-epik doston. Unda qator obyektiv xarakterlar yaratiladi. Biroq bu xarakterlarning barchasi lirik “men” – Nazrul Islom obrazi atrofida uyushadi. Nazrul Islom va Erkin Vohidov dunyoqarashidagi, ruhiyatidagi yaqinlik bu ikki shaxsni yagona lirik “men” obraziga birlashtiradi.

Lirik dostonlarda metaforik fikrlash tarzi kuchaygan bo‘lsa, liro-epik, dramatik dostonlarda folklor ohangining ta’siri sezilarli bo‘lmoqda. Birgina “Ruhlar isyoni”dagi rivoyatlarning o‘zi ham fikrimizni tasdiqlab turibdi. Dostondan joy olgan rivoyatlarning bari Sharq folklorining mumtoz durdonalaridir. Gap bu rivoyatlarning mumtozligida ham emas. Asosiysi- bu rivoyatlarning doston sujetiga tabiiy va zo‘riqishsiz singdirib yuborilganligida.

O‘tmish, Bugun, Kelajak... Bu tushunchalar zamonaviy dostonchilikning barcha ko‘rinishlarini tutashtirib turuvchi nuqtalardir. Dostonda sintezlashuv jarayoni har uchchala zamon xossalari ham sintezlashtirib, yaxlit bir manzara hosil qilishga olib kelmoqda. Bu esa lirik qahramonning xalq, Vatan, insoniyat, davr oldidagi ma’suliyatini oshirmoqda, dunyoda kechayotgan katta-kichik har bir masalaga bu lirik shaxsning javobgarlik burchini kuchaytirmoqda.

Bugungi jarayonni badiiy idrok etish tabiiy ravishda o‘tmishning teran nigohi bilan kelajakka boqish an’anasini yuzaga keltirmoqda.

A.Mahkamning “Ishq” dostonida har uchchala zamon xossalari ajoyib tarzda sintezlashtiriladi. Asarda lirik qahramon obrazidan tashqari Gado obrazi ham faol ishtirok etadi. Biroq bu obraz lirik qahramondan ayri obraz emas. Gado obrazi lirik qahramonning o‘zidir, uning polifonik ko‘rinishidir. Ming yilliklar, olis asrlar qa’ridan darveshona ridolariga o‘ranib kelayotgan Gado insoniyat qismati va yoziqlarini taftish etadi, bani basharni haq va haqiqatdan ogoh etadi, dinu diyonatga chorlaydi. Dostonda katta falsafiy maqom egallagan Gado obrazi mutasavvuf bobolarning umumlashma ramzidir. Bu lirik qahramonning uyg‘ongan yodidir, bedor xotirotidir.

Dedi gado - Ishq keltirdim qo‘llarimda  
qo‘llarimda mana sofol kaftlarimda  
ko‘zlarimda mana buloq ko‘zlarimda  
oyog‘imda oriq yoriq oyog‘imda  
tillarimda timdalangan tillarimda  
o‘nglarimda  
so‘llarimda  
tushlarimda

Ishq keltirdim- dedi gado (220, 8-9).

Olamdan-olamga, odamdan-odamga safar qilayotgan, ishq keltirayotgan darvesh, Gado obrazi o‘tmish, bugun, kelajak tushunchalarining mohiyatini chuqurroq ochadi, ularning uzviyligini, bardavomligini, uzlucksizligini ta’kidlaydi. Falsafiy fikrlash tarzi shu tariqa asarning butun ruhini qamrab oladi.

Liro-epik dostonlarda bu masala boshqacharoq tarzda hal etiladi. Bunda lirik kechinmalar ikkinchi darajaga tushib, afsona, rivoyat, hikoyat qatidagi voqealar tizimi harakatga keladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungacha yaratilayotgan o‘zbek dostonlarida xalq og‘zaki ijodining ta’siri kuchayganligini alohida ta’kidlash zarur. O‘zbek adabiyotshunosligida bu boradi ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan (149).

Zamonaviy dostonchilikda realistik va romantik tasvir usullarining omuxta etilayotganligi janrning yangi istiqbolidan darak berib turibdi. U.Azimning “Oq sharpa”, “Oqpadar”, X.Davronning “Uyg‘oq toshlar”, “Uchishni istayman”, E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, “Palatkada yozilgan doston”, “Nido”, A.Muxtorning “Dol qoya”, E.Shukurning “Ibtido xatosi”, N.Afoqovaning “Jazo”, T.Ahmadning “Sirli chashma” va boshqa qator dostonlarda realistik va romantik tasvir usullarining o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi janr rivojidagi yangi yo‘nalish bo‘ldi.

A.Muxtorning “Dol qoya” dostoni shu jihatdan ancha xarakterlidir. Asar liro-epik yo‘lda yozilganligi sabab lirik “men” yarq etib ko‘zga tashlanavermaydi. Lekin asar qurilishiga chuqurroq razm solsak, o‘tmish, bugun, kelajak bilan bog‘liq voqeа va o‘ylar lirik “men” obrazi atrofiga uyushadi. Doston muqaddimasida shoirning o‘z zamondoshi bilan bo‘lgan dialogi beriladi.

O‘tmish xotiradir. Xotira- boylik.

Kecha, Bugun, Erta- bus-butun.

Shoshmang, do‘stim, sabr qilaylik,

Qayga eltar ekan yigitcha yukin... (222, 161).

Muallif Kecha, Bugun, Ertaning bus-butunligini, yagona jarayonligini afsona vositasida dalillashga intiladi.

Chag‘ay urug‘ining udumiga ko‘ra qarib, qo‘lidan bir ish kelmaydigan qariyalarni Dol qoyaga tashlab ketish odati bo‘lgan. Afsonada keltirilishicha, Roston o‘z bobosini opichlab qoyaga o‘rlarkan, beixtiyor o‘zining ertangi kunini ko‘z oldiga keltiradi. Ha, qachonlardir shu holat takrorlanadi: qariganidan so‘ng nevarasi uni ham shu alfovza opichlab, qoyaga tashlab ketadi. Bobosi ham qachonlardir o‘z bobosini mana shu

sovuj qoyaga, poyida tubsiz jarlik yastanib yotgan mash’um qoyaga qoldirib ketgan. Tarix hukmi – shafqatsiz, vaqt amri – vojib.

Rostonning yosh ongi, bedor xotirasi urug‘ning jaholatga to‘la bu udumiga qarshi isyon ko‘taradi. Roston odamlar ko‘zidan pana bir ovloqda bobosi uchun boshpana tiklab, keyinchalik hayot jumboqlarini bobosining maslahati bilan hal eta boshlaydi. Urug‘ boshiga tushgan musibatlar boboning tadbirlari bilan bartaraf etiladi va oradan yillar o‘tib, Rostonning urug‘ udumiga qarshi ko‘targan isyoni aymoqlari tomonidan kechiriladi.

A.Muxtor bu afsonaga o‘z davrining, ya’ni 80-yillarning ko‘zi bilan qaraydi. Sho‘ro zug‘umlari ta’sirida tariximizning toptalishi milliy qadriyatlardan chekinilishi, soxtakorlik, haybarakallachilikning avj olishi ijodkorga o‘tmish saboqlarini eslatgan bo‘lsa, ajab emas. Shoir xalq og‘zaki ijodining ertak, rivoyat, afsona janrlaridan birday foydalanishi mumkin. Biroq qayta ishlanajak folklor namunasi davr ruhini, davr qiyofasini ko‘rsatishga xizmat qilmog‘i lozim. A.Muxtor shu vazifani uddalaydi. Shu bois lirik “men”ning bedor o‘ylari, bezovta xayollari har uchchala zamon xossalalarini bir nuqtaga jamlashga muvofiq bo‘ladi.

Toshpo‘lat Ahmadning “Sirli chashma” asari bolalarga atab yozilgan liro-epik doston. Albatta, bolalarga atab yoziladigan dostonlar liro-epik yo‘nalishda bo‘lmog‘i lozim. Chunki bolalar tuyg‘ular silsilasi va kechinmalar ko‘lamdorligiga asoslangan lirik dostonlarni qabul qilishi qiyin. “Sirli chashma”dagi qurilish ham, til ham, uslub ham xalq og‘zaki ijodidagidek sodda, samimi. She’riy ertaklarni yodga soluvchi mazkur asar bolalar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zamonaviy liro-epik dostonlarning ko‘pchiligi uchun xos bo‘lgan xususiyat: lirik “men”ning ochiq-oydin ko‘rinmasligi bu asar uchun ham xosdir. Biroq asarning muqaddimasi, xotimasi va ayrim o‘rinlarda voqealar zanjirini tiklashdagi ishtirokidan bu obraz qiyofasini ilg‘ash qiyin emas. “Raqamlar, ranglar bilan bog‘liq manzaralar tasviri badiiy adabiyotda o‘ziga xos an’analarga ega” (176, 126). O‘zbek mumtoz dostonlari va xalq og‘zaki ijodidagi dostonchilikda shunday an’alarning go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Masalan, ettita qasr qurilishi, etti xil rangda bezalishi, turmushga chiqishi oldidan malikalar tomonida uch yoki to‘rt shart qo‘yilishi, sariq rangning ayriliq, qizil rangning yoshlik va go‘zallik ramzi sifatida tushunilishi kabilar shular jumlasidan. XX asrning 80-yillariga qadar yaratilgan dostonlarda asosan oq-qora ranglarning tasviriga e’tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. Bu, albatta, sotsrealizm oqimi bilan bog‘liq hodisa edi. Ilohiy tushunchalar bilan bog‘liq uch, etti, to‘qqiz raqamlari bu davr dostonchiligida o‘zining ramziy ma’nolarini o‘tashga

yo‘naltirilmaganligini ilg‘ash ham qiyin emas. XX asrning 80-yillarida, ayniqsa, 90-yillar dostonchiligidagi rang va raqamlar bag‘ridagi ramziylikka e’tibor kuchaydi. Bu davr dostonchiligining eng yaxshi namunalari dunyo faqat oq-qora va qizil ranglardan iborat emasligini takror-takror ta’kidlay boshladi.

... Uchinchi yo‘l  
men qolaman  
tuproq qolar  
va tomonlar qolar huvillab  
turkularda kuylangan xunniy tomonlar  
qonga botib ketgan janub uchun  
ko‘k kiygan mashriq  
shimol beti qora qarg‘ish tekkan rang  
mag‘rib esa oq  
vatan ko‘chib ketgan qayg‘uli taraf... (239, 151).

Shu tariqa Faxriyor raqam va ranglar vositasida millat va Vatanning lirik tarixini yaratadi. Q.Rahimboevaning “Qishning oxirlari”, I.Otamurodning “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, A.Mahkamning “Ishq” dostonlarida raqam va ranglar o‘ziga xos poetik fikr yuritish vazifasini bajaradi.

O‘zbek dostoni uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida o‘zining sintetik xislatini saqlab qoldi. Epiklik, liriklik, dramatiklik bir-biriga o‘tuvchan usullar sifatida doston janrida o‘zining muhtasham mazmun mohiyatiga ega bo‘lmoqda. Turli davrlarda bu usullarning qorishuvi yoki etakchi tasvir maqomiga ko‘tarilishi turlicha bo‘lgan. Mumtoz dostonchilikda epiklikning darajasi baland, lekin bu lirik uslubni inkor etmaydigan, balki lirik uslubdan quvvat oladigan epiklikdir. XX asrning 80-90-yillariga kelib dostonchilikda lirik tasvir usuli hukmfarmolik qila boshladiki, bu usul ham epik va dramatik ohanglar bilan to‘yingan liriklidir. R.Hamzatovning bu boradagi fikrlarini keltirmoq o‘rinlidir. “Mening dostonimda she’rni ham, nasrni ham ko‘rib hayron bo‘lmang... Har xil janrlarni qorishtirar ekanman, bu turfa mahsulotlardan bo‘tqa tayyorlagan degan xulosa chiqarmaslik kerak. Men ko‘pni ko‘rgan tajribali bog‘bonlardek turli nihol xillarini bir-biriga payvandlab, mevaning yangi navini yaratmoqchiman” (63, 256).

Poetik g‘oyani ifoda etishda qorishiq janrlardan foydalanish adabiyotimizda qadimdan sayqal topgan usul. Dostonda insonning lirik kechinmasi ham, epik hayoti ham dramatizmga to‘la lavhalarda aks ettirilar ekan, bu usul o‘zining hayotbaxshligini saqlab qolaveradi.

R.Hamzatov fikrlarini davom ettirib aytish mumkinki, zamonaviy dostonlar lirika daraxtiga payvand etilgan epik va dramatik nihollarning sarxil mevalaridir.

A.Muxtorning “Dol qoya”, E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Q.Rahimboevaning “Qishning oxirlari”, O.Matjonning “Cho‘ldagilar”, “Nega men?” asarlari liro-epik doston hisoblanadi. Biroq ularda lirik “men”ning ishtiroki, obraz qurilishi, tafakkur mahsulini izhor etish usullari bu asarlarning lirikaga daxldorligini ham anglatib turibdi.

So‘nggi yillar dostonchiligida lirik shaxsni davr bilan yuzma-yuz qo‘yish an’anasi kuchaydi. Va bu lirik shaxsning aksariyat hollarda shoir sifatida tanlanishi muallif va lirik qahramon orasidagi farqni mumkin qadar bartaraf etdi.

“Quyoshli olam” (U.Azim), “Jannatga yo‘l” (A.Oripov), “Ruhlar isyoni” (E.Vohidov), “Pahlavon Mahmud” (O.Matjon), “Turdi Farog‘iy” (A.Qosimov) singari lirik, liro-epik, dramatik dostonlar markazida shoir obrazi turadi. Shoir obrazi maxsus ishtirok etmagan dostonlarda ham lirik “men”ning asardagi o‘rni bu xususiyatni bo‘rttirib turadi.

XX asrning 60-70-yillaridagi turmush tarzi, ijtimoiy hayot shoir obraziga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirib yubordi. 60- hamda 70-yillarda she’riyat o‘zining rostgo‘yligi bilan ijtimoiy hayotning barcha qatlamlariga kira boshladи. Shoir shaxsining jamiyat oldidagi obro‘yi oshdi. Ikkinchidan, hamma zamonlarda ham adabiyotning o‘z ideallari bo‘ladi. Payg‘ambarlar, avliyolar, darveshlar, podshohlar, sarkardalar, shahzodalar, donishmandlar turli davrlarda adabiyotning ideali bo‘lib kelgan obrazlardir. Lekin sotsrealizm oqimi bu timsollarning adabiyot sahniga chiqishiga yo‘l qo‘ymas edi. Shuning uchun XX asrning 60-yillaridan boshlab bugunga qadar yaratilayotgan dostonlarda shoir obrazi etakchilik qiladi. Uchinchidan, zamonaviy dostonlarda lirika qurilishining ustuvorligi mazkur obrazning peshqadamligini qonuniylashtiradi. Chunki, lirikaning o‘zagini shoirning “men”i tashkil etadi. Bugungi dostonlardagi lirik qahramon realizm qarshisidagi romantikdir. Botiniy faollik bu qahramonning lirik siy whole into the box.

Bugungi dostonning lirik qahramoni 30-40-yillar oldingi lirik qahramondan keskin farqlanadi. Zamonaviy lirik qahramon o‘tmish, bugun, kelajak sarhadlari osha o‘zligini ko‘rishga, anglashga, tinglashga intilayotgan, o‘zi orqali xalqining insoniyat tarixida tutgan o‘rnini belgilashga harakat qilayotgan shaxs. U o‘z qalbiga chuqurroq kirib borgani sari tabiat va jamiyatning sir-sinoatga to‘la hodisalari mohiyatini tobora teranroq idrok etyapti. Bugungi lirik qahramonning kurashchanligi,

faolligi ma’naviy jarayonda aniqroq ko‘zga tashlanadi. U sal oldingi salaflaridan farqli ravishda soxta g‘oyalarning, har xil “izm” larning yalovbardori emas. Bugungi lirik qahramon kimnidir sevib, nimadandir nafratlanayotgan, qaygadir shoshib, qaygadir kechikayotgan, o‘ylayotgan, iztirob chekayotgan tirik mavjudot. U o‘zining gunoh va savoblari, yutuq va kamchiliklari, armon va orzulari bilan tarix qarshisida ro‘baro‘ turgan inson. Shuning uchun insonni komillikka etaklovchi tasavvuf ohanglari yangi -yangi qirralari bilan dostonchiligidan muhim jihatlariga aylanib bormoqda.

“Metafora- tafakkurning zaruriy quroli, ilmiy fikrning o‘ziga xos shakli” (107, 68) ekan, bugungi doston poetikasida bu tasvir vositasining maqomi har qachongidan baland bo‘lib bormoqda. Murakkab va anglash qiyin bo‘lgan ruhiy kechinmalar tasvirini chizishda metaforik tafakkur qudratining o‘rni beqiyos.

Dehqonning xotini  
homilador oy  
o‘roq tug‘adi  
sukunat esa  
ko‘zi yoriyotgan oy qichqirig‘i (239, 165).

Yoki

Ipirisqi supurgiga o‘tirib  
Yalmog‘izligidan kitob o‘qiyotgan malika.  
Tuyani shahzodaga aylantirishga kirishib  
kampirlikka etadi (244, 121).

Faxriyor va Abduvali Qutbiddin qalamiga mansub bu satrlar ruhning aql anglashi dushvor sultanatiga ijodiy safar boshlanganligidan guvohlik berib turibdi. Metafora nafaqat ayrim misra va baytlarda namoyon bo‘lmoqda, balki butun-butun fasl va boblarni ham qamrab olmoqda. XX asrning 90-yillarida keng ildiz otgan bu an’ana kelgusi dostonchilikda ham o‘zining ijobiy samaralarini berishi shubhasiz. Yuksak did va badiiy tafakkurni shakllantirishda bu tasvir usulining mavqeい oshmoqda.

Adabiyot tarixi shundan guvohlik beradiki, hech bir janr o‘z taraqqiyoti davomida o‘z shaklu shamoyilini aynan saqlab qolgan emas. Barchasi o‘zgarishda, yangilanishda. Yillar, asrlar va avlodlar nimanidir inkor etishgan, nimanidir meros qilib olishgan, nimalarnidir yangilik sifatida kiritishgan. Bu, ayniqsa, dostonchilik tarixida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

80-90-yillar o‘zbek dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri modern adabiyotidagi hayotbaxsh an’analarning joriy etilayotganligida

ko‘rinadi. Xususan, ong osti qatlamlariga chuqurroq kirib borish, uning qorong‘i burchaklaridan xarakterli holat va nuqtalarni badiiy idrok etish 80-90-yillar o‘zbek dostonchiligining jiddiy yutug‘idirki, bu ham insonning mukammal siymosini yaratish yo‘lidagi samarali izlanishlar pallasi davom etayotganligini ko‘rsatadi.

## 5.2. Dramatik dostonlarning nazariy asoslari

“Doston” atamasi qissa, hikoyat, sarguzasht, afsona, masal, majoz, firib, Rustamning otasi Zolning laqabi, mashhurlik ma’nolarini anglatadi.

Ki ishq ahlidin o‘lg‘ay dostone,

Muhabbat xaylidin qolg‘ay nishone (225, 45).

Mazkur o‘rinda Alisher Navoiy ham dostone deganda qissa, hikoyat, sarguzasht, afsona ma’nolarini nazarda tutmoqda.

“Dostonning lug‘aviy ma’nosи qissadir, – deb yozadi adabiyotshunos X.Otaxonova. – Bugungi Eron adabiyotida povest va hikoyani behudaga doston atamaydilar” (108, 84). Ko‘rinib turibdiki, bu dostonning epiklikka tayanishidan dalolat bermoqda. Bugungi doston ham epiklikka tayanadi, biroq, bu epiklik – subyektiv epiklikdir. Biz buni nafaqat liro-epik va lirik dostonlar misolida, balki dramatik dostonlar misolida ham kuzatamiz.

XX asrning 60-yillaridan boshlab o‘zbek adabiyotida dramatik doston atamasi keng qo‘llanilib kelinmoqda. Qurilishi va mazmuni jihatidan dramatik dostonlar dramatik tur janrlaridan keskin ajralib turadi: zamonaviy dostonlarning o‘zga ko‘rinishlarida bo‘lgani singari bunda muallif “men”i asar markazidan o‘rin oladi. Doston dramatik turdan shaklni, ya’ni dialog ko‘rinishini qabul qiladi, mohiyat nuqtayi nazaridan o‘zining dostoniy xususiyatlariga sodiq qoladi.

So‘nggi yillarda yaratilgan o‘zbek dramatik dostonlari bisotidan poema-dramalarni uchratish qiyin emas. Ba’zi hollarda bu ikki atama bir-birining o‘rnida ham ishlatilmoqda. Bizningcha, “poema-drama” atama sifatida o‘zini oqlamaydi. Asar yo poema (doston) yoki drama janrida bitilgan bo‘lishi mumkin, hech qachon poema-drama bo‘lolmaydi. Yu.Martsinkyavichyusning “Mindaugas iztirobi”, “Majvidas”, “Kafedra” asarlari rus adabiyotshunosligida poema-dramalar deb atalmoqda. Poema-drama nomlari bilan chop etilib kelingan bu asarlar odatdagи she’riy drama va tragediyalardir.

Dramatik doston tushunchasi muayyan bir asarning ham drama, ham doston ekanligini anglatmaydi. Aksincha, dostonning dramatik xususiyatlari ustivorligini ko‘rsatadi. To‘g‘rirog‘i, dramaning shakl unsuri

bo‘lgan dialogning dostonda asosiy tasvir usuliga aylanishi dramatik doston tushunchasini hosil qilgan.

Zamonaviy o‘zbek dostonchiligidagi tobora mustahkam o‘rin egallab borayotgan dramatik doston janri adabiyotshunoslikda turlicha atamalar bilan nomlanib kelindi. “O‘qish uchun mo‘ljallangan dramalar” (171, 293), “lirk dramalar” (18, 13), “lirikalashtirilgan drama” (62, 17) kabi atamalar shular jumlasidandir.

“Adabiyotda kam uchraydigan janrlardan biri o‘qish uchun mo‘ljallangan dramalardir, – deb yozadi L. V. Shepilova – bu asarlar o‘qish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, sahnada ijro etilmaydi. Gyotening “Faust”i, Bayronning “Kain” asarlar shular jumlasidan. Bu xarakterdagи asarlar dramatik poemalar deb ham yuritiladi. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu xildagi asarlar adabiyotning asosiy janrlari tarkibiga kirmaydi” (171, 293).

Rus adabiyotshunosligida dramatik dostonlar monografik asosda keng tadqiq etilmaganligi bois bo‘lsa kerakki, adabiyotshunos L.V. Shepilova ana shunday noaniq ilmiy xulosalarga keladi va uni janrlar tarkibiga kiritmaydi.

Ma’lumki, dramatik dostonlarda dramatizm va lirizm uyg‘unligi kuchli bo‘lishi bilan birga undagi epiklikning rolini ham kamsitib bo‘lmaydi. Dramatik doston har uchchala turning sintezlashuvidan paydo bo‘lgan sinkretik janrligini adabiyotshunos N.Rahimjonov to‘g‘ri ta’kidlaydi (122, 120). Rus adabiyotshunosi E.M.Pulxritudova ham dramatik poemalardagi psixologik muammolar va ma’naviyat masalalarini tekshirar ekan, dramatik dostonlarning sinkretik janr ekanligini aytib o‘tgan edi (117, 267).

“Faust” drama shaklida yozilgan lirk asardir”, – deb yozgan edi V.G. Belinskiy (18,13).

V.G. Belinskiyning quyidagi fikrlari ham dramatik doston haqidagi qarashlarga muayyan aniqliklar kiritadi: “Shillernening “Orlean qizi”, “Messin kelin” kabi asarlari, asosan, lirk dramalardir, ularda harakat o‘z-o‘zicha olganda ahamiyatli emas, balki opera librettosi ahamiyatiga egadir. Ularning mohiyatini ulardan har birining asosiy ideyasini bayon qiluvchi lirk monologlar tashkil qiladi. Bu oljanob ehtiroslar, yuksak o‘ylar va buyuk hodisalarning shoirona avjidir, bu gaplarni, ayniqsa, “Orlean qizi”ga nisbatan aytish mumkin. Bayronning “Manfred”i, Gyotening “Faust”i garchi boshqacha bir xarakterda bo‘lsa ham lirk dramalardir; bular yo‘qolgan hayot to‘liqligiga refleksiya orqali intiluvchi odam ichki tabiatining parchalangan shoirona avjidir. Subyektiv mushohadadagi ruh

masalalari, borliq va abadiylik sirlari, odam shaxsining o‘ziga va umumga munosabatlari bu ikki buyuk asarning mohiyatini tashkil etadi. O‘z xususiyatiga ko‘ra lirik drama tashqi voqelik sharoitlarini mensimasligi mumkin” (18, 14).

Buyuk adabiyotshunosning lirik dramalarga berayotgan bu ta’riflari bizning bugungi tushunchamizdagi dramatik dostonlarga muvofiq keladi. Qolaversa, tanqidchi lirik dramalar deb atayotgan asarlarni mualliflari dramatik dostonlar, deb ataganlar.

Zamonaviy dostonchilikning o‘zga ko‘rinishlarida bo‘lgani kabi dramatik dostonlarda ham Belinskiy ta’biri bilan aytganda, “ichki dunyo saltanati” hukmronlik qiladi. Bu xususiyat mazkur janrning doston tarkibidagi o‘rnini qonuniylashtiradi.

N.G. Pospelov tahriri ostida chop etilgan “Vvedenie v literaturovedenie” darsligida dramatik dostonlar xususida quyidagi fikrlar bayon etiladi: “XIX asrda Lesedrama (o‘qishga mo‘ljallangan) asarlar keng tarqalgan. Gyotening “Faust”i, Bayronning dramatik asarları, Pushkinnin “Kichik fojealar”i, Turgenevning dramalari shular jumlasidandirki, bu haqda Turgenev: “Mening dramalarim sahna talablariga javob bermaydi, mutolaa qilganda bir qadar qiziqish uyg‘otishi mumkin”, – degan edi (28, 154).

Dramatik dostonlarning dialog shaklida yozilishi ma’lum tarixiy davrlarda ularning dramalarga nisbat berilishiga sabab bo‘lgan.

Jahon dramaturgiyasi taraqqiyoti tarixini ilmiy tadqiq etish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan A. Anikstning Gyote ijodi haqidagi quyidagi fikrlaridan ham dramatik dostonning dramadan farqli jihatlarini anglab olish qiyin emas. “Gyote adabiy drama (dramatik doston – Sh.H) va sahnaviy drama o‘rtasidagi farqni aniqlab berdi. Gyotening teatrga ixlosi baland bo‘lishiga qaramasdan uni ko‘pincha adabiy drama qiziqtirib keldi, desak xato qilmagan bo‘lamiz” (9, 431).

M.S. Kurginyan dramatik doston xususida fikr yuritar ekan, uning tabiatida namoyon bo‘ladigan ayrim xususiyatlar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadi: “Shiller “Don Karlos”, “Valenshteyn”, “Orlean qizi”, “Vilgelm Tel”, Gyote “Egmont”, “Torkvatto Tasso”, “Faust” kabi asarlarida shtyumer dramaturgiyasi qoidalaridan chetga chiqishdi. Bu harakat dramatik strukturani faqat lirizm hisobida emas, shuningdek, epik kengqamrovlik hisobida kengaytirish va boyitish bilan belgilanadi. “Don Karlos”, “Valenshteyn” Shiller tomonidan bekorga “dramatik poemalar” deb atalmagan” (142, 42).

Ko‘rinib turibdiki, dramatik dostonlarga ayrim adabiyotshunoslar dramatik tur janri sifatida qarashgan va uni sahnaviy hamda adabiy drama deya talqin etishgan. Ko‘pgina hollarda uning dostonligi e’tibordan chetda qolgan.

Dramatik doston janriga mansub asarlarning ilk ko‘rinishi XVIII asr oxiri nemis adabiyotiga borib taqaladi. Bizningcha, Lessing 1780 yil yozgan “Dono Natan” asari bilan dramatik doston janrini boshlab berdi. Ushbu asarda dramatik dostonning janr xususiyatlari har tomonlama bo‘y ko‘rsatdi. Dramatik doston janrining keyingi taraqqiyoti esa buyuk nemis shoirlari I.Gyote va F.Shillerning nomlari bilan belgilanadi. (Bu haqda yana qarang: Sh.Hasanov. O‘zbek dramatik dostoni. SamDU nashri: 1997.)

Adabiyotshunoslar haqli e’tirof etishganidek, yuqorida nomlari zikr etilgan dramatik dostonlarni sahnaga olib chiqish uchun ancha mehnat talab qilinadi. Buning uchun asarlarning dostoniga xos dramatik va avj nuqtalarini bo‘rttirish, intrigalarni kuchaytirish, asarlarning ba’zi voqeaband o‘rinlaridan voz kechish, manzaralarni esa sahnabop qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek dramatik dostonining etuk namunalaridan biri A.Oripovning “Jannatga yo‘l” asaridir. Sujet voqealari shartlilik asosiga tiklanadi. Asar epik manzaralar bilan boshlanadi. Bu epik manzaralar lirk tasvirning parvozi uchun zamin hozirlaydi. “Jannatga yo‘l”dagi dramatizm she’riy dramalardagi dramatizmdan keskin farq qiladi. Chunki undagi dramatizm dramalardagidek keskin konfliktlarda, qarama-qarshi kuchlarning to‘qnashuvlarida, g‘oyalar jangida emas, balki Yigit obrazi ruhiyatida, o‘ylarida kechadi.

### **YIGIT**

Yolbormasmen, yig‘lamasmen, bu qandayin gap,  
Boshqalardan savob olsam gunohim uchun.  
Mayli ketay do‘zax sari hech tortmasdan tap,  
Mangu azob chekmoqqa ham etadi kuchim.

### **TAROZIBON**

Ko‘p qaysarlik qilma, inim, bu azob boqiy,  
Foniy dunyo azobi ham senga etarli.

### **YIGIT**

Menga yana nechun kerak o‘zgalar ohi,  
Qarg‘ish o‘zi bor ekan-ku ancha aytarli (228, 70).

Ko‘rinib turibdiki, mazkur dialogda dramaga xos dramatizm sezilmaydi. Yigit o‘zining tushgan holatidan norozi, tarozibon esa unga

maslahat beryapti. Biroq ular o‘rtasida nizo sezilmaydi. Yigitning monologi o‘ziga qaratilgan, adressiz, ya’ni lirika qurilishiga xos.

Tarozibon yigitga ota-onasi bilan uchrashish imkonи borligini aytgach, uning ruhiyatidagi taranglik susayib, lirik tasvirga joy bo‘shatadi.

### **YIGIT**

Oh, falakning yulduzlari chaqnang tobora,  
Farishtalar baxtlimassiz men kabi alhol.  
Men do‘zaxda yonay, mayli, lekin bir bora  
Men ularni ko‘rajakman, bu nechuk visol?! (228, 70).

Yigit asarning bosh qahramoni. Personajlarning butun asar davomidagi dialoglari Yigit ruhiyatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Doston drama shaklida yozilishiga qaramasdan, uning umummatnida liro-epik tasvir usuli ustunlik qiladi. Asarning biror bir sahnasida dramaga xos bo‘lgan keskin qarama-qarshiliklarni, ayovsiz to‘qnashuvlarni uchratmaymiz.

“Jannatga yo‘l”da ham konflikt mavjud. Lekin u dramadagidek obyektiv tarzdamas, lirikaga xos subyektiv tarzda hal etiladi.

Asarning to‘rtinchи ko‘rinishida o‘spirin va Qariyaning mashmashalari tasvirlanadi. Bu ikki obraz bir xil xarakterdagi kishilar bo‘lganliklari bois ularning mashmashalari dramatik konflikt darajasiga etmaydi, shunchaki aytishuv bo‘lib qoladi, xolos. Agar asar she’riy drama janrida yozilganda edi, ijodkor bu mashmashalar zamiridagi keskin qarama-qarshiliklarni ilg‘agan bo‘lardi va masalani shu tarzda hal etardi.

### **O‘SPIRIN**

Talantliman!  
Qariya  
Talantisan!  
O‘spirin  
Takrorla tag‘in!  
Qariya  
Kun bo‘yi takrorladim etmasmi, bo‘tam,  
Yolvoraman bir oz tinch qo‘y, shafqat aylagin.  
Xudodan qo‘rq, chol kishini qiynama ko‘pam.

### **YIGIT**

Sizga navbat kelganda ne qilasiz, xo‘sh?

### **QARIYA**

Ne qillardim, og‘zi burni aralash to‘g‘ri  
Bulg‘ayman va hokazo, ko‘nglim juda bo‘sh (228, 95).

Dialog ko‘rinishidagi obyektiv voqelik lirik yo‘sinda Yigit obraziga singdirilayapti. Yigit olamning turfa manzaralarini ko‘rar ekan, qalb tug‘yonlari junbushga keladi, ko‘ngil hasratlari ko‘z ochadi.

Individning voqelikka yondashuvidan hosil bo‘ladigan uch belgilari, asosan, quyidagilar: kuzatish (nimanidir hikoya qilish), munosabat (nimagadir), aloqaga kirishish (nima bilandir) yoki hikoya, ematsionallik va qarama-qarshilik. Yuqoridagi dialogda qarama-qarshilik mavjud, lekin bu qarama-qarshilik dramadagi singari keskin emas. obyektiv voqelikning shartli lirik talqini dostoniga xos dramatik asosi chuqur bo‘lmagan qarama-qarshilik tarzida ifodalanmoqda. Boshqacha aytganda, O‘spirin va Qariyaning aloqaga kirishishi bir xil fe’l - atvordagi ikki obrazning qarama-qarshilik bo‘lib ko‘rinayotgan injiqligidir. Dramadagi o‘tkir konfliktni ikki xil qutbda turgan, ikki xil dunyoqarashga ega bo‘lgan obrazlar to‘qnashuvida ko‘rish mumkin. Yuqoridagi sahnada esa biz ana shunday ziddiyatni ko‘rmaymiz. Ularning dunyoqarashida ham, tutgan pozitsiyasida ham yakranglik seziladi.

“Dramatik dostonlarda voqeabandlikdan ko‘ra lirik falsafiylik ustunlik qiladi. Unda muallif shaxsiyatining olam va odam xususidagi o‘ylari asosiy o‘rin egallaydi, hamda dramatik qurilish belgilari doston qonuniyatlariga bo‘ysunadi” (68, 192).

Lirik falsafiylikning voqeabandlikdan ustunligi tufayli ijodkor dialog yordamida kitobxonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri muammolar mohiyatiga etaklaydi. “Jannatga yo‘l”da ham shunday holatga duch kelamiz. Asarda shoir urg‘u bergen bosh muammo ma’naviyat masalalaridir. Yigit obrazini ma’lum ma’noda shoir she’riyatidagi lirik qahramonning prototipi deyish mumkin. Chunki A.Oripovning “Uchinchi odam”, “Temir odam”, “Genetika”, “O‘ylarim” kabi she’rlaridagi lirik qahramon “Jannatga yo‘l”dagi Yigit obraziga ruhan yaqin.

Tadqiqot ob’ektimizga qiyosiylik nuqtayi nazaridan yondoshadigan bo‘lsak, dramatik dostonlarga she’riy dramalardagidek tuzilish jihatdan yaqin janr yo‘q. Adabiyotshunos M.Ibrohimov ham shunday xulosaga keladi. Lekin ularni adabiy turlarga ajratishda “kollektiv sezim”ga va “induvidual sezim”ga (I.Sulton) mo‘ljallanganligini asos qilib oladi hamda ma’lum bir janrning dramatik turga mansub bo‘lishi uchun kollektiv sezimga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak, degan xulosaga keladi. Olim fikrini asoslash uchun I.Sultonning “dramatik turning bosh spetsifik alomati – uning kollektiv sezimga mo‘ljallanganligidir”, – degan fikrlariga tayanadi (53, 183).

Nazarimizda, “kollektiv sezim” iborasi dramatik asarlar spetsifikasini ochib berolmaydi. Garchi sahna asari kollektiv bo‘lib tomosha qilinsa-da, biroq, tomosha paytida ham, undan so‘ng ham “kollektiv sezim” yuzaga kelmaydi, ya’ni har bir tomoshabin individual sezgisiga tayanadi.

Dramatik doston va she’riy dramaning kompozitsion qurilishini bir-biriga qiyoslaganda uncha tafovut sezilmaydi. Lekin ijodkorlarning qahramon xarakteri qirralarini ochishdagi tasvir usullariga, xarakter yoki xarakterlar zamiridagi dramatizmni qahramon faoliyati, hatti-harakati yoki mushohadalari orqali yoritishlariga chuqurroq nazar soladigan bo‘lsak, bu tafovut oydinlashib qoladi. She’riy dramada qahramon xarakteri hatti-harakatda ochilsa, dramatik doston qahramoni xarakteri o‘ylovlar va mushohadalarda ochiladi.

Dramatik dostonlarda dramatizm va lirizm uyg‘unligi kuchli bo‘lishi bilan birga ularda chuqur psixologik tahlil, ichki monolog, qahramon ruhiy olamini romantik bo‘yoqdorlikda, ko‘tarinkilikda aks ettirish, quyuq obrazlilik, mushohadakorlik janr xususiyatlarini bo‘rttirib ko‘rsatuvchi alomatlar sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, dramatik dostonlarning sujet voqealari ko‘pincha ramziy-simvolik, afsonaviy-fantastik, allegorik yo‘nalishda yoritiladiki, ular sahnaga olib chiqilganda o‘zining ko‘pgina g‘oyaviy-badiiy xususiyatlaridan mahrum bo‘ladi. Asarni o‘qish va tomosha qilish xususida I.P. Ekkerman shunday fikrlarni bayon etadi: “Dramani o‘qiganingizda va uning voqealarini xayolan ko‘z o‘ngingizda gavdalantirganingizda sizda yaxshigina taassurot qoldirishi mumkin. Asarni sahnabop qilib ishlash alohida iste’dodni talab qiladi. Unisi ham, bunisi ham adabiyot uchun betakrordir. Lekin iste’dod talablarining ikkovi ham bo‘lmagan ijodkordan yaxshiroq asar chiqishi qiyin...” (175, 418).

She’riy dramadagi hayotiy konflikt, dramatizm xarakterlar kurashi va to‘qnashuvida namoyon bo‘ladi. Misol uchun Oybekning “Mahmud Torobiy” asarida konflikt dramatizmning faol harakatidan kelib chiqadi. Yoki M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” she’riy dramasida ham shunday holat ko‘zga tashlanadi. G‘oyalari to‘qnashuvi, xarakterlararo ziddiyat sahnadan sahnaga o‘sib, rivojlanib boradi. Dramatik dostonlardagi hayotiy konflikt va dramatizmni esa qahramon xarakteri zamiridagi kelishmovchilik, ziddiyat, o‘z-o‘zidan norozilik, to‘g‘riroq aytganda, kurashning botiniy shakli tashkil etadi. Dramatik dostonlarning qahramoni o‘zi va o‘zgalar faoliyatini tahlil qilar ekan, qoq ikkiga bo‘linadi. U aqlan etishgan narsasini hissan rad etadi yoki aksincha. Va shu asnoda tiriklikning sir-sinoatlariga javob izlayotgan, kechayotgan jarayonlarning mohiyatini idrok etishga intilayotgan shaxs obrazini ko‘ramiz. Gyotening

“Faust”, Yu. Martsinkyavichyusning “Mindaugas iztirobi”, A. Oripovning “Jannatga yo‘l”, U.Azimning “Xalil Sulton”, “Oq sharpa”, E.Shukurning “Ibtido xatosi”kabi dramatik dostonlaridagi qahramonlar xarakterida mana shunday holat ko‘zga tashlanadi.

She’riy dramaning bir-biriga qarshi yo‘naltirilgan qahramonlari o‘z oldilariga muayyan bir maqsad qo‘yib, shu maqsadning ro‘yobga chiqishi yo‘lida kurash olib boradilar. Dramatik doston qahramonlarining xarakter mantiqi esa sal boshqacharoq. Ular zamin va zamonning ko‘plab dardli muammolarini aql va tuyg‘u tahlilidan o‘tkazadilar. She’riy drama qahramonlari hatti-harakatlarini o‘z qudratlarini namoyish etishga (taqdir ustidan hukmronlikka, “xudolikka”) qaratsalar, dramatik doston qahramonlari esa falsafiy o‘ylar, teran xayollar girdobida tasvirlanadilar. She’riy dramalardagi dramatizmni xarakterlararo ziddiyat keltirib chiqarsa, dostoniy dramatizmni tuyg‘ular qarama-qarshiligi yuzaga chiqaradi. Shulardan ham ko‘rinib turibdiki, dramadagi dramatizm bilan dostondagi dramatizm aynan bir xil emas. Shuni nazarda tutib adabiyotshunos V.P.Kikans hazilomuz tarzda quyidagicha o‘xshatish qiladi: – “Agar bir it oyga qarab uvlasa – bu dostoniy dramatizmdir; mabodo itlar o‘zaro bir-birini talay boshlasa – bu dramaning dramatizmidir” (68, 83).

Ma’lumki, dramada har bir harakat yo monolog aks ta’sirga ega. Dramatik dostonda esa teskari ta’sir sezilmaydi. Dostondagi monologda yoki jumlalarda qarama-qarshilik mavjud, biroq bu qarama-qarshilik badiiy asar qurilishidan tashqarida, aniqrog‘i, real hayotning o‘zida, jumladan, kitobxon ruhiyatida ko‘zga tashlanadi.

Tosho‘lat Ahmadning “Moziy sabog‘i” (2001 yil) dramatik dostoni qatag‘on qurbanlariga bag‘ishlangan. Unda Tarixchi, Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Munavvar Qori, Behbudiy, Madaminbek kabi qator obrazlar ishtirok etadi. Asar drama shaklida yozilgan bo‘lsa-da, bu obrazlar o‘rtasida qarama-qarshilik yo‘q. Tarixchi, ya’ni lirk qahramonning ruhiy kechinmalari yuqoridagi obrazlarni yagona bir nuqtaga jamlaydi. Mazkur asarlardagi dramatizm lirk qahramon, ya’ni tarixchi o‘ylarida kechadi.

### TARIXCHI

Qarsillab ochilgach zanjirband eshik,  
Iliq qarshiladi meni xonalar.  
Birdan vujudimda qo‘zg‘aldi hadik:  
Jismimni qurshadi unsiz nolalar.  
Sonsiz “delo”lardan toshardi faryod,  
Qay birin tinglashga lol-hayron edim.  
Yo‘q edi bunda bir berguvchi imdod,  
O‘zim lol, ko‘zim lol, dil vayron edim... (196, 7).

Asar personajlari bir-birlarining qarashlarini e’tirof etishadi (dramada inkor etishadi), bir-birlarining fikrlarini to’ldirishadi. Konflikt asardan tashqarida, hayotning o‘zida, ya’ni qatag‘on yillari bilan bugungi voqelik o‘rtasida kechadi. Mazkur hayotiy konflikt esa lirik qahramon qalbida aks sado beradi. Shu taxlit dostoniga xos dramatizm ro‘yobga chiqadi va butun asar davomida o‘zligini shu tarzda namoyon etib boradi.

Zamonaviy dostonchilikda obrazlar lirika qurilishiga muvofiq holda yaratiladi. Drama obrazlarini yaratishda esa lirik usul yordamchi vositadir. “Moziy sabog‘i”da obraz yaratish lirika qonuniyatlariga muvofiq amalgam oshadi. Asarning dialog shakli bu lirik usulning ta’sirchanlik quvvatini yanada oshirgan.

Tarixchi qatag‘on qurbanlarining maxfiy hujjatlarini o‘rganib chiqar ekan, tom-tom jildlarning sarg‘aygan sahifalaridan unsiz nolalar eshitilayotgandek bo‘laveradi.

### **YOSH OVOZ**

Endi menga navbat so‘zlayin andak,  
Yigirma yoshimda bo‘ldim juvonmarg..

### **AYOL OVOZI**

Sibirda bo‘lganman rosa o‘n ming kun,  
Millatchi qizi deb etishgan surgun...

### **SO‘LG‘IN OVOZ**

Meni ham tinglagin, jonim ukajon,  
Itlarga talanib, uzgandirman jon... (196, 10).

Ko‘rinib turibdiki, ushu monologlar aks ta’sir (qarama-qarshilik)ni talab qilmaydigan hasbi holning lirik bayonidir.

Dramatik dostonlarda dramatizm liro-epizm vobastaligida ham ro‘yobga chiqishi mumkinki, U.Azimning “Xalil Sulton” asari bunga yorqin misoldir.

“Xalil Sulton” asariga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilganda, shoirning tarixiy voqeа-hodisalarini chuqur o‘rganib, katta tajriba bilan mavzuga qo‘l urganligiga qanoat hosil qilish mumkin. Usmon Azim talqinidagi Xalil Sulton Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Davlatshoh Samarqandiy, V.V. Bartoldlar talqinidagi Xalil Sultonga bir jihatdan yaqin tursa, ikkinchidan, o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U.Azim talqinidagi Xalil Sulton dramatik situatsiyalarda, murakkab psixologik holatlarda, dramatizm va lirizm uyg‘unlashgan o‘rinlarda, hayotiy-maishiy lavhalarda o‘zining xarakter qirralarini namoyon etadi. Shoir uning xarakterini yaratishda realistik va romantik tasvir usullaridan birday foydalanadi. Xalil Sultonning shahzoda va shoh sifatidagi holatlari,

xususiyatlari realistik tasvir usullarini taqozo etsa, uning shoirligi va oshiqligi romantik tasvir usulini talab qilgan.

Xalil Sultonning shaxs sifatidagi dilbar fazilatlari ko‘p ijodkorlarning diqqatini o‘ziga qaratib kelganligi tabiiy. U.Asim bu xususda shunday deydi: “Ulug‘bek Durbek taxallusida “Yusuf va Zulayho” dostonini yozgan, bu ishda unga amakivachchasi Xalil Sultonning Shodimulkka bo‘lgan fojiali muhabbatilhom baxsh etgan, degan gaplar ham yuradi. Bizningcha, Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek”dagi muhabbat sahnalarini Xalil Sulton hayotidan ulug‘ munajjimga ularashgan ko‘rinadi” (149, 39).

Bu fikrni biz U.Asim Xalil Sulton obrazini yaratishda tarixiy faktlar bilan bir qatorda tasavvur va farazlarga ham erk bergenligini ta’kidlash uchun keltirdik. Ko‘pgina tarixiy manbalarda Xalil Sulton fojiasi o‘zaro feodal urushlar natijasida yuz bergenligi ta’kidlanadi. U.Asim bu fikrlarni rad etmagan holda Xalil Sultonning fojeasini uning o‘zidan izlaydi, ruhiyatidan, tabiatidan, xarakter mantiqidan qidiradi.

“Psixik narsaning ikkita yashash shakli mavjuddir, – deb yozadi S.L.Rubinshteyn. – Birinchisi, psixik narsaning obyektiv shakli, ikkinchisi, psixik narsaning subyektiv shakli – bu refleksiya, introspeksiya, o‘zo‘zini tahlil qilish, o‘zida psixik narsaning aks etishidir” (127, 11).

Dramatik dostonlarda, jumladan, “Xalil Sulton” asarida ham psixik narsaning ikkinchi shakli, ya’ni subyektiv shakli xarakter yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun dramatik dostonlarda xarakter yaratish usullari boshqa janrlarda qo‘llaniladigan xarakter yaratish yo‘llaridan farqlanadi. Xarakter yaratish borasida lirik dostonlar dramatik dostonlarga ancha yaqin turadi. Har ikkala janrda ham xarakter yaratishning subyektiv shakli ko‘proq talab qilinadi. Tojik adabiyotshunosi X.Otaxonovaning fikricha, lirik dostonlarda xarakter yaratishning subyektiv shaklini lirizm boshqarib boradi (108, 168).

## **XALIL SULTON**

Amir menga boqib falak toqidan  
Yana ta’zim etdi... So‘ng ketding, qoldim.  
Otimni etaklab keldim shu ko‘shkka.  
Va necha yillarkim, ko‘zim o‘rganib  
Qolgan bu suratga nigohim tushdi.  
Chaqmoq vujudimni teshg‘onday bo‘ldi,  
Zirqirab ketdilar suyak-suyagim!  
Inson boshi uzra quyunday qilich...  
Ul ersa o‘limni qilmay tasavvur

“Nahotki” deb boqur engashg‘on tiqqa.  
Bo‘g‘zimga qalqinib yig‘i qadaldi,  
Oh urdim, ingradim, yugurdim giryon,  
Anov ot ustida turgan o‘g‘lonning  
Shodlikdan nurlangan qiyofasig‘a  
Toshlar otg‘im keldi... (194, 141).

Ushbu she’riy monologdan ham ko‘rinib turibdiki, dramatik dostonda harakatning dramatizmi emas, voqelikning dramatizmi lirika vositasida moddiylashayapti.

Asarning asosiy konfliktini quyuqlashtiradigan, bo‘rttiradigan qator konflikt halqachalari shiddat bilan rivojlanib, bosh qahramonni asosiy konflikt tomon etaklaydi. Xalil Sulton va Amir Temur, Xalil Sulton va bek-amirlar, Xalil Sulton va boshqa shahzodalar munosabatlaridagi murakkablik ham ziddiyatlar asarning bosh konfliktini jonlantirib turadi. Asarning umumiy ruhida goh bilinib, goh bilinmay ohangrabo yanglig‘ jamiki unsurlarni o‘zida jipslashtirib turgan asosiy konflikt Xalil Sultonning shoirligi va shohligi o‘rtasidagi, Xalil Sultonning tabiatini va taqdir hukmi o‘rtasidagi kelishmovchilikdir, murosasiz qarama-qarshilikdir.

Tarixiy faktlarning guvoh berishicha, Temurning vafotidan so‘ng 1405 yil 18 mart kuni Xalil Sulton Movarounnahrning oliy hukmdori deb e’lon qilinadi. Bu hukmdorlik atigi to‘rt yil, 1409 yilning 13-mayigacha davom etadi.

Bu omadsizlikning, mag‘lubiyatning ildizlari Xalil Sulton tabiatidagi ishonch va ezgulik daraxtining tomirlariga tutash. Xalil Sultonning sofdilligi, ishonuvchanligi, kechiruvchanligi, samimiyyati uni fojiaga etaklagan sabablarning sarchashmasidir. Taqdir o‘yini Xalil Sultonni saltanat shohsupasiga ko‘tarib, undan shafqatsiz, toshyurak bo‘lishni talab qildi. Xalil Sulton shoir edi, darvishqalb edi. Taqdir talabini u bajarolmasdi.

Akademik B.Ahmedov “Mirzo Ulug‘bek” essesida Xalil Sulton to‘g‘risida fikr yuritar ekan, Davlatshoh Samarcandiyning quyidagi mulohazalariga diqqatni jalb qiladi: “Sultonzoda Xalilulloh Amir Temur hukmronligi yillarida Eronu Turon xirojidin jam’ qilg‘on xazinasini ochdi. Nayson bulutidan yoqqan yomg‘ur, balki Badaxshon la’l koni, Ummon dengizi kabi ko‘p zaru javohirni lashkar va raiyatga in’om qildi...” (199, 42). Shu faktning o‘zi ham uning fuqaroparvar shaxs bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi. Butun asar davomida Xalil Sulton ruhiyatida

kechayotgan ziddiyatlar, tuyg‘ular taloshi o‘zligidan darak berib turadi. Obyektiv olam manzaralari ana shu ruhiyat tasviridan anglashiladi.

### XALIL SULTON

Amir-sarkardalarning  
Ochdin o‘lmoqdamি bola-chaqasi?!  
Oyo, zakot to‘lab qiyaldilarmu?!  
Xayru ehson so‘rab biror boyvachcha  
Ko‘chada qoldimu sunnat to‘yisiz?!  
Oyo, amirlarning egnidan so‘nggi  
Churuk chaponlari tushib qoldimu?!  
Oyo, xotinlari tashlab ketdimu?!  
Qoq-quruq suprag‘a boqmoqdin to‘yib?!  
Molu dunyo yana nechun alarg‘a  
Kerak bo‘lib qoldi?  
Arg‘unshoh  
Hukmdor, beklar  
Ustundir bepoyon davlatingizg‘a.  
Alar rizo bo‘lsa- olloham rizo! (194, 237-238).

Dramatik dostonlarda konflikt rivojini xarakterning o‘z mantiqidagi va xarakterlararo ziddiyatlar belgilab turadi. Xalil Sulton ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo‘lgan qarama-qarshiligini bosib tushadi hamda konfliktni jonlantirib turuvchi asos hisoblanadi.

Qarama-qarshi qutblar bo‘lgan shoirlik va shohlikni bir shaxs o‘ziga singdirishi qiyin. Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Amir Umarxon, Muhammad Rahimxon II kabi zotlar ham hukmdor, ham ijodkor edilar. Lekin ularning hayot yo‘li ham dramatik so‘qmoqlardan iborat. Shuning uchun Xalil Sulton obrazini yaratish murakkab psixologik holatlarni, voqelikdan olinadigan turli xil kechinmalarni berishni taqozo qilardi. “Xarakterni uning psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili xarakterning yaxlitligi va to‘laqonligini ta‘minlaydi, uni reallashtiradi, ta‘sirchanligini oshiradi” (153, 21), bu ayniqsa, dramatik dostonlarda yaratilajak xarakterlar uchun zarur. Shu bois U.Azim Xalil Sulton psixikasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni qadam-baqadam tadqiq qila boradi, natijada asardagi ichki dramatik uzviylik liro-epik tasvirlarda ro‘yobga chiqadi.

She’riy dramalardagi dramatik ko‘rinishlarning uzviyligi hatti-harakat orqali manzara kasb etadi. Drama uchun asos bo‘ladigan harakatni voqe-

hodisalar yuzaga chiqaradi. Dramatik dostonlarda esa harakat emas, o‘y-mushohada, fikrlar g‘alayoni bosh asos bo‘lganligi bois uning tabiatida dramatizm va lirizm birinchi darajali tasvir usuliga aylanadi. Biz dramatik doston sujeti rivojidagi o‘sish-o‘zgarishlarni, eng avvalo, mana shu ikki tasvirning bir butunligida ko‘ramiz. O‘y-mushohada, fikrlar, kechinmalar, tuyg‘ular tizimi, ya’ni lirik kayfiyat o‘z mohiyati bilan dramatik holatlarni keltirib chiqaradi. Lirika bilan drama o‘rtasida ichki yaqinlik bor. Subyektivizm tashqi dunyo bilan to‘qnashar ekan, kuchli tug‘yonlar natijasida junbushga keladi. Ichki va tashqi dunyo o‘rtasidagi nomuvofiqlik falsafiy mulohazalar ko‘rinishida qalbning qudratli nidosini vujudga keltiradi. Natijada dramatik-lirik kayfiyat bir butunligi yuzaga keladi.

Eshqobil Shukurning “Ibtido xatosi” dramatik dostonida zardushtiylik dini aqidalari asos qilib olinadi. Voqelik o‘z-o‘zicha olganda unchalik muhim emas. Muhimi – muallifning shu voqelikka bo‘lgan munosabati, bergen bahosi. Shoир zamondoshlarining yurish-turishlariga, fe’l-atvorlariga, ma’naviy qiyofalariga diniy aqidalardan kelib chiqib baho berishga intiladi. Asar uchun asos qilib olingan voqelik manzaralari bir-biriga assotsiativ tarzda bog‘lanadi.

Oltin taxtda o‘ltirguvchi Axura Mazda,  
Olam ruhin boshqarguvchi Axura Mazda.  
Ming yilda  
to‘rt unsur zuvalasidan  
hayot homilasi – odam vujudin  
yaratdi Yaratgan...  
So‘ng, bu vujud uzra  
uyum-uyum jannati ranglarni to‘kib  
o‘z ijodini yana mukarram etdi,  
Ulug‘ yaratuvchi (242, 8).

Shoirning asosiy g‘oyasi – insoniy munosabatlar haqidagi umumlashmalari, xulosalari, falsafiy mushohadalari, inson va burch, inson va davr, inson va borliq haqidagi mulohazalari, o‘ylari Axura Mazda, Ahraman, Erkak, Ayol kabi obrazlar dialoglarida tajassum topadi.

Adabiyotshunos S.Sigua asosli e’tirof etganidek, “dramatik dostonlardagi barcha “ovozlar” muallif o‘ylarining umumiyl o‘zaniga quyiladi” (136, 254).

Ezgulik va yovuzlik xudolarining dialoglarida keskin qarama-qarshilikdan ko‘ra fikr almashuv, muloqot ohangi ustivor. Dramalar uchun

asos bo‘lgulik eng shiddatli to‘qnashuv sahnalari ham liro-epik tasvir ba’zan epik tasvir tufayli dostoniy dramatizm kasb etadi.

“Shundan so‘ng, ikki tangri o‘rtasidagi samoviy nizo yuz yil beto‘xtov davom etdi. Ular bir kun ikkinchi osmonda olishsalar, ertasi ettinchi osmonni larzaga keltirib olishardilar. Olam to‘polonlar ichida qoldi. Ikki tangri qanday bo‘lmasin bir-birini tamomila mahv etmoq uchun intilar, lekin hech biri buni udda qilolmas edi. Urushning yuzinchi yilining oxirgi faslidagi jangda Axura Mazdaning qo‘li baland kela boshladi” (242, 10).

Albatta, bunday tasvir drama janri uchun yot. Dostonning sintetik tabiat esa bunday epik manzaralarga monelik qilmaydi.

“Zamonaviy dostonchilikda lirik tur belgilari ustunlik qiladi, hatto, eng keskin qarama-qarshiliklar ham lirik yo‘lda hal etiladi, – deb yozadi V.P. Kikans. – Doston hamisha ham dramatik ohangga ega, lekin bu uning ichki dramatizmidir: zamonaviy dostonlarda hayotiy ziddiyatlar muallif o‘ylarida in’ikos topadi” (68, 87-88).

“Ibtido xatosi”da liro-epik, epik tasvirlar tez-tez uchrab tursa-da, lekin asarning bosh yo‘nalishini lirika belgilaydi. Buni dialoglarda ham, alohida monologlarda ham ko‘rish mumkin.

### AHRAMAN

Nima bu? Qanday hol? Ko‘zlarim tinar,  
Ruhimni kavshaydi olam oshubi.  
Men seni qarg‘ayman, o‘trik bashorat,  
Is bosgan uyangni ruhimga qurib,  
Sehrli sayrading, o, ko‘r qora qush,  
Arvohday avrading... G‘alabalardan  
Bergan vahiyrlaring aldamchi sarob.  
Ket, ruhimni tark et! Daf bo‘l, izg‘ima!  
Senga parchalatmam iqtidorimni.  
Ivirsiq falakning sohibalari  
Masxara majlisin tuzmay turingiz.  
Oxirgi imkon bor hali ilgimda (242, 16).

Dramatik dostonlardagi dialog shakli muallif shaxsiyatining hamisha ham ochiq-oydin namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘yavermaydi. Muallif o‘zining tafakkur iqlimlarida kechayotgan o‘ylar silsilasini aks ettirishni bosh qahramon zimmasiga yuklaydi. “Jannatga yo‘l” asaridagi Yigit, “Xalil Sulton” dostonidagi Xalil Sulton, “Moziy sabog‘i”dagi Tarixchi, “Ibtido xatosi”dagi Axura Mazda kabi obrazlar asar mualliflarining bezovta xayollarini, dolg‘ali o‘ylarini, ichki mulohazalarini tashuvchi vositalardir. Muallif bosh qahramon timsolida o‘zligini ifoda etadi. Ayrim

hollarda bosh qahramon obrazi bilan birga muallif o‘zining ham shaxsan ishtirok etishiga ehtiyoj sezadi. Bunday o‘rinlarda bosh qahramon va muallif shaxsiyati yaxlit bir butunlikning ikki tomoni sifatida ko‘zga tashlanadi. Buning yorqin misoli tariqasida Tilak Jo‘raning “O‘rtoq Mayakovskiy” dostonini ko‘rsatish mumkin.

“O‘rtoq Mayakovskiy” dostoni shaklan dramatik, mazmunan epik, ifoda tarziga ko‘ra lirik asardir. Muallif o‘z davri, zamondoshlari xususidagi mulohazalarini izhor etish maqsadida xayolan Mayakovskiy obraziga murojaat qiladi. Ikki shoir muloqoti umuminsoniy muammolar doirasida kechadi. Inson va insoniyat oldidagi burch, tarix qarshisidagi javobgarlik, ruhiy bedorlikka da’vat bu muloqotlarning o‘zagini tashkil etadi. Mayakovskiy yashagan davr va Tilak Jo‘ra zamoni oralig‘ida bir necha o‘n yilliklar mavjud. Tarix ne-ne voqea-hodisalarning guvohi bo‘lmadi. Tilak Jo‘rani bu voqelik manzaralari emas, balki shu voqelikni yuzaga chiqaruvchi inson ichki omillari ko‘proq qiziqtiradi. Shu sababli lagarbardordan tortib minbarparastlargacha bo‘lgan odamsifatlarning yurish-turishlari Mayakovskiy she’riyatiga xos jangovarlik bilan tanqid tig‘iga tortiladi.

Mayakovskiyning arvohi  
Ammo,  
sen ehtiyot bo‘l!..  
Ivan Vanichni balki bilarsan,  
Bugun ham arbob,  
ham rahbar,  
ham olim!  
Chakagining taqillashidan  
Go‘rga ham o‘rnatar joying.  
Ivan Vanichga  
sovuq suvni  
Puflab uzatar Petr Ivanovich,  
Shilimday yopishib boshliqqa.  
Hatto,  
uzuk taqar  
Boshliq oshagan qoshiqqa.  
Axir bunday marazlar bilan,  
XXI asr tomon  
Qadam tashlaysiz,  
hamon?! (208, 134).

Ma’naviyatsizlikning yaxlit bir manzarasi ixchamgina satrlarga jo bo‘lgan. Shu bilan birga ijodkor shaxsning kelajak oldidagi ma’suliyati belgilab berilgan.

Dramatik dostonlarda muallif shaxsiyati bosh qahramon obrazi bilan yonma-yon ishtirok etaversa-da, biroq asosiy g‘oyaviy maqsadni ro‘yobga chiqarish bosh qahramon zimmasida qoladi. Mazkur dostonda ham shunday. Tilak Jo‘ra zamoniga daxldor muammolarga Mayakovskiy obrazi vositasida javob izlanadi. Asarning asosiy konflikti lirik qahramon (Mayakovskiy va Tilak Jo‘ra)ning ichki olamidan tashqariga chiqmaydi. Bu xususiyat zamonaviy dostonchilikning barcha ko‘rinishlarida bo‘lganidek, mazkur asarda ham lirika qurilishining ustivorligini ko‘rsatib turibdi.

Biz yuqorida dramatik dostonlarda muallif shaxsi ko‘pincha “sahna ortida” turishini eslatib o‘tdik. Shu bois xarakter belgilarini ko‘rsatishda, iroda yo‘nalishini tayin etishda personajlar nutqi muhim rol o‘ynaydi. Personajlarning nutqi, birinchidan, bosh qahramon xarakterini ochishga yo‘naltirilsa, ikkinchidan, o‘zlarining betakror, individual qiyofalarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, T.Ahmadning “Moziy sabog‘i” dostonidagi personajlar nutqi orqali erkin nafas olayotgan zamondoshimiz qiyofasini ko‘ramiz. U Istiqlol fidoyilari ruhiga ta’zim qilayotgan, ulug‘ bobokalonlariga munosib farzand bo‘lishga qasamyod etayotgan, xalqining bugungi quvonch va tashvishlariga sherik bo‘layotgan shaxs sifatida gavdalananadi.

Behbudi, Munavvar Qori, Cho‘lpon, Fitrat kabi personajlarning nutqlari bosh qahramon bo‘lgan Tarixchining ma’naviy-ruhiy olamini yorqinroq yoritishga qaratiladi. Bugina emas, o‘zlarining individual siymolari ham ravshanlashadi.

U.Azimning “Xalil Sulton” asaridagi bosh qahramon nutqi, birinchidan, uning xarakter mantiqi bilan asoslanadi, ikkinchidan, uni o‘rab turgan muhitni, sharoitni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi.

## XALIL SULTON

(Eshikog‘aga)

Borib etkazingki shonli beklarg‘a  
Magar niyatlari to‘g‘ri, pok ersa,  
Kirsunlar – kechurman gunohlaridan;  
Gar qaro niyatla kelgan bo‘lsalar,  
Ketsinlar, jazoga ko‘rmasmen loyiq.  
Tangridan qo‘rqsinlar, ha, mendin emas! (194, 187).

Ushbu nutqda tipik sharoit (buzg‘unchi beklar misolida) hamda bosh qahramonning xarakter belgilari (ishonuvchanlik, soddalik, kechirimlilik) mujassamlashgan.

Xalil Sultonning xarakter belgilarini ko‘rsatishda uning o‘z nutqidan tashqari boshqa personajlarning nutqi ham qo‘l kelgan. Muallif xarakter inkishofida davrning tipik shart-sharoitlarini hisobga olib, munosabatlararo konfliktni fikr-tuyg‘ular qarama-qarshiligida ko‘rsatishga intilgan. Jumladan, atrofdagilarning oqibatsizligi va tomoshaga o‘chlididan ozor topgan Shafqat devona hamda o‘zaro feodal urushlarda o‘g‘lini yo‘qotib aqldan ozgan Ayol obrazlari, bir tomondan, o‘z davrining ruhini (tinimsiz urushlar misolida) aks ettirsa, ikkinchi tomondan Xalil Sulton bilan bo‘lgan muloqotlarda uning xarakterini to‘ldirishga, ayniqsa, ko‘ngilchanligini bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qilgan. Shuningdek, har ikkala personaj ham o‘ziga xos fikrlash hamda iroda (ko‘proq irodasizlik) yo‘nalishiga ega.

A.Oripovning “Jannatga yo‘l”, A.Suyunning “Sarbadorlar”, T.Jo‘raning “O‘rtoq Mayakovskiy”, E.Shukurning “Ibtido xatosi”, N.Afoqovaning “Jazo”, Ch.Ergashning “Ko‘zgudagi qiz” kabi dostonlarida personajlar nutqining o‘ziga xos rang-barang qirralari namoyon bo‘ladiki, bu alohida bir monografik tadqiqotni taqozo etadi.

Ayonki, fe’l-atvor insonning tasodifiy xususiyatlarini emas, balki eng muhim o‘zakni tashkil etuvchi, nisbatan barqaror, shaxsning asosiy yo‘nalishini belgilovchi qirralarini o‘z ichiga oladi. Xarakter yaratilishi uchun epik ma’nodagi sujetlilikning bo‘lishi shart emas, albatta. Fikr va tuyg‘ularning, axloqning, voqelikka bo‘lgan munosabatning ifodalanishida xarakter belgilari ko‘rinadi. Shu jihatdan dramatik dostonlarda lirik dostonlardan ko‘ra ko‘proq xarakterlar yaratiladiki, bu xususiyat janning tabiatи tekshirilayotganda alohida diqqat qaratilishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir.

X.Davronning “Uyg‘oq toshlar”, U.Azimning “Tosh pari”, Ch.Ergashning “Ko‘zgudagi qiz”, T.Ahmadning “Sirli chashma” dostonlari xalqona uslubda bitilgan. Mualliflar bu asarlarida xalq doston va ertaklaridan, afsona va rivoyatlardan unumli foydalanishadi, boshqacha aytganda, xalq og‘zaki ijodi qahramonlariga zamonaviy libos kiydirishadi.

X.Davronning “Uyg‘oq toshlar” asari hajman ixcham. Undagi Ayol obrazni “Yoriltosh” ertagidagi mushfiq qiz qismatini esga solsa, erkak obrazni “Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi Kenja botirni yodga soladi. Xiyobonda ro‘baro‘ turgan Erkak va Ayol haykallariga jon ato etiladi (xayoliy mantiq) va ular jonli insonlardek munosabatga kirishadilar

(hayotiy mantiq). Xayoliy mantiqning hayotiy mantiqqa ta'siri atrofdagilarning e'tirozlariga sabab bo'ladi. Xayoliy orzuning hayotiy hodisaga aylanishi ko'pchilikni sarosimaga soladi: haykallarni tozalab turuvchi farrosh ayol, tosh ko'taruvchi yigitlar, direktor va boshqalar ishsiz qolishi mumkin. Shoir ana shunday badiiy tasavvur va fantaziya yordamida XX asrning 70-80- yillarida sho'ro tuzumida avj olgan qog'ozbozlik, mansabparastlik, byurokratik illatlarni zaharxanda bilan aks ettiradi. Erkak va Ayol haykallarining odamiylashuvi ilohiy qudratning mo'jizasi sifatida talqin etiladi. Qayta evrilish go'zal orzu-umidlarning, bokira tuyg'ularning o'lmasligiga, barhayotligiga bir ishora. Bu evrilishlar oralig'ida zamonlar, tuzumlar, asrlar o'zgargan. Lekin inson shaxsiga munosabat o'zgargan emas, ezgulik va jaholat hamon yonma-yon yashamoqda. Materialistik ong ruhida tarbiya topgan Direktor, farrosh ayol, tosh ko'taruvchi yigitlar Erkak va Ayol haykallarining insoniy qiyofa kasb etishlarini "hazm" qilisholmaydi.

Shoir yaqin o'tmishimizda ko'pchilik rahbarlarga xos bo'lgan byurokratizm, buyruqbozlik illatlarini Direktor obraziga umumlashtiradi. U "sotsialistik mexanizm"ni harakatga keltiruvchi "vintcha". Direktor har qanday sharoitda ham o'zining shakllanib bo'lgan va hech qachon o'zgarishi mumkin bo'lman xarakter xususiyatlariga sodiq qoladi. Erkak va Ayolning iztirobli iltijolari ham unga kor qilmaydi. "Uyg'oq toshlar"dagi badiiy konflikt go'yoki xarakterlar to'qnashuvi natijasida yuzaga chiqayotgandek ko'rinsa-da, lekin bu ziddiyat "sahna ortida" turgan muallifning o'ylarida kechmoqda. Shuning uchun asar konflikti dramaga xos keskin qarama-qarshilikda emas, lirik ehtiroslar qurshovida hal etiladi.

Adabiyotshunos S.Mamajonov "Poemada inson va zamon" nomli maqolasida dramatik dostonlar xususida quyidagilarni qayd etadi: "... poemachilikda dramatik janr belgilari (bu konflikt keskinligida, dialogik nutq vaznining oshishida, personajlar sonining ko'payishida va asar sujeti rivojining xarakterlar mantiqi hamda kurashidan keltirib chiqarilishida) ravshan ko'rinoqda. Dramatik doston degan atamaning kelib chiqishi ham shundan" (79, 105). Ushbu qarashlarni "Uyg'oq toshlar" asariga ham tadbiq etish mumkin. Shoir har bir personajning yurish-turishini, fe'l-atvorini zamona, manfaat mantiqidan kelib chiqib asoslashga harakat qilgan. Dostondagi Birinchi Kishi va Ikkinci Kishi obrazlari shu jihatdan ancha hayotiy chiqqan. Asar boshida bu ikki obraz robotlar xususida bahslashadi. Asosiy voqealar boshlangach esa "jonli robotlar"ga duch kelishadi.

Birinchi Kishi obrazida biz murakkab xarakterni ko‘ramiz. U o‘zining robotlar tarafidori ekanligini aytishi bilan bir tomondan Direktor va uning ta’sir doirasidagilarga yaqinlashadi. Keyinchalik odamga aylangan haykallar qismatiga duch kelgach, uning xarakterida o‘zgarishlar ro‘y beradi, sevgi qudratining toshlarga jon bag‘ishlashi uni qattiq hayajonga soladi. Uning keyingi monologlari va muloqotlari mana shu mo‘jiza tug‘dirgan hayajonlar ta’sirida kechadi.

### Birinchi Kishi

Jon aka, tushuning, bu-ku mo‘jiza,  
Mo‘jiza, akajon, tushunsangiz-chi!  
Tirilgan haykalni, axir, kim ko‘rgan?!  
Kim ko‘rgan sevgidan tirilgan toshni?!

### Direktor

Muhabbat, muhabbat...  
Yana o‘sha gap.

Sizga mo‘jizadir, menga – inventar (207, 80).

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan asarlar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, sujet, konflikt, xarakter yaratish masalalari dramatik dostonlarda subyektiv tarzda hal qilinadi. Mazkur xususiyat janr takomilidagi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

“Uyg‘oq toshlar”dagi Erkak va Ayol dialoglari monologik xarakterga ega. Bu dialoglarda ularning har biri o‘zlarining uqubatli kechmishtalarini xotirlashadi, orzular qanotida parvoz etishadi. Ularning dialoglarida dramadagidek ziddiyat yo‘q, she’riy asarlarga xos e’tirof bor, hasbi hol mavjud.

“Dramatik turda xarakterlar tasviri boshqa adabiy tur va janrlardagidan farqli o‘laroq, juda ham bo‘rttirilgan bo‘ladi. Hatto, aytish mumkinki, dramalarda tasvir etilgan xarakterlarda ma’lum darajada bir yoqlamalik bo‘lishi muqarrar va bu dramaning kamchiligi emas, fazilatidir” (137, 289). Biroq biz dramatik dostonlardagi xarakterlarda bunday bir yoqlamalikni uchratmaymiz. Ulardagi xarakterlar lirik xarakterlardir. Dialoglarda ham, monologlarda ham lirik ifoda tarzining ustunligini ko‘rish mumkin. Dramadagi xarakterlar haddan tashqari mubolag‘alashtiriladi. Masalan, Otelloning rashkchiligi, Xlestakovning muttahamligi kabi. Dramatik dostondagi xarakterlar uchun bunday bo‘rttirishlar yot. Ular ko‘pincha oddiy va hayotiy dramatik situatsiyalarda tasvirlanadilar. Dramatik dostonlardagi konflikt sekin va sokin o‘sib boradigan lirik konfliktdir. Xarakterlar mantig‘i ham ana shu konflikt tabiatiga xos.

Dramatik dostonlardagi dialoglar lirik qahramon monologining personajlararo taqsimlangan ko‘rinishi. Shu bois bu dialoglarda dramatik asarlarga xos shiddatli to‘qnashuvlarni, hayot-mamot qarama-qarshiligini ko‘rmaymiz. Dramatik dostonlarda monologlarga alohida salmoq yuklanadi. “Jannatga yo‘l”, “Xalil Sulton”, “Moziy sabog‘i”, “Uyg‘oq toshlar”, “Ibtido xatosi”, “Ko‘zgudagi qiz” asarlarida alohida monologlardan tashqari “O‘zicha g‘udranib”, “Chetga qarab”, “Xayollanib”, “Sekin pichirlab”, “O‘ynab-kulib”, “Tush ko‘rayotgandek”, “Atrofga quloq solib” kabi qator monologlar boshlanishidan darak beruvchi izohlarni uchratamizki, bu ham dramatik dostondagi lirizmning mavqeini ko‘rsatadi.

Dostonlar sujetini tadqiq etishda ismu sharifi muayyan ma’no tashuvchi qahramonlar ham muhim rol o‘ynaydi. Biz qahramonning ismu sharifidan, nomlanishidan uning asar davomida qanday xarakter kasb etajagidan ma’lum ma’noda ogoh bo‘lib turamiz. “Onomastika yoki o‘zi haqida so‘zlab turuvchi ismlar qahramonlarning ezgu yoki yovuz xarakteridan darak berib turadi. Betaraf holatdagi ismlar esa hamisha ham esda qolavermaydi, shu bilan birga asarning asosiy qahramonligiga da‘vogar ham bo‘lavermaydi” (76, 12). Bu mumtoz dostonchiligidimizga ham xos xususiyatki, hazrat Alisher Navoiy o‘z qahramonlarini bejizga Farhod, Majnun deya nomlamagan. Farhod, Majnun ismlari zamiridagi ma’no ularning xarakter xususiyati haqida ham so‘zlab turibdi. “Jannatga yo‘l”dagi Shoir, Do‘s, Ota, Ona, Tarozibon, “Quyoshli olam”dagi Shayton, Xavfli odam, Talaba, “Ishq” dostonidagi Gado, Odam Ato, Momo Havo, “Moziy sabog‘i”dagi Cho‘lpon, Tarixchi olim kabi qator qahramonlar onomastik ma’no tashuvchi obrazlardir.

XX asrning 80-90 yillaridagi dostonlarda aniq ismu sharifi bilan atashdan ko‘ra qahramonni kasb-kori bilan bog‘liq atamalar orqali atash hollari kuchaydi. Umumiyligi nomlanishga ega bunday qahramonlar dostonlar tiliga kasb-kor bilan aloqador so‘zlashuv ohangini ham olib kirmoqdalar. Shu yo‘nalishdagi qator masalalarga oydinlik kiritish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

N.Rahimjonov “dramatik doston” atamasi adabiyotimizga o‘tgan asrning 40-yillarida kirib kelganligini qayd etadi. Shu yillarda yaratilgan Oybekning “Mahmud Tarobiy”, Mirtemirning “Ona” asarlari dramatik dostonlar deb ataldi. Lekin o‘zbek dramatik dostonchiligining kamolotga etgan davri XX asrning 80-90 yillariga to‘g‘ri keladi. Xalq dostonlari “Tohir va Zuhro”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, shuningdek, yozma adabiyot namunalari “Farhod va Shirin”,

“Layli va Majnun”, “Shayboniynoma”, “Abdullanoma” va boshqa bir qancha dostonlarda konflikt keskinligi, g‘oyalar to‘qnashuvi, liro-dramatik uyg‘unlik, kuchli intrigalarni keltirib chiqarish, jo‘shqin romantika, psixologik tahlil izchilligiga e’tibor, sinkretiklik kabi bir qator sifat belgilarini ko‘ramizki, ana shu belgi-lar dramatik dostonlar uchun asos vazifasini o‘tadi, deb aytish mumkin.

Xullas, dramatik dostonlar qisqa davr mobaynida zamonaviy dostonning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida e’tibor qozondi. Bugungi kunda dramatik dostonlar tabiatida kechayotgan yangilanishlar an’anasi uning kelajagiga umid bilan qarashga undaydi.

## XULOSA

Istiqloldan keyingi davr turmushning barcha jahbalarida bo‘lgani singari badiiyat olamida ham hur fikrlilikka keng yo‘l ochdi. Istiqlol mafkurasi yaratilayotgan voqeligmizdagi har bir o‘sish-o‘zgarishda o‘z muhrini qoldirmoqda. Inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishning eng ishonchli va qudratli vositasi bo‘lgan adabiyot va san’atning ahamiyati yangi mustaqil jamiyat qurish yo‘lidagi tarixiy bosqichga o‘tilishi bilan yanada ortdi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotini kuzatib, unda yuksak sifat o‘zgarishlari amalga oshayotganligining guvohi bo‘lish mumkin. Izlanishlar o‘z samaralarini bermoqda. Milliy adabiyot tafakkur tarzining jahon adabiyoti uzoq asrlar davomida to‘plagan an’ana va tajribalarga omuxta etilayotganligi o‘zbek adabiyotining yaqin istiqbolidan darak bermoqda.

Monografiyada tadqiqot manbai sifatida tanlangan davr oralig‘i sho‘ro imperiyasining tanazzuli va yangicha dunyoqarashning shakllana borish jarayonlarini qamrab oladi. Biroq mana shu yigirma-yigirma besh yil mobaynida ijtimoiy hayotda ro‘y bergen o‘zgarishlar, zamondoshlar psixologiyasida kechgan yangilanishlar, jamiyat va shaxs, davr va tarix o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning badiiy silsilasi doston janrida o‘z tajassumini topdi. Dostonlarning mazmun mohiyatini, sujet va xarakter qurilishini, kompozitsion tuzilishini kuzatib, tafakkur doirasining kengayganligiga, fikrlash tarzining o‘sganligiga, insonning azal va abad ruhi adabiyotning yana chinakam tadqiqiga tortilayotganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar va muammolarning kun tartibiga qo‘yilayotganligi, hayotning turfa ranglari, turli zamonlarning xulosa va saboqlari bugungi tarixiy voqeligmizni ochib berishga yo‘naltirilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Zamonaviy dostonda lirizmning kuchayganligi uning makon, tasvir, vaqt chegaralarini kengaytirib yubordi. Endi lirik qahramonning poetik dunyosi umuminsoniyat tarixiga aloqador hodisa sifatida talqin etiladigan bo‘ldi. Lirik tilning lakonik xususiyati, ko‘chma ma’no tashuvchi murakkab tasvir vositalarining faol qo‘llanishi, mazmunning falsafiy salmoqdorligi, asar sujeti uchun dramatik hodisalar tanlanishi va uning lirik kechinmalar vobastaligida aks ettirilishi kabi qator xususiyatlari bilan bugungi doston XX asrning 60-70 yillaridagi dostonlardan keskin farq qiladi.

Bugungi dostonning lirik qahramoni insoniyat tarixinining markazida turgandek taassurot qoldiradi. Har bir tarixiy hodisaga o‘z qalbining

mehrini qoldiradi, har bir hodisa uning ishtirokida ro'y beradi, uning sezimlari tizimi barcha hodisalarni taftish qiladi, chamalaydi. Bugungi doston markaziga shaxs taqdiri qo'yilmaydi. Kechagi dostonlar uchun xos bo'lgan "tarixiy konkretlilik" bugun falsafiy-simvolik, majoziy fikrlashga o'rin bo'shatib berdi. Kechagi doston qahramoni o'sish va shakllanish jarayonida ko'rsatilardi, bugungi qahramon esa shakllangan etuk shaxs, dunyoqarashi keng, fikrlari zalvorli, teran.

Oybek, A.Muxtor, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, J.Kamol, M.Yusuf, T.Nizom, T.Jo'ra, U.Qo'chqor, A.Mahkam, I.Otamurod, Ch.Ergash, A.Qutbiddin, Faxriyor, S.Ashur kabi ijodkorlar o'tgan asrning ikkinchi yarmida yaratgan eng sara asarlari bilan o'zbek dostonchiligida yangi sahifa ochdilar, desak xato bo'lmas. Zero, zamonaviy doston poetikasini ana shu ijodkorlar asarlari misolida tadqiq etilishi bejiz emas.

Mumtoz dostonlarga xos liro-epik va liro-dramatik uyg'unlikda histuyg'ular kartinasini yaratish, murakkab psixologik holatlarni ochish, ichki monologlar manzarasini tasvirlash, intrigalarni kuchaytirish kabi qator sifatlar zamonaviy doston poetikasida ham tobora yorqinlashib borayotgan xususiyatlardan hisoblanadi.

Xullas, zamonaviy doston poetikasining tadqiqi quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostoni arxitektonikasida yakka shaxs (lirk qahramon) dominantligi o'rnatildi. Bu lirk qahramonning monologi lirk dostonni, monolog-hikoyasi liro-epik dostonni, diologi (o'zi yo o'zgalar bilan) dramatik dostonni yuzaga keltirayapti.

2. Adabiyotshunosligimizda ishlatib kelinayotgan "reportaj-doston", "qasida-doston", "ertak-doston", "ocherk-doston", "sonet-doston" kabi atamalar dostonlarni tasnif va tahlil qilishda chalkashlik keltirib chiqaradigan nisbiy tushunchalar. Zotan ertak yo ocherk dostonga qo'shilarkan, o'zining ertaklik, ocherklik xususiyatlarini batamom yo'qotadi, doston strukturasiga singib ketadi. Qolaversa, mazkur atamalar ostida taqdim etilayotgan asarlar lirk, liro-epik yo dramatik dostonlardir.

3. Adabiyotshunosligimizda "doston" va "poema" atamalari xususida yagona to'xtamga kelinmagan. Realistik ruhdagi asarlarni "poema", romantik ruhdagi asarlarni "doston" atash unchalik to'g'ri emas. Vaholanki, biror bir janr undagi realistik yoki romantik tafakkur tipiga qarab belgilanmaydi. "Poema" atamasi "doston" atamasining g'arbona ekvivalenti. Zamonaviy doston mumtoz dostonning sifat va miqdor o'zgarishlariga uchragan yangi modeli.

4. Yillar davomida dostonning shakli, hajmi, kompozitsion qurilishi, bayon tarzi o‘zgarib kelgan bo‘lsada, biroq u o‘zining Vatan timsolini, xalq obrazini tasvirlash va umumxalq psixologiyasiga tayanishi kabi qadimiy an’analariga sodiq qoldi. Xalq, Vatan timsollari bugungi o‘zbek dostonining bosh mavzularidir.

5. Qadim tarixga ega o‘zbek adabiyoti komil inson tasviriga alohida e’tibor qaratib kelgan. Lekin sobiq sho‘ro adabiyotida bu timsol tasviriga kerakli va zarur ahamiyat berilmadi. Ruhiy kamolotga chorlov o‘rnini, nafsga qarshi kurash o‘rnini dunyoviy kurash manzaralari ishg‘ol etdi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, xususan, 90-yillarda o‘zbek adabiyotida komil inson obrazini yaratishga intilish kuchaydi. Bu borada dostonchilikning ahamiyati sezilarlidir.

6. Zamonaviy doston sujeti o‘zining janr imkoniyatlariga muvofiq barcha adabiy turlarning sujet qurilishidan foydalanishi mumkin. Biroq bu sujetda lirikaga xos xususiyatlar ustivorlik qiladi. Doston markazida lirik “men” turadi. Shu bois bugungi doston sujetini “shoir o‘ylarining sujeti” deyish mumkin.

7. Doston va epiklik ajralmas istilohlardir. Doston deyildimi, unda o‘z-o‘zidan epiklik mavjud degan xulosa kelib chiqadi. Davriy o‘zgarishlar dostonlardagi bu epiklikning turli shakllarini yuzaga keltirdi. Ilgari dostonlardagi epiklikni bir qahramon taqdiri bilan bog‘liq voqeahodisalar tizimi yuzaga chiqargan bo‘lsa, bugungi kunda bu epiklikni voqeahodisalar, faktlar, hatti-harakatlarning ruhiy tahlili yuzaga chiqarmoqda.

8. Doston kompozitsiyasi o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Liro-epik va dramatik dostonlar kompozitsiyasi epik tur janrlari kompozitsiyasiga yaqin turadi. Lirik doston kompozitsiyasi esa lirik xarakterga ega. Shuningdek, lirik doston kompozitsiyasini tuzishda muxammas, g‘azal, ruboiy, fard, qit’a, masnaviy singari she’riy janrlardan foydalanilmoqda hamda turli-tuman hayotiy epizodlarni montaj qilish orqali doston yaratish an’anasi shakllandiki, bu lirik “men” pozitsiyasini belgilashda muhim rol o‘ynamoqda.

9. Fabula antik va o‘rtasralar adabiyotida janr ma’nosida qo‘llanilgan. Hozirda adabiy kategoriya sifatida ishlatilmoqda. Voqeahodisalarning xronologik tartibdagilizchil bayoni fabula hisoblanadi. Bugungi dostonda voqeahodisalarning izchil bayoni kamdan-kam uchrashini hisobga olsak, unda tugallanmagan fabula mavjudligini hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

10. Bugungi dostonda odam va olamni falsafiy tahlil etish fazilati kuchaymoqda. Lirik dostonlarda bu fazilat metaforik ko‘rinishda aks etsa,

liro-epik va dramatik dostonlarda folklor ohanglari ta'sirida sezilarli tus olmoqda. XX asrning birinchi yarmi o'zbek dostonlarida epik falsafiylik muhim o'rin tutgan bo'lsa, ikkinchi yarmida lirik falsafiylikning salmog'i oshdi.

11. Tasavvuf ohanglariga murojaat komillik g'oyasini kun tartibiga olib chiqdi. Xalq va Vatan taqdiriga kuyunchaklik, milliy va diniy qadriyatlarga ehtirom, o'zlikni tinglash va anglashga intilish, Haq va haqiqatning abadiyligiga ishonch komillikning muhim mezonlari sifatida talqin etila boshlandi.

12. Lirik, liro-epik, dramatik dostonlarning barchasida lirika sifatlari etakchilik qiladi. Ammo bu dostonning qadimiy an'anasi – xalq hayotining kengqamrov epik manzarasini tasvirlashiga monelik qilmaydi. Bugungi dostonda epik manzaralar lirika vositasida aks ettirilmoqda. Tuyg'ular, xayollar, o'ylar doirasining kengligidan, mushohada va tahlillarga boyligidan obyektiv olam manzaralari namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda bugungi dostonni lirik epos demoq mumkin.

13. Dramatik dostonlarda dramatik turning shakl ko'rinishlari ustunlik qilsa-da, biroq bu uning dramatik turga mansubligini anglatmaydi. Zamonaviy dramatik doston ham janrning o'zga ichki ko'rinishlari singari lirika talablariga bo'ysunadi. Dramatik dostonlardagi dramatik holatlar, konfliktlar lirikaga xos tarzda ro'yobga chiqadi va shu tarzda hal etiladi.

14. Bugungi dostonning bosh qahramoni shoirning o'zidir. Asarning jami unsurlari lirik "men" atrofida uyushadi. Shoир o'ylari bayonida namoyon bo'lувчи xarakterlar muallif o'y-xayollar salmog'ini, zalvorini va bardavomiyligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu obyektiv xarakterlar lirik "men"ning makon va zamon behududligidagi tarixiy ko'rinishidir.

15. Vazn, turoq, qofiyaning bugungi dostonda erkin qo'llanishi ko'ngil sadolarini teranroq tinglashda va anglashda, unda kechgan va kechayotgan kechinmalar suvratini chizishda qo'l kelmoqda.

Dostonning bugungi davr qiyofasini qorishiq, universal, sintetik she'riy shakl belgilari tayin etadi.

16. Doston janrining muhtashamligi va kengqamrovligi uning asosidagi konfliktda batafsillikni ham, shiddat bilan rivojlanishni ham, ehtiroslar va his-tuyg'ular qurshovida o'sishni ham rad etmaydi. Faqat u ichki ko'rinishda, "ichki qobiq"da kechmog'i shart.

17. Lirik asos kuchayganligi tufayli butun asar davomida tasvir o'z keskinligi va shiddatini saqlab qoladi. Natijada doston so'ngida tayyor xulosalarga kelinmaydi, xotima ochiq qoladi. Echim kitobxonning e'tiboriga havola etiladi.

18. Bugungi doston qurilishi XX asrgacha yaratilgan dostonlar qurilishidan keskin farq qiladi. Janr shaklu shamoyilidagi o‘zgarishlar hanuz davom etmoqda. Bugungi o‘zbek dostoni sharqu g‘arb adabiyotining turli xil oqimlaridan oziqlanib turgan bo‘lsa-da, ammo u o‘zining milliy sarchashmalari an’analariga sodiq qoldi va unga yangi ohanglar baxsh etdi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adabiy turlar va janrlar. III tomlik. 1-t. – T.: Fan, 1991. - 384 b.
2. Adabiyot nazariyasi. II tomlik. 1-Tom. Adabiy asarda konflikt. – T.: Fan, 1978. -B. 208-232.
3. Aristotel. Poetika. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.-152b.
4. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1975.-416
5. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – T.: O‘zdavnashr, 1955. - 510 b.
6. Boboev T. “Adabiyotshunoslikka kirish” kursidan o‘quv metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1979. -288 b.
7. Boboev T. She’r ilmi ta’limi. – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1996. 344 b.
8. Valixo‘jayev B. O‘zbek epik poeziyasi tarixidan. - T.: Fan, 1974.-244 b.
9. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. Adabiy o‘ylar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. -224 b.
10. Gorkiy M. Adabiyot haqida. Adabiy-tanqidiy qarashlar. – T.: O‘zadabiynashr, 1962. -352 b.
11. Yoqubov H. Adibning mahorati. – T.: Fan, 1966.-240 b.
12. Jumaboeva J. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. DDA. – Toshkent: AN, 2000.-38 b.
13. Ibrohimov M. O‘zbek balladasi. – T.: Fan, 1978. -200 b.
14. Ibrohimov M. O‘zbek sovet poeziyasi janrlarining tarkib topishi. – T.: Fan, 1983. -224 b.
15. Kamol J. Doston mas’uliyati G‘G‘ Haqiqat ijod bayrog‘i. – T.: 1986. –B.122-132.
16. Kamol J. Lirik she’riyatda kompozitsiya. – T.: Fan, 1983.-96 b.
17. Karimov N. Urushdan keyingi davr o‘zbek sovet adabiyoti. – T.: Fan, 1982.-160 b.
18. Karimov N. Hamid Olimjon. – T.: Yosh gvardiya, 1979.-174 b.
19. Mamajonov S. Poemada inson va zamon G‘G‘ Ranglar va ohanglar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.-B. 100-131.
20. Mamajonov S. Shoir va grajdanin G‘G‘ Teranlik. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. -B. 181-189.
21. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. – T.: O‘zdavnashr, 1963. - 208 b.

22. Mirzazoda X. Ta’rxi adabiyoti tochik. -Dushanbe: Maorif, 1989.-424 s.
23. Mirzaev S. Hayot va adabiyot. Ilmiy asarlar. – T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 2001. - 304s.
24. Muxtor A. Yosh do’starimga. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.-160 b.
25. Musulmoniyon R. Nazariyai adabiyot. – Dushanbe: Maorif, 1990.-336 s.
26. Muhammadiev H. Dostoni falsafy yo falsafai doston. E’chozi hunar. – Dushanbe: Adib, 1992. -S.292-432.
27. Mo’minov G’. Hozirgi o’zbek dostonchiligidagi uslubiy izlanishlar G‘G‘ Janrlar tipologiyasi va uslub rang-barangligi. – T.: Fan, 1983. -B. 134-154.
28. Navoiy A. Muhokamatul-lug‘atayn. O’n besh tomlik, o’n to’rtinchini tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. -B. 103-133.
29. Nasafiy Shayx Aziziddin. Komil inson G‘G‘O‘AS, 1992. 14 avgust, №-33.-B.4.
30. Nazarov B. Davr va qahramon G‘G‘ O‘zbek adabiy tanqidchiligi. –T.: Fan. 1979. –B. 199-235.
31. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. – T.: Yosh gvardiya, 1985. –224 b.
32. Normatov U. Janr imkoniyatlari. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. -B.12-18.
33. Normatov U., Hamdam U. Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji G‘G‘ JA, 2002, dekabr. –B. 142-166.
34. Normatov U. “Shum bola”: mafkuraviy-siyosiy tazyiq va ruh erkinligi G‘G‘ JA, 2003, №5. -B. 31-36.
35. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Adabiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.-224 b.
36. Otaxonova X. Tahavvuli janri doston dar nazmi muosiri tojik. – Dushanbe: Donish, 1983.-264 s.
37. Ochil E. Farhod-komil inson G‘G‘ Tafakkur. 2000. №-3.-36-42 b.
38. Razzaqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1980. -360 b.
39. Rasulev X. O‘zbek epik she’riyatida xalqchillik. –T.: Fan, 1973. -148b.
40. Rasulov A. Tanqidning yuksak burchi G‘G‘ Haqiqat – ijod bayrog‘i. –T.: 1986. –B.249-259.

41. Rasulov A. Tarix. Falsafa. Roman G‘G‘ JA, 2003, sentyabr. – B.154-165.
42. Rahimjonov N. O‘zbek sovet adabiyotida poema. – T.: Fan, 1986.-176 b.
43. Rahimjonov N. Lirik poema. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T.: AN 1975.-150 b.
44. Rahimjonov N. Asqad Muxtor poetikasi. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003, -72 b.
45. Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. – T.: Fan, 1979.-190 b.
46. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi G‘G‘ O‘zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B. 97-149.
47. Sarimsoqov B., Xalilov T., Qurbonboev B. G‘G‘ Saida Zunnunova. O‘zbek adabiyoti. Darslik-majmua. – T.: O‘qituvchi, 1993. - B.170-181.
48. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. –T.: Fan, 1986. –216 b.
49. Safarov O., Yo‘ldoshev B., Axmedova Sh. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. –Buxoro: BuxDU nashri, 2003. –284 b.
50. Soatova N. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida epik tasvir an’analari G‘G‘ NDA. – T.: 2001.-26 b.
51. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. -408 b.
52. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. Turk tilidan N.Hasan tarjimasi. – T.: Fan, 1999.-184 b.
53. To‘raev D. Badiiy talqin yo‘llarida. –T.: Yozuvchi, 1994. –47 b.
54. To‘raev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. –T.: Universitet, 2001.–166 b.
55. To‘ychiev U. Lirik tur belgilari G‘G‘ Adabiy turlar va janrlar. III jildlik. 2 -jild. – T.: Fan, 1992. B.-4-61.
56. To‘ychiev U. Ahmad Yassaviy va o‘zbek she’r tuzilishi G‘G‘ O‘TA, 1999, №-2. -B. 15-18.
57. To‘lakov I. Nurli manzillar. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: O‘zbekiston, 1992.-128 b.
58. To‘lakov I. Hozirgi o‘zbek lirikasida davr va qahramon talqini. DDA. – T.: AN, 1994.-46 b.
59. Umurov H. O‘zbek romanchiligidagi badiiy psixologizm. – T.: O‘qituvchi, 1980. -96 b.
60. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Samarqand: SamDU, 2001.-260 b.
61. Umurov H. Adabiyot qoidalari – T.: O‘qituvchi, 2002. -208 b.

62. Xayrullaev M., Ortiqov A. Moziydan sado, kelajak chorlovi G‘G‘ O‘AS, 2000, 15-sentyabr. -B.3.
63. Xudoyberganov N. Seni o‘yayman, zamondosh. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. –296 b.
64. Xudoyberganov N. O‘z dunyosi, o‘z qiyofasi.-T.:Yosh gvardiya, 1986. –208 b.
65. Xudoyberganov N. Ishonch. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. –247 b.
66. Sharafiddinov O. Poema va qahramon G‘G‘ Zamon, qalb, poeziya. – T.: O‘zadabnashr, 1962.- B.133-170.
67. Sharafiddinov O. Mag‘zi puch so‘zlardan bir tosh nari qoch G‘G‘ – O‘AS, 2000, 15 sentyabr.-B. 3.
68. Shukurov N. Uslublar va janrlar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. -170 b.
69. Shukurov N. Bu olam sahnida. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992. -248 b.
70. Shukurov N., Hotamov A., Xolmatov Sh., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1979.- 272 b.
71. Entsiklopedik lug‘at. Ikki tomlik. 1-Tom. – T.: O‘zbek sovet entsiklopediyasi bosh tahriri, 1988.-560 b.
72. Entsiklopedik lug‘at. Ikki tomlik. 2-tom. – T.: O‘zbek sovet entsiklopediyasi bosh tahriri, 1990.-544 b.
73. Eshbek Y. “Sen” dostoni xususida G‘G‘ Yoshlik. - 1996, №-6. - B. 25.
74. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tomlik, 2-tom. Z.M. Ma’rufov tahriri ostida. – M.: Rus tili, 1981.-715 b.
75. Qarshiboev M. Ruhning mangu qo‘ng‘irog‘i G‘G‘ Kamalak. – T.: Yosh gvardiya, 1990. -B. 155-180.
76. Qayumov A. XX asr “Xamsa”si. – T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni bosh tahriri, 2000.-34 b.
77. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. – T.: Toshkent, 1965.-B. 11-23.
78. Quronov D. Ikki roman - ikki talqin G‘ G‘ Yoshlik, 1991. № 6. – B. 28-32.
79. G‘afurov I. Lirikada inson xarakterlari G‘G‘ Lirikaning yuragi. – T.: Yosh gvardiya, 1982. -B. 3-21.
80. Haqqul I. Irfon va idrok. – T.: Ma’naviyat, 1998.-160 b.
81. Haqqul I. She’riyat. Ruhiy munosabat. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.-240 b.

82. Hasanov I. Ikki qissa – bir hissa G‘G‘ Sharq yulduzi, 1991. №9. - B 86.
83. Hasanov Sh. O‘zbek dramatik dostoni. –Samarqand: So‘g‘diyon nashriyoti, 1997. –142 b.
84. Homidiy X., Abdullaeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – T.: Fan, 1967. -55 b.
85. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: Fan, №-983. - 256 b.

### **Badiiy adabiyotlar**

86. Azimov U. Ko‘zgu. She’rlar va dramatik doston. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.-104 b.
87. Azimov U. Uyg‘onish azobi. She’rlar, dramatik qissa. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.-320 b.
88. Afoqova A. Bahorning boshlanishi. She’rlar va doston. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 1997.-106 b.
89. Ahmedov T. Chorbakr. She’rlar. Dostonlar. – T.: Yangi asr avlodи nashriyoti, 2000.-176 b.
90. Ashur S. Siz ertaga kelasiz. She’rlar va dostonlar. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 2000.-152 b.
91. Ahmad T. Moziy saboqlari. Doston G‘G‘ Yozuvchi, 2001, 15 dekabr.-B 3-8.
92. Ahmedov B. Mirzo Ulug‘bek. Badia. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: Yozuvchi, 1994. -418b.
93. Boyqobilov B. Yangi Xamsa. – T.: Sharq nashriyot matbaa kontserni, 1998.-544 b.
94. Boyqobilov B. O‘zbeknoma. – T.: Sharq nashriyot matbaa kontserni, 1999.-848 b.
95. Vohidov E. Muhabbatnoma. Saylanma. 1t. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. -520b.
96. Vohidov E. Sadoqatnoma. Saylanma. II t. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.-528 b.
97. Davron X. Uchib boraman qushlar bilan. She’rlar, dramatik doston. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. -88 b.
98. Jo‘ra T. Sanduvoch. She’rlar va dramatik doston. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.-122 b.
99. Zulfiya. Xotira siniqlari G‘G‘ Saodat. №5, 1995. -B. 8-14.

100. Ibrohim Adham qissasi. Xalq kitoblari. – T.: Yozuvchi, 1991. - 208 b.
101. Kamol J. Dostonlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.- 136 b.
102. Kamol J. Rajab Ashurov dostoni. Doston. – T.: Yosh gvardiya nashriyoti, 1989. -72 b.
103. Martsinkyavichyus Yu. Mindaugas iztirobi. Dramatik doston. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.-194 b.
104. Matjon O. Iymon yog'dusi. She'rlar, dostonlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.-384 b.
105. Matjon O. Erkin havolarda. Saylanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. -360 b.
106. Matjon O. Ming bir yog'du. Doston va she'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.-176 b.
107. Matjon O. Gaplashadigan vaqtlar. She'rlar, doston-xronika, she'riy qissa. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. –200 b.
108. Mahkam A. Haq. Saylanma. – Dushanbe: Adib. 1998.-512 b.
109. Mahkam A. Ishq. – T.: Cho'lpon, 1993. -64 b.
110. Mirtemir. Surat. O'zbek adabiyoti, 8-sinflar uchun. – T.: O'qituvchi, 1993. -B. 135-144.
111. Muxtor A. Yillarim. She'rlar va doston. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 1990.-184 b.
112. Murod Tog'ay. Otamdan qolgan dalalar. Roman. –T.: Sharq, 1994.-272 b.
113. Muxtor Omon. Ayollar mamlakati va sultanati. Roman. – T.: Sharq, 1997, -240 b.
114. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 8-Tom. Farhod va Shirin. – T.: Fan, 1991. -544 b.
115. Navoiy A. Hayratul-abror. Mukammal aasarlar to'plami. Ettinchi tom. – T.: Fan, 1991 -392 b.
116. Nizom T. Saylanma. She'rlar, dostonlar, ruboiylar. – T.: "Sharq", 1998.-384 b.
117. Oripov A. Jannatga yo'l G'G' Najot qal'asi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.-B. 55-109.
118. Oripov A. Ranjkom G'G' Sharq yulduzi, -1989. №-1. B. 3-20.
119. Otamurod I. Sen. – T.: Qatortol-kamolot, 1999.-80 b.
120. Otamurod I. Istarim G'G' Yoshlik, №3, 1998.-B. 19-23.
121. Otamurod I. Yobondagi yolg'iz daraxt G'G' Sharq yulduzi. - 2000. №-3-4. -B. 42-68.

122. Oybek. Asarlar. 10 tomlik. t 2. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. –272 b.
123. Rabg‘uziy Nosiruddin. Qisasi Rabg‘uziy. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1990. -240 b.
124. Rahimboeva Q. Uyg‘onish fasli. She’rlar, doston. – T.: Yosh gvardiya, 1989. -72 b.
125. Rahimboeva Q. Tavba. G‘G‘ Sharq yulduzi, 1991. № 3,4.-B.23-35; 16-21.
126. Sa’dulla Habib. Jarohat G‘G‘ O‘AS, 1999. № 14. -B.4.
127. Faxriyor. Dardning shakli. She’rlar va doston. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 1997.-64 b.
128. Faxriyor. Ayolg‘u. She’rlar, dostonlar. – T.: Sharq, 2000. -256 b.
129. Xorazmiy. Muhabbatnoma. Navoiyning nigohi tushgan. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. -B. 41-69.
130. Cho‘lpon E. Ko‘zgudagi qiz G‘G‘ Sharq yulduzi. -1999, №-1.-B. 73-92.
131. Shukur E. Ibtido xatosi G‘G‘ Sharq yulduzi. -1991, №-5. B.8-17.
132. O‘zbek xalq dostoni. Alpomish. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 1999. -200 b.
133. Qutbiddin A. Baxtli yil. She’rlar va doston. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.-136 b.
134. Qo‘chqor U. Og‘ir karvon. She’rlar va doston. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.-B. 92-126.
135. G‘ulom G‘. Mukammal asarlar to‘plami. 11 t. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. -B. 21-24.
136. Yusuf M. Saylanma. She’rlar, dostonlar. –T.: “Sharq”, 2004, -288 b.
137. Hasanov I. Biri kam dunyo. Saylanma.–Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2004.-254 b.

Hasanov Shavkat Ahadovich

HOZIRGI O'ZBEK DOSTONI POETIKASI

Monografiya

ISBN 978-9910-786-07-5

Muharrir: Rahimova Gulbahor

Musahhih: Usmanova Zarina

Tex.muharrir: Abduraximov Shoxjahon

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti  
140104, Samarqand sh., Bo'ston saroy ko'chasi, 93

Nashriyot tasdiqnomasi:

№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi

№ 8376-525f-572d-f37b-0fd6-3529-7957

Bosishga ruxsat etildi: 24.01.2024-yil.

Qog'oz bichimi 60×84<sub>1/16</sub>. “Times New Roman” garniturasi.

Raqamlı bosma usulda bosildi. Hisob-nashriyot t.: 12,6.

Shartli b.t. 10,9. Adadi 100 nusxa. Buyurtma №73.

---

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo'limida chop etildi.

Manzil: 140104, Samarqand sh., Bo'ston saroy ko'chasi, 93-uy.